

R.Z.Djumayev, D.I.Madaminova, X.I.Mustapova, B.S.Suyunova

**S I Y O S I Y
T A H L I L**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

R.Z.Djumayev, D.I.Madaminova, X.I.Mustapova, B.S.Suyunova

**S I Y O S I Y
T A H L I L**

*(5120700- Jahon siyosati bakalavriat ta'lif yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar
uchun o'quv qo'llanma)*

TOSHKENT

«2020»

“Siyosiy tahlil” fani jahon siyosati ta’lim yo‘nalishida tahsil oluvchi talabalar uchun ko’zda tutilgan hamda mazkur mutaxassislik bo‘yicha asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Bu fanning zaruriyati zamonaviy xalqaro munosabatlarda Markaziy Osiyo mintaqasi va butun dunyoda kechayotgan siyosiy jarayonlarni kuzatib borish, monitoring va tahlil qilishdan iborat. O‘zbekiston Respublikasining geosiyosiy va geostrategik manfaatlarini, ularning keng ko‘lamli mohiyatini mintaqaviy va global miqyosda o‘rganish alohida ahamiyatga ega. Shu boisdan, xalqaro munosabatlar tizimida sodir bo‘layotgan voqeа-hodisa va siyosiy jarayonlarning mazmun-mohiyatini o‘rganish va tahlil etish talab etiladi. O‘quv qo‘llanma namunaviy dastur va ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi asosida tuzilgan.

Tuzuvchilar: s.f.d., prof. Djumayev Rustam Ziyatovich
s.f.n. Madaminova Durdona Iskandarovna
katta o‘qit. Mustapova Xilola Islamovna
o‘qit. Suyunova Barno Safarali qizi

Taqrizchilar: s.f.d., prof. Idirov Ulug‘bek Yusupovich
s.f.d., dots. Muhammadsidiqov Muhammadolim
Muhammadroziq o‘g‘li

Ma’ruzalar matni fakultet O‘UK majlisining yildagi - sonli majlisida muhokama qilingan va tasdiqqa tavsiya etilgan.

KIRISH

Hozirgi zamon siyosat fanining ikki jihatini ko'rsatish mumkin: nazariy va amaliy. Nazariy qismda siyosiy olamning umumiy funksional qonuniyatları va uni o'zgartirish vositalari, yo'nalishlari o'rganilsa, amaliy qismda hozirgi siyosiy amaliyotda dolzarb muammolarni yechish vosita va uslublari ishlab chiqiladi. Ayni paytda, amaliy qismning muhim xususiyatlarga ega bo'lishiga qaramasdan, ilmiy siyosatshunosligimizda bu masalaga kam e'tibor berilmoqda.

Siyosiy va amaliy tahlil jarayoni professional siyosatshunoslik bilan bog'liq bo'lib, unda siyosiy vaziyatga baho berish, siyosiy istiqbolni belgilash va muhim siyosiy qarorlar qabul qilish muammolari yoritiladi. Davlat organlarida tahlil qilish malakasiga ega bo'lgan kadrlarga ehtiyoj tobora o'sib bormoqda, chunki yildan – yilga boshqaruv qarorlarini qabul qilishda maqsadli tahlil tizimidan ilmiy-amaliy foydalanishning ham ahamiyati ortmoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek, "Biz O'zbekiston tashqi siyosatini faollashtirish yuzasidan boshlangan keng ko'lamli ishlarni, milliy manfaatlarimizga javob beradigan, ochiq, pragmatik va chuqur o'yangan tashqi siyosat yo'lini davom ettiramiz"¹. Bu borada davlatimiz tomonidan kadrlarni tayyorlashga jiddiy e'tibor qaratilayotganligini yuqoridaagi fikr tasdiqlaydi. Siyosiy tadqiqotchilikda fundamental yondoshuvlar bilan bir qatorda amaliy tadqiqotchilik ham muhim o'rinni tutadi. Chunki unda kundalik siyosiy jarayon tahlil etib boriladi.

"Tahlil" yoki "Tahlilshunoslik" iboralari va tushunchasi, uning ahamiyati va samarasi haqida, keyingi vaqtarda iqtisod, siyosat, ma'naviyat va mafkura sohalarining vakillari tomonidan ko'p martalab ta'kidlanmoqda, chunki ushbu masala jamiyat hayoti va boshqaruvida muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Boshqaruv tizimida tahlil asoslari fanini o'qitish, ushbu yo'nalishdagi xorijiy mutaxassislarining xulosalari, ilmiy-tadqiqotlari va davlat xizmati tizimida olib borilayotgan ishlar jarayonida olingan ma'lum tajribalar va malakalar asosida siyosiy va siyosiy tahlilning quyidagi bir qator vazifalarini bayon etish mumkin:

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси// Халқ сўзи. 2020 ийл 25 январь. № 19 (7521).

- bu ichki siyosiy va tashqi siyosiy voqealar, vaziyatlar, jarayonlarni tahlil etish tizimi;
- bu o‘ziga xos tahlil tizimi yordamida siyosiy vaziyatlar rivojlanishini bashorat (prognoz) qilish mumkin;
- bu siyosiy sohada u yoki bu qarorlarni qabul qilishda tavsiya beruvchi tahlil tizimi hisoblanadi.

Umuman olganda, “**siyosiy tahlilchiklik – bu siyosiy sohada ma’lum holatlar, voqealarni tahlil qilish tizimi bo‘lib, uning yordamida mavjud vaziyatlarda oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish mumkinligi**” ta’minlashi bilan xarakterlanadi

Siyosiy amaliyot tahlili imkoniyatlarini hisobga olmaslik siyosatchilar faoliyatida, xususan, muhim siyosiy qarorlar qabul qilishda, turli vaziyatlarda optimal yondashuvlarning yuzaga kelishida, siyosiy istiqbolni belgilashda, siyosiy hujjatlarni shakllantirishda va ba’zi siyosiy institatlarning yashovchanligini ta’minlay olmaslik borasida talay kamchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Bularning barchasi siyosiy qaror qabul qilish tizimini takomillashtirishni taqozo etadi. Ushbu masalani oqilona hal qilishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida siyosiy tahlilni ko‘rsatish mumkin. **Siyosiy siyosiy tahlil bu – muayyan siyosiy voqelik va siyosiy vaziyatni o‘rganish vositasida ishlab chiqiladigan turli ilmiy uslublar majmui, oqilona siyosiy qarorlar qabul qilish uchun takliflar majmuini ishlab chiqish jarayonidir.** Aynan siyosiy tahlil amaliy siyosatning tarkibiy qismi sifatida siyosiy faoliyatni takomillashtirishda keng imkoniyatlar yarata oladi.

Hozirgi sharoitda siyosiy tahlil ana shunday amaliy tavsiyalarni bera oladi. Shu o‘rinda ikki masalaga e’tibor qaratish lozim: birinchidan, amaliy siyosatshunoslik imkoniyatlarini o‘rganish; ikkinchidan, siyosiy amaliyotda qo‘llash uchun siyosiy tahlil uslublarini ishlab chiqish. Mazkur qo‘llanmada ushbu sohaga oid tushuncha va iboralar, ta’limot va yondashuvlar, shuningdek, siyosiy tahlil uslublari, manbalari va yo‘nalishlari xususida mulohaza yuritiladi.

Ma’ruza № 1. “SIYOSIY TAHLIL” FANINING MAZMUNI, PREDMETI VA METODI

Reja:

1. Siyosiy tahlilning mohiyati va xususiyatlari
2. Siyosiy tahlilning asosiy maqsadlari
3. Siyosiy tahlil metodlari
4. Siyosiy tahlil darajalari
5. Siyosiy tahlil bosqichlari

O‘quv mashg‘ulotning maqsadi: Siyosiy tahlilning mohiyati va asosiy xususiyatlari, ularning metodlari, darajalari, shuningdek ularning bosqichlari haqida ma’lumot olishdan iborat.

Tayanch so‘z va iboralar:

- Siyosiy tahlil
- Buyurtmachi
- Situatsion
- Tizimli tahlil
- Diskret
- Operatsionallashuvi
- Ivent-tahlil
- Aqliy hujum
- Deskriptiv tahlil

Siyosiy tahlilning mohiyati va xususiyatlari

Siyosat sohasidagi aniq vazifalarni yechimini topish, insonlar uchun maqsadga erishishning muqobil usul va texnologiyalarini izlash zaruriyati siyosiy xodisalarni tushunish va o‘rganishning alohida yondashuvini ko‘zda tutadi. Nazariy siyosatshunoslikning siyosiy hodisalar xususiyatlari va ta’rif-tavsiflarining mohiyatini aniqlash, ular o‘rtasidagi prinsipial aloqa va munosabatlarini ochib ko‘rsatish,

rivojlanishning g‘oya va qonuniyatlarini asoslab berishga qaratilgan yondashuvlaridan farqli o‘laroq, mazkur yondashuv amaliy masalalarning yechimiga qaratilgan va o‘ziga xos xususiyatlariga ega. Umuman olganda siyosiy qarashlarning "texnologik" yo‘naltirilgan shakl va xilma-xil turlari, siyosiy hodisalarning o‘xshashlik va farqli tomonlari haqidagi tasavvurlarni yagona tizimga soluvchi bilimlarining shakllanishi va ishlab chiqilishiga emas, balki siyosiy maydondagi amaliy va aniq vazifalarni yechishdagi mavjud ilmiy-nazariy potensialdan tadbiqiy foydalanishga qaratilgan. Yuqoridagilarni tushunish va baholashda, nazariy g‘oyalar bilan bir qatorda, to‘plangan amaliy tajribalar, shunga o‘xshash vazifalarni yechish bo‘yicha olingan bilim va ko‘nikmalar, intuitsiya va insonning boshqa metodologik tasavvurlari ham muhim o‘rin tutadi. Qisqacha qilib aytganda, tadbiqiy soha, qandaydir umumiyligi nazariy xulosalardan foydalanmasdan turib ham to‘plangan amaliy tajribalar doirasida o‘z xulosalarini chiqarishi mumkin. Tadbiqiy siyosiy izlanishlarning bunday maxsus mo‘ljallanganligini nazarda tutadigan bo‘lsak, aynan u siyosiy hayotni tushinishda, insonning siyosiy hayotdagi faoliyatini san’atning bir turi sifatida munosabatda bo‘lishga majbur qiluvchi alohida bir rakurs beradi.

Tadbiqiy bilimlarda qo‘llaniladigan siyosiy hodisalarni tadqiq etishning usul va metodlari real siyosiy jarayonlarni, turli subyektlarning harakatini va ularning o‘zaro munosabatlarini o‘rganishga qaratilgan *siyosiy fanning maxsus tarmog‘ini* shakllantiradi. Shunga ko‘ra butun tadbiqiy siyosatshunoslik sohasi, jamoatchilik fikri ni qozonishga intiladigan, texnik ta’minot, turli bilim ko‘nikma va ma’lumotlarga ega bo‘lgan shaxslar siyosiy faoliyatining turli hislatlari va chegaralarini ta’riflaydi. Bu soha xalqning siyosiy xohish-irodasini (lider va partiyalarning reytinglari shaklidagi), ularning inqiroz yoki boshqa hollardagi hukumatning xatti-harakatiga munosabatlarini va boshqa holatlarni aniqlashda muhim vosita hisoblanadi.

Jamoatchilik fikrining hokimiyatning eng muhim qismi sifatidagi ahamiyati qadim davrlardayoq namoyon bo‘lgan. Masalan, Protagorning fikriga ko‘ra butun jamiyatning "jamoatchilik fikri" yolg‘ondan haqiqatni ajrata oladi. Shunga ko‘ra u fuqarolik jamiyatida faqatgina axloqiy-huquqiy kuchlar manbasinigina emas, ijtimoiy tartibot o‘rnatalishining qonuniyligini ham ko‘ra olgan. Jamoatchilik fikriga katta ahamiyat

bergan Suqrot esa "ko‘pchilik fikri"dan ko‘ra haqiqatga yaqinroq "donishmandlar fikri"ga urg‘u bergan. Xuddi shu nuqtai nazarni Platon ham qo‘llab-quvvatlagan. U jamoatchilik fikrining asosiy subyekti sifatida aristokratiyani o‘rgangan. Platon jamoatchilik fikrini, jamiyatda "subyektiv erkinlik formulasi" mavjudligi yordamida hokimiyatga tegishli veto qo‘llay olgan va "mos keladigan" yakka tartibdagi muhokamalarga bog‘lagan. XII asrda yashab o‘tgan ingliz shoiri va davlat arbobi D.Solsberi xalq tomonidan parlamentni ma’naviy qo‘llab quvvatlashni anglatuvchi yangi maxsus atama "public opinion"ni fanga kiritdi.

Jamoatchilik fikrining nisbatan konseptuallashgan nazariyasi XX asrning 50-60 yillariga kelibgina shakllandi. Turli siyosiy institatlarning jamoatchilik fikrining o‘zaro ta’sirini aniq, ta’riflashga doimiy urunib kelganlariga qaramay, olimlar mazkur fenomen bo‘yicha yagona fikrga kela olmadilar. Nazariyada, asosan, u jamiyatning ijtimoiy-psixologik holati yoki ma’naviy-axloqiy belgilarning majmui yoki baholash strukturası sifatida ta’riflanadi. Shu o‘rinda jamoatchilik fikrining subyekti masalasi aniqlanadi.

Masalan, Y.Xabermas jamoatchilik fikri deganda ma’lumotli va jamoatchilikka ega insonlar va siyosiy nuqtai-nazarning ahamiyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi guruhlar qarashlarining o‘zaro munosabatlarini tushungan. Y.Xabermas jamoatchilik fikrinining alohida subyektlari mavjud emas, aytilgan fikrlar esa turli manfaatlarga ega insonlarning e’tiborini qaratgan yetakchi mavzuni anglatadi deb hisoblagan. Nemis tadqiqotchisi E.Noyel-Noyman xonim jamoatchilik fikrini faqatgina hukumatni qo‘llab quvvatlash emas, balki turli qarashlar, insonlarning passivlik, yoki oppozitsionlik, yoki izolyatsiyada bo‘lishni ma’qul ko‘rish ("sukut saqlash spirali") kabi sabablar bois gapirmasliklari bilan baholashlarining majmui sifatida ko‘rib chiqqan.

Agar fanda vujudga kelgan barcha yondashuvlarni ratsional umumlashtirganda, jamoatchilik fikri - ommaning turli siyosiy jarayonlar (davlat hokimiyatidagi o‘zgarishlar)ga ta’sir o‘tkazuvchi kayfiyatining holati degan xulosaga kelish mumkin. Bu nuqtai nazardan u hokimiyatning xalq manfaatlari markazi elementi, fuqarolar uchun o‘tkir va muhim muammolarni hal qilish mexanizmi hisoblanadi. Tarkibiy nuqtai nazardan jamoatchilikchilik fikri - bu butun ommaviy anglash emas, faqatgina uning cho‘qqisi, biror bir guruhni birlashtiruvchi baholashlar va ko‘rsatmalar majmuidir.

Ruhiy iqlimni shakllantirib, jamiyatdagi siyosiy atmosferaga ta'sir ko'rsatuvchi mazkur baholashlar hokimiyatni egalari uchun siyosiy mazmun va mohiyatiga ega.

Umuman, jamoatchilik fikrining ijtimoiy manfaatlarini ko'rsatishning siyosiy mexanizmlari siyosiy jamoatchilik fikri sifatida paydo bo'lishi, demokratiya va fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi natijasi hisoblanadi. Jamoatchilik fikri strukturasidan ham ommaviy, ham mahalliy nuqtai nazarlar o'rinn egallashi mumkin.

Ularning vujudga kelishi va o'zaro munosabati jamiyatdagi raqobatlar darajasi, siyosiy prezентatsиyaning mexanizmlari mavjudligi, jamiyatdagi insonlarning o'z holat va qarashlarning umumiylashuviga e'tiroz bildirishlarning mavjudligiga bog'liq bo'ladi. Jamoatchilik fikrining obyekti sifatida ijtimoiy hayotdagi xar qanday akt va hodisalar, shu jumladan xalqning siyosiy ahamiyatga ega qismini o'ziga qaratuvchi siyosatchilarning chiqishlari ham namoyon bo'lishi mumkin. Shunday qilib, jamoatchilik fikri doimo ma'lum g'oya va hodisalar doirasida raqobatda bo'ladi. Bunda insonlar o'zlarining qarashlari va fikr-mulohazlarini bir necha bor o'zgartirishlari, mavjud hodisalarni o'zlarining pozitsiyalari va xulosalarini o'zgartirgan holda qayta ko'rib chiqishlari mumkin. Jamoatchilik fikrida taassub, taxlitlar juda muhim rol o'ynaydi. O'zining emotsiyon xarakteriga ko'ra u bir tomonlama bo'lib qolishi ham mumkin. Shuning uchun jamoatchilik fikri o'zining hokimiyatga qarshi harakati va fuqarolarning xohishiga ko'ra davlatni egallab olishi bilan ba'zi hollarda xavfli bo'lishi mumkin. Qoidaga binoan jamoatchilik fikrining tarkibiy qismiga ommaning kayfiyati, his-tuyg'ulari, hamda vaziyatni baholay olish va muhokama qilish kiradi.

Turli inqirozlar sharoitida maqsadlarni to'g'ri tanlay bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda tadqiqotning predmet sohasi vazifasini nazariy-fundamental fandan ko'ra amaliy-tadbiqiy sohalar amalga oshiradi, zero, tadbiqiy sohalarni davlat yoki hokimiyatning mazmuni emas, balki u yoki bu vaziyatda insonlarning xatti-harakatiga ta'sir qilish va aniq hodisalarning namoyon bo'lishi qiziqtiradi. Shunday bo'lsada, mavjud hodisalarning shunga o'xshash tahlillari natijalari fundamental nazariyalarning boyishi, yangi gipoteza, paradigma va yondashuvlarning vujudga kelishiga zamin yaratadi.

Amaliy-tadbiqiy tadqiqotlar siyosatning barcha jahbalarini emas, faqatgina davlat hokimiyatining faoliyatidagi jarayonlar uchun eng muhim amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan sohalaridagina amalga oshiriladi. Hozirgi kunda bunday sohalarga mojarolarni hal qilish va nazorat qilish, saylov va informatsion kampaniyalarni tashkil etish, siyosiy qarorlar qabul qilish, muzokaralar olib borish va boshqa bir qancha sohalar kiradi. Shunday sohalar atrofida siyosiy qarorlar qabul qilishdagi muammolarni yorituvchi (policy making), siyosiy loyihalarni yaratish va amalga oshirish (policy management), siyosiy mojarolarni hal qilish va tartibga solish (conflict management), muzokaralar olib borish va shu kabi turli sohalar ham vujudga keldi. Ularning ichida aniq siyosiy muammolarni o‘rganishning usul va bosqichlarini taklif etuvchi siyosiy tahlil (policy analysis) ajralib turadi.

Siyosiy tahlil o‘zining predmet sohasi va boshqa xususiyatlari bilan alohida maxsus tadbiqiy soha hisoblanadi. Shuning bilan birga barcha tadbiqiy sohalarning yagona tadqiqot asosi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, agarda keng ma’noda olib qaraydigan bo‘lsak ushbu so‘z birikmasi siyosatning barcha ilmiy tadqiqotlari ma’nolari uchun qo‘llanilishi mumkin bo‘lsa, tor ma’noda siyosiy tahlil aniq muammolarni o‘rganishda subyektivlik va erkinlikka asosiy to‘siq bo‘luvchi talablarni aniqlash, to‘g‘ri yechimlarni izlash va texnologiya vosita va usullarni topish bilan shug‘ulanadigan maxsus tadbiqiy soha sifatida ko‘rib chiqiladi.

Ilmiy bilimlarning amaliy sohasi sifatida siyosiy tahlilni amalga oshirish bilan alohida mutaxassislar guruhi: texnologlar, analistiklar, ekspertlar, maslahatchilar, piarmenlar (siyosiy strukturalarning jamoatchilik bilan informatsion aloqalarini o‘rnatuvchi mutaxassislar), partiya apparati xodimlari, siyosatchilarning yordamchilari, koorporativ siyosiy tuzilmalar (masalan, maslahat agentliklari), davlat boshqaruvi vakillari va Boshqalar shug‘ullanishadi. Bu guruh faoliyatining natijalari turli maslahat va tavsiyalar, bashoratlar, davlat va partiya tashkilotlari faoliyatining reja va loyihalari, boshqaruv organlari faoliyatining mukammalashuvi uchun tahliliy ma’lumotlar va aniq siyosiy muammolarning yechimini topishga qaratilgan boshqa ma’lumotlar bo‘ladi.

Siyosiy tahlilning asosiy maqsadlari (xususiyatlari)

Siyosiy tahlilning siyosiy voqealiklarni tadqiq etishning maxsus bosqichi

sifatidagi xususiyatlari bir qator sabab va vaziyatlar yordamida aniqlanadi. Amaliy bilimlarning bir ko‘rinishi sifatida, u avvalambor subyekt oldida turgan muayyan muammoni ta’riflash va o‘rganishga yo‘naltirilgan.

Shunday qilib, nazariy siyosatshunoslik predmet belgisiga asosan, biror bir siyosiy makon sohasi va bir turdagи xodisalarning mantiqiy farazini ifodalab shakllanadi. Oldinda turgan vazifalarni bajarishda u muayyan hodisalarning xususiyat va belgilari, ularning qurilayotgan obyektlarni o‘ziga xos maxsus chegara, tarqalish masshtablari va boshqa ideal tuzilgan soha belgilari mavjud qandaydir ijtimoiy birdamlikka birlashtirish imkoniyatini beradigan o‘zaro aloqalarini mantiqiy aniqlash yo‘li bilan o‘zining bilimlar binosini tiklaydi. Bunga qarama-qarshi sifatida, siyosiy tahlil aniq muayyan muammoni, ya’ni siyosiy maydondagi turli sohalarga tegishli bo‘lgan va aniq, belgilanmagan manbaa, ilova va shunga o‘xhash belgilarga ega voqelikning elementlarini tadqiq etishga qaratilgan.

Logotsentrizm asosida harakatlanuvchi va boshidan obyekt haqidagi bilimlarni shakllantirish, jamiyatdagи munosabatlar sohasidagi o‘zaro aloqa va bog‘liqliklarni izlashga qaratilgan fandan farqli o‘laroq, siyosiy tahlil obyektni tushunishning ratsioanal-soddallashtirilgan tushunchalarni ishlab chiqib va shuning uchun subektning muayyan maqsadini amalga oshirish uchun minimal miqdordagi yetarli ma’lumotlarni talab etadi xolos. Agarda fundamental fanlar obyektni tushunish, uning sirlariga chuqur va tizimli kirib borishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, tadbiqiy siyosiy tahlil o‘zining qarashlarini subyektning muayyan vazifadan nariga o‘tmaydigan talablari asosida shakllantiradi. Boshqacha so‘zlar bilan aytganda, agarda fan obyektning mantiqiy ko‘rinishini bersa, siyosiy tahlil amaliy, ya’ni subektning muayyan vazifani amalga oshirish tizimiga jalg qilinishi uchun yetarli qiyofasini ta’riflaydi. Agarda fanda hodisa belgilari diaxron - tarixiy-tadrijiy rivojlanish (ya’ni bir vaqtda va tarixiy bo‘lmagan) shaklida ko‘rib chiqiladigan kazual yondashuvga tayaniladigan bo‘lsa, siyosiy tahlil sub’ektning maqsadga qaratilgan faoliyatning tarkibiy qismi sifatidagi real vazifalarini bajarayotgan elementlarini (va ularning xususiyatlari)ni baholovchi kleologik yondashuvga asoslanadi.

Siyosiy tahlilga qo‘yiladigan muammo sifatida insonlarning hokimiyat sohasidagi o‘rni va vazifalarini amalga oshirishiga ta’sir qiluvchi har qanday ijtimoiy mojarov

qarama-qarshiliklar emas, balki jamiyat uchun ahamiyatga ega, xalqning keng qatlami manfaatlari, jamiyatning diniy qarash va qadriyatlari ifodalovchi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita boshqaruv organlari faoliyatiga ta’sir qiluvchi ma’lum muhimlik darajagasiga ega bo‘lgan masalalar namoyon bo‘lishi mumkin.

Bunday muammolarga yo‘naltirilganlik tadbiqiy siyosiy tahlilning tarkibiy xususiyatlarini ham belgilab beradi. Xususan, siyosiy sohaning raqobatli tabiatи va buning oqibatida raqobatdosh kuchlar vakillari o‘rtasidagi u yoki bu vaziyatlarning muqarrarligi va bir turdagи hodisalarning interpretatsiyasi ko‘p ma’noli xususiyatlarga ega bo‘ladi. Ya’ni, aniq vaziyatlarni baholash faqatgina analitik yoki ekspertlar tomonidan emas, siyosiy jarayondagi o‘rni va rolidan kelib chiqqan holda ko‘rsatilgan muammoni yechishi kerak bo‘lgan shaxs tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Aynan shu shaxs o‘zining manfaatlari, statusi, pozitsiyasi va vaziyatga bo‘lgan shaxsiy munosabatining boshqa muhim xususiyatlaridan kelib chiqqan holda sodir bo‘layotgan hodisalarni baholaydi hamda qabul qiladi va buning bilan muammoli va vaziyatni tashkil qiluvchi faktlar majmuini belgilaydi. Bu ma’noda u vujudga kelgan vaziyatda aniqlagan muammoni hal qilishdagi "buyurtmachi" sifatida namoyon bo‘ladi.

Boshqacha qilib aytganda, siyosiy tahlilning struktura va tarkibi faqatgina biror bir hodisaning subyekt-tadqiqotchining analitik ta’rifи oqibatida emas, balki yaqqol yoki namoyon bo‘lmaydigan "buyurtmachi" ya’ni berilgan muammoni yechishning maqsadini belgilaydigan subyektning bosimi natijasida shakllantiriladi. "Buyurtmachi"ning manfaatlari analitiklar faoliyatining strayetgiyasini belgilashning asosi hisoblanadi. Bu analitiklar, o‘z navbatida, qo‘yilgan maqsad yo‘lida vaziyatning kerak paytda o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan va "buyurtmachi"ning talablarini qondiruvchi yo‘llarini izlaydilar. Bunda texnologlardan olinadigan ma’lumotlar "buyurtmachi"ning mulkiga aylanadi va u xohishiga qarab bu ma’lumotlarni e’lon qilishi yoki sir tutishi yoki boshqa biror maqsadda foydalanishi mumkin.

Shunday qilib, "buyurtmachi" - bu vaziyatni maqsadli hal qilishning, yoki davlat hokimiyati resurslari uchun kurash ishtirokchisining ma’lum qilgan pozitsiyasiga mos ravishda muayyan xodisalar sharoitida vujudga keladigan faktlarni aniqlashning ramzi hisoblanadi. Ba’zi hollarda "buyurtmachi" va analitik tomonidan berilgan vaziyatning

iloji boricha obyektiv, shaxsiy bir tomonlama fikrlardan xoli izohlari bir-biriga mos tushishi mumkin. Ammo ko‘p hollarda siyosiy hokimiyat sohasida u yoki bu voqealarni tahlil qilish, mojarolarga manfaatdor shaxslar tomonidan ma’lum yo‘nalish va to‘g‘ri keladigan maqsadli ko‘rsatmalar berish tahliliy ish natijalaridan foydalanishning xususiyatinigina emas, butun tadqiqotning muhim vazifalarini ham aniqlab beradi.

Binobarin, texnolog-analitik ko‘p hollarda vaziyatni talqin etuvchi va unga biror maqsad doirasida ta’sir ko‘rsatishga manfaatdor alohida shaxs yoki shaxslar guruhining ehtiyojidan kelib chiqib amaliy tavsiyalarni tuzuvchi mutaxassis sifatida namoyon bo‘ladi.

Masalan, saylovlarda g‘alaba qozonishni bir xilda xohlaydigan ammo buning uchun vujudga kelgan vaziyatni har xil tahlil qilishga majbur qiluvchi turli xil manbaa va informatsion resurslar, hududlarda mavqe va boshqa pozitsiyalarga ega yetakchi va oppozitsion partiya vakillari "buyurtmachi" bo‘lishlari mumkin. Bundan tashqari davlat hokimiyati tashkilotlari va xalqning nochorroq qatlagini himoya qiluvchi ijtimoiy harakatlar vakillari siyosiy inqirozlarga turlicha munosabatda bo‘lishlari mumkin. Shuning uchun, inqiroz ba’zilar uchun - bu birinchi o‘rindagi vazifa hokimiyatni saqlab qolish va uni mustahkamlash zarur bo‘lgan vaziyat bo‘lsa, boshqalar uchun - bu o‘z hayot darajasi va boshqa ijtimoiy holatlarining muhim belgilarini saqlab qolgan yoki oshirgan holda undan chiqish kerak bo‘lgan holat hisoblanadi.

Shunday qilib, *bir* siyosiy vaziyatning tahlili *turlicha* muammolarni aniqlashi mumkin. Shuning uchun analistiklar vaziyatni har xil nuqtai nazardan ko‘rib chiqishi, har xil vazifalar qo‘yishi, oqibatda esa u yoki bu masalalarni hal qilishning turli xil yechimlarini taklif etishi mumkin. Lekin nimaiki bo‘lmasin, siyosiy tahlilning strukturasini tuzishda tabiiy ravishda vaziyatni baholash va ma’lum miqdorda ekspertlar faoliyatining yo‘nalishini belgilovchi buyurtmachi(mijoz)ning qarashlari va manfaatlari ishtirok etadi.

Siyosiy tahlilning mijoz manfaatlariga bunday bog‘liqligi uning raqobatdosh guruxlar manfaatlarini uyg‘unlashtiruvchi siyosiy vaziyat tomonidan belgilanuvchi murakkabligi va ko‘pqirraligiga guvohlik beradi va aynan analitik baholashni hamda mijozning manfaatlarini beg‘araz uyg‘unlashtirishi lozim. Shu o‘rinda ilmiy mezonlar

va mijozning maqsadlarini uyg‘unlashtirish paytida analitik o‘z professional maqsadlaridan voz kechib mijozning manfaatlariga to‘la bo‘ysinish holati vujudga kelishi mumkin. Saylovoldi kompaniyalarida raqobatchi kuchlar manfaatlarini ifodalovchi ekspert va analistiklar o‘zlarining "buyurtmachi"lari g‘alabasini ta’minlash maqsadida to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarama-qarshi bashoratlarni berish holatlari ham uchrab turadi.

Real vaziyatlar sharoitida vujudga kelgan muammolar siyosiy tahlilni **situatsion** ilmiy tadqiqot shakliga aylantiradi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, aynan muayyan siyosiy vaziyat siyosiy tahlilning asosiy predmet sohasini tashkil qiladi. Shuning uchun faqatgina mavjud siyosiy vaziyatdagina tadbiqiy siyosiy tahlil muayyan muammoning vujudga kelish sabablarini aniqlash, tegishli faktlarning belgilari va tarkibini tushutirish, ularni tarqalishini asoslash, rivojlanishning istiqbolini belgilashni amalga oshiradi.

Siyosiy tahlil doirasida vaziyat (siyosiy xodisa), uni harakatlantiruvchi kuch manbaalari, rivojlanish chegaralari va boshqa belgilarga ega *yaxlit hodisa* sifatida ko‘rib chiqiladi. Bu ma’noda siyosiy tahlil kundalik hayotdagi bu takrorlanmas va mantiqiy unsurni agarda tushuntira olmasa, hech bo‘lmaganda tasvirlashi va ratsionallashtirishi zarur. Shundan kelib chiqib, aynan muayyan vaziyat (hodisa) qo‘yilgan vazifani yechish uchun zaruriy gipotezaviy, baholovchi, nazariy, malakali, intuitiv va boshqa turdagи bilimlarning o‘zaro munosabatini belgilab beradi.

Ommaviy ijtimoiy tajribaga tayanib o‘z xulosalarini beruvchi fundamental fandan farqli o‘laroq, siyosiy tahlil asosan ayrim noyob xodisa va xolatlarni aks ettirishga yo‘naltirilgan. Modomiki, uning bilimlar majmui hamma vaqt ham universal darajadagi ishonchlilikka ega bo‘lmasa va umumlashtirilgan xarakterli bo‘lsada, tarkibiy hisobda qisman fanning bir bo’lagi hisoblanadi.

Siyosiy tahlilning tadbiqiy maqsadi tashqi sharoitdagi vaziyat va chegaralangan mahalliy xodisalarini tadqiq etishdagi ba’zi universal vazifalarni bajarish vaziyatning vaqt va makon doirasidagi mavjud faktorlar asosiy chegaralarini namoyon qiluvchi o‘lchovlarini aniqlash mazkur vaziyatda harakatdagi barcha sub’ektlarni ajratib olish; eng muhim aktsiya va interaktsiyalar, sub’ektning faoliyatiga ta’sir qiluvchi shart-sharoitlar, sabablar va faktorlarni o‘rganish hamda yuz berayotgan voqeа-xodisalar

oqibatlarini bashorat qilish kabi vazifalardan iborat.

Siyosiy maydonda vujudga keladigan xar qanday muayyan vaziyatning murakkabligi, bu vaziyatda uni urganishda qo‘llaniladigan metodlarning turli yangi aloqa va munosabatlari mavjudligi, qoidaga binoan, *ilmiy* xarakterga ega bo‘ladi. Bundan kelib chiqqan holda, vaziyatni siyosiy baholash, odatda, sub’ektlar xatti-harakatining turli belgilari, ularning pozitsiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishini tahlil qilishda qo‘llaniladigan psixologik, sotsiologik, antropologik, madaniy va boshqa usullar bilan to‘ldirilib boriladi. Shuning uchun vaziyatni tadbiqiy tadqiq etish muayyan vazifani hal etish doirasida shakllanuvchi **tizimli tahlilni** qo‘llash asnosida amalga oshiriladi. Siyosiy tahlilni amalga oshirishning asosiy qiyinchiliklar vaziyatni o‘rganishdagi har xil yondashuv va usullarini o‘zaro bog‘lay olish, turli metodlarni sifatli qo‘llash natijasida olingan xulosa va ma’lumotlarni uyg‘unlashtira olish qobiliyati bilan bog‘liq. Bundan tashqari, siyosiy tahlil jarayonida o‘rganilayotgan muammoni tadqiqotning ma’lum o‘lchovlariga amal qilish zarur.

Muammoni o‘rganishdagi asosiy qiyinchiliklar shundan iboratki, muayyan ma’lum bir vaqt oralig‘ida amalga oshiriladigan tadbiqiy tahlil ko‘p hollarda aniq muammoni xal qilish va vaziyatni nazorat qilishning optimal texnologiyalarini tanlash uchun qat’iy chegaralangan vaqtda bajarilishi talab etiladi. Masalan, ekspert-mutaxassislarga ko‘p hollarda favqulotda, fors-major vaziyatlarda qaror qabul qilish, raqibning chaqiruviga adekvat javoblarni operativ tarzda tuzish kabi ishlarni qilishga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun ham muammoni tahlil qilish tezligi ba’zida uni yechishdagi hal qiluvchi faktorga aylanadi.

Siyosiy tahlilning tuzilishi. Muayyan vaziyatni adekvat baholash imkoniyati avvalambor analitik tomonidan muammoni yechishga qaratilgan vosita va usullarni to‘g‘ri tanlash orqali aniqlanadi. Siyosiy tahlilning tarkibida esa *uch* asosiy tadqiqot yondashuvlari mavjud.

Birinchisi asosiy nazariy ko‘rsatmalar namoyon qiladi. Mazkur ko‘rsatmalar asosida aniq vazifa va maqsadlar belgilanib, zaruriy vosita, metod va resurslarning asosiy chegaralari aniqlanadi. Bunday yondashuvlar vaziyatning umumiyligi o‘lchovlarini aniqlash, muayyan siyosiy vaziyatning tabiiy va ijtimoiy muhit bilan aloqasini

tushunish, analitikni o‘rab turgan olamdagи siyosiy ahamiyatga ega muammo haqida tushunchalarни shakllantirish imkoniyatini beradi.

Bunday makronazariy yondashuvlar ideal hodisalarni ta’riflash qoidalari, siyosiy rivolanishning mustahkam g‘oya va qonuniyatları, ratsional tanlov nazariyasining asosiy g‘oyalari va boshqalarga asoslanishi mumkin. Biroq, mavjud vaziyatning siyosiy tahlil uchun muhim ahamiyatga ega ekanligiga qaramay, bunday nazariy yondashuvlar qoidaga binoan atayin reflekslashmaydi va muayyan muammoni tahlil qilishning asosiy metodlarini sekinlik bilan belgilashda mavjud bo‘ladi xolos. Makronazariy modelning mantiqiy kesishuvida vaziyatni o‘rganishning kontseptual negizi, mazkur vaziyat vujudga keluvchi hokimiyat(boshqaruv) sohasining bosqichi va darajasi o‘rnatiladigan *ikkinchи* bosqich mezonlari bilan boyitiladi. Masalan, u xalqaro va ijtimoiy mojarolar sohasiga tegishli va bunda mahalliy yoki mintaqaviy darajadagi jarayonlarning bir qismi bo‘lishi mumkin. Shu o‘rinda vaziyatning boshqa ko‘rsatkichlari ham baholanadi: u mustaxkam yoki yo‘qligi, subyektning o‘rta va uzoq, muddatli rejalariga kiritilganligi va boshq. Vaziyatni bunday rakursda tahlil qilinishi tadqiqotchida “o‘zgarish” va “rivojlanish” tushunchalariga baho beruvchi u yoki bu yondashuvlar tarafdarligini ifodolovchi, siyosiy rivojlanishning mexanizm va manbaalarini tushunishni ochib beruvchi qarashlarning mavjud bo‘lishini nazarda tutadi. Odatda siyosiy taraqqiyotning bunday modeli o‘rta bosqichdagi turli nazariy kontseptsiyalarning sintezi asosida vujudga keladi.

Umuman olganda tahlilning bu bosqichida gap, to‘g‘ri keladigan texnologiyalarni ishlab chiqishni nazarda tutuvchi siyosiy jarayonning *sohaviy* xususiyatlarini aniqlash to‘g‘risida bormoqda. Siyosiy jarayonlar ko‘rsatkichlarining bu bosqichdagi hisobi, uning ma’lum soxasidagi (masalan, milliy va konfessional mojarolarning xususiyatlari bilan bog‘liq) o‘zgarishlarning xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga, oqibatda esa, faktor faoliyatini yanada maqsadli yo‘naltiruvchi vazifalarni aniqroq belgilash imkonini beradi. Deylik, saylov kompaniyalarini tashkil etishda siyosiy texnologiyalarni ishlab chiqish siyosiy sohadagi ishchi guruhni tuzish, elektorat e’tiborini qaratish maqsadida siyosiy bozor marketingini o‘tkazish, deputatlikka nomzodlikni ilgari surish va dasturni e’lon qilish, reklama qilish kabi boshqa tadbirlarning tartibini o‘rnatishga ta’sir

ko‘rsatishi mumkin. Biroq, bunday vaziyatlarda ham, siyosiy texnologiyalar *har bir* qo‘yilgan aniq vazifaga nisbatan ishlab chiqarilishi va saylov kompaniyasi uchun vositalar yig‘ish darajasiga yoki nomzodning ommaviy tashqi ko‘rinishi haqida jamoatchilikning fikrini shakllantiradigan u yoki bu texnik usul va yo‘llarni aniqlash darajasiga o‘tishi mumkin.

Keyinchalik mazkur nazariy negizda vaziyatni asosiy “sehrlash” vositasi hisoblanuvchi mikrotadbiqiy vaziyat tahlili amalga oshiriladi. Aynan u tadqiqotlar amaliyotlarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi va buning bilan makronazariy va sohaviy tizimlarning rolini shartli bilimlar darajasiga tushurib qo‘yadi. Mikrotahliliy tadqiqotlar vaziyatni uzil-kesil mahalliylashtiradi va bunda uning natijalarini siyosiy jarayonning umumiyligi ko‘rinishi sinxronlashtiradi. Mikrotahlil bosqichida texnologiyani yaratishdagi eng murakkab vazifalardan biri - umumnazariy tuzilmalarning amaliyotlashuviga o‘tishi va amaliy tavsiyalarda aks etishi masalasi hal qilinadi.

Tahlilning mazkur bosqichi muayyan vaziyat sharoitida paydo bo‘lgan voqelikning bevosita aksi bilan o‘zaro bog‘liq. Mazkur bosqichda qo‘llaniladigan metodlardan mustaqil holda, siyosiy vaziyatlar tahlili vaziyatni siyosiy hodisalar va o‘zgarishlar zanjirida ma’lum fragment sifatida qurishni taklif qiluvchi *diskret* yondashuvdan foydalanishga asoslangan. Va bunda e’tibor aniq (individual, guruh) subyektlar (amaliy va hayoliy) faoliyatining tahlili, uning xatti-harakati sababi, yo‘l-yo‘riqlari va shaklini o‘rganishga qaratiladi. Agarda asosiy e’tibor inson faoliyatining psixologik belgilariga qaratilar ekan, unda siyosiy tahlil xatti-harakat tadqiqotlarinini bir ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi.

Qoidaga binoan, qo‘llaniladigan tadqiqot yondashuvlari siyosiy tahlil bosqichlari va davrlarining belgilarini o‘zida aks ettiradi.

Maxsus tadqiqot jarayoni sifatida ko‘rilayotgan siyosiy tahlilni, tadbiqiy faoliyatning muvaffaqiyatini belgilaydigan ichki mantiqiy bosqichlarini ajratib ko‘rish mumkin. Amerikalik olimlar J.B. Mangeym va R.K.Richlarning nuqtai nazaridan siyosiy jarayonni quyidagi asosiy bosqichlarga bo‘lish mumkin: muammoni kontseptuallashuvi, uni moddellashirish, muayyan muammoni tadqiq etish loyihasini

tuzish va uni tahlil etish metodlarini tanlash.

Siyosiy tahlil birinchi bosqichining mazmuni muammoning kontseptuallashuvi hisoblanadi. Bu aniq vaziyatni siyosiy subyektlarning muhim manfaatlarini ro‘yogga chiqarishiga, davlat boshqaruvi organlari faoliyatiga, ularning xorijiy hamkorlari bilan o‘zaro aloqasi va umuman siyosiy kontekstning o‘zgarishiga ta’sir etish nuqtai nazardan ko‘rib chiqishni nazarda tutadi. Bunday muammoni aniqlashda ma’lumotlarni sinchliklab to‘plash, muammoni ta’riflashda uning boshqa muammoli vaziyatlardan farqli xususiyatlari va tarkibiy qismlarini inobatga olish talab etiladi.

Ikkinchi bosqichda muammo modellashtiriladi, ya’ni, muammoning muhim elementlari, strukturasi, tashqi va ichki shakllarini yahlit tushunishning soddalashtirilgan tasavvurlari ishlab chiqiladi. Odatda bunday model, muammoning zaruriy belgilarini aniqlovchi ma’lum tadqiqot gipotezasi asosida yaratiladi. Muammoning xususiyatlarini aniqlashtirish uning *operatsionallashuvi* — mazkur muammoning mohiyatini tushuntiruvchi abstrakt, sifatli baholashning muammo o‘zgarishini tasvirlash imkonini beradigan vizual ko‘rsatkichlarga aylanishi evaziga amalga oshiriladi. Bu turdagи kuzatuvlarni o‘tkazish jarayonidagi harakat va bosqichlarni aniqlashtirish esa *instrumentallashuv* jarayonlarining tarkibini tashkil etadi. Mazkur jarayonlarning yakuniy bosqichi muammoning *o‘chlanishi*, ya’ni sabab-oqibat aloqalarini oolib beruvchi, muvaffaqiyatli va omadsiz harakatlar mezonlarini ishlab chiquvchi, vaziyat o‘zgarishining ijobjiy va salbiy ko‘rinishdagi doimiy va va vaqtinchalik ko‘rsatkichlarini aniqlovchi tegishli indikatorlarni (vaziyatni obyektiv baholovchi ko‘rsatkichlari va ma’lum mazmunlarini) belgilash hisoblanadi.

Umuman olganda, bu harakatlar vaziyat tarkibini uning asosiy mazmunigacha soddalashtiradi va uni shakllantiradi. Ideal holatda modellashtirish siyosiy hodisalarini ifodalash uchun matematik usullardan foydalanishni ko‘zda tutuvchi maksimal rasmiylashtirishga intiladi. Shu nuqtai nazardan modellashtirish tadqiqotchining tasavvurlarini ratsionallashuvi jarayonini o‘zida aks ettiradi. Mazkur jarayon natijasida vaziyatning ko‘rsatkichlarini aniqlash va baholashning sifatlilikdan miqdoriyga o‘tishi asosida muammo to‘la o‘lchab bo‘ladigan hodisa sifatida namoyon bo‘ladi hamda uning ko‘rsatkichlarini o‘rganish imkoniyati tug‘iladi. Umuman, modellashtirish

mantiqiy va xulosalarni verifikatsiyalash vazifasiga mos va to‘g‘ri keladigan bo‘lishi darkor.

Navbatdagi uchinchi bosqich - bu tadqiqot loyihasini tuzish, muayyan muammoni tadqiq etishning mantiqini shakllantirish va tushuntirish bosqichidir. Mazkur bosqich doirasida tadqiqotning aniq, maqsadlari shakllantiriladi (bunda maqsadga muammoni tadqiq, etish natijasida erishilishi inobatga olinadi), qo‘yilgan vazifani yechish alternativlarining o‘zgaruvchi ko‘rsatkichlari aniqlanadi hamda kuzatuvni tashkillashtirish va amalga oshirish tasvirlanadi. Shunday qilib, mazkur bosqichda muhim omillar va ularning muammoni xal qilishga ijobiy yoki salbiy ta’sir shakllari maxsus ifodalanadi, vaziyat rivojlanishining alternativlari va bashoratlari shakllantiriladi hamda sub’ekt faoliyatining strategiyasi ishlab chiqiladi va boshqa vazifalar bajariladi.

Bunday loyihaning vazifasi - empirik ko‘rsatkilarni tartibga solishdir. Ammo bu vazifani yechish jarayonida ko‘p bosqichli tadqiqot konstruktsiyasi tuziladi. Bu konstruktsiya esa o‘z navbatida to‘plangan va mavjud bilimlarni bir butunga birlashtiradi hamda muayyan amaliy vazifani bajarishga qaratilgan tadqiqotlarni bosqichma-bosqich ochishni nazarda tutadi. Shuning uchun bunday loyihani ishlab chiqishi o‘z-o‘zini to‘g‘rilab boruvchi, vaziyatni qo‘lga olish usulining vujudga kelishi sifatida baholash mumkin.

Qaysi turdagи vaziyatning tahlil qilinishi va qanday maqsadlar qo‘yilishiga bog‘liq xolda siyosiy tahlilning turli loyihalari ishlab chiqilishi mumkin: kelajakdagи gipoteza vaziyatini tadqiq etishga qaratilgan *bashorat qilish*; mavjud vaziyat tahlili bilan bog‘liq aktual va sodir bo‘lgan xodisalarni o‘rganuvchi yangi yondashuvlarni topishga mo‘ljallangan *retrospektiv* loyihalar.

Asosiy mazmunning to‘rtinchi bosqichi ham mavjud - bu muammoni tadqiq etish va muayyan vazifani yechish metodlarini tanlash bosqichi. Yuqorida ta’riflanganidek, bu bosqichda qo‘llaniladigan metodika sohalararo xususiyatga ega. Shunday bo‘lsada, har qanday vazifani bajarish tadqiqotning kerakli usul va vositalarining tanlovini nazarda tutadi. Bu tanlov esa muammo, analitiklarning tayyorgarligi va tahlil amalga oshiriladigan shart-sharoitlarning xususiyatidan kelib chiqadi. Mazkur tanlov, har qanday variantda sifatli va miqdoriy, nazariy va empirik va boshqa yondashuvlarning bir-biriga mos keli-shini talab etadi. Qo‘llaniladigan metodlar o‘z shakliga ko‘ra farq qilishi mumkin (“aqliy

hujum”, individual yoki guruh ekspertizasi va h.k.).

Tadqiqot metodlarini tanlash qatorida, mazkur bosqichning tarkibiy qismlaridan biri qoidalari, jarayonlar va idrok etishning turli texnika va metodikalarini qo‘llashni tartibga soluvchi operatsiyalar tartibini aniqlash hisoblanadi. Metodlar qo‘llashning bunday qoidalari xodisalar xaqidagi ishonchli ma’lumotlarni olish va bu natijalarni amaliyotda qo‘llash maqsadida birlashtirilgan mantiqan ketma-ketlikdagi metodik va tashkiliy jarayonlarga asoslanadi.

Siyosiy tahlilni qo‘llash natijasida yakuniy yoki oraliq, tavsiya, maslahat, yoki keyinchalik “buyurtmachi”ga yetkazilishi kerak bo‘lgan ko‘rsatmalar ko‘rinishidagi bilimlar shakllanadi. Ba’zida esa, vaziyat o‘ta mavhumligi sharoitida, bu bilimlar nafaqat tayyor tavsiya, xattoki o‘rganilayotgan vaziyat va "buyurtmachi"ning pozitsiyasi haqidagi bilimlar noaniqlik darajasini oz miqdorda tushuradigan muammo mohiyatining o‘zi ham bo‘lishi mumkin.

Kelayotgan ma’lumotlarni to‘plash va doimiy aniqlashtirib borish siyosiy tahlil uchun katta ahamiyatga ega. Professional maslahatlar ishlab chiqish, vazifani bajarishning to‘g‘ri keladigan texnologiyalarni tanlash uchun ma’lumotlar quyidagi talablarga javob berishi lozim: zaruriylik (hal qilinayotgan muammo xususiyatiga mos kelishi), muammoni to‘la ko‘rib chiqish uchun minimal yetarlilik, ishonchlilik (ma’lumot aniq va ishonarli bo‘lishi shart), o‘z muddatida bo‘lishlik (kerakli vaqtida va kerakli joyda). Bunda ma’lumot analitikning muayyan vaziyat haqidagi ma’lumotlarga ehtiyojlarini qondirishiga harakat qilish lozim. Ma’lumot tahlilning natijalarini qayta ishlab chiqish va ularni tekshirish imkoniyatini nazarda tutmog‘i kerak.

Siyosiy tahlil metodlari

Siyosiy tahlil metodologik xilma-xilligining asosi, bir tomonidan, uning tadbiqiy soha sifatidagi xususiyati bo‘yicha, boshqa tomonidan siyosiy problematikaning tahlil predmeti sifatidagi xususiyatiga ko‘ra belgilanadi. Siyosiy tahlilda vaziyatni aks ettiruvchi u yoki bu usullarni qo‘llashdagi muvaffaqiyat, usullarning operatsionligi va innovatsionligini saqlab qolish ko‘p vaqt, tashkiliy va boshqa xarajatlarni talab qilmaydigan, turli muammoli vaziyatlarga tez moslashadigan nisbatan sodda harakatlarni taklif qilish; chiqarilgan miqdoriy xulosalar yutuqlarini sifatli

asoslashning ustunligini uyg‘unlashtirish bilan bog‘liq.

Umuman, siyosiy tahlilni ikki guruhga ajratish mumkin - umumiylar va xususiy. Umumiylar metodlar siyosiy tahlilning barcha bosqichlari yo‘nalishi, rakursi va metodologik ta’minotini aniqlaydi. Ularga *ivent-tahlil* (ingliz. event - hodisa), *situatsion(vaziyat)* tahlili va bir qancha boshqa tahlil turlarini kiritish mumkin.

Xususiy metodlarga statistika, sotsiologiya, iqtisodiyot va boshqa fan sohalaridan o‘zlashtirilgan standart metodlar kiradi. Ularni siyosiy tahlilning alohida bosqichlarida turli kombinatsiyalarda qo‘llash muayyan maqsadli va masalan muaomonining xususiyati, tadqiqot rakursi, ma’lumotlarning mavjudligi, tashkiliy va boshqa unsurlar bilan ta’minlanganligi va boshqalar bilan belgilanadi. Bunday metodlar guruhibiga *tanlov* metodi, *ekspert baholash* metodi, *korrelyatsion* va *faktor tahlil*, *kontent-tahlil*, *matematik modellashtirish*, *foyda* va *zarar tahlili* va boshqalarni kiritish mumkin.

Vaziyatni tushunishning eng muhim baxo va usullarni shakllantirishda yordam beruvchi umumiylar metodlar ichida ivent-tahlil alohida ahamiyat kasb etadi. Bu tahlil doirasida siyosiy jarayon bir qator hodisaviylik, masalan siyosiy yetakchilarning chiqishlari, saylovlarda ommaviy namoyishlar, normativ aktlarning qabul qilinishi, siyosiy qotillik va boshqalar namoyon bo‘ladi. Bu hodisalarning har biri u yoki bu ko‘rinishda vaziyatga ta’sir ko‘rsatadi va ularni har birining orqasida o‘z manfaatlari bilan muayyan shaxslar turishadi. Shuning bilan mazkur metod siyosiy hodisalar oqimini metodologik vositalarni taklif etish orqali tartibga soladi. Taklif etilgan vositalar hodisalarni strukturalashga mazkur jarayonlarning ko‘zga ko‘ringan subyektlari uchun ba’zida yopiq obyektiv g‘oyalarni ko‘rsatish orqali yordam beradi. Natijada obyektiv baholarni ishlab chiqish, voqealar rivojining bashoratini tuzish va asoslash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Mazkur metodning namunaviy sxemasi quyidagilarni nazarda tutadi:

- Siyosiy jarayonning siyosiy ishtirokchilari va har bir ishtirokchining orqasida turuvchi yoki jarayonlarga ta’sir ko‘rsatuvchi nosiyosiy subyektlarni aniqlash;
- Voqealarni ishtirokchilar yoki uni qo‘llab-quvvatlovchi siyosiy kuchlarning siyosiy ta’sir ko‘rsatish darajasi va boshqa resurslarini baholash;
- Siyosiy jarayon ishtirokchilarining strategik maqsadlari va taktik vazifalarini

o‘rgatish, siyosiy kuchlar va manfaatlар konfiguratsiyasi

- joylashuviga baho berish;
- Mumkin bo‘lgan strategik ittifoq va taktik koalitsiyalarni aniqlash, voqealar rivoji va siyosiy jarayon ishtirokchi va subyektlari reaksiyasi xususiyatlariga baho berish, siyosiy vaziyatning u yoki bu ko‘rinishidagi rivoji rejalarini tuzish;
- Alternativ harakatlarni ishlab chiqish va ularning ehtimoliy muvaffaqiyatini baholash;
- Siyosiy vaziyat rivojining bashorati va uni tadbiq etish vositalari va resurslarini hisobga olgan holda optimal faoliyat variantlari asosida butun strategiyani ishlab chiqish;

Shunday qilib, ivent-tahlil metodi quyidagi sxemani o‘zida aks ettiradi: siyosiy vaziyat - hodisa - atrof-muxit - ishtirokchilar (ularning resurslari, manfaatlari, o‘zaro aloqalari) - alternativ yechimlar -reja(senariya) va bashorat - faoliyat strategiyasi.

Ivent-tahlilni tadbiqiy qo‘llashga misol qilib "Mojarolarni nazorat qilish va barqarorlik tizimi" (MNBT-Rossiya) ("Sistema upravleniya konfliktami i stabilnostyu" (SAUKS-Rossiya)) loyihasi doirasida Institut tomonidan amalga oshirilgan tahlil va mojarolarni nazorat qilish va barqarorlikni ishlab chiqilganligini eslatib o‘tish mumkin.

Siyosiy tahlilning mazmun-mohiyati

Siyosat sohasidagi vazifalarni hal qilish, maqsadga erishishning qulay usul va texnologiyalarini izlash zarurati siyosiy hodisalarni o‘rganishga alohida yondashishni taqozo etadi. Nazariy politologiyaga xos yondashuvlardan¹ farqli o‘laroq, bunday yondashuv amaliy masalalarning yechimiga xizmat qilishi bilan ajralib turishi lozim.

Umuman olganda, siyosiy texnologiyalar siyosiy hodisalar haqida nazariyalar yaratish yoki nazariy bilimlarni ko‘paytirishga yo‘naltirilmagan, balki siyosiy maydondagi amaliy vazifalarni hal qilishda mavjud ilmiy-nazariy salohiyatdan foydalanish, uni tatbiq etishga yo‘naltirilgan. Bunda nazariy qarashlar bilan bir qatorda, to‘plangan tajriba, siyosiy vazifalarni hal qilish malakasi va ko‘nikmasi, insonning oldindan ko‘ra bilish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqacha

¹ Назарий политологияга хос ёндашувлар сиёсий ходисаларнинг моҳиятини очиб беришга, улар ўртасидаги энг муҳим алоқа ва муносабатларни кўрсатишга, ушбу ходисалар тараққиётининг асосий йўналиш ҳамда конунларини асослаб беришга йўналтирилган.

aytganda, chuqur nazariy umumlashmalarga murojaat qilinmagan holda, amaliy fanlar mavjud amaliy tajriba asosida xulosa chiqarish mumkin. Tatbiqiy siyosiy bilimlarning inobatga olsak, aytish mumkinki, aynan amaliy siyosatshunoslik insonning siyosiy faoliyatini san'at darajasiga ko'tarishga xizmat qiladi.

Amaliy siyosatshunoslik tomonidan qo'llaniladigan usul va uslublar siyosiy jarayonni, turli subyektlarining fe'l-atvorini, ularning xatti-harakati va o'zaro munosabatini o'rganishga yo'naltirilgan. Tom ma'noda, amaliy siyosatshunoslikning predmeti nazariy siyosatshunoslikning predmetidan ko'ra torroqdir. Chunki amaliy siyosatshunoslikni hokimiyat yoki davlatning mohiyati emas, balki hokimiyat yoki davlatning amaliyotda namoyon bo'lish shakllari, ularning inson fe'l-atvoriga ta'siri muammolari qiziqtiradi. Shunday bo'lsada, siyosiy texnologiyalar yordamida qilingan tahlil va xulosalar nazariyalarning boyishiga, yangi farazlar, paradigma va yondashuvlarning yaratilishniga turtki bo'lada.

Siyosatning amaliy tadqiqotlari siyosiy makonni to'laligicha qamrab olmay, davlat hokimiyatining amal qilish jarayoni uchun amaliy ahamiyatga ega sohalarnigina o'z ichiga oladi. Konfliktlarni boshqarish va hal qilish, qarorlar qabul qilish, muzokaralar olib borish, saylov kampaniyalarini uyushtirish kabi sohalar shular jumlasidadir. Ana shu sohalar doirasida hozirgi kunda qator maxsus fanlar ham shakllangan. Xususan, qarorlar qabul qilish muammolarini yorituvchi (policy making), siyosiy loyihalarni shakllantiruvchi va amalga oshiruvchi (policy management), siyosiy nizolarni boshqaruvchi va hal qiluvchi (conflict management) va hokazo fanlar shular jumlasidadir. Bu maxsus fanlar orasida aniq siyosiy muammolarni tadqiq qilishning uslub va tadbirlarini bayon etuvchi siyosiy tahlil (policy analysys) alohida ajralib turadi.

Siyosiy tahlil o'z predmetiga ega amaliy fan hisoblanadi. Keng ma'noda "siyosiy tahlil" tushunchasi siyosatning barcha tadqiqotlariga nisbatan qo'llaniladi. Tom ma'noda esa siyosiy tahlil aniq muammolarni o'rganishda o'zboshimchalik va subyektivlikka yo'l qo'ymaydigan talablarni ilgari suradi hamda muammolarning eng oqilona yechimlarini axtarishga, buning uchun zaruriy texnologik vositalar va faoliyat usullarini aniqlashga xizmat qiladi.

Siyosiy tahlil bilan mutaxassislarning maxsus guruhi shug'ullanadi, bular –

texnologlar, analistiklar, ekspertlar, maslahatchilar, jamoatchilik bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yishga xizmat qiluvchi mutaxassislar (piarmenlar), partiya apparatlarining xodimlari, siyosatchilarning yordamchilaridir. Ular siyosatchilarga, turli siyosiy tuzilmalar va davlat boshqaruvi idoralariga xizmat ko‘rsatadi. Bu mutaxassislar turli tavsiya va takliflarni ilgari suradi; davlat va partiya idoralarining faoliyatiga doir bashorat, reja, dasturlar ishlab chiqadi; boshqaruv idoralari faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladigan tahliliy ma’lumotlar beradi; aniq siyosiy muammolarning yechimini osonlashtirishga yo‘naltirilgan boshqa hujjatlarni tayyorlaydi.

Siyosiy tahlilning o‘ziga xos xususiyatlari qator sabab va omillar bilan shartlangan. Amaliy bilimning bir ko‘rinishi sifatida siyosiy tahlil, avvalambor, subyekt oldida turgan aniq muammoni ta’riflash va tadqiq qilishga yo‘naltirilgan. Shunday ekan, agar nazariy siyosatshunoslik siyosiy makonning alohida sohasini mantiqiy ajratib olib, uni tahlil qiladigan bo‘lsa, amaliy siyosiy fan aniq muammolarni, ya’ni voqelikning bir qismini tahlil qilishga e’tibor qaratadi.

Siyosiy nazariya tadqiqot obyekti haqidagi bilimlarni chuqurlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, siyosiy tahlil obyektni soddarоq tushuntirishga intiladi. Agar fundamental fan obyektni chuqur va tizimliy asosda o‘rganishga imkon bersa, siyosiy tahlilda subyektning amaliy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda xulosa qilinadi, tavsiyalar beriladi, bunday tahlil aniq vazifa doirasidan chiqib ketmaydi. Boshqacha aytganda, agar fan obyektning mantiqiy qiyofasini shakllantirsa, siyosiy tahlil obyektning amaliy qiyofasini yaratadi hamda uni ma’lum vaqt doirasida o‘rganadi.

Ta’kidlash joizki, siyosiy maydonda yuzaga keladigan har qanday ijtimoiy ziddiyat va konfliktlarni siyosiy tahlilga muhtoj muammolar qatoriga kiritib bo‘lmaydi. Jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega aholining keng qatlamlari manfaatlari va ijtimoiy qadriyatlarga daxldor boshqaruv idoralari faoliyatiga bevosita yoki bilvosita ta’sir qiluvchi muammolargina siyosiy tahlilni talab qiladi. Bunday muammolarga yo‘nalganlik amaliy siyosiy tahlilning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi. Xususan, siyosiy sohada raqobat kuchli bo‘lganligi sababli raqiblar mavjud vaziyatni turlichay tushunadi, turlichay sharhlaydi. Bunda vaziyat faqatgina tahlil

bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis yoki ekspert tomonidan baholanmaydi. Undan tashqari, mazkur muammoni hal qilishi kerak bo‘lgan shaxs vaziyatga o‘z bahosini beradi. Aynan shu kishi o‘z manfaatlaridan, dunyoqarashi, maqomi, mavqeidan kelib chiqqan holda muammoli vaziyatni tahlil qilish haqida mutaxassislarga topshiriq beradi. Demak, u mavjud vaziyatda o‘zi ko‘rsatgan muammoni hal qilish haqida “buyurtma” beradi.

Boshqacha aytganda, siyosiy tahlilning mazmuni faqatgina tadqiqotchi-subyektga bog‘liq bo‘lmay, balki mutaxassislarga mazkur vaziyatni tahlil qilishni yuklaydigan “buyurtmachi”ning ta’sirida ham shakllanadi. “Buyurtmachi”ning manfaatlari mutaxassislarning xatti-harakatlari strategiyasini belgilab beradi, ular “buyurtmachi”ning talablarini qondirishga harakat qiladi.

Shunday qilib, “buyurtmachi”ning manfaat-ehtiyojlari vaziyatni xal qilishda ustuvor rol o‘ynaydi. Ba’zan voqelikni obyektiv tasvirlashga intiladigan mutaxassis bilan “buyurtmachi” vaziyatni bir xil talqin qilishlari mumkin. Biroq siyosiy sohada, asosan, manfaatdor shaxslar vaziyatni baholaydi, ziddiyatlarga muayyan yo‘nalish beradi, ma’lum maqsadni belgilaydi bularning hammasi tadqiqot uchun muhim ko‘rsatma bo‘lib xizmat qiladi. Demak, tahlil bilan shug‘ullanuvchi texnolog – muammoni hal qilishdan manfaatdor bo‘lgan kishi yoki guruhning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda vaziyatni talqin qiladigan va amaliy takliflar beradigan mutaxassisdir. Texnologik bilimning ijtimoiy buyurtmaga bog‘liqligi, ayniqsa, vaziyatni aniqlash va tavsiyalarni ishlab chiqish bosqichlarida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Deylik, hukmron partiya namoyandalari ham, muxolif partiya vakillari ham “buyurtmachi” sifatida murojaat qildi. Ular saylovda g‘alaba qozonishni istaydi, lekin bunga erishish imkoniyatlari har xil, hududlardagi voqelari turlicha bo‘lib, siyosiy jarayonlarning kechishiga qarab bir-biri bilan farq qiladi. Shu boisdan, ular mavjud vaziyatni turlicha sharhlaydi. Shuningdek, davlat boshqaruvi idoralari vakillari hamda ijtimoiy harakat a’zolarining siyosiy inqirozga munosabatlari tubdan farq qiladi. Chunki ijtimoiy harakatlar ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini ifoda etishga ko‘prog‘ moyil bo‘ladi. Shu boisdan, ba’zilar uchun inqiroz sharoitida hokimiyatni mustahkamlash, uning legitimligini oshirish birinchi darajali vazifa hisoblanadi,

boshqalar nazarida esa aholi turmush darajasini yuksaltirish orqaligina bu holatdan chiqish mumkin.

Shunday qilib, muayyan vaziyatni tahlil qilish natijasida turli muammolarni aniqlash mumkin. Shu bois, mutaxassislar vaziyatni turli nuqtai nazardan o‘rganishlari, o‘z oldilariga vazifa qo‘yishlari, demakki, muammoning har xil yechimlarini taklif qilishlari mumkin. Xullas, siyosiy tahlilda “buyurtmachi” manfaatlari inobatga olinishi hamda vaziyat shu nuqtai nazardan tahlil qilinishi lozim.

Tahlilning “buyurtmachi” manfaatlariga bunday bog‘liqligi siyosiy tahlilning moslashuvchanligidan emas, balki murakkabligidan darak beradi. Zero, siyosiy hayotning o‘zi serqirra bo‘lib, unda bir-biri bilan raqobat qiluvchi guruhlarning manfaatlari uyg‘unlashgan. Texnolog-mutaxassis ilmiy tahlil bilan “buyurtmachi”ning manfaatini muvofiqlashtirishi zarur. Ayrim hollarda siyosiy texnologlar ilmiy mezonlar bilan “buyurtmachi” manfaatlarini uyg‘unlashtirish jarayonida professional axloq talablaridan chekinish holatini kuzatish mumkin. Xorijiy davlatlardagi saylovoldi kompaniyalarda bir vaqtning o‘zida bir-biriga raqobatdagi kuchlarga xizmat qilgan mutaxassislar o‘z “buyurtmachi”laridan biriga mutlaqo teskari tavsiyalar berib, shu yo‘l bilan boshqa “buyurtmachi”larning g‘alabasiga ko‘maklashganligi haqida guvohlik beradigan misollar yo‘q emas.

Siyosiy tahlil aslida vaziyatni ilmiy tadqiq etish shakli hisoblanadi. Boshqacha aytganda, aniq siyosiy vaziyat siyosiy tahlilning predmetini tashkil etadi. Shuning uchun siyosiy tahlil doirasida texnolog-mutaxassis:

- muammoning kelib chiqish sababini ochib berishi;
- uning asosiy belgilarini ko‘rsatib berishi;
- mavjud ma’lumotlarni sharhlab berishi;
- muammoning ko‘lamini aniqlashi;
- uning rivojlanish sur’ati va istiqbolini belgilab berishi zarur.

Siyosiy tahlil doirasida vaziyat o‘z mantiqiga, rivojlanish manbalari, o‘sish darajasi va boshqa ko‘rsatkichlarga ega yaxlitlik sifatida o‘rganiladi. Bu ma’noda, siyosiy tahlil kundalik hayotimiz mantiqini chuqr tushuntirib bera olmasada, siyosiy jarayonlarni ixchamlashtirish, mukammallashtirish va arzonlashtirishga xizmat qilishi

kerak. E'tiborli tomoni shundaki, aniq siyosiy vaziyatga qarab baholovchi, nazariy, tajribaviy, intuitiv, taxminiy va boshqa bilimlarning nisbati belgilanadi.

Siyosiy tahlil vaziyatni tadqiq etish davomida quyidagi vazifalarni hal qilishni nazarda tutadi:

- shart-sharoitni, tashqi omillar va uning ta'sirida sodir bo'lgan voqe-a-hodisaning chegaralarini aniqlash;
- vaziyatning makon va zamondagi ko'lamenti ko'rsatkichlarini oydinlashtirish;
- mazkur vaziyatda faol harakat qiluvchi barcha subyektlarni ajratib olish;
- ushbu subyektlarning kuch nisbatiga baho berish;
- muhim tadbirlarni belgilash;
- subyektlarning fe'l-atvoriga ta'sir qiladigan omillarni aniqlash;
- sodir bo'layotgan hodisalar natijasini bashorat qilish.

Siyosiy vaziyatni o'rghanishda qo'llaniladigan uslublar, odatda, fanlararo tabiatga ega bo'ladi. Shu boisdan vaziyatga siyosiy baho berishda psixologik, sotsiologik antropologik, madaniy va boshqa uslublardan, ya'ni tizimliy tahlildan foydalaniladi. Bunda asosiy qiyinchilik siyosiy tahlilning turli yondashuv va uslublarini bir-biri bilan bog'liq ravishda qo'llay bilish bilan bog'liq. Boz ustiga, o'r ganilayotgan muammoni talqin qilishning muayyan mezonlariga amal qilish zarur.

Siyosiy tahlil bilan bog'liq yana bir muammo vaqtning chegaralanganligidir. Masalan, ba'zan mutaxassislar favqulodda holatda tezkorlik bilan raqib qarshiligiga javob beradigan tavsiya berishlari zarur. Shuning uchun ba'zan muammoni o'rghanish sur'ati uni samarali hal qilishning muhim omiliga aylanadi.

Siyosiy tahlil darajalari. Vaziyatni to'g'ri baholash uchun, avvalambor, bilishning eng maqbul vosita va usullarini tanlash talab qilinadi. Ta'kidlash joizki, siyosiy tahlilni amalga oshirishning uch darjasini mavjud.

Tahlilning birinchi darjasasi asosiy nazariy yo'l-yo'riqlarga amal qilishni talab etadi. Aynan shu nazariy qoidalarga tayangan holda ilmiy farazlar beriladi maqsad va vazifalar belgilanadi, ularni amalga oshirish uchun zarur vosita, usul, resurslar tanlanadi. Bu darajada siyosiy vaziyatning ko'lami o'lchanadi, asosiy ko'rsatkichlar aniqlanadi, siyosiy hodisalarning ijtimoiy muhit bilan aloqadorligi o'r ganiladi.

Tahlilning bu darajasi hodisalarning ideal turlarini ifodalash, siyosiy taraqqiyotning barqaror qonuniyatlarini tan olish, ongli tanlov nazariyasi tamoyillariga asoslanishi mumkin.

Tahlilning ikkinchi darajasi tahlil qilinayotgan vaziyat boshqaruva munosabatlarining qaysi sohasiga tegishli ekanligini aniqlashga yo‘naltirilgan. Masalan, muammo millatlararo yoki ijtimoiy ziddiyatlar sohasiga taalluqli bo‘lishi, ayni paytda hududiy jarayonning bir bo‘lagi sifatida ham namoyon bo‘lishi mumkin. Siyosiy vaziyatning boshqa xususiyat va ko‘rsatkichlari ham shu nuqtai nazaridan bahanadi: vaziyat barqarormi yoki beqarormi, subyektning yaqin muddatli rejalariga kiradimi yoki uzoq muddatli rejalaridan o‘rin olganmi va hokazo.

Umuman olganda, tahlilning bu bosqichida siyosiy jarayonning tarmog‘i aniqlanadi va shunga muvofiq texnologiyalar ishlab chiqiladi. Siyosiy jarayonning bunday ko‘rsatkichlarini e’tiborga olish muayyan sohadagi o‘zgarishlarning o‘ziga xos xususiyatlarini yaxshiroq tushunish, demak, aktorning faoliyatini yo‘naltiruvchi vazifalarni yanada aniqroq belgilash imkonini beradi. Aytaylik, saylovoldi kompaniyalarini uyushtirishda ishchi guruhlari tuzish, siyosiy bozorning dastlabki marketingini o‘tkazish, shu asosda, elektoratning siyosiy mayllarini o‘rganish, deputatlikka nomzodni qo‘llab-quvvatlash, uning dasturini e’lon qilish, targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish kabi harakatlar ketma-ketligi siyosiy texnologiyalarda belgilab beriladi. Lekin mazkur vazifalarning har biriga tatbiqan alohida siyosiy texnologiyalar ishlab chiqilishi mumkin. Saylov kampaniyasiga mablag‘ yig‘ish bo‘yicha harakatlar ketma-ketligini ishlab chiqish, bu jarayonning usul va uslublarini belgilash shular jumlasidandir.

Tahlilning uchinchi darajasi vaziyat yechimini topishga xizmat qilganligi bois siyosiy tahlilda katta salmoqqa egadir. Texnologiyalarni shakllantirish bilan bog‘liq eng murakkab vazifalardan biri aynan shu bosqichda hal qilinadi – umumnazariy fikrdan amaliyotga o‘tiladi, amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bu jarayonda diskret yondashuvdan foydalilaniladi – siyosiy vaziyat voqeа-hodisa va o‘zgarishlar zanjiridagi bir halqa, bo‘lak sifatida o‘rganiladi. Bunda subyekt xatti-harakatini tahlil qilishga, uning fe’l-atvoriga turtki bo‘lgan sabablar, ko‘rsatmalarini o‘rganishga e’tibor beriladi.

Inson faoliyatining psixologik sabablarini ohib berishga katta ahamiyat berilishi bois siyosiy tahlil fe'l atvorni tadqiq qiluvchi yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Siyosiy tahlil bosqichlari. Siyosiy tahlilni o'ziga xos tadqiqot jarayoni deb olsak, uning muvaffaqiyatini ta'minlovchi mantiqiy bosqichlarga ajratish zarur. Amerikalik olimlar J.B.Mangeym va R.K.Rich¹ning fikriga ko'ra, tahliliy jarayonning quyidagi bosqichlarini ajratish mumkin:

- muammoni nazariy asoslash bosqichi;
- muammoni modellashtirish bosqichi;
- muammoni o'rganish dasturini ishlab chiqish bosqichi;
- muammoni hal qilish usullarini tanlash bosqichi.

Siyosiy tahlilning boshlang'ich nuqtasi muammoning konseptualizatsiyasi, ya'ni uni nazariy asoslash bilan bog'liq. Bunda vaziyatning siyosiy subyektlarning manfaatlariga, davlat boshqaruvi organlari faoliyatiga, xorijlik hamkorlar bilan aloqalarga, kechayotgan siyosiy jarayonlarga ta'siri o'rganiladi. Buning uchun ma'lumot to'plash, muammoni ifodalash, uning o'ziga xos xususiyat va tarkibiy qismlarini aniqlash, boshqa muammoli vaziyatlardan farqini ko'rsatib berish zarur.

Siyosiy tahlilning ikkinchi bosqichida muammo modellashtiriladi, ya'ni muammoni biroz soddalashtirib tushuntiradigan, lekin ayni paytda, uni yaxlit idrok qilish imkonini beradigan tushunchalar ishlab chiqiladi va unga ichki hamda tashqi shakl beriladi. Odatda, bunday model muayyan ilmiy taxmin (gipoteza) asosiga quriladi. Bu modelda, shuningdek, muammoning muhim ko'rsatkichlari, uning ko'lami ham aniqlashtiriladi. Muammoning ko'rsatkichlarini aniqlashtirish izchil operatsionalizatsiya hisobiga amalga oshiriladi. Bunda operatsionalizatsiya – muammoni tushunishga xizmat qiladigan mavhum sifat ko'rsatkichlarini muammoni miqdoriy jihatdan ta'riflashga xizmat qiladigan ko'rsatkichlarga o'zgartirish jarayonidir. Bu jarayondan keyingi qadam – instrumentalizatsiya, ya'ni harakat va bosqichlarni aniqlashtirish tadbiridan iborat. Bu jarayonni tugallovchi qadam esa muammoni o'lchash, ya'ni tegishli indikatorlarni² ajratish bosqichini o'z ichiga oladi.

¹ Қаранг: Мангейм Ж.Б., Рич Р.К. Политология. Методы исследования. – М., 1997.

² Индикатор – вазиятнинг ходатини объектив ўлчовчи кўрсаткичлар, ўлчов

Aynan shu indikatorlar sabab-oqibat aloqalarini olib berishga, samarali va besamar harakat mezonlarini ishlab chiqishga, vaziyatning ijobiy hamda salbiy tomonga o‘zgarishi ko‘rsatkichlarini belgilashga xizmat qiladi.

Bunday harakatlar vaziyatning mazmun-mohiyatini soddalashtirishni va uning asosiy tushunchalarini rasmiylashtirishni nazarda tutadi. Aslida modellashtirishda maksimal rasmiylashtirishga intilish kuzatiladi, bunda ushbu siyosiy hodisalarini ta’riflash uchun matematik apparatdan keng foydalaniladi. Shu nuqtai nazardan modellashtirish tadqiqotchi tasavvurlarini ixchamlashtirish va mukammallashtirish jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada, vaziyatning ko‘lami aniqlashtiriladi, sifat ko‘rsatkichlaridan miqdor ko‘rsatkichlariga o‘tiladi, muammo batamom o‘lchanishi mumkin bo‘lgan hodisa sifatida namoyon bo‘ladi, demakki, uning ko‘lamidagi o‘zgarishlarni ham tekshirib ko‘rish mumkin bo‘ladi. Umuman olganda, model-lashtirish jarayoni mantiqan ziddiyatli bo‘lmasligi, tadqiqotchiga xulosalarni tekshirib ko‘rish imkoniyatini berishi lozim.

Siyosiy tahlilning navbatdagi - uchinchi bosqichi tadqiqot dasturini tuzish bosqichidir. Bu bosqichda aniq muammoni o‘rganish mantiqi asoslab beriladi va ifoda etiladi. Bu bosqich doirasida tadqiqotning maqsadi ta’riflanadi (muammoni o‘rganish natijasida nimaga erishiladi), belgilangan vazifani hal qilishning muqobil yo‘llari aniqlashtiriladi, ijroni tashkil etish va amalga oshirish jarayoni mufassal bayon qilinadi. Shunday qilib, bu bosqichda eng muhim omillarning muammoni hal qilishga ijobiy va salbiy ta’siri natijalari ko‘rsatiladi, vaziyatning taxminiy rivojiga oid turli muqobil yo‘llar va bashoratlar ilgari suriladi, subyekt harakatlari strategiyasi ishlab chiqiladi va hokazo.

Bunday dasturning vazifasi empirik ma’lumotlarni tartibga keltirishdir. Natijada shunday tadqiqot konstruksiyasi shakllanadiki, u mavjud va olinajak bilimlarni birlashtiradi hamda aniq amaliy vazifani hal qilishga yo‘naltirilgan tadqiqotni bosqichma-bosqich rivojlantirib borishni nazarda tutadi. Shu boisdan, bunday dasturning ishlab chiqilishi vaziyatni to‘la nazorat qilish usulining paydo bo‘lishi sifatida baholanadi.

Qanday vaziyat tahlil qilinayotgani va qanday maqsad ustuvor ekaniga ko‘ra,

siyosiy tahlilning turli dasturlari ishlab chiqilishi mumkin. Bashorat qiluvchi – vaziyatning kelgusida taxminiy rivojini o‘rganishga yo‘naltirilgan dasturlar; dolzarb-shu kundagi vaziyatning tahlili bilan bog‘liq dasturlar; retrospektiv¹ – avval sodir bo‘lgan hodisalarini o‘rganishga yangicha yondashuvlarni izlab topishga yo‘naltirilgan dasturlar shular jumlasidandir.

Siyosiy tahlilning to‘rtinchi bosqichi – muammoni o‘rganish usullarini tanlash va uni hal qilish bosqichi alohida ahamiyatga ega. Avval ta’kidlanganidek, bu bosqichda qo‘llaniladigan uslublar fanlararo tabiatga ega. Shunga qaramay, har qanday vazifaning hal qilinishi doimo tadqiqotning ustuvor vosita va usullarini tanlashni nazarda tutadi. Mazkur tanlov muammoning tabiatiga, tahlil bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislarning tayyorgarlik darajasiga, tahlil amalga oshirilayotgan shart-sharoitga bog‘liq bo‘ladi. Bunday tanlov, albatta, sifat va miqdor nuqtai nazaridan yondashishni, nazariy va empirik yondashuvlarning uyg‘unligini talab etadi. Qo‘llaniladigan usullar, shuningdek, shaklan ham farq qilishi mumkin («aqliy hujum», individual yoki guruhiy ekspertiza² va hokazo).

Tadqiqot usullarini tanlash bilan bir qatorda ushbu bosqichning ajralmas tarkibiy qismi – qoida va tadbirlarni belgilash, turli texnika hamda bilish usullarini qo‘llashni tartibga keltiruvchi harakatlar ketma-ketligini aniqlashtirish bilan bog‘liq. Bunday qoidalar, hodisalar haqida aniq va ishonchli ma’lumotlar olishga hamda ularni amaliyotda qo‘llashga xizmat qiladi.

Siyosiy tahlilni qo‘llash natijasida shakllangan bilimlar «buyurtmachi»ga yetkazilishi zarur bo‘lgan uzil-kesil yoki vaqtincha tavsiya, maslahat yoxud harakatga ko‘rsatma shaklini olishi mumkin. Ba’zida vaziyat noaniq bo‘lgan paytda tayyor tavsiya berilmay, uning o‘rniga tadqiq etilayotgan vaziyat haqidagi bilim noaniqlilagini kamaytiruvchi va «buyurtmachi»ning mavqeini oydinlashtiruvchi ma’lumotlar bilan qanoatlanish ham mumkin.

Kelib tushayotgan ma’lumotlarni to‘plash va doimiy ravishda aniqlashtirib borish siyosiy tahlilda muhim ahamiyatga ega. Tavsiyani ishlab chiqish va muammoni hal

¹ Петроспектив – ўтмишга қаратилган

² Экспертиза – мутахассисларнинг бирор масала юзасидан қатъий хулоса чиқариш учун ўтказган текшируви.

qilishda tegishli texnologiyalarni tanlash uchun ma'lumotlar qator talablarga javob bermog'i lozim:

- ma'lumot kerakli va zaruriy bo'lishi lozim, u hal qilinayotgan muammoning tabiatiga mos kelishi kerak;
- ma'lumot muammoni to'laqonli o'rghanish uchun yetarli bo'lishi kerak;
- ma'lumot ishonchli (aniq va to'gri) hamda bamavrid (kerakli vaqt va kerakli joyda berilgan) bo'lmog'i lozim.

Shuningdek, ma'lumot tahlil bilan shug'ullanayotgan mutaxasisning mavjud vaziyat haqidagi axborotga bo'lgan ehtiyojini iloji boricha qondirishi zarur. Ma'lumotlar tahlil natijalarini tekshirish imkonini ham bermog'i lozim.

Siyosiy jarayonlarni tahlil qilishda turli uslublardan foydalaniladi. Deskriptiv tahlil – voqeа-hodisalariинг turli belgilari o'rtasidagi aloqadorlikni aniqlash va tavsiflashni, umumlashtirilgan miqdor yordamida natijani baholashni nazarda tutadi. Faktor tahlil siyosiy voqeа-hodisalarni o'rghanishda ularga ta'sir ko'rsatgan oshkora va yashirin omillar tahliliga tayanadi. Siyosiy hayotda yuz bergan voqeа-hodisalarni tavsiflash asosida xulosa chiqarish ivent tahlilga misol bo'la oladi. Bunda har bir voqeа-hodisaning to'rt jihatini o'rghanishga urg'u beriladi: 1) voqeа-subyekti (tashabbuskori); 2) voqeа-hodisa obyekti; 3) o'zaro ta'sir turi; 4) voqeа sodir bo'lgan joy va vaqt. Kontent tahlil – axborot mazmunini miqdoriy tahlil qilish uslubi bo'lib, matnda (kitoblar, intervyu, gazeta maqolalari, nutqlar, tarixiy hujjatlar va h.k.) muayyan so'z va atamalarning mavjudligini aniqlashni nazarda tutadi. Bunday yo'l bilan aniqlangan miqdoriy ko'rsatkichlar matini mazmunan sharhlashga xizmat qiladi.

Determinatsion tahlil – amaliyotda mavjud qoidalarga tayangan holda muayyan voqeа-hodisalar haqida xulosa chiqarish. Pozitsion tahlil – o'rghanilayotgan jarayonning mazmun-mohiyatini aniqlash uchun unda ishtirok etayotgan siyosiy kuchlar, shaxslar, guruhlarning shu jarayonlarga munosabatini, qarashlari baholari, pozitsiyalarini o'rghanish, pozitsion sxemani yaratishdir. Resurslar tahlili – muammoni samarali hal qilish uchun yashirin va oshkora resurslarni aniqlash, raqiblarning potensial kuch-qudratini baholashga xizmat qiladigan uslub. Siyosiy tahlilda, shuningdek, kognitiv kartalardan, statistik tahlil, bixevoral tahlil, komparativ tahlil

uslublaridan ham foydalaniladi.

Seminar savollari:

1. Siyosiy tahlil qanday mohiyat va xususiyatlarga ega?
2. Siyosiy tahlilning asosiy kriteriyalari haqida ma'lumot bering.
3. Siyosiy tahlilda qanday metodlardan foydalaniladi?
4. Siyosiy tahlil qanday darajalarga bo'linadi?
5. Siyosiy tahlil nechta bosqichlarni o'z ichiga oladi?

Mustaqil ishlar topshriqlari:

1. Siyosiy tahlilning mohiyati va xususiyatlari
2. Siyosiy tahlil metodlari.
3. Siyosiy tahlil darajalari.
4. Siyosiy tahlil bosqichlari.

Ma’ruza № 2. “SIYOSIY TAHLIL” ILMIY FAN SIFATIDA

Reja:

1. Siyosiy tahlilni izohlashga doir yondashuvlar
2. Amaliy va nazariy siyosiy tadqiqotlarni maqsadi va obyekti bo'yicha farqlash
3. Amaliy va nazariy siyosiy tadqiqotlarning sub'ekt bo'yicha farqlash
4. Nazariy va amaliy tadqiqot sohasining asoslari
5. Amaliy siyosiy tahlilning metodologik ko'lamdonligi

O‘quv mashg‘ulotning maqsadi: Amaliy va nazariy tadqiqotlarni maqsad, obyekt va subyekt bo'yicha farqlanishi, nazariy va amaliy tadqiqotchilikning amaliy tahlili hamda siyosatshunoslik metodlari haqida ma'lumot berishdan iborat.

Tayanch so‘z va iboralar:

- Siyosiy tahlil
- Sotsium
- Induktsiya
- Fundamental tadqiqotchilik

Siyosiy tahlilni izohlashga doir yondashuvlar

Professional siyosatchi uchun siyosiy tahlil uslubini o'zlashtirish – kasb mahoratining muhim belgisidir. Ba'zida «tahlil» iborasining turli fan sohalarida mantiqli fikr sifatida talqin etilishi qiziqarlidir. Tahlil tushunchasi (grekcha «analysis») «bayon qilish» ma'nosini anglatadi va obyektni qismlar va bo'laklarga ajratib mulohaza yuritishni bildiradi. Mantiqiy tahlil yordamida o'rganilayotgan obyektning tuzilishi bilib olinadi (bu xol alohida predmet, hodisa yoki jarayon sifatida namoyon bo'ladi), uning tuzilishi nomavjudlikdan mavjudlik tarzida ajratib olinadi. Mantiqiy tahlil va sintez (tahlil natijasida olinadigan barcha ma'lumotlarni birlashtirish) o'rganilayotgan obyekt haqida to'liq va aniq tassavur beradi; bu uslublar fan sohalarida keng qo'llaniladi. Siyosatshunoslik ham bundan mustasno emas. Shu o'rinda “siyosiy tahlil” tushunchasini yanada aniqlashtirishga zarurat tug'iladi.

Siyosiy fanlarda siyosiy tahlilni tushunishga doir mulohazalarni ikkiga bo‘lish mumkin. Birida bu atama siyosiy muammolarni fundamental o‘rganishdagi mantiqiy tahlilning sinonimi (ma’nodoshi) deb tushuniladi. Bunday yondoshuvning vakillaridan biri mashhur siyosatshunos R.Pol hisoblanadi. Uning «Hozirgi zamon siyosiy tahlili» asarida siyosatshunoslikning nazariy muammolari, ya’ni siyosiy institatlarning funktsionallashuvi, siyosiy tizim turlari, turli siyosiy tuzumlar faoliyati, siyosiy hokimiyat tabiatini va siyosiy qadriyatlar kabi masalalar tahlil etilgan. Shu bois bu qo’llanma nazariy siyosatshunoslikning asosiy manbalaridan biriga aylanib qolgan. Ammo e’tiborli jihatni shundaki, muallif amaliy siyosatshunoslikni nazariy siyosatshunoslikdan keyingi o'rinda turuvchi omil sifatida baholaydi. Amerikalik taniqli siyosatshunos olim Dal esa bu tushunchani «umumiyligi printsiplarni qabul qilishda, siyosat falsafasining mavhum jihatlarini tushunishda qo’llanuvchi atama» deb biladi. Aniqroq aytganda, R.Dal amaliy siyosatshunoslikning vazifasi – fundamental siyosiy nazariyani amaliyotga tatbiq etishni tushunadi. Shu sababli siyosiy tahlil vazifasi nazariy siyosatshunoslik zimmasiga yuklangan.

Yana bir amerikalik siyosatshunos D.Iston ham “siyosiy tahlil” tushunchasini xuddi shunday talqin etadi. Olim «Mumtoz siyosiy fikrlar va siyosiy tahlil» turkumining muharriri sifatida (u «Inglevud Kliffs» nashriyotida chop etiladi) unda siyosiy fanlar nazariyasiga oid maqolalarni berib boradi.

Bu o'rinda biz ayrim nazariyotchi olimlarning “siyosiy tahlil” tushunchasiga mensimay qarash holatiga duch kelamiz. Bu mazkur atamaga nisbatan ikkinchi yondashuvda namoyon bo'ladi. Bu yondashuvni yoqlab chiqayotgan olimlarning aksariyati atamani hazm qila olmaydi va uni tahliliy imkoniyatlari jihatidan zaif deb hisoblaydi. Biroq, siyosatshunoslikning keyingi davrlardagi rivoji bunday mulohazalarning cheklanganini ko‘rsatdi. Aksincha, keyingi vaqtda amaliy siyosiy tadqiqotlar yo‘nalishiga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda.

Bunday yondashuv vakillari siyosiy fanlarning «dualizm»ga ega ekanini tan olishsa-da, siyosiy tadqiqotlarning nazariy va amaliy jihatlarga bo‘lishda siyosiy tahlil yo‘nalishini hisobga olish masalasini e’tibordan soqit qiladi. Bunday yondashuv vakillari siyosiy nazariyani fundamental tadqiqotchilik va amaliy siyosatga tahlilini

siyosat amaliyoti sifatida qaraydilar.

Bunday yondashuv, ayniqsa, rossiyalik siyosatshunos olimlarga xosdir. Misol uchun, A.Deggyarev siyosiy fanni ikki darajaga va siyosiy tahlilni esa ikki turga bo'ladi. Bu kabi yondashuvni g'arb olimlari tadqiqotlarida ham uchratish mumkin. Misol uchun, V.Dan siyosiy tahlilni «siyosiy jarayon haqida aniq tasavvur hosil qilish jarayoni» deb tushunadi. V.Dan ilmiy ishlab chiqarishni fundamental tadqiqotchilik sifatida tushunadi, chunki uning mohiyatini siyosiy institutlar faoliyatida qo'llanadigan asoslarni yaratish tashkil qiladi. Siyosiy nazariyotchi empirik material asosida siyosiy tizimni kuzatuvchi va u mexanizmlar vazifalarini ishlab chiquvchi ham hisoblanadi. Siyosiy fanda ishlab chiqarish amaliy siyosat bilan bog'liq hodisadir. Bunday yondashuv bilan V.Dan siyosiy tahlilning amaliy va nazariy jihatni borligini, hamda ularni bir-biridan farqlash lozimligini ta'kidlaydi. Bunday yondoshuv siyosiy jarayonni muayyan mezon sifatida qabul qilish ko'zga tashlanadi. Nazariy va amaliy siyosatshunoslikni farqlash esa «siyosiy tahlil» tushunchasini aniqlab olishda asqotadi. Chunki «amaliy siyosiy tahlil» va «nazariy siyosiy tahlil» tushunchalari o'z darajalariga ega.

Amaliy va nazariy siyosiy tadqiqotlarni maqsadi va obyekti bo'yicha farqlash

Nazariy va amaliy siyosiy tadqiqotlarni farqlash uchun kalit vazifasini o'taydigan masala – ularning bosh yo'nalishi va muammolarini o'rganishga asos bo'lgan obyektga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Amerikalik siyosatshunoslар Dj. Mengeym va R.Richilarning qarashlariga ko'ra, amaliy siyosatshunoslik ijtimoiy ehtiyojlarni qondiradigan muammolarni o'rganadi. Shu sababli bu soha xulosalari «muayyan masalani hal qilishda ko'mak beradi, jamiyat oldida turgan dolzarb muammolar yechimini topishga xizmat qiladi». Fundamental (nazariy) siyosatshunoslik esa «muayyan ehtiyojni, ya'ni hodisani anglashdagi eng yaxshi nazariy jihatlarni tadqiq etadi». Amaliy va nazariy tadqiqot obyektni bunday tushuntirishga intilishdagi umumiylig, hatto amaliy siyosatshunoslikning hozirgi siyosiy jarayon bilan bog'liqligida namoyon bo'ladi. Bizning fikrimizcha, amaliy tadqiqotlar siyosiy jarayonning oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganishga

yo‘naltirilishi lozim. Aynan shu masala uning asosiy maqsadi bo‘lishi kerak. Amaliy siyosatshunoslik duch keladigan muammoli vaziyatlar odatda zamon va makonning keskin talabidan iborat bo‘ladi hamda bu muammo amaliy siyosatshunoslikning dolzarblik xususiyatini keltirib chiqaradi. Shunday qilib, hozirgi siyosiy amaliyotning muammoli vaziyati va uning hal qilish choralarini qisqa muddatda ishlab chiqish jarayonini amaliy siyosatshunoslikning obyekti sifatida ko‘rsatish mumkin.

Nazariy tadqiqotchilikning vazifasi nisbatan fundamental muammolarni o‘rganish bo‘lib, u siyosiy olam vazifalari mexanizmlarini ishlab chiqishga yo‘naltiriladi. Odatda bu muammoni hal qilishda siyosiy jarayon keng ko‘lamda tadqiq qilinadi: nazariy-siyosatshunos o‘z faoliyati jarayonida zamon va makon xususiyatlari nuqtai nazaridan qat’iy cheklanmaydi, shu sababli u zamonaviy siyosiy tizimni avvalgi siyosiy tizimlarga qiyoslash imkoniyatiga ega bo‘ladi; uni zamon, makon va jo‘g‘rofiy xususiyatlar cheklay olmaydi. Zero, nazariy siyosatshunoslik obyekti sifatida o‘tmish va zamonaviy siyosiy tizimlarda sodir bo‘lgan va bo‘layotgan hodisalar majmuini o‘rganish hamda uning sabab-oqibatlarini ochib berishni ko‘rsatish mumkin. Siyosiy holatni bu o‘rinda biz huquqiy yoki jurnalistik nuqtai nazaridan tahlil qilayotganimiz yo‘q, aksincha, keng ko‘lamda – siyosiy tizim va institutlarni yuzaga keltirish hamda siyosiy tizimning funktsional vazifalarini tarkib toptirish ma’nosida tushunmoqdamiz.

Bundan tashqari, siyosatshunoslар tomonidan ishlab chiqilgan nazariy konstruktsiyalarni ham nazariy siyosatshunoslik obyektiga kiritish mumkin. Bu obyekt nazariy siyosatshunoslikning maxsus tadqiqot blokini tashkil qiladi, ya’ni unda muayyan davrlarda ustuvor bo‘lgan siyosiy fikrlar va siyosiy namunaviy amaliyotlar (paradigmalar) tadqiq etiladi. Biroq, siyosiy fanlarda tutgan ahamiyatiga ko‘ra bu tadqiqotni ikkinchi darajali deb hisoblash mumkin. Chunki o‘tmish siyosiy tafakkur tizimini tushuntirib berishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Siyosatshunoslikning bu ikki turi siyosiy jarayonda ishtirok nuqtai nazaridan farqlanadi va ularning asosiy tadqiq yo‘nalishlariga diqqat qilish lozim bo‘ladi. Negaki, amaliy siyosatshunoslik muammoli vaziyatlarga doir dolzarb masalalarni o‘rganishi bilan siyosiy jarayonda faol ishtirok etadi, u boshlovchi jarayon sifatida fundamental (nazariy) tadqiqotchilik uchun material beradi. Demak, amaliy siyosatshunoslik

sotsiumning (ijtimoiy-siyosiy shaxsning) siyosiy hayotdagi faoliyatini o'zgartirishga ta'sir ko'rsatadiki, bu siyosiy-nazariy tadqiqotchilik obyektining shakllanishiga olib keladi.

Ta'kidlash lozimki, bizning bu nuqtai nazarimizdan farqli o'laroq, siyosatshunoslikda amaliy va nazariy siyosatshunoslikni farqlab ko'rsatuvchi muqobil variantlar ham bor. Masalan, kanadalik siyosatshunos A.Pal bu ikki siyosatshunoslik tipini tan olgan holda hisoblaydiki, amaliy va nazariy siyosatshunoslik turli siyosiy jarayonlar elementlarini o'rganishga yo'naltirilgan. Shu sababli olim muayyan siyosiy holatlarni o'rganish va uning natijalariga e'tibor qaratadi. Bu borada u quyidagilarni ta'kidlab ko'rsatadi: 1) iqtisod, madaniyat, siyosiy partiyalar, jamoatchilik fikri va guruhlarning qiziqishlari; 2) siyosiy jarayonni o'rganish uchun vazifa qo'yish va uning yechimlarini topish; 3) muayyan siyosiy kurs yoki siyosiy-ijtimoiy tizim, iqtisodiyot yo'nalishlarini amaliyotga tatbiq etish. L. Pakning fikricha, nazariy siyosatshunoslik hamisha siyosiy reja va holatlar bilan moslashadi, bunda amaliy siyosatshunoslik siyosiy reja va uning natijalari o'rtaсидagi munosabatlarni o'rganadi.

Biroq bu fikrni to'liq qabul qilmaslik lozim. Chunki nazariy siyosatshunoslik muayyan siyosatning iqtisod, jamiyatning ijtimoiy va siyosiy tizimida amaliyotga tatbiq etilgan jarayon natijalarini e'tibordan chetda qoldirmaydi, bunday sharoitda amaliy siyosatshunoslik ham siyosatchilarning holatlarini o'rganishni nazardan qochirmaydi. Shu ma'noda amaliy va nazariy siyosatshunoslik ob'ektlarini turlicha belgilash ishonchsiz bo'lib qoladi, xususan bu ikki soha siyosiy jarayonning barcha bosqichlarini o'rganadi. Ayni paytda, birinchidan, turli maqsad bo'yicha, ikkinchidan, turli zamon va makon nuqtai nazaridan siyosiy jarayonlarni o'rganadi.

Amaliy va nazariy siyosiy tadqiqotlarning subyekt bo'yicha farqlari

Nazariy va amaliy va siyosatshunoslik subyekt bo'yicha ham farqlanadi. Nazariy siyosatshunoslikning subyekti, avvalo, olim-siyosatshunoslarni o'zida birlashtirgan yirik universitet va institutlar hisoblanadi. Amaliy siyosatshunoslik subyekti esa firmalar yoki davlat tashkilotlarining analistik markazlari hisoblanadi (bunday tasniflash quyiroqda bat afsil izohlab beriladi).

Shuningdek, tadqiqotning bevosa sub'ektlari bo'lishi mumkinligini ham

ta'kidlab o'tish joiz. Biz ularni buyurtmachilar deb ataymiz. Bunday holatda buyurtmachi amaliy siyosatshunoslikdan muayyan dolzarb muammolar bo'yicha tahlil yoki maslahatlar ko'lmini olishni istaydi. Bunda buyurtmachi aniq sub'ekt sifatida namoyon bo'ladi, nazariy siyosatshunoslikda esa buyurtmachi mavhum sub'ektga aylanadi. Shuning uchun ko'pchilik siyosatshunoslar «Xaridor» maqomini belgilashda murakkablikka duch keladilar. Masalan, D.Veymer va A.Vay «Buyurtmachi» deganda nazariyachi olimlarni o'zini nazarda tutadi va ularni «ijtimoiy shaxs haqida haqiqatni biluvchi ilmiy jamoatchilik» deb atashadi. Biroq bunday tushunishni haqiqat sifatida qabul qilish qiyin. Chunki amerikalik olimlar fikricha, olimlarning o'zları buyurtmachi bo'lib chiqmoqdalar. Aksincha, jamiyatning o'zi buyurtmachi bo'lishi kerak. Chunki jamiyat siyosiy olam mexanizmlari funksional vazifalaridan xabardor bo'lishni istaydi. Bu da'veoni universitet va institutlarning fundamental tadqiqotchilik bilan shug'ullanishi hamda davlat tomonidan moliyalashtirilishi ham isbotlaydi. holbuki, nazariyachi olimlarning o'zları ham soliq to'lovchilar hisoblanadi.

Shunday qilib nazariy va amaliy siyosatshunoslikni quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

1-jadval.

Nazariy va amaliy siyosatshunoslikning farqli tamoyillari

Qiyos mezonlari	Nazariy siyosatshunoslik	Amaliy siyosatshunoslik
Maqsad	Siyosiy olam mexanizmlarining funksional mexanizmlarini ochish	Siyosiy holat oldida turgan dolzarb muammolar yechimini topish
Obyekt	Zamon va makon nuqtai nazaridan qat'iy nazar, siyosiy jarayonlar	Zamon va makon nuqtai nazaridan qat'iy muammolardan iborat vaziyatlar
Siyosiy jarayonda ishtirok etish	Keng ma'noda passiv	Keng ma'noda faol

Subyekt	Maxsus ilmiy birlashmalar (universitet va institut) olimlari	Maxsus ilmiy markazlar yoki davlat tuzilmalarida ishlovchi shaxslar
Bilvosita subyekt (buyurtmachi)	Ijtimoiy shaxs	Siyosiy holatlar

Nazariy va amaliy tadqiqot sohasining asoslari

Nazariy va amaliy siyosatshunoslikni farqlash siyosiy tahlil asoslarini aniqlashtirib boradi. Zero, agar «amaliy siyosiy tahlil» va «nazariy siyosiy tahlil» atamalarini ishlatsak, bu bilan biz jiddiy metodologik fenomenni e'tirof etgan bo'lamiz. Shu ma'noda, nazariy nazariy va amaliy siyosatshunoslik tadqiqotlarida ishlatiladigan analitik yondashuvlar boshqa fanlarda ishlatilmasligini asoslab berishimiz lozim bo'ladi.

Avvalo fundamental (nazariy) tadqiqotchilik haqida. Bu tadqiqotchilikda siyosiy hodisalar sababini ochishda mantiqli tahlildan foydalaniladi. Natijada siyosiy jarayonda umumilmiy analitik xususiyatga ega bo'linadi. Bunday holatda siyosiy tahlil nazariyasi haqida emas, balki nazariy siyosatshunoslikda asosan mantiqli tahlil xususida fikrlash o'rinnlidir.

Buning yaqqol misolini Dj. Mangeym va R.Richlarning siyosiy nazariya tarkiblariga doir bayonlarida ko'rish mumkin. Ular siyosiy nazariyani tarkib toptirishda asosan induktsiya va deduktsiya metodlariga urg'u beradilar, biroq bu metodlar umumilmiy hisoblanib va barcha fanlarda foydalaniladi. Shu sababli bu metodlarni faqat siyosiy tahlilga xos metodlar deb bo'lmaydi.

Dj. Mangeym va R.Richlarning siyosiy tadqiqotchilikda induktsiya va deduktsiya metodlaridan foydalanishlari bejiz emas, u mantiq ilmi tajribasidan olinib, siyosiy tadqiqotchilikda istifoda etilgan. Zero, amerikalik siyosatshunoslari induktsiyani (xususiylikdan umumiyligka o'tishni) mantiq qoidasiga binoan qo'llaydilar. Bunday holatda siyosiy kategoriylar bir mantiq ipiga tiziladi. Masalan:

«Barcha afroamerikanlar Midltaunda basketbol o'ynashni biladilar, demak, barcha afroamerikanlar basketbolda o'ynashni biladilar». Bunday holatda misol siyosiy bo'yog'ini yo'qotdi va induktsiya aniq ma'noni bera olmadi. Shuning uchun, mantiq metodlaridan (aynan induktsiya va deduktsiya) foydalanish bilan cheklanish maqsadga muvofiq emas.

Ayni vaqtida «nazariy siyosiy tahlil» atamasini qo'llash tarafдорлари talqinni o'zgaga taqdim qilishlari mumkin. Ya'ni, bu atama turli siyosiy amaliyotlar va maktablarni tahlil qilishda yagona metod bo'lmosh'i shart. Albatta, siyosiy hodisani marksistik yoki bixeveriolistik maktablar nuqtai nazaridan baholashda turlicha yondashishlar lozimdir. Biroq, nazariy siyosiy tahlil, bu metod boshqa fan sohalarida keng qo'llanilmasa, kengroq imkoniyat berishi mumkin, natijada umumijtimoiy tahlil maktablarida alohida o'ringa ega bo'ladi.

Ayni paytda, ijtimoiy-gumanitar fanlar tarkibida siyosatshunoslikning rivojlanayotganligi, uning shartli metodlarga asosan taraqqiy ettirib bo'lmasligini ko'rsatadi. Buni tushunish uchun XX asr siyosiy fanining tadrijiy rivojiga qarash kifoyadir. Zero, II jahon urushi davrigacha bo'lgan siyosatshunoslikda qat'iy ratsionalistik yo'nalishni tavsiya etuvchi siyosiy tahlil ko'zga tashlanadi. Shuningdek, siyosatshunoslikni tabiiy fanlar darajasiga olib chiquvchi siyosiy qonuniyatga qat'iy amal qilish an'ana bo'lgan. Bunday yondashuv barcha gumanitar fanlar uchun xos bo'lib, ularga O.Kantning g'oyaviy ta'siri kuchli bo'lgan. Zero, O.Kantni mutlaqo siyosiy mutafakkir deb bo'lmaydi. Shu ma'noda II jahon urushigacha va undan keyingi dastlabki yillarda pozivitistlar tomonidan qo'llanilgan g'oyalar umumgumanitar fanlarga tegishlidir.

II jahon urushidan keyingi davrda pozivitistlarning inqirozi barcha umumgumanitar fanlarga, jumladan, siyosatshunoslik rivojiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Unda pozivitistlarning metodini siyosatshunoslikda qo'llab bo'lmasligini ko'rsatdi va bu muqobil siyosiy yondashuvlar kelib chiqishiga olib keldi. Ulardan biri kundalik yoki bixeveriolistik yondashuv bo'lib, u siyosiy faoliyatni psixologik motivatsiyalar asosida tahlil qilishga kirishdi. Biroq bu yondashuv 1913 yilda psixologiyaning bir yo'nalishi sifatida paydo bo'lganligi bilan siyosiy fenomen bo'la

olmaydi, u psixologiyaning analitik xususiyatlarini qabul qilgan, xolos.

Hozirgi zamon siyosatshunoslik nazariyasi metodologik namunalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ular nafaqat siyosiy tadqiqotchilikda qo'llanilmoqda, balki barcha gumanitar fanlar konteksti uchun ko'p tomonlamalikni tug'dira olmaydi. Masalan, qiyosiy tahlil metodi bir necha jamiyatshunoslik fanlarida qo'llanilmoqda; komperativ metod avval sotsiologiyada, so'ngra siyosatshunoslikda qo'llandi. Bu o'rinda tizimli tahlil – sotsiologiya va iqtisodda keng qo'llanilganini va shundan keyingina uni siyosatshunoslik qabul qilganini unutib bo'lmaydi.

Ma'lumki, bugungi kunda madaniy yondashuv ham ommalashib bormoqda. Mazkur metod ham boshqa gumanitar fanlardan olinib, siyosiy material tahliliga tatbiq etilmoqda. Muayyan xalq yoki millat siyosiy madaniyatining asoslari madaniyatga oid tadqiqotning tarixiy metod asosida dalillab berilishiga binoan ko'rsatilib, unga siyosiy bo'yoq beriladi, xolos. Ushbu yondashuvda analitik uslub tarix va madaniyatshunoslikdan olinadi. O'zga tomondan, u bixevoiralistik yo'naliш kasb etib, individning siyosiy xulq-atvori uning milliy va ijtimoiy xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanmoqda. Demak, madaniy yondashuv ham psixologiya metodlaridan istifoda etmoqda.

Ta'kidlash lozimki, siyosiy nazariyachi olimlar falsafa, antropologiya va sotsiologiya sohalarida ham faoliyat ko'rsatishmoqda. K.Marks, M.Veyer, E.Dyurkgeym va Yu.Xabermaslarni sotsiologiya ham «o'ziniki» hisoblanishi bejiz emas. Bu – gumanitar fanlarda metodologiyaning umumiyligi bo'lishini, bular esa pozivistik, kundalik, sistem, marksistik, funktsional tuzilishi, madaniy va komparativ yondashuv kabi metodlarning mavjud ekanligini ko'rsatadi. Zero, siyosiy tahlilda umumgumanitar fanlar metodlaridan foydalanish bilan cheklanib qolish, hech qanday natija bermaydi.

Siyosatshunoslik metodlari haqida fikr-mulohazalar

Ta'kidlash lozimki, hozirgi zamon siyosatshunoslik ilmida uch metod asosiy o'rin tutadi.

Birinchisi umumiyligi metod bo'lib, u gumanitar va tabiiy fanlarga birdek tegishlidir.

Ikkinchи guruuh metodlariga obyektni o‘rganish va baholashdan kelib, chiqib yondashiladi. Buni yuqorida ko‘rdik va u faqat siyosiy fanlargagina tegishli emasligini aniqladik.

Uchinchи guruuh metodlari borasida siyosatshunoslar orasida yakdillik yo’q. Ba’zilar empirik metodni xush ko‘radi, ma’lumot yig‘ish metodi siyosatshunoslikka emas, balki sotsiologiyaga tegishlidir. Lekin, amaliy siyosatshunoslik faqat empirik material yig‘ish bilan shug‘ullanishi ham ma’lumdir.

O‘zga tadqiqotchilar siyosatshunoslik fani ishlab chiqqan metodlarga rioya qilishni uqtirib o‘tadilar. Biroq bunday metodlarni ko‘rsatishda murakkablik kelib chiqadi, chunki ularning ko‘pchiligi amaliy siyosatshunoslikka tegishlidir. Ba’zilar nazariy siyosatshunoslikning o‘z analitik yondashuvi mavjudligini rad etishadi. Ularning fikricha, nazariy siyosatshunoslik o‘z metodi va texnikasiga ega emas, u o‘z tadqiqot obyektiga qarab, muayyan fan metodi va texnikasini qabul qiladi.

Amaliy siyosiy tahlilning metodologik ko‘lamdorligi

Zero, siyosiy tahlilni nazariy va amaliy qismlarga bo‘lish u qadar to‘g‘ri emas. Siyosiy tahlil deganda xususiy amaliy siyosiy tahlilni tushunish lozim. To‘liq ishonch hosil qilish uchun amaliy siyosiy tahlil metodologik jihatdan ko‘lamdorlikni rad etishiga e‘tibor berish lozim.

Ta‘kidlash lozimki, psixologiya va boshqaruv nazariyasi fanlaridan amaliy siyosiy tahlil asoslanadigan metodlar o‘zlashtirilgan. Shu ma’noda, amaliy siyosiy tahlil o‘z maxsus metodlarini ishlab chiqishga harakat qilmagan. Bir tomondan, amaliy siyosiy tahlil metodlari sayqallanish bosqichidan o‘tgan va siyosiy tahlil spetsifikasiga moslashib, yangi siyosiy tahlil kasb etdi. Bu ko‘p hollarda amaliy siyosiy tahlil spetsifikasiga xos mavjud siyosiy amaliyatga qat’iy va aniq yondashuvlar bilan bog‘liqdir. Shu ma’noda, amaliy siyosiy tahlil «tarixiy ildiz»ga ega bo‘lishiga qaramay o‘z tadqiqotchiligi priyom va metodlarini ta’sis eta oldi. Ular, **birinchidan**, «o‘z tabiat»ga ko‘ra, individual, **ikkinchidan**, o‘zga fanlarda qo‘llanilmaydigan xususiyatga egadir. Zero, amaliy siyosiy tahlil nazariy tadqiqot obyektini aniqlashda ham, empirik materiallarni qayta ishlashda ham ishtirot etadi. Demak, amaliy siyosiy tahlilning imkoniyatlari kattadir.

Seminar savollari:

1. “Siyosiy tahlil” atamasini tushuntirib bering va unga qanday yondashuvlar mavjud?
2. Siyosatshunos olim A.Pal amaliy va nazariy siyosatshunoslikni qaysi mezonlarga ko’ra farqlanishini ko’rsatib bergen?
3. Hozirgi zamon siyosatshunoslik ilmidagi metodlarni sanab bering.
4. Tizimli tahlil siyosatshunoslikdan tashqari nima sababdan sotsiologiya va iqtisodda ham keng qo’llaniladi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Nazariy va amaliy siyosatshunoslikning o’zaro farqlarini o‘rganib chiqqan holda, ularning farqlanishini jadval shaklida ifodalang hamda slayd holiga keltiring.
2. “Siyosiy tahlilning boshqa siyosiy fanlar tizimida tutgan o‘rni” mavzuidagi materiallarni tahlil qilgan holda, ilmiy maqola tayyorlang.

Ma’ruza № 3. TAHLIL: MOHIYATI VA TAVSIFI. ASOSIY TUSHUNCHALARNI ANIQLASH

Reja:

1. Siyosiy tahlil ko’lami
2. Siyosat – «public policy» va «politics» sifatida
3. Siyosiy tahlilning asosiy bosqichlari va uning subyektlari
4. Siyosiy tahlilning g‘ayrishakli
5. Siyosiy vaziyat tahlilining umumiyligi vertikal va umumiyligi gorizontal tiplari.
6. Siyosiy vaziyatni tahlil qilishning usullari.
7. Siyosiy istiqbolni belgilash (rejalashtirish)

O‘quv mashg‘ulotning maqsadi: Siyosiy tahlil tushunchasiga turli yondashuvlar, siyosiy vaziyat tahlilining turli metodlari va tiplari, siyosiy istiqbolni belgilash haqida talabalarga ma’lumot berishdan iborat.

Tayanch so‘z va iboralar:

- Public policy analysis
- Political analysis
- Institual tahlil
- Prognoz

Siyosiy tahlil ko’lami

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, amaliy siyosiy tahlil keng imkoniyatlarga ega va aynan «siyosiy tahlil» deganimizda amaliy tahlilni tushunishimiz kerak. Siyosiy tahlilni ikki bosqichga bo‘lish emas. Bunday yondashuv «siyosiy tahlil»ga nisbatan uchinchi munosabatni bildiradi va u aniq spetsifik xususiyatga egadir.

Alovida ta’kidlash kerak, biz nazariy siyosiy tadqiqotchilik rolini pasaytirib ko‘rsatmaymiz. Amaliy siyosatshunoslik tadqiqot obyektini tanlash va analitik yondashuvda maxsus xususiyatga egadir.

Siyosiy tahlilning tuzilishi

G‘arb siyosatshunoslik ilmida siyosiy tahlilni amaliy tahlil sifatida tushunish ko‘p uchraydi. Masalan, A.Vladavskiy «Hokimiyat haqida haqiqatni aytaman: siyosiy tahlil san’ati va mahorati» kitobida siyosiy tahlilni zamonaviy siyosiy jarayon oldida

turgan dolzarb siyosiy muammolar yechimini beruvchi holat, deb baholagan. Shu sababli u siyosiy tahlil – amaliy fan, deya aniq ta’rif beradi.

D.Veyner va A.Vayninglar ham siyosiy tahlilga qat’iy ta’rif beradilar. Ularning fikricha, siyosiy tahlil – xaridorga yo‘naltirilgan maslahatlar bo‘lib, unda ommaviy qarorlar qabul qilish va ijtimoiy qadriyatlarni belgilash o‘z ifodasini topishi zarurdir. Ko‘ramizki, bu fikrda amaliy siyosatshunoslik o‘z aksini topgan bo‘lib, unda xaridorga aniq yo‘nalish berish va siyosiy qaror qabul qilishda bevosita ishtirok etish mavjud. Shunday qilib, D.Veyner va A.Vayninglar siyosiy tahlilni bevosita amaliy tadqiqotchilik bilan bog‘laydi.

V.Vilyams ham siyosiy tahlilni o‘ziga xos tarzda tushunadi. Uningcha, siyosiy tahlil «informatsiya ko‘lamini sintezlashdir (unga tadqiqot natijasi ham kiradi) va undan siyosiy qaror qabul qilishda hamda ma’lumot iste’molchisi uchun siyosiy istiqbolni belgilashda foydalilanadi». V.Vilyams ham siyosiy qaror qabul qilishda siyosiy tahlil ta’sirini yuqori baholaydi va fanning amaliy jihatiga urg‘u beradi.

G‘arb olimlari zamonaviy siyosiy jarayonlarda dolzarb masalalar bo‘yicha siyosiy qaror qabul qilishda siyosiy tahlilning tutgan ahamiyatini to‘g‘ri ta’kidlab ko‘rsatadilar. Ayni paytda, ta’kidlash lozimki, siyosiy qaror qabul qilishda ikki omil muhim:

1) siyosiy jarayon tahlili; 2) uni taraqqiy ettirish versiyalarini berish. Shu ma’noda V.Vilyams siyosiy tahlilning istiqbol rejasini asoslab berishga harakat qilgan, biroq u bu borada ko‘pgina biryoqlamalikka yo‘l qo‘ygan. Chunki siyosiy tahlil nafaqat ma’lumotlar istiqbol rejasini berish bilan, balki hodisalarni tahlil qilish bilan ham shug‘ullanadi. Bundan tashqari, siyosiy tahlil qaror qabul qilish yo‘nalishlarini, yangi muammo olish tartiblarini va bir necha istiqbol rejalarini ishlab chiqadi.

Shunday qilib, bizningcha, siyosiy tahlil quyidagi tarkibiy qismlarni qamrab oladi: siyosiy jarayonni tahlil qilish, uning istiqbolli rejasini va ma’qul siyosiy qaror qabul qilish yo‘llarini ishlab chiqadi. Bulardan kelib chiqib, siyosiy tahlil – turli metodlar to‘plami bo‘lib, uning yordamida aniq siyosiy holat tahlilini amalga oshirish va uning taraqqiy yo‘llarini ishlab chiqish hamda maqbul siyosiy qaror qabul qilishda foydalanish mumkin.

«Public policy analysis» va «political analysis» atamalarining tarjimasi haqida

Siyosiy analiz atamasining mundarijasini belgilashda bir necha so‘zning mohiyatini o‘rganish muhim o‘rin tutadi. Jumladan, «siyosiy tahlil» atamasini ingliz tiliga ikki xil tarjima qilish mumkin. Bular: «public policy analysis» va «political analysis» so‘zlaridir. Har ikkala so‘z ham o‘zbek tilida «siyosat» ma’nosini anglatadi. Ingliz tilida esa bu so‘zlar turli ma’nolarda ishlatiladi. Shu sababli amerikalik siyosatshunoslar “siyosiy tahlil” deganda «political analysis»ni ishlatishadi, o‘zgalar esa «political analysis» atamasini siyosiy jarayonni tahlil qilish ma’nosida ishlatishadi.

Demak, g‘arb olimlarida ham bu atamalarni ishlatishda yakdillik yo‘q.

Siyosat – «public policy» va «politics» sifatida

Avvalo, g‘arb siyosatshunoslari «public policy» atamasini ishlatganda qanday ma’no tushunishlari bilan tanishib chiqamiz. Bu atama ishlatilganda asosan davlat tuzilmalari tomonidan amalga oshirilgan aniq tadbirlar ko‘zda tutiladi. Masalan, A.Pal bu atamani «saylab qo‘yiladigan hokimiyatning harakat yoki harakatsizlik kursi va muammoni guruh tomonidan yechishga yo‘naltirilgan omil» sifatida ishlatadi. Dj.Mangeym va R.Richlar uni «hokimiyat xodimlarining aniq sxema bo‘yicha harakati yoki harakatsizligi» ma’nosida ishlatadi. «Brunsvik» nashriyotining siyosiy lug‘atida bu atamaga «saylab qo‘yilgan yoki tayinlangan davlat xizmatchilarining amaldagi qonunchilik xujjaligiga asosan amalga oshiriladigan faoliyatlar majmui» deb izoh berilgan.

Aniq siyosiy kurs amaliy siyosatshunoslik tomonidan ko‘rib chiqiladi, lekin u yagona obyekt emas. Fikrimizcha, biz amaliy tahlil jarayonida turli xatti-harakatlarni ham hisobga olishimiz kerak. Masalan, parlament o‘z vakillariga ega bo‘lmagan siyosiy partiyalarning bosimi, raddiyasi va e’tirozlari kabi xatti-harakatlar shular jumlasidandir. Ularning faoliyati «public policy»ga kirmaydi. Shuningdek, muayyan hukumatning siyosiy kursi ham umumqiziqishni ifodalamasligi mumkin. Natijada «public policy» nazariy siyosatshunoslik obyektiga aylanib qoladi.

«Politics» atama ham «public policy» singari muayyan ma’noga ega. Biroq bu atama asosan jamiyatda hokimiyatning taqsimlanishi sharoitida shaxslar va guruhlarga

bo‘lgan munosabat ma’nosida ishlataladi. Bu munosabatda muayyan ziddiyatlarning bo‘lishi tabiiy hol. Shu ma’noda Vinters va Bennouz «politics» atamasini «muayyan maqsadga intiluvchi kishilarining kurashi va uning natijasida qadriyatlarni avtoritar tarzda taqsimlash» ma’nolarida ishlatishadi. Amerikalik siyosatshunos K.Rayt esa bu atamani «sun’iy ta’sir, qamrab olish va siyosiy guruhlarning uyushgan kuch sifatida nazorat qilishi hamda muqobil kuchlarga qarshi holat» ma’nosida qo‘llaydi.

Tahlillar ko‘rsatadiki, «politics» atamasi ham «public policy» atamasi kabi muayyan siyosatshunoslikka xos tushuncha emas. Shu ma’noda, bu atama ham nazariy, ham amaliy siyosatshunoslikka oid tushunchadir.

Siyosiy tahlil – «political analysis» va «public policy analysis» sifatida

«Political analysis» atamasi nazariy, «public policy analysis» atamasi esa amaliy siyosatshunoslikka xos tushunchalar emas. Chunki ko‘p olimlar «politicas analyseys» atamasini «nazariy tahlil» ma’nosida ishlatishadi.

Fikrimizcha, «siyosiy tahlil» atamasi «public policy and political analysis» (siyosatning amaliy siyosiy tahlili) tushunchasini ifodalaydi. Chunki «public policy analysis» va «political analysis» atamalari siyosiy tahlil ma’nosida to‘liq ifodalanmaydi.

Ayni paytda, «public policy and political analysis» atamasi g‘arb siyosatshunoslida uchramaydi. Lekin bu atamani siyosiy tahlil ma’nosida ishlatishdan cho‘chimasligimiz lozim.

Siyosiy tahlilning asosiy bosqichlari va uning subyektlari

Siyosiy vaziyat tahlili

Siyosiy tahlil mazmunini chuqurlashtirish va to‘ldirish uchun uning muayyan bosqichlarini tahlil qilishimiz lozim bo‘ladi.

«Siyosiy vaziyat» tushunchasi

Siyosiy tahlilning birinchi bosqichi vaziyatni tahlil qilishdan iboratdir. Vaziyatni tahlil qilish – siyosiy tahlil binosining o‘ziga xos poydevoridir. Siyosiy olamdagi mavjud vaziyatni tahlil qilmasdan, istiqbolni belgilab yoki siyosiy qaror qabul qilib bo‘lmaydi. Shu ma’noda, binoning baquvvat bo‘lishi uchun uning poydevoriga jiddiy diqqat qilish lozim, albatta. Shuningdek, siyosiy tahlilda vaziyatni hisobga olmaslik

xatolar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Demak, vaziyatni izchil tahlil qilish shart.

Siyosiy vaziyat deganda, biz siyosiy tizim holati va muayyan davrda uning tuzilmalari o‘zaro hamkorligini nazarda tutamiz. Shunday qilib, siyosiy vaziyatni to‘liq tahlil qilish hozirgi jamiyat siyosiy tizimining barcha jihatlarini qamrab olishi lozim. Zamonaviy amaliy siyosat uchun esa zaruratdir. Vaziyatning dolzarbliji – unga xos xususiyatdir.

Ta’kidlash lozimki, ko‘pgina siyosatshunoslar siyosiy vaziyatni bizning qarashimiz bo‘yicha tushunishadi. Masalan, rossiyalik olim Xrustalyov siyosiy vaziyat deganda, «siyosiy tizim instituti va sohalari munosabatlarining majmuini va ular kuchlarining tengligini» tushunadi. Bizningcha, u sub'ektlarni nihoyatda keng ma'noda tushunadi va ularni «boshqaruvchi elita», «siyosiy muxolifatlar va siyosiy neytral turuvchilar» guruhlariga bo‘ladi. Subyektlar umumlashtirilib vaziyat tahlil qilinsa, vaziyatning megamodeliga ega bo‘lamiz. U ikki mezondan iborat: 1) mamlakatda mavjud siyosiy rejim; 2) ichki siyosat darajasi. Siyosiy tahlilning zamonaviy shaklida har bir masalani aniq detallar asosida ko‘rib chiqish kerak. Ya’ni, yirik sanoat va moliya kompaniyalari, OAV, mustaqil siyosiy markazlar e’tibordan chetda qolmasligi lozim. Ayni paytda, biror yirik kompaniya siyosiy mavqega ega bo‘lsa, uning siyosiy vaziyatda ta’siri yuqori bo‘lishi tahlilga ta’sir qilmasligi lozim. Chunki mazkur kompaniyalar asosan siyosiy rahbariyatning irodasini ifodalaydi va unda o‘z manfaatlarini ijroiya hokimiyati vositasida ro‘yobga chiqarish holati yuzaga keladi. Shuningdek, o‘z muxoliflaridan parlamentda qonunlarga o‘zgartirishlar kiritish bilan g‘olib kelish hissi paydo bo‘ladi. OAV bilan esa vaziyat boshqacha, ularning ko‘pchiligi siyosat subyekti sifatida mustaqil ishtirot etadi.

Siyosiy tahlilning g‘ayri shakli

Siyosiy vaziyat tahlili siyosiy hayotning shakllanishi bosqichida samarali bo‘ladi. Chunki bunday paytda siyosiy vositalar kam bo‘ladi. Bunday siyosiy tahlilning ilk namunalari Arastu tomonidan qadimgi yunon shahar siyosati misolida yaxshi tushuntirib berilgan. Unda ma’muriy boshqaruv tizimi har bir shaharda turlicha bo‘lgan, biroq ularda siyosiy subyektlar tanqisligi sezilgan. Har bir yunon shahrida oliy hukumat bo‘lib, uning siyosiy qurilishini anglash uchun yagona boshqaruv organi

faoliyatiga nazar tashlash mumkin. Chunki shaharni alal oqibatda yagona siyosiy organ boshqaradi. Arastu deydiki, shahar oliv hukumatlari «bevosita bir kishi yoki ko‘pchilikning qo‘lida to‘plangan». U uch «mantiqiy to‘g‘ri» davlatchilik shaklini ko‘rsatib beradi: monarxiya, aristokratiya va siyosat. Ular «bir odam yoki ko‘pchilik tomonidan boshqariladi». Shuningdek, davlatchilikning uch yaroqsiz shakli ham bor: mustabid («yakkahukmron shaxs boshqaruvchi hokimiyat»), oligarx («maqbul siyosatchi boshqaruvidagi hokimiyat») va demokratik («ko‘pchilik manfaati ustuvor hokimiyat»).

Shunday qilib, Arastu o‘z davri siyosiy tuzilmasini aniq ko‘rsatib, uning mohiyatini ham tahlil qilib bergen. Ma'lumki, bugungi kunda siyosiy tizim ko‘لامi kengaydi va uning ichki tuzilmalari ham o‘ziga xoslik kasb etmoqda. Shuningdek, yangi siyosiy tizimlar yuzaga kelib, uni murakkab holatga keltirgan. Yunon shahar davlatida hokimiyat taqsimlanishi yo‘q edi hamda siyosiy partiylar ham, OAV, siyosiy korporatsiyalar ham yo‘q edi.

Ta'kidlash lozimki, hozirgi siyosiy tizimlarga nisbatan qadim yunon shahar davlatchiligi «qulaylik»ka ega edi, ayni paytda, Arastu tahlillarini o‘sha davr siyosiy vaziyati tahlili sifatida qabul qilib bo‘lmaydi. Avvalo, u yunon siyosiy tizimini tahlil qilgan, ammo siyosiy amaliyotning dolzarb muammolarini ko‘rsatib bermagan. Uning maqsadi davlat qurilishining maqbul kodeksini topish edi. Shu ma'noda, Lakedemon, Krit, Karfagenlar ham shahar davlat siyosatini «ideal davlat qurilishiga mosligi yoki mos emasligi» nuqtai nazardan o‘rganishgan.

Arastu tahlillarini siyosiy vaziyat tahlili sifatida qabul qilmaslikning ikkinchi sababi – faylasuf muayyan masalani nazariy jihatdan asoslab berishni maqsad qilib qo‘ygan, shu sabab uning qarashlari siyosiy nazariyaga to‘g‘ri keladi. Uning tadqiqotlari tezkor emas, materiallar yig‘ish uzoq vaqt ni oladi, natijada dolzarblik yo‘qoladi. Bu Arastu tadqiqotlarini kamsitish emas, uning maqsadi boshqa edi. Bizni esa tadqiqotning amaliy jihatni qiziqtiradi. Shu sababli uning «Siyosat» asari bugun ham mumtoz nazariya sifatida o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Bugungi siyosiy tahlil uchun «meva kurtagi» bo‘lib xizmat qiladi. Shu ma'noda, nazariy tadqiqotchilik tezkorlik kasb etmasligi lozim. Uning vazifasi - siyosiy tahlilda siyosiy institutlar faoliyatini

tahlil qilish, uning ahamiyati va rivojlanish yo‘llarini ko‘rsatib berish.

Arastu tomonidan ilgari surilgan bu ikki g‘oya XX asrga asosiy omil bo‘lib keldi. U Nikolo Makiavelli, Tomas Mor, Sharl Monteskye, Jon Styuart Mill, Jon Lokklar qarashlariga ta’siri oz bo‘ldi. XIX asrda siyosiy jarayon biroz o‘zgargach, vaziyat ham o‘zgardi, natijada siyosiy nazariyachilar amaliy faoliyatda faol ishtirok eta boshladilar. Albatta, siyosiy nazariyachilarning amaliyotdagi faolligi Arastudan boshlangan, u Iskandar Zulqarnaynning ustozি edi. Nikola Makiavelli esa 14 yil davomida Florensiya respublikasi hukumatida turli lavozimlarda xizmat qilib, siyosiy shaxs sifatida tanilgan. Bizning tariximizda esa siyosat nazariyachisi Yusuf Xos Hojibning (XI asr) Qoraxoniy hukmdorlarga 17 yil davlat maslahatchisi («xos hojib») bo‘lib xizmat qilganligi ma'lum. Biroq, ko‘p hollarda ular nazariyachi sifatida nom qoldirganlar.

XIX asrning II yarmida OAVning paydo bo‘lishi siyosiy vaziyat tahliliga bo‘lgan yondashuvni o‘zgartirdi. Bu holda siyosiy tahlilning g‘ayrishakli sifatida qarash mumkin. Shunday qilib siyosiy tahlilning to‘liq tuzilmasi XIX asrning II yarmida sanoat ishlab chiqarishi bilan bir vaqtida paydo bo‘ldi. Shu davrda hokimiyat taqsimplanishi yuzaga keldi. Jumladan, parlament institutining ahamiyat kasb eta boshlashi, siyosiy partiylar rolining oshishi, ma’muriy davlat boshqaruving ajralishi, jamoat va iqtisodiyot tashkilotlarining ko‘payishi ham OAVning davlat tuzilmalari bilan munosabatga kirishishida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bularning barchasi siyosiy vaziyatni tahlil qilish omillarini yuzaga keltirdi va uning mustaqil jarayon sifatida shakllanishiga asos bo‘ldi. Natijada uning siyosiy ekspertlari paydo bo‘ldi.

Siyosiy vaziyat tahlilining umumiyo‘ vertikal tipi.

Siyosiy tahlillar ichida butun siyosiy tizimni jiddiy tahlil tipi murakkab shakl hisoblanadi. Umumiyo‘ siyosiy tahlilni yuzaga keltirish uchun ikki yondashuv hisobga olinishi lozim.

Birinchisi, siyosiy tizimni institatlarga bo‘lish va ularni alohida tahlil qilib, o‘zaro munosabatlarini o‘rganish iborat. Bu tahlilni vertikal yoki institusional deb atash mumkin. Chunki unda quyidagi siyosiy isntitutlar tahlilga tortiladi: Prezident hokimiysi organlari, hukumat, parlament, siyosiy partiylar, jamoat-siyosiy tashkilotlari, OAV va h.k. Bu tahlil xorijiy davlatlarda keng qo‘llaniladi.

Ikkinchи yondashuv siyosiy institutlarning mavqeini hisobga olishdan iboratdir. Inson uchun ba'zi siyosiy institutlar rolining oshishida hukumatning ta'siri bo'ladi. Ba'zan esa siyosiy arboblar muhim rol o'ynaydilar. Shu ma'noda, siyosiy institutlar muayyan siyosiy arboblarning siyosiy irodasini ifodalaydigan mexanizmdir. Siyosiy institutlar shaxsga zaruriy hokimiyat resurslarini taqdim qilish vositasiga aylanadi.

Siyosiy vaziyat tahlilining umumiy gorizontal tipi.

Bu tahlil noinstitut birlashmalarini siyosiy tizimdan ajratib, tahlil qilishdir. Bu vositani gorizontal yoki guruhiy tip deb atash mumkin. Unda asosiy obyekt sifatida hokimiyatning turli tarmoqlarida faoliyat yuritadigan mustahkam siyosiy guruhlar olinadi. Bunday holatda muxolif guruhlar siyosiy tahlilga tortiladi.

Zero, bu tahlil tiplari bir-birini to'ldiruvchi hisoblanadi. Vertikal tip ko'zga ko'ringan vaziyatlarni, gorizontal tip esa siyosiy jarayonning «ichki oqimi»ni tahlil qiladi.

Siyosiy vaziyatni to'liq tahlil qilish uzoq vaqtini talab qiladi. Natijada bugungi o'zgaruvchan sharoitda obyekt ham o'zgarib ketishi mumkin. Shu ma'noda, siyosiy vaziyatni to'liq tahlil qilish tezkor ravishda amalga oshirilishi kerak. Buning uchun mahorat kerak. Xullas, siyosiy vaziyatni to'liq tahlil qilish – nazariy va amaliy siyosat o'rtaсидagi jarayon bo'lib, undan olinadigan natija tezkor ma'lumotga ega bo'lishdan iboratdir.

Siyosiy vaziyatni tahlil qilishning usullari

Siyosiy vaziyatni to'liq tahlil qilish ko'p vaqt va keng ko'lamli tahlillarni talab qilgani uchun siyosiy vaziyatning muayyan qismini tahlil qilish keng tarqalgan. Buni qisman tahlil qilish deb atash mumkin. U ham umumiyl tahlil singari ikki tipdan iborat bo'ladi: 1) institual tahlil; 2) vaziyatni tahlil qilish. Birinchi tip asosan buyurtmalar asosida amalga oshiriladi. Ikkinchи tip esa muayyan muammoni hal qilish uchun bajariladi. Bunday holda siyosiy vaziyatni detallar bo'yicha tahlil qilishga ehtiyoj yo'q, chunki buyurtmachini muayyan muammo qiziqtiradi, xolos. Siyosiy tahlil obyekti mana shu omillarga qarab belgilanadi.

G'arb olimlari siyosiy tahlilning qisman tahlil qilish tipiga ko'p e'tibor

berishadi, ular uchun bu tahlil usuli yagona vosita hisoblanadi. Ayni paytda, ular, ta'kidlaganimizdek, ko‘p hollarda masalalarni qorishtirib yuboradilar. Bizningcha, siyosiy tahlilni bu qadar cheklab qo‘ymaslik lozim.

Siyosiy vaziyatni muammoli va diagnostik tahlil qilish

Siyosiy qaror qabul qilishda siyosiy tahlil natijalari ilk bosqich rolini bajaradi. Biz vaqt o‘tishi bilan siyosiy tahlil o‘z ahamiyatini yo‘qotadi, degan fikrga qo‘shilmaymiz. Shu ma’noda siyosiy vaziyatni muammoli va diagnostik tahlil qilish tipi muayyan maqsad va vazifani amalga oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Muammoli tahlilda qat’iy yondashuv va qaror qabul qilish ruhi ustuvor bo‘ladi. Shuning uchun bu tip siyosiy ekspertlar uchun maqbul tipdir.

Diagnostik tip esa g‘arb olimlari nigohidan chetda qolgan. Bu tip siyosiy tizimning keyingi faoliyati uchun muhim tavsiyalarni beradi. Bu tip mavjud muammo bilan emas, balki ehtimoliy muammolar haqida tasavvur beradi va siyosiy subyekt faoliyatining samarador bo‘lishi uchun omil yaratadi.

Misol sifatida quyidagi taxminiy vaziyatni keltirish mumkin: muayyan hudud rahbariyati markazdan mustaqil ravishda rahbar xodimlar faoliyatini tahlil qilib ko‘rish uchun buyurtma berishga qaror qiladi. Bu bir tomonidan, markaziy boshqaruva haqida ma'lumotga ega bo‘lish, ikkinchi tomonidan, hokimiyatga intilayotgan kuchlar haqida tasavvur hosil qilishdir. Bunday holda muayyan siyosiy muammoni hal qilish haqida so‘z bormaydi. Balki birinchidan, yuzaga kelgan muammoni tahlil qilish bilan markaz siyosatining oqibatlarini tasavvur qilish; ikkinchidan, markaziy hokimiyat tuzilmalari bilan bo‘ladigan muosabatlarni aniqlashtirib olish haqida so‘z bormoqda. Bunday tahlilga, o‘z navbatida, markaziy davlat boshqaruvi organlari tomonidan ham buyurtma berilishi mumkin.

Zero, muammoli va diagnostik tahlil tiplari bir-birini o‘zaro to‘ldirishi mumkin. Chunki muammoli tahlilda muayyan vaziyatga baho berilsa, diagnostik tahlil bilan uning keyingi holati haqida tasavvur hosil qilinadi. Ayni paytda, bu tahlillar siyosiy qaror qabul qilish uchun mutlaq asoslar bermaydi, balki asoslar uchun zamin hozirlaydi, xolos. Bunday holda qiyosiy tahlil asosida muayyan qarorga kelinadi.

Shunday qilib, maqbul siyosiy qaror qabul qilish vaziyatni aniq tahlil qilish

asosida yuzga keladi. Albatta, vaziyatni tahlil qilish natijalari buyurtmachi maqsadini kutgan darajada ifodalamasligi mumkin. Shu sababli diagnostik tahlil o'tkazgan muallif materiallarni tahlil qilishni muayyan guruhga yuklashi mumkin. Umuman, siyosiy vaziyatni tahlil qilishda diagnostik tahlil tipi aniq samara berish imkoniyatiga ega. Shu sababli bu usul siyosiy rejorashtirish muammosi bilan bevosita bog'liqdir.

Siyosiy istiqbolni belgilash (rejalashtirish)

Siyosiy tahlilning ikkinchi bloki siyosiy istiqbolni belgilashdan iborat. G'arb olimlari «prognoz» atamasini ishlatalalar. Bu atama grekcha «prognosis» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, muayyan obyektning ertasi va kelajagi haqida ma'lumot olish, uni ko'ra bilish ma'nolarini anglatadi. O'zbek tilida uni «istiqbolni belgilash» tarzida ishlatish mumkin. G'arb olimlari ko'p hollarda biror hodisaning istiqbolini belgilash borasida so'zlaydi.

Bundan tashqari, G'arb olimlari istiqbolni belgilashga doir fikr-mulohazalar asoslanishi lozimligini uqtiradilar, lekin ular bu holatni ilmiy talab darajasiga ko'tarmaydilar.

Rossiya siyosat ilmida esa "istiqbolni ko'ra bilish" va "belgilash" tushunchalari farqlanib, unga ko'ra, ko'ra bilish kelajak haqida har qanday ma'lumotga ega bo'lish imkonini, istiqbolni belgilash esa ilmiy asosga ega tadqiqotchilikni bildiradi. Shu ma'noda, biz ham «siyosiy istiqbolni belgilash» deganda ilmiy asoslangan farazlarni nazarda tutamiz.

Ayni paytda, bizni barcha istiqbol ko'لامи qiziqtirmaydi, balki siyosiy farazlar majmui bilan cheklanamiz. Hozirgi kunda G'arb olamida bashoratgo'ylik o'sib bormoqda va uni yangi davrning mistik hamda taxayup farazi sifatida qabul qilish ortib bormoqda. Biz istiqbolni belgilash olamidan faqat siyosiy istiqbolni belgilashni ajratib olamiz. Uning obyekti, avvalo, siyosiy tizim va siyosiy jarayondir. Siyosiy istiqbolni belgilash jarayonida barcha siyosiy tizimlar yoki uning muayyan subyektlarining kelajagi haqida ilmiy asoslangan fikrlarga ham e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Biroq, bu borada siyosiy tahlil keng ko'lamlik kasb etadi va shu sababli biz yana amaliy va nazariy tadqiqotchilik oralig'ida turishni afzal deb bilamiz.

Nazariy siyosatshunoslik siyosiy istiqbolni belgilash deganda bir mamlakat yoki

butun dunyoning siyosiy istibolini faraz qilishni nazarda tutadi. Ya'ni, siyosiy tizimning muayyan davrdagi yo'nalishini ilmiy bashorat qilib berishdir. Bunday an'ana qadimiy bo'lib, o'tmish mutafakkirlarining barchasi o'z ijtimoiy qarashlarini bayon qilishgan. Bu o'ziga xos istiqbolni belgilashdir. Aflatunning «Davlat», T.Morning «Utopiya», T.Kompanellaning «Quyosh shahri», T.Gobbsning «Leviafan» asarlarini, Sh.Monteskyo, J.Lokklar tomonidan ishlab chiqilgan siyosiy tizimning liberal modelini eslash kifoya. Ko'p hollarda bu prognozlar real talablarga javob bermaydi va xohishlar ifodasi sifatida qolib ketmoqda. Shunga qaramasdan bu kabi prognozlar ilmiy asosga ega bo'lib, ular o'z davri uchun katta ahamiyatga ega edi va shu sababli ularni siyosiy prognozlar hisoblaymiz.

XX asr arafasida siyosiy prognozlar bayon qilishdan ularni amalga oshirish yo'llarini tasvirlashga o'tila boshlandi.

Nihoyat siyosatshunoslik hozirgi rivojlanish bosqichida siyosiy prognozlash nazariy siyosatshunoslikdan asta-sekin amaliy jihatga o'ta boshladi. U ilmiy, ishonarlik xarakter kasb etib bormoqda va siyosiy tizimni transformasiya qilish yo'llarini ko'rsatib bermoqda.

Seminar savollari:

1. G'arb siyosatshunos olimlarining siyosiy tahlil tushunchasiga qanday ta'riflar berishgan?
2. G'arb siyosatshunoslarning "public policy" va "politics" atamalarini qanday tushunganliklarini ayting.
3. Siyosiy vaziyat qanday tahlil qilinishini tushuntirib bering va buning qanday bosqichlari va usullari mavjud?

Mustaqil ishlar topshiriqlari:

1. Muammoli vaziyatni muammoli tahlil qilish tipi asosida O'zbekistondagi siyosiy vaziyatni tahlil eting.
2. Yaqin Sharqdagi hozirgi kungi siyosiy jarayonlarini amaliy va nazariy(fundamental) siyosatshunoslik tamoyillari bo'yicha siyosiy tahlil qiling.

3. G‘arb va Sharq olimlarining “siyosiy istiqbolni belgilash”ga oid tadqiqotlariga bag‘ishlangan ma’ruza tayyorlang.

Ma’ruza № 4. XALQARO MUNOSABATLARNING TADQIQOT USLUBLARI

Reja:

1. Siyosiy fanlar va siyosiy qarashlar uslubiyati
2. Vaziyatni tahlil qilish uslublari
3. Eksplikativ uslublar

O‘quv mashg‘ulotning maqsadi: Xalqaro munosabatlar tadqiqot uslublari va ularidan foydalanish usullari haqida ma’lumot berishdan iborat.

Tayanch so‘z va iboralar:

- Metodologik dixotomiya
- Kuzatish (kuzatuv)
- Hujjatlarni o‘rganish
- Taqqoslash
- Eksplikativ uslublar
- Kontent-analiz
- Ivent-analiz
- Kognitiv xaritalash
- Eksperiment
- Delfi uslubi

Siyosiy fanlar va siyosiy qarashlar uslubiyati

Ilmiy g‘oyalarni tadbiq etishda har bir sohaning o‘z uslubi mavjud. Ijtimoiy fanlar bundan mustasno bo‘lib, ularda umumiylilik va yo‘nalishiga qarab o‘ziga xos uslublari mavjud. Shuning uchun ham bu muayyan darajada bosh qotirishga, o‘z uslubi va boshqa ilmiy uslublar hamda o‘z obyekti ijtimoiy va tabiiy fanlarga tegishlidir. Bu munosabatlar siyosiy fanlar va siyosiy qarashlar uslubiyatida (jumladan, xalqaro munosabatlar) 3 aspekt asosida qurilgan:

-ilmiy izlanishdagi qat’iy hamda tadqiqotchining ma’naviy bahosi va shaxsiy dunyoqarashi nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda tahlil etishidan farqlanishi mumkin;

-ijtimoiy fanlarning barchasiga xos jihatlardan biri taxliliy usullarni qo‘llash, faktlarni ko‘zdan kechirishda xal etuvchi vazifani o‘taydi;

-tizimlashtirishga intilish yoki boshqacha qilib aytganda yangi “qonun”larni ishlab chiqish tizimini yengillashtiruvchi umumiy yondashuv va modellarni tuzish.

Lekin bu degani tadqiqotchi ilmda butkul shaxsiy fikrdan voz kechishi kerak degani emas. Chunki endilikda uning oldida yanada kengroq xarakterdagi (tuzilishdagi) muammo – ilm va mafkura munosabati muammosi turadi. Umuman olganda, muayyan bir ko‘rinishdagi tushinilgan yoki tushinilmagan xoldagi mafkuraviy nuqtai nazar xamisha mavjuddir. Bundan albatta, qochib qutilib bo‘lmaydi (ya’ni hech qaysi ilmiy asarni mafkuradan xoli qilib bo‘lmaydi). Chunki faktlar sharxi, xatto “kuzatuv burchagi” va shu kabilar bevosita tadqiqotchining nuqtai nazari bilan bog‘liq. Shuning uchun ham ilmiy izlanishda tadqiqotchi doimiy ravishda “mafkuraviy ishtirok”ni esda saqlashi, uni nazorat qilishi va bir tomonlama yondashuvdan qocha bilishi, umuman, obyektivlikni saqlay olishi shart. Ilmda unumliroq natijalarga erishish yo‘li bu – mafkuraviy qarashlarni rad etmaslikdir (aksincha bo‘lsa, bu eng yaxshi holatda yanglishish, xato, eng yomon holatda esa, ongli ravishdagi xiyla, makrdir). Ya’ni tadqiqotchi mafkuraviy plyuralizm va “mafkuraviy nazorat”, umuman, mafkuraviy qarashlarga yo‘l bera olish zarur. Albatta, bu degani yaqin o‘tmishimizdagi kabi yagona rasmiy, siyosiy mafkuraning ilm ustidan nazorati emas, balki aksincha ilmning har qanday mafkuraviy qarashlar ustidan nazorati bo‘lishi kerak.

Xalqaro munosabatlarda ko‘p uchraydigan metodologik dixotomiya (qismlarga (boblar) bo‘lish va sh.k.), ya’ni an’anaga aylangan tarixiy tavsiflash, intuitiv mantiqqa yondashish, aniq fanlarga bog‘liq bo‘lgan amaliy ish yoki tahliliy bashoratlarga berilish, rasmiyatçilik, ma’lumotlar soni (sanog‘i, miqdori), xulosalarни soxtalashtirib, ularga ishontirish kabi usullar fan rivojidagi eng asosiy nuqson. Bu esa uni amaliy fanga aylantiradi.

Haqiqatdan ham dunyoda (avvalo Amerikacha) 1950 yilning boshlarida xalqaro munosabatlar fani sotsiologik, psixologik, rasmiy (formal) mantiq, shuningdek, tabiiy va matematika fanlaridan ko‘plab tarmoqli natijalarni o‘zlashtirdi. Shu bilan bir qatorda analitik konsepsiylar, model va usullar, faktlarni taqqoslab (qiyoslab)

o‘rganish hamda elektro-hisoblash texnikalaridan tizimli ravishda foydalanish ham rivojlandi. Bularning barchasi jahon siyosati va xalqaro munosabatlarni amaliy tarzda tartibga solish va bashorat qilish extiyoj (talab)lariga yaqinlashtirdi. Ya’ni bu xalqaro munosabatlar ilmini sezilarli darajada taraqqiy etishiga turki bo‘ldi. Shu bilan bir vaqtning o‘zida u avvalgi “mumtoz” uslub va konsepsiyalarni siqib chiqarishiga sal qoldi.

Mana, masalan, xalqaro munosabatlarga tarixiy-ijtimoiy yondashuv hamda uning bashoratga (prognоз) oid imkoniyatlari R.Aron tomonidan ko‘rsatib berilgan edi. “An’anaviy”, “tarixiy-tasviri” yondashuv uslublarining yorqin namoyondalaridan bir G.Margentau hech qanday asossiz bir qancha uslublardan nuqson topib, ular uzoq vaqt umumiylig (universallik)ka da’vo qilolmaydi, deb baho beradi. Xalqaro munosabatlarni tushunishda muxim omil mavjud . masalan, hokimiyat. Albatta, siyosatchiga qancha ovoz berilishi mumkinligi, hukumat qancha diviziya va jangovar yadro kallagi (yaderniy boegalovka)ga ega ekanligini aniqlash mumkin va shart; lekin agar menga siyosatchi yoki hukumatning qanchalik hokimiyatga ega ekanligini tushunish zarur bo‘lsa, unda men kopyuter va hisoblash mashinasini chetga surib qo‘yishim hamda tarixiy va albatta, sifatli ko‘rsatgich (hujjatlar)ni yaxshilab o‘ylashim (fikrlashim) kerak bo‘ladi

Lekin, albatta, mavjud siyosiy jarayonlarni faqatgina amaliy uslublardan foydalangan holda tadqiq etib bo‘lmaydi. Ijtimoiy munosabatlarda, umuman, xalqaro munosabatlarga esa determinik tushuntirishlarga berilmaydigan stoxastik jarayonlar o‘ziga xos tarzda hukm suradi. Shuning uchun ham ijtimoiy hamda xalqaro munosabatlar haqidagi ilmlarning xulosalari hech qachon oxirigacha (yoki to‘liq) verifitsiya va falsifitsiyaga ega bo‘la olmaydi. Shu o‘rinda kuzatuv va refleks, taqqoslash va intuitsiya, faktlarni bilish va ularni ko‘z oldiga keltira olish kabi uslublarni birlashtiruvchi “yuqori” nazariya to‘g‘ri keladi. Ularning foyda va natijasi zamonaviy tadqiqotlar bilan ham, shuningdek, samarali intellektual an‘analar bilan ham isbotlanadi.

Xalqaro munosabatlar fanini tadqiq etishda “an’anaviy” va “modernistik” yondashuvlar mavjud. M.Merl xalqaro munosabatlar ilmiga “an’anaviy” hamda

“modernistik” yondashuvlar tarafдорлари орасидаги зиддият хақида то‘ғ’ри фикр ўритади. То‘плangan faktlar орасида aniq korrelyatsion yondashuvlar talab etilgan paytda faqatgina intellektual an’analarga tayanish juda noto‘ғ’ри bo‘лади. Kvantifikatsiya (mat. termin. biror bir ijtimoiy jarayonni raqamlarga ko‘chirib kuzatish va tahlil qilish)ga beriluvchi yondashuvlarning hammasi kvantifikatsiyalanishi zarur. An’anaviy yondashuvlar tarafдорлари hamda modernistlar o‘rtasidagi polemika (ziddiyat, qarama-qarshilik)ga keyin yana qaytamiz. Aslida esa ular bir-birini o‘zaro to‘ldiradi. Shuning uchun har ikkila yondashuv ham “bir xil asosga ega, lekin aynan o‘sha muammoning tahlili bir-biridan xoli bo‘lgan boshqa-boshqa tadqiqotchilar tomonidan olib boriladi”, degan xulosa haqiqatga yaqin. Bundan tashqari, ikkala yondashuv doirasida turli proporsiya (ko‘rsatgich, o‘lcham)larda bo‘lsa ham baribir bitta tizimdagи umumilmiy, analitik va aniq (konkret)-empirik uslublardan foydalaniladi. Umuman olganda, ular орасидаги, ayniqsa, umumilmiy va analitik (tahliliy) uslublar o‘rtasidagi farq shartli ravishda bo‘lgani uchun ular орасидаги shartlilik va nisbiylik chegarasini, ularning bir-biriga ko‘cha olishini nazarda tutish lozim. Bu xalqaro munosabatlarga ham tegishli. Shu bilan bir qatorda yana bir jihatni unutmaslik kerak. Ya’ni, ilmning asosiy belgilangan vazifasi bu – uning amaliyotga tadbiq etilishi (amaliyotda xizmat qilishi) hamda so‘nggi hisobda qo‘yilgan maqsad, muammoni yechishda real qarorlar qabul qilish uchun asos bo‘la olishidir.

R.Aronning xulosalariga qo‘shilgan holda shuni ta’kidlash joizki, xalqaro munosabatlar fani asoslarini o‘rganishda turli yondashuvlarni birlashtira olish kerak. Buning uchun nazariya (ushbu o‘zgacha ijtimoiy munosabatlarning mohiyati, o‘ziga xos jihatlari hamda asosiy harakatlanuvchi kuchlarni tadqiq etish), *sotsiologiya* (undagi o‘zgarishlar va evolyusiyasi, ya’ni tadrijiy rivojlanishini aniqlovchi determinant hamda qonuniyligini kuzatish (qidiruvchi), *tarix* (xalqaro munosabat avlodlar va davrlar almashinushi jarayonida o‘ziga xos o‘xshashlik va istisnolarni topishda asos yoki dalil), *prakseologiya* (xalqaro-siyosiy qarorlarni qabul qilish va ularni amalga oshirish jarayonini tayyorlashni analiz qilish) kabi fanlarga murojaat qilishi zarur. Amaliy jihatdan so‘z yig‘ilgan faktlarni o‘rganish, mavjud sharoitni tushuntirish (yoki aniqlash), vaziyatning kelgusi tadrijiy rivojini prognoz qilish, xulosaga tayyorgarlik va

eng oxirida qaror qabul qilib xulosa chiqarish haqida bormoqda. Xalqaro munosabatlarni tadqiq etishdagi metodologik yondashuvlar va uslublar o‘rtasida o‘zaro o‘xshashliklar mavjud. Lekin ularning har biri qo‘yilgan muammoni har jihatdan o‘rganishda, ya’ni tadqiq etishda muxim vazifalarni o‘taydi. Quyida xalqaro munosabatlar nazariyasining amaliyotda qo‘llaniladigan uslublarning bir nechtasini (chuqurroq) batafsilroq tahlil qilamiz.

Vaziyatni tahlil qilish barcha uslublardan va ularni tizimli ravishda qo‘llash, shuningdek,, birinchi navbatda, empirik materiallarni bir tizimga solishdir.

Shuning uchun ham uslubiyatda ba’zan vaziyatni tahlil qilish uslubi “tadqiqot texnikasi” deb ham ataladi. Ayni paytda 1000 dan ortiq bunday uslublarning eng oddiysidan tortib (m-n, kuzatuv), to yetarlicha murakkab turlari mavjud.

Vaziyatni tahlil qilish uslublari

Vaziyatni tahlil qilish barcha uslublardan va ularni tizimli ravishda qo‘llash, shuningdek, birinchi navbatda, empirik materiallarni bir tizimga solishdir.

Shuning uchun ham uslubiyatda ba’zan vaziyatni tahlil qilish uslubi “tadqiqot texnikasi” deb ham ataladi. Ayni paytda 1000 dan ortiq bunday uslublarning eng oddiysidan tortib (m-n, kuzatuv), to yetarlicha murakkab turlari mavjud.

Kuzatish (kuzatuv)

Ma’lumki, bu uslubning elementi bu – kuzatuv subyekti, obyekti va vositasidir. Kuzatuvning bir qancha turi mavjud. Masalan, bevosita kuzatuv. Vositali kuzatuvdan farqli o‘laroq, unda hech qanday texnik jihozlar yoki asboblar (televidenie, radio va sh.k.) talab etilmaydi. U tashqi (masalan, parlament jurnalistlari yoki chet mamlakatlardagi korrespondentlar faoliyati) va qo‘shimcha (bunda kuzatuvchi muayyan bir xalqaro voqeada, masalan, diplomatik muzokara, qo‘shma loyixa yoki qurolli konfliktda bevosita ishtrok etadi) bo‘lishi mumkin. To‘g‘ridan-to‘g‘ri kuzatuv o‘z o‘rnida bilvosita kuzatuvdan farqlanadi. Ya’ni bilvosita kuzatuv intervyu, so‘rovnama va sh.k.lardan olingan axborot (informatsiya)larga asoslanadi. Xalqaro munosabatlar nazariyasida, asosan, bilvosita va instrumental kuzatuv mavjud. Ushbu uslubning asosiy nuqsoni bu – ma’lumotlar yig‘ishda subyektning faolligi mafkuraviy yondashuvlar bilan bog‘liq bo‘lgan subyektiv faktorlarga tayanadi.

Hujjatlarni o‘rganish

Ushbu uslubning xalqaro munosabatlarda qo‘llanishida o‘ziga xos jihatni bor. Ya’ni “norasmiy” tadqiqotchi uchun har doim ham obyektiv axborot olish uchun erkin yo‘l yo‘q (imkoniyat yo‘q). Bunda u yoki bu davlat siri yoki xavfsizligi to‘g‘risidagi tasavvur asosiy rol o‘ynaydi (o‘rin tutadi). Masalan, SSSRda uzoq vaqt neftning qancha hajmda yetkazilishi, ishlab chiqarish darajasi va sh.k., faqat xizmatchilar uchun belgilangan ko‘plab hujjat va adabiyotlar davlat siri hisoblangan. Xatto chet el nashrlari kiritilmagan, ko‘plab tashkilot va institutlarga “begona”lar kiritilmagan.

Bundan tashqari, hujjatlarni o‘rganish metodining yana bir muammosi bor. Bu – moliyaviy qiyinchilik. Aslida ushbu uslub ijtimoiy, siyosiy ilmlarni o‘rganishda har qanday tadqiqot uchun eng muhim hisoblanadi.

Rasmiy hujjatlar boshqalarga nisbatan erkindir. Masalan, diplomatik hamda xarbiy matbuot-xizmat ma’lumotlari, davlat rahbarlari, arboblarning rasmiy tashriflari haqidagi axborotlar va hokazo. Lekin ushbu uslubda norasmiy manbalardan (norasmiy yozma, audio, audiovizual manbalar) ham foydalanish mumkin. Ular xalqaro hayotda ro‘y berayotgan voqeа-hodisalarni yanada yaxshiroq aniqlashda yordam berishi mumkin. Norasmiy manbalar turli shaxslarning fikrlari, oilaviy arxivlar, nashr etilgan kundaliklar bo‘lishi mumkin. Yana muayyan bir xalqaro hodisaning (harbiy, diplomatik muzokara, rasmiy tashrif) guvohi bo‘lgan shaxs xotiralaridan ham foydalanish mumkin. Ikonografik hujjatlar deb nomlanuvchi manbalar asosiy vazifani bajaradi. Ikonografik hujjatlarga rasmlar, fotosuratlar, kinofilmlar, ko‘rgazmalar, shiorlar kiradi. Ayniqsa, SSSRni tadqiq etishda Amerikalik maslahatchilar yana shunday ikonografiyadan foydalanganlar. Masalan, paradlar, bayramlardan olingan reportajlarni ko‘zdan kechirganlar. Ulardagi plakatlar, shiorlarning mazmuni, miqdori, rasmiy shaxslarning qanchasi minbarda ekanligi va albatta, xarbiy texnika kabilarni o‘rganganlar.

Taqqoslash

Ushbu uslub B.Rasset va X.Starlarning fikriga ko‘ra, xalqaro munosabatlar ilmida ilk bor 1960 yilning o‘rtalarida qo‘llanila boshlangan. Uslubning asosiy jihatni shundan iboratki, unda xalqaro munosabatlar doirasida takrorlanuvchi umumiylig

mo‘ljalga olinadi. Mamlakatlarni taqqoslab, ularning alohida-alohida jihatlari o‘rganiladi. Masalan, uning territoriyasi, axolisi, iqtisodiy rivojlanish darajasi, xarbiy potensiali, chegaralari va sh.k. Ma’lumki, mamlakatlar katta va kichik davlatlarga bo‘linadi. Ularning qaysi biri katta, qaysi biri kichikligini aniqlashda ushbu uslub qo‘l keladi. Bu barcha mamlakatlarning kriteriyalari (mezonlari)ga qarab belgilanadi. Bundan tashqari, ushbu uslubda mamlakatlarni o‘rganashida ularning tarixiga ham murojaat qilinadi. Xatto shu asnoda qaysi davlatning xarbiy yurishlarga (urushga) moyilligi ko‘proqligini aniqlash mumkin.

Eksplikativ uslublar

Bulardan eng keng tarqalganlari kontent-analiz, ivent-analiz, kognitiv, xaritarlash uslublari va ularaning ko‘psonli turlari mavjud.

Kontent-analiz

Kontent-analiz siyosiy fanlarda birinchi bo‘lib amerikalik tadqiqotchi G.Lossuell va uning hamkasblari tomonidan siyosiy matnlarning targ‘ibiy yo‘naltirilganini o‘rganishda qo‘llangan va ular tomonidan 1949 yilda ta’riflab berilgan.

Umumiyoq ko‘rinishda mazkur metod yozma yoki og‘zaki matn tarkibi unda eng ko‘p takrorlanib keluvchi so‘z birikmalari va syujetlarni qayd qilgan holda sistemalangan o‘rganish kabi ifodalanishi mumkin. So‘ngra bu so‘z birikmalari yoki syujetlarning chastotasi uning neytral sifatida ma’lum bo‘lgan boshqa yozma yoki og‘zaki axborotdagi chastotasi bilan taqqoslanadi va shu asosda o‘rganilayotgan matn tarkibining siyosiy yo‘naltirilganligi haqida xulosa chiqariladi. M.A.Xrustalev va K.P.Borishpoles bu metodni ta’riflash asnosida uning qo‘llanishini quyidagi bosqichlarga ajratadi: axborot materialiga birlamchi ishlov berilishi bilan bog‘liq matn strukturizatsiyasi, axborot massivining matritsali jadvallar yordamida ishlanishi, axborot materialining kvantifikatsiyasi.

Ivent-analiz

Bu metod (voqeiy ma’lumotlar tahlili metodi ham deb ataladi) “kim kimga nisbatan va qachon nima degani va qilgani”ni ko‘rsatuvchi ommaviy axborotning qayta

ishlanishiga yo‘naltirilgan. Mos ma’lumotlarning tizimlashtirlishi va qayta ishlanishi quyidagi belgilarga qarab amalga oshiriladi:

- subyekt – tashabbuskor (ilm); syujet yoki “issue area” (nima);
- subyekt – nishon (kimga nisbatan);
- hodisaning yuz berish sanasi (qachon)

Shu tarzda tizimlashtirilgan hodisalar matritsali jadvalga yig‘iladi, tabaqlashtiriladi va EHM yordamida o‘lchanadi. Bu metodning samaradorligi yetarlicha ma’lumotlar bazasiga ega bo‘lishni talab etadi. Ivent-analizdan foydalanadigan ilmiy-amaliy loyihalarlar o‘rganilayotgan hulq-atvor, ko‘rilayotgan siyosiy arboblar soni, tadqiq etilayotgan vaqt o‘lchamlari, foydalanilayotgan manbalar miqdori, matritsali jadvallar tipologiyasi va h.k.lar bilan farqlanadi.

Kognitiv xaritalash

Bu uslub u yoki bu siyosiy arbob ma’lum siyosiy masalani qanday qabul qilishini tahlil qilishga yo‘naltirilgan.

Amerikalik olimlar R.Snayder, X.Bruk va B.Sepin 1954 yildayoq siyosiy yetakchilarning qaror qabul qilishlari negizida nafaqat ularni o‘rab turuvchi voqelik, balki ular uni qanday qabul qilishlari yotishi mumkinligini ko‘rsatib bergenlar. 1976 yilda R.Jervis “Xalqaro siyosatda idrok qilish” nomli ishida muayyan lider tomonidan qabul qilinayotgan qarorga hissiy omillardan tashqari kognitiv omillar ham ta’sir qilishini ko‘rsatib berdi. Bu nuqtai nazardan, LPR tomonidan olinayotgan axborot o‘zlashtiriladi va ularning shaxsiy dunyoqarashlariga moslab tartibga solinadi. Bunda ularning qadriyatlar tizimi va raqib obraziga to‘g‘ri kelmagan ixtiyoriy axborotga yetarlicha baho bermaslik yoki ahamiyatsiz voqealarga katta o‘rin ajratish tendensiyalari kelib chiqadi. Kognetiv omillar tahlili, masalan, davlat tashqi siyosatining nisbiy ilmiyligi boshqa sabablar bilan birgalikda, mos yetakchilar qarashlarining doimiyligi bilan ham tushuntirilishini anglashga imkon beradi.

Kognitiv xaritalash uslubi siyosatchi ish olib boruvchi asosiy tushunchalarning namoyon bo‘lishi va ular orasidagi mavjud sabab-natija aloqalarini topish masalasini hal qiladi. Natijada, tadqiqotchi siyosiy arbobning nutqlari va chiqishlarini o‘rganish asosida muammolarni qanday idrok etishi aks etgan xarita-sxemaga ega bo‘ladi qator

afzalliklar – ma'lum bo'lgan hujjatlar va faktlar tizimlashtirilishi asosida yangi axborot olish imkoniyati, obyektivlik darajasining oshishi, o'lchash imkoniyati va h.k.larga ega bo'lgan metodlarni qo'llashda tadqiqotchi jiddiy muammolarga ham duch keladi. Bular – axborot va uning ishonchliligi muammosi, ma'lumotlar bazasining mavjudligi va uning to'liqligi va h.k.lar. biroq asosiy muammo – bu kontent-analiz, iven-analiz va kognitiv xaritalash metodlaridan foydalilaniladigan tadqiqotlarni o'tkazish uchun kerak bo'lgan xarajatlar muammosidir. Ma'lumotlar bazasining tuzilishi ularning kodlashtirilishi, dasturlash va h.k.lar ko'p vaqt qimmat uskunalar, tegishli mutaxassislar jalb qilinishni talab qiladi, oqibatda bu ko'p pulga aylanadi.

Ko'rsatilgan muammolarni hisobga olib, Montreal universiteti professori B.Korani xalqaro faoliyat yurituvchi shaxs hulq-atvorining cheklangan miqdordagi asosiy indikatorlari meto-zinasini taklif qildi bu indikatorlar bor yo'g'i 4 ta: diplomatik vakolat usuli, iqtisodiy bitimlar, xalqaro tashriflar va kelishuvlardan iborat. Bu indikatorlar turlariga (masalan, kelishuvlar diplomatik, xarbiy, madaniy yoki iqtisodiy bo'lishi mumkin) va ahamiyatlilik darajasiga qarab tizimlashtiriladi. So'ng tadqiqot obyekti haqida yaqqol tasavvurga ega bo'lish imkoniyatini beruvchi matritsali jadval tuziladi. Tashriflar almashinushi aks ettiruvchi jadval quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

Davlat rahbari: qiroq, prezident, amirlik shayxi, kompartiyaning birinchi sekretari, kansler.....3

Vitse prezident: bosh vazir yoki hukumat rahbari, oliy kengash raisi.....2

Vitse prezident: tashqi ishlar vaziri, mudofaa vaziri, iqtisodiyot vaziri.....1

Diplomatik vakolat usullari tasnifi esa ularning darajasi (elchi darajasi yoki quyiyoq daraja) asosida, so'z bevosita vakolat yoki boshqa mamlakat orqali vakolat (rezident yoki norezident) haqida borayotganini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Elchi – rezident.....5

Elchi – norezident4

Rezident diplomatik vakolatxona (elchidan quyiyoq darajada).....3

Norezident diplomatik vakolatxona2

Boshqa diplomatik munosabatlar1

Shu kabi ma'lumotlar asosida xalqaro faoliyat yurituvchi shaxsning zamon va makondagi xulq-atvori (o'zini tutishi) usullari: kim bilan eng intensiv munosabatlarga kirishishi, bular qaysi davrlarda qanday muhitda yuz berishi va h.k.larga taalluqli xulosalar chiqariladi.

Bu metodikadan foydalanib, B.Korani, masalan, Aljirning 70-yillardagi deyarli barcha harbiy-siyosiy munosabatlari SSSR bilan yaxshi yo'lga qo'yilgan, bir vaqtning o'zida butun sotsialistik lager bilan bo'lgan iqtisodiy munosabatlar darajasi juda past bo'lganini aniqladi. Amalda Aljir iqtisodiy munosabatlarining katta qismi G'arb, aynisa, AQSh - "asosiy imperialistik davlat" bilan hamkorligiga yo'naltirilgan edi. B.Koranining yozishicha, "sog'lom fikr" va birinchi taassurotlarga to'g'ri kelmaydigan bunday xulosaga (eslatib o'tamiz, bu paytda Aljir "imperialistik kurash va sotsializm mamlakatlari bilan har tomonlama hamkorlik" yo'nalishidan "sotsialistik orientatsiyasi" mamakatlar qatoriga kirar edi) o'tish mumkin emasdi va unga ma'lumotlar tizimlashtiruvi bilan mustahkamlangan qat'iy uslubdan foydalanmasdan ishonib bo'lmasdi". Bu biroz oshirib yuborilgan baho bo'lishi mumkin. Lekin nima bo'lganda ham, bu uslubdan ancha samarali, yetarlicha isbotga ega va uncha qimmat ham emas.

Biroq uning cheklanganligini ham aytib o'tish lozim. Bu kamchilik yuqoridagi uslublarning barchasiga xos. Uslub muallifining tan olishicha, bu muayyan omilining sabablari haqidagi savolga javob bera olmaydi (yoki qisman javob bera oladi). Bu kabi metod va metodikalar tushuntirish darajasida emas, balki ta'riflash darajasida ancha foydalidir. Ular vaziyatning fotografiyasini, umumiyo ko'rinishini beradi, nima sodir bo'lganini ko'rsatadi, ammo nima uchun sodir bo'layotganini tushuntira olmaydi. Lekin ularning vazifasi xalqaro munosabatlardagi u yoki bu xodisalar, vaziyatlar, muammolarning tahlilida tashxis rolini bajarishdan iborat. Biroq buning uchun ular birlamchi materiallar, keyinroq qayta ishlanishi lozim bo'lgan va boshqa metodikalar borasida yig'iladigan ma'lumotlarga ega bo'lishni talab etadi.

Eksperiment

Eksperiment metodi nazariy gipotezalar, xulosalar va qarorlarni tekshirish maqsadida sun'iy vaziyat hosil qilish metodi sifatida aniq fanlarda yetakchi o'rin

tutadi. Ijtimoiy fanlarda uning laboratoriya eksperimentiga (maydon eksperimentidan farqli ravishda) mansub imitatsion o‘yinlar turi eng ko‘p tarqalgan.

Imitatsion o‘yinlarning 2 turi mavjud: elektron hisoblash texnikasini qo‘llamasdan va undan foydalaniladigan o‘yinlar. Birinchi holatda so‘z avvaldan tayyorlangan ssenariy bo‘yicha ma’lum rollarni (masalan, davlatlar, hukumatlar, siyosiy arboblar yoki xalqaro tashkilotlar) o‘ynash bilan bog‘liq bo‘lgan individual yoki guruhiy faoliyat haqida bormoqda. Bunda qatnashchilar o‘yin boshqaruvchilari tomonidan nazorat qilinadigan qoidalarga qat’iy rioya qilishlari lozim. Masalan, davlatlararo konflikt imitatsiyasida qatnashchi ijro etayotgan davlatning barcha parametrlari – iqtisodiy va harbiy salohiyat, ittifoqlardagi ishtiroki, hukmron rejimning barqarorligi va h.k. hisobga olinishi kerak. Aks holda, bu kabi o‘yin oddiy ko‘ngilochar o‘yinga aylanishi va o‘zlashtirish natijalari nuqtai nazaridan vaqt yo‘qotilishiga olib kelishi mumkin. Kompyuter texnikasi qo‘llanadigan immitatsion o‘yinlar ancha keng tadqiqot istiqbollarini ochadi. Tegishli ma’lumotlar bazasiga tayanib, ular, masalan, diplomatik tarix modelini yaratish imkonini beradi. Joriy hodisalar – inqirozlar, konfliktlar, xalqaro tashkilotlarning tashkil qilinishi va hokazolarni tushuntirishning eng sodda va haqqoniy modelidan boshlab, ular avvaldan tanlab olingan tarixiy misollarga modelning mos kelish yoki kelmasligini o‘rganadilar. Sinov va xatolar yo‘li bilan birlamchi modelning xarakterlarini o‘zgartirib, avval tushib qoldirilgan o‘zgaruvchilarni qo‘shib, madaniy-tarixiy qadriyatlarni hukmron mentalitetdagi o‘zgarishlar va sh.k.larni hisobga olgan holda asta-sekin uni mavjud diplomatik tarix modeliga yuqori darajada muvofiqlashtirish va bu modelni taqqoslash asosida joriy hodisalarning keljakda qanday rivojlanishi mumkinligi haqida asosli gipotezani ilgari surish mumkin. Boshqacha, aytganda, eksperimentni nafaqat tushuntirish, balki bashorat uslublariga ham kiritish mumkin.

Bashorat uslubi

Xalqaro munosabatlarda nisbatan sodda bashorat uslublari bilan birgalikda murakkablari ham mavjud. Birinchi guruhgaga, masalan, analogiya bo‘yicha xulosa, oddiy ekstripolyatsiya , delfi uslublari, ssenariylar ko‘rish va sh.k.larni kiritish mumkin. Ikkinci guruhgaga – determinantlar va o‘zgaruvchilar tahlili, tizimli

yondashuv, modellashtirish, xronologik seriyalar tahlili (ARIMA), spektral tahlil, kompyuter simulyatsiyasi va x.k.larni kiritish mumkin. Ulardan ba'zilarini qisqacha ko'rib chiqamiz.

Delfi uslubi

Bunda so'z muammoning bir necha ekspert tomonidan tizimli va nazorat ostida muhokama qilinishi haqida boradi. Ekspertlar muayyan bir hodisaga baho berib, uni markaziy organga beradilar, u o'z navbatida ularni umumlashtiradi va tizimlashtiradi, so'ng yana ekspertlarga qaytaradi. Bir necha marotaba o'tkazilgan bunday operatsiya berilgan baholardagi jiddiy yoki unchalik jiddiy bo'lmanan uzoqlashishni aniqlash imkonini beradi. O'tkazilgan umumlashtiruvni hisobga olib, ekspertlar o'zlarining birlamchi baholariga o'zgartirish kiritadilar yoki o'z fikrlarini qat'iy ilgari surishda davom etadilar. Ekspertlar baholaridagi uzoqlashuvni o'rganish muammoning avval e'tiborsiz qoldirilgan jihatlarini aniqlash va diqqat-e'tiborni tahlil qilinayotgan muammo yoki holat rivojining ehtimoli eng ko'p (ekspertlar baholari mos kelganda) hamda ehtimoli eng kam (baholar mos kelmaganda) bo'lgan natijalariga yo'naltirishga imkon beradi. Shunga muvofiq yakuniy baho ishlab chiqiladi va amaliy tavsiyalar beriladi.

Seminar savollari:

1. Xalqaro munosabatlarni tadqiq qiluvchi qanday uslublar mavjud?
2. Vaziyatni tahlil qilish metodlari haqida gapirib bering.
3. Eksplikativ uslublarga misol keltiring.

Mustaqil ishlar topshiriqlari:

1. Xalqaro munosabatlar tizimida sodir bo'layotgan jarayonlarni tadqiqot usullari yordamida tahlil qiling.
2. Vaziyatni tahlil qilish metodlari yordamida Yaqin Sharq mintaqasidagi hozirgi kungi siyosiy jarayonlarni tahlil qiling.
3. Delfi uslubidan foydalangan holda Afg'on muammosini tahlil qiling.

Ma’ruza № 5. XALQARO MUNOSABATLAR ISHTIROKCHILARI FAOLIYATINING TAHLILI

Reja:

1. Xalqaro munosabatlar subyektlari.
2. Jahon siyosiy tizimining tuzilmasi.
3. Geosiyosiy hududlar.
4. Hududiy nazorat shakllari.
5. Hududiy nazorat turlari.

O‘quv mashg‘ulotning maqsadi: Xalqaro munosabatlar subyektlari, xalqaro xavfsizlik va strategiya masalalari, hududiy nazorat shakllari va turlari haqida ma’lumot berishdan iborat.

Tayanch so‘z va iboralar:

- Xavfsizlik
- Strategiya
- Geosiyosiy markazlar
- Faol geostrategik ishtirokchilar
- Qalqon hudud
- Endemik hudud

Xalqaro munosabatlar subyektlari.

Tashqi muhitda shakllanib kelayotgan vaziyatga bog‘liq ravishda va ma'lum iqtisodiy hamda harbiy-texnikaviy imkoniyatlardan foydalanib, davlatlar asosan, tashqi siyosatning quyidagi instrumentlarini qo‘llaydilar:

- tashqi siyosiy targ‘ibot (xalqaro jamoatchilik tasavvurida mamlakatning ijobjiy mavqeini mustahkamlash maqsadini ko‘zda tutadi);
- diplomatiya (odatda uchta darajada amalga oshiriladi – rasmiy uchrashuvlar, de-fakto va de-yure tan olish, elchilarni ayirboshlash);
- tashqi savdo munosabatlari (savdo aloqalarini o‘rnatish, o‘zaro savdo bitimlarini tuzish, tariflar va kvotalar tizimi orqali tashqi savdoda cheklovlarni qo‘llash

ko‘rinishida bo‘ladi);

- tashqi yordam mamlakatlar tomonidan ularning tashqi siyosatida ikki xil ko‘rinishda – iqtisodiy (moliyaviy yoki tovar sifatida), shuningdek, harbiy (qurol-asлаha yetkazib berish, harbiy maslahatchilarni hamda harbiy qo‘shinlar va kontingentlarni yuborish);
- ittifoqlar (ikki tomonlama yoki ko‘p tomonlama turlari uchraydi va odatda, ikki turda bo‘ladi – iqtisodiy yoki harbiy, tegishli manfaatlarni himoya qilish uchun);
- xalqaro tashkilotlar (uchta darajaga bo‘lingan – global yoki mintaqaviy, davlatlararo va nohukumat);
- boykotlar va sanksiyalar (bir yoki bir guruh davlatlar tomonidan u yoki bu davlatga bosim o‘tkazib, u yoki bu xalqaro muammo borasida uning siyosatini o‘zgartirish maqsadida qo‘llanadi);
- harbiy kuch (har xil ko‘rinishlarda bo‘ladi – turli xil shtab, komanda va qo‘shma o‘quv tayyorgarliklarni o‘tkazish, qo‘shma o‘quv tayyorgarliklarni o‘tkazish, eng zamonaviy harbiy texnologiyalar sohasidagi yutuqlarni ishlab chiqish hamda namoyish qilish, shuningdek, mustaqillikni himoya qilishning so‘nggi chorasi sifatida urushni e’lon qilish.

Davlatning ichki vaziyatining qudrati bilan uning davlatlar tizimidagi roli o‘rtasidagi o‘zaro aloqa to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘lib, o‘zaro bog‘liqlikning o‘sishiga ham, davlatlar siyosatida umumiy manfaatlarning paydo bo‘lishi yoki ko‘payishiga ham qaramasdan, hech qancha o‘zgarmagan. Aksincha, dunyodagi siyosiy munosabatlarning jiplashuvi, o‘zaro bog‘langanlikning ortib borishi bilan birga, davlat ichidan zaif bo‘lgani holda nisbatan kuchli davlatning bosim ko‘rsatishiga qarshi turish va boshqa, nisbatan qudratli davlatlarga bog‘lanib qolmaslik tobora qiyinlashadi. Bu borada mashhur nemis tarixchisi va mutafakkiri Leopold fon Rankening quyidagi so‘zlarini yodga olish joizdir: “Dunyo bo‘lindi. Unda bir nimaga erishish uchun, o‘z kuchingizga tayanib, qad rostlappingiz, to‘liq mustaqillikka erishishingiz lozim. Sizning dunyodagi huquqlaringizni sizga hech kim o‘z ixtiyori bilan berib qo‘ymaydi.

Ular uchun kurasha bilmoq kerak”¹.

“Sovuq urush” davri tugaganidan so‘ng mamlakatlar oldida, bir tomondan, xavfsizlik muammosi dolzarbligining ortganligi, ikkinchi tomondan esa, xalqaro munosabatlar, millat, davlat, Shu jumladan «xavfsizlik» tushunchasi ham, borasidagi tushuncha va qarashlarni qayta ko‘rib chiqish zarurati sezildi.

Har bir davlat o‘z xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan faoliyat olib borar ekan, birinchi navbatda davr talabidan kelib chiquvchi, davr xususiyatlarini inobatga oluvchi «katta strategiya»ni ishlab chiqishga kirishadi.

Qadimda, «strategiya» – urush haqidagi ta'limot, Shu jumladan sarkardalik fani, deb ta'riflangan va u urushni ikki mezon asosida tadqiq etadi²:

1. Kishilik jamiyati hayotining ko‘rinishi sifatida.

2. Alohiba harbiy nuqtai–nazardan, ya’ni dushman ustidan g‘alaba qozonish maqsadida kuchdan foydalanish.

Kishilik jamiyati hayoti hodisasi sifatida urushni tadqiq etish dinamik sotsiologiyaning bir bo‘limini tashkil etadi. Harbiy maqsadlarda kuchni qo‘llash masalasini tadqiq qilish esa harbiy san'at nazariyasi predmetini tashqil etadi. Avvalgi va hozirgi davr harbiy hodisalarini o‘rganish orqali strategiya keng miqyosda, harbiy hodisalar mohiyatini tushuntirib berish va hatto ularni bashorat qilish maqsadida ehtimoliy umumlashtirishga harakat qiladi. Aytish joizki har doim ham to‘liq bashorat qilish mumkin emas, biroq bugungi kunda strategiya Yuqori bosqichga ko‘tarilib yangi davrga – ilmiy jihatdan tasniflashtirish, xususiy umumlashtirish davrga qadam qo‘ymoqda.

Harbiy san'atning umumiylari qadimgi davrlardan tan olinib kelingan. Harbiy hodisalarning mohiyatini aniqlash, ularni umumlashtirish borasidagi ilk urinishlar Gerodot, Fukidid, Ksenofont asarlarida uchratish mumkin.

Strategiya masalalari qadim – qadimdan insonlarni o‘ylantirib kelgan. Avvalgi davrlarda “strategiya” tushunchasi ostida harbiy boshqaruv masalalari turganligini e’tiborga oladigan bo‘lsak, bu ta’llimot haqidagi qarashlarni Gerodot, Fukidid,

¹ Ranke Leopold von. The Theory and Practice of History. – N.Y., 2003. – P. 118.

² Энциклопедический словарь (Брокгауз–Ефрон). – Т. XXXI. – К. 62. – СПб.:Издательское дело, 1991. – С.73.

Ksenofon, Poliviy kabi mutafakkirlar asarlarida bayon qilingan. Albatta, mazkur asarlar aynan strategiya masalalariga bag‘ishlanmagan, strategiya bilan bog‘liq masalalarni miloddan keyingi davrlarda Frontin, Polien, Vegetsiy (IV asr oxiri), Onosandr (V asr, “Strategologiya yoki zafar qozonish fani”), shuningdek, Mavrikiy (“Strategicum”) va Lev VI faylasuf (IX asr, “Harbiy tashkilotlar haqida”) imperatorlarning asarlarida kuzatishimiz mumkin.

Harbiy san'atni tarixiy jihatdan tadqiq etish natijasida quyidagi muhim holatlarini qayd etish mumkin:

1. Urush maqsadlariga erishish vositasi sifatida yaxshi armiyaga ega bo‘lish.
2. Unumli siyosat yuritish orqali unga nisbatan qulay muhitni yaratish.
3. Imkoniyat darajasida ikkinchi darajadagi urush teatrlarida mag‘lubiyatga uchrashdan qo‘rmagan holda ehtimoldagi urush teatrinda yetarlicha kuchni jamlash.
4. Mudofaada bo‘lishdan hujumga o‘tish afzalroqdir.
5. Qo‘shinni imkon qadar tarqatmasdan bir joyda jam qilish.
6. Dushmanning ma’naviy va moddiy kuchi nihoyasiga yetgunga qadar qo‘lga kiritilgan muvaffaqiyatni qat’iyat bilan davom ettirish.
7. Qo‘shinning tetikligi va ruhini ko‘tarish uchun barcha chora va tadbirlarni qo‘llash.
8. Urushni imkon qadar katta g‘ayrat va qizg‘inlik bilan olib borish.

Davlatning siyosiy holati va u ko‘zlagan maqsadini o‘rgangan holda qaysi sharoitlarda urush yuzaga kelishi mumkinligini aniqlash oson kechadi. Raqiblarni aniqlagandan so‘ng urushning asosiy maqsadi va operatsiyalar yo‘nalishini qo‘yish mumkin. Urushga tayyorgarlik quyidagilardan iborat bo‘ladi:

Davlat siyosiy holati va u ko‘zlayotgan maqsadini o‘rgangan holda qaysi hollarda urush yuzaga kelishini aniqlash mumkin. Dushmanlarni aniqlash natijasida urushning maqsadi va operatsiyalar yo‘nalishi ishlab chiqiladi. Urushga tayyorgarlik quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Armiyani tashkil etish va uning soni.
2. Urushni olib borish vositalarini (harbiy va moliyaviy) tayyorlash.

3. Injenerlik nuqtai–nazaridan harbiy harakatlar teatrini va mamlakatni tayyorlash (temir yo‘l tarmoqlari, mudofaa va muhim inshootlarning qurilishi).

4. Armiyaning harbiy hatti–harakatlar boshlanishidan oldin chegara oldida to‘planadigan chiziqda omborxonalar tuzish.

5. Armiyaning strategik jihatdan kuchaytirish, ya’ni chegara oldida safabarlikni tayyorlash va qo‘shinni to‘planish joyiga tashish.

“AQSh harbiy terminlari lug‘ati”da “strategiya” tinchlik va harbiy davrda ko‘zlangan natijalar va ehtimollarni oshirish, shuningdek, mag‘lubiyatga uchramaslikni ta‘minlash maqsadida siyosiy, iqtisodiy, psixologik va harbiy kuchlarni taraqqiy ettirish va foydalanish haqidagi san’at va ta’limotdir.

Vebsterning uchinchi xalqaro lug‘atida “strategiya” millat yoki bir necha millatning tinchlik yoki harbiy davrda tanlangan siyosatni yuqori darajada qo‘llab-quvvatlash maqsadida olib boriladigan siyosiy, iqtisodiy, psixologik va harbiy kuchlarni qo‘llash haqidagi san’at va ta’limotdir.

Rossiyalik olim A.Dugin o‘zining “Geosiyosat asoslari” asarida “Geostrategiya – geosiyosiy tahlilning harbiy jabhalari”, deb ta’rif beradi¹.

Strategiya san’ati muhim operatsiyalarni ikkilamchi operatsiyalardan farqlash, ular orasida o‘zaro bog‘liqlikni ta‘minlash bilan belgilanadi. Shu bois, har bir davlat ichki va tashqi siyosat borasida keng qamrovli, chuqur ilmiy asoslarga tayangan holda tadqiqotlar olib borishi dolzarb masaladir. Demak, yuqoridagilardan kelib chiqqan holda “Davlat”ga ma'lum bir xalqning ma'lum bir hudud (makon) ustidan nazorat o‘rnatish mexanizmi sifatida qarash mumkin. Shu bilan birga har bir davlat taraqqiyoti avvalo uning joylashgan mintaqasi, unda istiqomat qiluvchi aholisi va ichki va tashqi siyosatni yurituvchi institutlar xususiyatlaridan kelib chiqadi. Bu esa o‘z navbatida har bir davlatning ma'lum bir makon turlaridan kelib chiqqan holda ma'lum bir nazorat turlarini qo‘llashni talab etadi. Siyosiy munosabatlarda azal-azaldan hududiy masala muhim o‘rinni egallaganligini e’tiborga oladigan bo‘lsak, har bir davlat o‘z hududiy birligini saqlab qolish, uni imkonli qadar kengaytirishga intilishini ko‘rishimiz mumkin. Mazkur holat bugungi kunda ham o‘z kuchini yo‘qotmagan, ya’ni ma'lum bir kuch

¹Дугин А. Основы geopolитики. – Москва: Арктоея, 1997. – С. 256.

davlat mexanizmlari nazdida ma'lum bir hudud ustidan nazorat o'rnatish, uni mustahkamlash va saqlab qolishga qaratilgan faoliyat olib boradi. Ma'lumki, har bir davlat o'z hududiy birligini saqlab qolishga qaratilgan siyosat yuritadi. Shu sababli jug'rofiy siyosat xavfsizlik masalalari bilan ham bog'liq.

Jahon siyosiy tizimining tuzilmasi.

Har bir davlat ma'lum hudud ustidan ma'lum mezonlarga tayangan holda o'z nazoratini o'rnatadi. Mazkur jarayon hukumatning muayyan ijtimoiy qatlamga tayangan holda faoliyat olib borishni talab etadi. Zero, jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayoti ishtirokchilarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy voqe'likka munosabatlarini tadqiq qilish bugungi kunda muhim masalalar sirasidan o'rinn olmoqda. Har bir shaxsning, individning ijtimoiy-siyosiy masalalarni psixologik jihatdan qabul etishi masalasi yuritilayotgan siyosat masalasi bilan bevosita bog'liq.

Davlatning asosiy vazifalaridan biri ma'lum bir hudud ustidan o'z nazoratini (qonun, kuch yoki jinoiy yo'l orqali) o'rnatish bo'lib, asosan milliy-madaniy, diniy va boshqa asoslarga tayanadi. Shuningdek, davlat ma'lum bir hududdagi ma'lum bir qatlam yoki qatlamlar (diniy, milliy, etnik, madaniy jihatdan) manfaatlarini xalqaro maydonda ifoda etib, ularni himoya qiladi¹.

Geosiyosiy tadqiqotning asosini hududlar tashkil etar ekan, uning turlari, hududlar ustidan qay yo'sinda nazorat o'rnatish masalasi oldinga chiqadi. Zero, har bir davlat siyosatining ustivor vazifalar sirasiga hududlar turlaridan kelib chiqqan holda ular ustidan nazorat o'rnatish kiradi.

Z.Bjezinskiy "Buyuk shahmat taxtasi" nomli asarida davlatlarga nisbatan "geosiyosiy markazlar" va "geostrategik ishtirokchilar" iboralarini kiritadi. Ushbu asarda mazkur atamalar quyidagicha ta'riflanadi:

"Geosiyosiy markazlar" - bu shunday davlatlarki, ularning ahamiyati ularning salohiyati yoki mazmunidan emas, balki ularning joylashishlari va tabiiy jihatdan yuzaga keladigan potensial zaiflik oqibatida geostrategik ishtirokchilarga imkoniyat tug'dirib beradigan omillar bilan belgilanadi. Ko'pincha geosiyosiy markazlar

¹ Luttwak E.N, The Logic of War and Peace. – London: The Belknap Press of Harvard Univ, 2012. – P. 241.

o‘zlarining geografik holatlariga bog‘liq bo‘lib, muhim mintaqalarga eltuvchi yo‘l ustidan nazorat o‘rnatish, yoinki geostrategik ishtirokchilarga resurslarga ega bo‘lishlarida to‘sinqinlik qilish imkoniyati bilan belgilanadi. O‘zga hollarda esa geosiyosiy markazlar geosiyosiy doirada muhim ahamiyat kasb etuvchi mintaqasi yoki davlat uchun “qalqon” (bufer) bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ba’zi hollarda esa geosiyosiy markazlar mavjudligining o‘zi ham atrofdagi faol geostrategik ishtirokchilarga siyosiy va madaniy jihatdan sezilarli ta’sir ko’rsatadi.

Shuni ham aytib o‘tish joizki, geostrategik ishtirokchilarning aksariyat qismi qudratli davlatlar hisoblanadilar. Biroq qudratli davlatlarning hammasi ham geostrategik ishtirokchilar qatoridan o‘rin ololmaydi.

“Faol geostrategik ishtirokchilar” - o‘z chegaralaridan tashqarida hukmronlik qiluvchi yoki mavjud geosiyosiy holatni o‘zgartira olish yo‘lida qobiliyat va milliy irodaga ega bo‘lgan davlatlar kiradi. Ular salohiyat yoki geosiyosiy jihatdan beqarorlikka moyilliklari bilan ajralib turadilar. Ya’ni milliy buyuklik, mafkuraviy tatbiqlik, dinini yoyishi yoinki iqtisodiy buyuklik orqali mintaqada yetakchi kuchga aylanishi yoki dunyo miqyosida o‘z mavqeini yanada oshirishga intiladilar. Bu yo‘l bilan har bir davlat o‘zga davlat salohiyatiga tanqidiy yondashish orqali o‘z manfaatlarining, shu davlat manfaatlari bilan qay mezonlarda mos kelishi yoki kelmasligini e’tiborga olgan holda ishlab chiqadi.

Geosiyosiy hududlar.

Ma’lum bir makon ustidan nazorat o‘rnatishda, avvalo, Shu makon xususiyatlaridan kelib chiquvchi turlariga e’tibor qaratish kerak bo‘ladi. Chunki har bir makon o‘ziga xos bo‘lib, iqtisodiy, ijtimoiy va harbiy salohiyatlarining o‘sishi va taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liq.

Qalqon hudud (asosan davlat) - yirik davlatlar ta’sir doiralari yoki hududlari o‘rtasida joylashgan, odatda hududi kichik, siyosiy va harbiy jihatdan esa kuchsiz mamlakat¹.

Amerikalik olim qalqon davlatlarga quyidagicha ta’rif beradi: “Davlatlarning o‘zi qalqon (bufer) bo‘lish yoki bo‘lmashlikni tanlamaydilar. Ularning bu holati o‘zları

¹Словарь иностранных слов. –Москва: Гос.изд-во иностранных и национальных словарей, 2011. – С. 112.

nazorat eta olmaydigan dushmanona atrof-muhitdan kelib chiqadi. Qalqon davlatlar - ancha qudratliroq, ambitcioz va asosan agressiv tashkilotlar (davlatlar) o'rtasida joylashgan ojiz o'yinchilardir. Qalqon davlatlarning vazifalari mazkur tashqi raqiblar tarafidan belgilab beriladi. Ular mohiyatan katta raqobatning qurbanlik elementlaridir. Qalqon davlatlar xalqaro huquqning emas, balki kuchlar mutanosibligi tizimining qismi hisoblanadilar. Biroq, ma'lum sharoitlarda, ya'ni mintaqaviy munosabatlar modeli keskin o'zgargan chog'da, qalqon davlatlar yirik davlatlar o'rtasida vaqtinchalik muvozanatni saqlaganliklari uchun birinchi qurbonga aylanadilar”¹.

Endemik hudud (gr. endemos - mahalliy) - bu hududda biror-bir xalq azal-azaldan istiqomat qilgan bo'lib, shu hudud ularning nazorati ostida bo'lganligi, shuningdek, o'zga xalqlar ham bu hudud aynan shu xalqning hududi deb tan olingan makonga aytiladi.

Chegaradosh hudud - bu hudud biror-bir davlatga tegishli, lekin unda iqtisodiy tomonidan aloqa tizimining tiklanmaganligi va boshqa shu kabi sabablar orqali mustahkam o'rashib ololmagan bo'lishi, qolaversa bu hududda istiqomat qiluvchi kam sonli millatlar o'z da'volarini ko'tarib chiqishlari mumkin bo'lgan makon. Chet davlatlarning bu hududga hech qanday da'volari bo'lmaydi. Lekin chegaradosh hududda nazoratning sustligi chet davlatlarning unga bo'lgan qiziqishini oshirishi va bu hudud ustidan qay yo'sinda bo'lmasin nazorat o'rnatishga intilishlarini keltirib chiqaradi.

Kesishgan manfaatlar hududi - bunday hududga ikki yoki undan ortiq davlatlar da'vo qiladilar. Bu hudud ham yaxshi o'zlashtirilmaganligi sababli endemik tushunchasiga yaqin, shunga qaramay chegaradosh hududdan: birinchidan, ushbu davlatga yaqin emasligi, balki o'zga davlatning endemik qismida, ya'ni o'zga davlat hududida joylashgan bo'lishi, va ikkinchidan, ikki va undan ortiq davlatlar tarixiy, milliy, diniy jihatlariga asoslangan holda shu hududga da'vogarlik qilishlari bilan farqlanadi.

Tasarrufiy hudud - biror-bir davlat yoki millat tomonidan to'liq nazorat qilinadigan va shu davlat yoki millat tasarrufidagi bir-biriga tutash bo'lgan hududga

¹Ziring L. Buffer States on the Rim of Asia: Pakistan, Afghanistan, Iran and the Super-powers. - Hafeez Malik (ed.)

deyiladi. Tasarrufiy hududni faqat barcha aloqa yo‘llarini egallash orqali to‘liq nazorat qilish mumkin.

Agar shu davlat yoki millat tomonidan nazorat qilinadigan hudud tasarrufiy hududdan chetda joylashgan bo‘lsa va aloqa yo‘llari yoki tizimlari o‘zga davlatlar tomonidan nazorat qilib turilsa bunday hudud geosiyosiy tayanch nuqtasi deyiladi. Bu hudud nazorati tasarrufiy hududga nisbatan biroz sust, ya’ni erkin bo‘ladi. Geosiyosiy tayanch nuqtasi davlatlar tomonidan asosan raqibiga qarshi ta’sir qilish maqsadida foydalaniladi. Asosiy qarama-qarshi turish esa tasarrufiy hududlar tutashgan yerda kuzatiladi.

XX asr so‘ngida geosiyosatda yangi hududiy tushuncha – metapole (gr. meta - shakl o‘zgartirish) tushunchasi paydo bo‘ldi. Metapole, ya’ni markazlashgan hudud bo‘lib, bir necha davlatlarning birlashishi, yoki siyosiy, iqtisodiy, harbiy jihatdan kelishilgan holda yagona hududni nazorat qilishlari tushuniladi.

Hududiy nazorat shakllari.

Hududlar ustidan nazorat o‘rnatish mazkur hududni qo‘lda saqlab qolish maqsadida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmui nazarda tutiladi. Bunda quyidagi nazorat shakllari mavjud:

Siyosiy nazorat - bunda asosan siyosiy infrastrukturaga, ya’ni partiya, davlat, shartnomaviy yoki hukumat vakillari boshqaruviga asoslanadi. Hududlarni nazorat etishda asosiy o‘rinni egallaydi.

Harbiy nazorat - ma'lum bir hududni qurolli kuchlar yordamida nazorat qilib turish.

Iqtisodiy nazorat - bu nazorat turining umumiyligi emasligi va shu hududning barcha qismiga bir xilda yoyilmasligi mumkin. Shunga qaramay, ushbu nazorat turi davlatlararo munosabatlaringin tobora rivojlanishi va iqtisodiyotning davlat tizimlariga ta’siri kuchayishi ta’sirida keng quloch yoymoqda. Hozirda bu nazorat turining davlat siyosatidan ustun qo‘yilishi natijasida yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Biroq, mazkur jarayon murakkab bo‘lib, davlatlararo munosabatlarda shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Madaniy nazorat - bu nazorat turi ham o‘ziga xos bo‘lib, keng qamrovga ega.

Unda biron-bir madaniyat o‘ziga tutash madaniyatlarni (turish-turmushidan tortib to dunyoqarashgacha bo‘lgan an'analarni) nazorat qilib turishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri shu hududni nazorat qilishga va Shu hududga o‘z ta'sirini o‘tkazishga bo‘lgan urinishlarni keltirib chiqaradi. Madaniy nazorat har bir davrda eng asosiy va muhim vosita bo‘lib, bugungi kunda ham o‘z mohiyatini yo‘qotmagan.

G‘oyaviy nazorat - madaniy nazoratning bir bo‘lagi bo‘lib, davlat hududining kengaytirilishiga olib keladi. G‘oyalar kurashi sirtdan jo‘n ko‘rinsada, aslida o‘z hududini kengaytirishi, yoki bo‘lmasa shu hududni saqlab qolish asosiy maqsad qilib olinadi. G‘oyalar qanchalik kuchli va tajovvuzkor bo‘lsa, shunchalik uning unumliligi ortadi.

Bu borada “Mafkura” va “Hudud” o‘rtasida o‘zaro qanday aloqa bor, mafkura nima, uning asosiy vazifasi nimalardan iborat, degan savol tug‘iladi.

“Hudud”, eng avvalo, bozordir, bozor esa o‘z o‘rnida iqtisodiyot bilan bog‘liq. Iqtisodiyot esa manfaatlar bilan ifodalanadi. Manfaatlar siyosatni harakatga keltiruvchi kuch, mafkura (g‘oya) esa uning libosidir, ya’ni odamlar, jamiyat ongini “to‘g‘ri yo‘lga” solib turadi.

Milliy mafkura - har bir jamiyatning manfaatlarini siyosiy darajada ifodalovchi, jamiyatni shu manfaatlar uchun kurashga yo‘naltiruvchi, uyuştiruvchi g‘oyalar tizimidir. Jamiyat manfaatlari turli darajalarda va shakllarda namoyon bo‘ladi. Jamiyatning asosiy siyosiy manfaatlari jumlasiga shu jamiyatni tashkil etuvchi davlatning mustaqilligi, uning iqtisodiy jihatdan ta‘minlanganligi va istiqbolga egaligi, davlatning harbiy, iqtisodiy, g‘oyaviy, ekologik, informatsion jihatdan himoyalanganligi, jamiyatning ichida esa fuqaroaro, millatlararo barqarorlikning ta‘minlanganligi va boshqalar kiradi. Bularning barchasi shu jamiyatni tashkil etgan insonlarga, ularning ongi, aql-idroki va ijodkorligiga bog‘liq¹.

Amerikalik siyosatshunos olim S.Rozenbergning ta‘biricha, “Mafkura” tushunchasi ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida, ya’ni mahsulot va borliq, ijodiy faoliyat orqali subyektni taniyotgan shaxsning siyosiy tafakkuri faoliyatining ortib borishi jarayoni bilan belgilanadi.

¹Тўраев Б. Миллий мафкура ва Миллий ёянинг концептуал асослари// Миллий тикланиш. 2001 йил 24 август.

Uning fikricha, tafakkur faoliyatining ortib borishi shaxsning siyosiy voqe'likni qabul qilish tizimi tushunchasiga bevosita ta'sir etadi. Bu esa o'z navbatida shaxsning u yoki bu siyosiy voqe'likda o'zini qanday tutishini belgilab beradi ... Siyosiy tafakkur shaxsni uning atrofidagi siyosiy muhit bilan bog'lovchi muhim "ko'prik" vazifasini bajaradi¹.

Yana bir amerikalik olim M.X.Xant, AQShning tashqi siyosiy faoliyatini o'rgangan holda mafkura va tashqi siyosatning o'zaro ta'siri va o'zaro hamkorligini qayd etib o'tgan holda, AQSh olimlari milliy xavfsizlik manfaatlarining keng ma'nodagi yo'nalishlarini ishlab chiqqanliklari va bu borada qator ishlar olib borganliklarini bayon etib o'tadi.

Demak, jamiyatda yuz berayotgan voqe-a-hodisalar, amalga oshrilayotgan siyosatga ijtimoiy-siyosiy nuqtai-nazardan baho berish orqali munosabat bildirish, unga yondosish, manfaatlarning falsafiy-ma'naviy ifodasi va amaliy joriy etilish jarayoni mafkura bilan belgilanadi. Mafkura doimo markazga intiluvchi kuchlarni o'zida ifoda etib, ularni ta'minlab berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kommunikatsion nazorat - biror-bir hudud ustidan nazorat turlarining majmuiga aytiladi.

Demografik nazorat - davlat hududi aholisining kam yoki ko'p sonli ekanligi har bir davlat siyosatida katta ahamiyatga ega. Masalaning yana bir mohiyati shundaki, demografik nazorat madaniy nazorat bilan bog'liq va agar bir millatga mansub bo'lgan xalqlar madaniy jihatdan uzoq bo'lsalar demografik nazorat o'z-o'zidan kuchini yo'qotadi.

Ommaviy axborot vositalari yordamidagi nazorat - bu yangi nazorat turlaridan biri bo'lib, ommaviy axborot vositalarining taraqqiyoti, tele va radio aloqalarining rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan. Ayrimlar bu nazorat turini takomillashgan kommunikatsion nazorat turi deb baholaydilar. Kommunikatsion nazorat tushunchasi keng ma'noda qo'llaniladi. Ommaviy axborot vositalari nazorati esa, ma'lum bir o'ziga xosligi bilan ajralib turadi va bu nazorat turi siyosat yurgazishning asosiy manbaiga aylanib bormoqda.

¹Rosenberg S.W. Reason, ideology and politics. – Cambridge.: Polity press, 2014. – P. 145.

Hududiy nazorat turlari.

Qit'aviy nazorat - quruqlik ustidan nazorat qilish. Bu nazorat turi an'anaviy bo'lib, hozirgi kunda ham o'z mavqeini yo'qotmagan. Yerning quruqlik qismi ustidan faol va uzviy nazorat qilish boshqa nazorat turlari bilan chambarchas bog'liq.

Okean-dengiz nazorat - bu nazorat turining shakllanishi natijasida dunyo xalqlarini yanada yaqinlashtirdi. Hozirgi davrda ham bu nazorat turi harbiy, iqtisodiy yoki madaniy o'lchamlarda kuchayib bormoqda. Hozirda okean va dengiz tubidagi xom ashyni qazib olish va qayta ishlash masalasi okean - dengiz nazorat turiga katta mas'uliyat yuklaydi. Harbiy nuqtai-nazardan suv osti yadro kemalari okean - dengiz nazorat turining kuchayishiga olib keladi.

Havo nazorati turi - XX asrda geosiyosiyosat nazariyasiga katta o'zgarishlar kiritdi. Havo nazorati turlaridan biri raketalar bo'lib, xoh yadro raketasi, xoh yadrosiz raketalar bo'lsin, yerning turli nuqtasini nazorat qilinishini kuchaytirib berdi. Harbiy nuqtai-nazardan esa, aviatsiya jang natijasi yoki ma'lum bir harbiy dasturlarni amalga oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi ko'zda tutilmoxda.

Koinot jihatdan nazoratga - bugungi kunda asosan harbiy nuqtai-nazardan yondashilib, yer ustidan to'liq nazorat qilishga qaratilgandir. Misol tariqasida AQShning sobiq prezidenti R.Reygan tarafidan ilgari surilgan SOI dasturini, yoki, AQSh prezidenti J.Bush tarafidan Raketalarga qarshi Milliy mudofaa tizimining amalga oshirishga kirishilganini ko'rishimiz mumkin. Biroq bu kabi dasturlar bir tarafdan iqtisodiy, boshqa tomondan esa texnologiyalar taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lib, amalga oshirish murakkab masalalar sirasidandir.

Mintaqaviy rivojlanish borasidagi mavjud bo'lgan g'arbcha fikrlar MDH davlatlarida iqtisodiy rerasmiyarni amalga oshirishda, mintaqalararo hamkorlik tizimini tartibga solishda qo'llanilishi mumkin.

Seminar savollari:

1. Strategiya atamasiga berilgan ta'riflarni ayting.
2. Bjezinskiyning "Buyuk shaxmat taxtasi" asarida "geosiyosiy markazlar" va "geostrategik ishtirokchilar" iboralari qanday ta'riflangan?

3. Geosiyosiy hududlar turlarini sanang.
4. “Mafkura” va “Hudud” o’rtasidagi o’zaro aloqa nimalardan iborat?
5. Hududiy nazoratning qanday turlari mavjud?

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Xalqaro munosabatlarning usul va muammolar doirasini o‘rganib chiqqan holda, ularni jadval shaklida ifodalang hamda slayd holiga keltiring.
2. “Xalqaro munosabatlarning boshqa siyosiy fanlar tizimida tutgan o‘rnii” mavzuidagi materiallarni tahlil qilgan holda, ilmiy maqola tayyorlang.
3. Milliy manfaatlar va tashqi siyosatning o’zaro uyg‘unligi.

Ma’ruza № 6. XALQARO TARTIBOTNING TAHLILI

Reja:

1. Jalon siyosatida “hokimiyat” tushunchasi
2. Hokimiyat uchun kurashning shakllari, maqsadlari va uslublari
3. Millat va davlat qudrati tushunchalari.
4. Qudratli davlatlar siyosati

O‘quv mashg‘ulotning maqsadi: Jalon siyosatida hokimiyat uchun kurash tushunchasi, usul va vositalari haqida ma’lumot berishdan iborat.

Tayanch so‘z va iboralar:

- Resurslar
- Xalqaro tizim
- Integratsiyalashuv jarayoni
- Kuchlar muvozanati
- Bir qutbli dunyo
- Ko’p qutbli dunyo

Jalon siyosatida “hokimiyat” tushunchasi

Bu savolni ko‘rib chiqish jarayonida hokimiyat - ko‘p qirrali, ko‘p tomonli, ko‘p yo‘nalishli hodisa bo‘lib, uning umumiyligi, xususiy va alohida ta’rif-tavsiflari mavjud ekanligini hokimiyatning siyosiy hokimiyat shakli jamiyat siyosiy tizimida va siyosiy jarayonlarini boshqarishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etishini tahlil qilib berish lozim.

Ma’lumki, siyosiy hokimiyatning shakllanishi jamiyat hayotidagi muhim siyosiy hodisadir. Uni vujudga kelishi bilan jamiyat hayotida yangi tartiblar o‘rnatalidi, boshqaruvning va rahbarlikning yangi usullari va vositalaridan foydalanila boriladi. Uni amalga oshirish mexanizmlari, faoliyat ko‘rsatish darajasi nihoyatda rang-barang bo‘lishi bilan birga, unda hokimiyatning boshqa turlari ham o‘z ifodasini topadi va ularning har biri o‘zining aniq maqsad va vazifalariga ega bo‘ladi.

Hokimiyat tushunchasi oddiy tilda va ilmiy adabiyotlarda juda ko‘p qo‘llaniladi. Har bir aniq holatda va sharoitda bu tushuncha o‘ziga xos ma’no va mazmunga ega bo‘ladi. Masalan: “oila hokimiyati”, “ota-onalar hokimiyati”, “yoshlar hokimiyati”,

“xo‘jalik hokimiyati”, “davlat hokimiyati”, “sud hokimiyati” va boshqa shular singari tushunchalarda “hokimiyat” so‘zi turli xil ma’nolarni anglatadi va turli maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlarda o‘rin olgan fikrlarga asosan, “hokimiyat” tushunchasini uning siyosiy mohiyati nuqtai nazaridan quyidagicha ta’riflash mumkin: Hokimiyat - bu kishilar, ijtimoiy guruhlar hamda sinflarning faoliyatiga, xulq-atvoriga, harakatlariga, iqtisodiy-siyosiy, g‘oyaviy, ijtimoiy mexanizmlar, shuningdek kuch ishlatish, zo‘rlik qilish, ishontirish qobiliyatlari bilan ta’sir etuvchi faoliyatning alohida shaklidir.

Siyosiy hokimiyat keng ma’noli va ko‘p qirrali tushunchadir. U quyidagi holatlar bilan belgilanadi.

Hokimiyat – bu jamiyatga xos bo‘lgan kishilar o‘rtasidagi irodaga asoslangan munosabatlardir. Hokimiyat – bu kishilar o‘rtasidagi siyosiy hukmronlikdir. Hokimiyat – bu davlat tashkiloti tizimidir. Hokimiyat – bu ma’muriy vakolatlarga ega bo‘lgan muassasa va idoradir.

O‘z iroda hukmini boshqalarga o‘tkaza olish qobiliyati hokimiyatning hukmronlik qilish, rahbarlik qilish, boshqarish, tashkil etish, uyushtirish, nazorat qilish kabi faoliyat sohalarida namoyon bo‘ladi. Hukmronlik qilish nisbiy yoki mutlaq darajada bo‘ysundirilishi (masalan, podsho, zo‘ravon diktator), yalpi (totalitar), erkin-ixtiyoriy(demokratik), ilohiy-ixtiyoriy (xarizmatik) ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Hukmronlik qilish bir odamning boshqa bir odamga kuchli irodasi bilan ta’sir o‘tkazish orqali o‘ziga bo‘ysundirilishi vositasida amalga oshiriladi.

Hokimiyatning mohiyatini rahbarlik, hukmronlik va bo‘ysundirish munosabatlari tashkil etadi. Hokimiyatning umumiy mohiyatga ega bo‘lgan ta’rifiga asoslangan holda uning alohida turi bo‘lgan siyosiy hokimiyatni quyidagicha ta’riflash mumkin: “Siyosiy hokimiyat – bu siyosiy subyektlarning siyosatda ifodalangan irodasini turli yo‘llar, usullar va vositalar yordamida amalga oshirish faoliyatining o‘ziga xos alohida shaklidir”¹.

1. Hokimiyatning keng tarqalgan ta’riflaridan biri – **pozitiv-sotsiologik talqindir**

¹ Политология. Ўкув кўлланма. ТДЮИ, 2006, 66-67-бетлар

(nemis sotsiologi M. Veber). Bu talqinda hokimiyat biror individning muayyan ijtimoiy sharoitda boshqa individga o‘z irodasini o‘tkazish qobiliyati sifatida tushuniladi. Hokimiyat munosabatlarining asosini o‘zaro ta’sir doirasiga kiritish munosabatlari tashkil etadi. Bunday munosabatlar hokimiyat subyekti va obyekti o‘rtasida qaror topadi.

2. **Hokimiyatning teologik talqini** (B. Rassel). Bunda hokimiyat ko‘zlangan maqsadlarni ro‘yobga chiqarishdan iborat. Bu atrof-muhit, tabiat bilan qamrab olinadi.

3. **Bixevoiristik** (ingl. inson ongini emas, balki xulqini o‘rganish) talqin etadi. (XX asrda Amerikalik olim psixolog G. Lassuel taklif etgan). Hokimiyatni tushunishni real shaxslarning o‘zaro harakatidan iboratligi yotadi. Insonning hokimiyat orqali boylik, obro‘ orttirishidir, hokimiyat – bu uni egallah bilan huzurlanishga imkon beradigan maqsad hamdir, deyiladi.

4. **Hokimiyatning psixologik talqini** (3. Freyd, K. Gustav Yung, K. Xorni). Bunda hokimiyatni real individlarning xulq-atvori sifatida bixevoiristik tushunishdan kelib chiqadi. Hokimiyat idoralarining “Ixtiyoriy qo‘shilishga” tayyorgarligi sifatida vujudga keladi.

5. **Hokimiyatning tizimli talqini.** Bu talqin hokimiyatning bixevoiristik va psixologik ta’riflaridan farq qiladi. Bunda hokimiyatning individual munosabatlardan emas, balki sotsial tizimdan hosil bo‘lishini bayon etadi.

6. **Hokimiyatning tuzilmaviy-funksional talqini** (amerikalik sotsiolog T.Parsons). Bu talqin hokimiyatni teng bo‘lmagan subyektlarning munosabati, sotsial tashkilotning xususiyati sifatida, insonlar birligining o‘zini-o‘zi tashkil etish, uyushtirish, safarbar qilish uslublari sifatida olib qaraydi. Hokimiyat - bu resurslarni, ta’sir ko‘rsatish vositalarini safarbar qilishga imkon beruvchi sotsial makondir, rollarning xususiyatidan iboratdir. Boshqacha aytganda, hokimiyat – rahbarlik lavozimlarini egallah va muayyan funksiyalarni bajarish bilan bog‘liq faoliyatdir.

7. **Relyatsion (fran. munosabat) ta’rifi.** Bu ta’rif hokimiyatni ikki sherik o‘rtasidagi munosabat sifatida olib qaraydi. Bunda ularidan biri ikkinchisiga belgilovchi ta’sir ko‘rsatadi. Bu holda hokimiyat uning subyekti va obyektining o‘zaro

harakati sifatida namoyon bo‘ladi, subyekt muayyan vositalar yordamida obyektni nazorat qiladi.

Talaba, yuqorida bayon etilgan turli-tuman ta’riflardan kelib chiqqan holda, hokimiyatning murakkabligiga, ko‘p yo‘nalishligiga e’tibor berishi lozim, hamda har bir tushuncha odatda hokimiyatning u yoki bu tomoniga yoki namoyon bo‘lishiga e’tibor jamlashini va uning tahliliga ma’lum bir yondashuv bog‘liqligini bilishi lozim.

Siyosiy hokimiyat davlat miqyosida kuchdan foydalanishning ochiqligi (legalligi)ni; ikkinchidan, boshqa barcha hokimiyatlar uchun uning qarorlarini oliv darajadaligi, majburiyligi, har qanday ijtimoiy jarayonlarga kira olish qobilyati bilan tafsiflanishini; uchinchidan, ommaviylik, ya’ni umumiylilik va shaxssizligini; to‘rtinchidan, monotsentrizm, qarorlar qabul qiluvchi yagona markaz mavjudligini; beshinchidan, imkoniyatlarning turli-tumanligiga qaratishingiz kerak. Siyosiy hokimiyat va ayniqsa, davlat, faqat majburlash emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy-axborot hokimiyatlaridan ham foydalanishini bilishingiz lozim.

2. Hokimiyat uchun kurashning shakllari, maqsadlari va uslublari

Ushbu savol hokimiyatning bir ko‘rinishda bo‘lmasligi hamda o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini anglab olishga yordam beruvchi savoldir. Siyosiy hokimiyat o‘zining tuzilishiga ko‘ra turli shakllarda bo‘ladi. Uning har xil shakllarda namoyon bo‘lishining asosiy sababi jamiyat hayotida ko‘plab hokimiyatlarning harakatda bo‘lishi bilan belgilanadi. Bunday hokimiyatlar o‘zlarining jamiyat hayotida tutgan o‘rni va roliga, maqsad va vazifalariga ko‘ra bir-birlaridan farq qiladi. Xurmatli talaba, Siz siyosiy hokimiyat asosiy shakllarini aniqlashingiz va o‘zlashtirib olishingiz kerak. Buning uchun tavsiya etilgan adabiyot ro‘yxatida keltilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining ko‘rsatilgan mavzulari yoki boblari bilan bat afsil tanishib chiqishingiz va diqqat e’tiboringizni siyosiy hokimiyatning asosiy shakllarini o‘ziga xosligiga qaratishingiz lozim. Siyosiy hokimiyatning asosiy shakllaridan biri-davlat hokimiyatidir. Davlat siyosiy tashkilot bo‘lganligi uchun ham uning faoliyati siyosiy mohiyat kasb etadi. U jamiyatning faqat iqtisodiy, madaniy, sotsial va harbiy sohalarida faoliyat ko‘rsatib qolmay, shu bilan birga jamiyatning siyosiy hayotida ham faol ishtirok etuvchi asosiy siyosiy kuchlardan biri hisoblanadi. Davlat hokimiyatining

siyosiy mohiyati, avvalo, uning siyosiy jarayonlar va siyosiy munosabatlarda faol ishtirok etishi bilan belgilanadi. Chunki davlat mamlakatning siyosiy hayotida ro'y beradigan muammolarni hal qilishda siyosiy kuchlardan biri sifatida faoliyat ko'rsatadi. Davlat hokimiyati tomonidan mamlakatning ichki va tashqi siyosati ishlab chiqiladi, dunyoning turli mamlakatlari bilan siyosiy aloqalar va o'zaro hamkorlik munosabatlari tashkil qilinadi va amalga oshiriladi, davlat bilan siyosatning boshqa subyektlari o'rtasida o'zaro munosabatlar olib boriladi.

Siyosiy hokimiyatning biron-bir shakli davlat hokimiyati singari imkoniyatlarga ega emas. Davlat hokimiyati aholining barcha qatlamlari uchun majburiy hisoblangan qonunlarni ishlab chiqish va amalga oshirish ishida etakchi rol o'ynaydi. Siyosiy hokimiyatning boshqa shakllari esa o'z irodasini dasturlar, nizomlar, qarorlar singari majburiy harakterga ega bo'lмаган hujjatlar asosida amalga oshiradi.

Davlat hokimiyati ixtiyorida armiya, militsiya, prokuratura, sud singari kuch ishlatish apparatlari to'plangan bo'lib, ular davlatning kuchi bilan o'zining hokimiyatini amalga oshiradi.

Davlat hokimiyati quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- davlat hokimiyati tushunchasi siyosiy hokimiyat tushunchasiga ko'ra tor ma'noga ega;
- davlat hokimiyati siyosiy hokimiyatdan o'zining ish uslubiga ko'ra farq qiladi (masalan, davlat hokimiyatida majbur qilish usullari mavjud, siyosiy hokimiyatda bunday imkoniyat yo'q);
- davlat hokimiyati qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga ega;
- siyosiy hokimiyat ham davlat hokimiyati ham siyosiy hodisadir;
- har ikkalasida ham siyosiy hukmronlik aks etadi;
- har ikkisining ham asosini xalq tashkil etadi;
- har ikkisi ham jamiyat hayotidagi o'zgarishlarga u yoki bu darajada ta'sir etadi;

Siyosiy hokimiyatning asosiy shakllaridan biri siyosiy partiyalarning hokimiyatidir. Bu hokimiyat o'zining tuzilishi, maqsad va vazifalari, jamiyat hayotida tutgan mavqeい jihatidan davlat hokimiyati yoki siyosiy hokimiyatning boshqa shakllaridan farq qiladi. Siyosiy partiyalar hokimiyatining jamiyat hayotidagi

imkoniyatlari davlat hokimiyatiniki singari emas. Lekin shunga qaramay, siyosiy hokimiyatning bu shakli jamiyat hayotida o‘z o‘rni va mavqeiga egadir.

Siyosiy hokimiyat ilohiy yoki diniy hokimiyat shaklida ham namoyon bo‘ladi. Hokimiyatning bu shakli uning boshqa shakllariga qaraganda ancha ilgari shakllangan. Ibtidoiy munosabatlardan qulchilik munosabatlariga o‘tish davrida hokimiyatning bu shakli paydo bo‘la boshlagan.

Bu hokimiyat siyosiy masalalar bilan bevosita shug‘ullanmasada, davlatlar yoki siyosiy partiylar hokimiyatlari tomonidan amalga oshirilayotgan siyosiy yo‘lga o‘zining munosabatini bildirib turadi.

Ijtimoiy va ommaviy jamoat tashkilotlarining hokimiyatlari ham siyosiy hokimiyatning o‘ziga xos shaklidir. Siyosiy hokimiyatning bu shakli uning boshqa shakllaridan o‘zining tuzilishi, maqsad va vazifalari, jamiyat hayotida tutgan o‘rni va roliga ko‘ra farq qiladi. Bu hokimiyatning siyosiy mohiyatga ega ekanligi, bir tomonidan, ularning tashkilot sifatidagi tuzilishi bilan belgilansa, ikkinchi tomonidan, ularning siyosiy masalalarni hal etishda ishtirok etishlari bilan belgilanadi.

Siyosiy hokimiyatning bu shakli quyidagi turlarga bo‘linadi: kasaba uyushmalarining hokimiyati, yoshlar hokimiyati, xotin-qizlar hokimiyati, faxriylar hokimiyati, mahalla hokimiyati va boshqalar. Bu hokimiyatlarning faoliyat doirasi va ta’sir kuchi davlat hokimiyati singari imkoniyatlarga ega emas.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, siyosiy hokimiyatning namoyon bo‘lishi bir qancha shakllarda bo‘ladi. Siyosiy hokimiyatning amalga oshirilishida avtoritar, totalitar hamda demokratik shakllar keng tarqalgan shakllardan hisoblanadi. Avtoritar yakka shaxs, obro‘talab shaxsning, podsho yoki imperatorning alohida hokimiyati hisoblanadi. Bunga misol tariqasida Yaponiya, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Niderlandiya, Shvetsiya va boshqa shu kabi mamlakatlarni ko‘rish mumkin. Totalitar hokimiyat shakli esa ko‘proq ma’muriy buyruqbozlikka, zo‘ravonlikka asoslangan hokimiyat hisoblanadi. Sobiq Ittifoq davridagi siyosiy tuzum hokimiyatining ana shu shakliga asoslangan edi. Hokimiyatning demokratik shakli esa ko‘proq xalqning o‘z-o‘zini boshqarishiga, qonunchilikning jamiyatdagi hamma sohalarida baravar amal qilishiga asoslanadi. Hokimiyatni amalga oshirishning demokratik shakli Respublika

ko‘rinishida ham mavjud bo‘lib, bunda parlament Respublikasi, Prezidentlik boshqaruviga asoslangan Respublika kabi shakllari ham mavjud bo‘ladi. Parlament Respublikasida ko‘proq parlamentning ustunligi namoyon bo‘ladi. Siyosiy hokimiyatning namoyon bo‘lishida mamlakatdagi umumiy boshqaruv shakli ham muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Bunda federativ, konfederativ va unitar davlat tuzilmalari haqida aytib o‘tish lozimdir. Federativ davlat shakli teng huquqli respublikalar, viloyatlar, guberniyalar uyushmasidan tashkil topadi. (Olmoniya, Amerika, Rossiya va boshqalar). Unitar hokimiyat shakli boshqarishning oddiy ko‘rinishdagi shakli bo‘lib, unda turli tumanlar, viloyatlar shu hokimiyat shaklida vujudga keladi.

3. Millat va davlat qudrati tushunchalari.

Hokimiyat – yaxlit va bir butun ijtimoiy hodisadir. Bu esa uning muayyan tarkibiy kismlardan tashkil topganligini inkor etmaydi. Hokimiyat – bir qator tuzilmalardan iborat bo‘lgan ijtimoiy hodisadir.

Sub’ekt – hokimiyatning faol, yo‘naltiruvchi qismidir. U alohida inson, ijtimoiy guruh, kishilar birligi, masalan, xalq yoki dunyo hamjamiyati, davlat institutlari, siyosiy partiyalari bo‘lishi mumkin. Biroq har qanday inson hokimiyatning sub’skti bo‘lavermaydi. Hokimiyatning sub’ektlari xilma-xil. Uning boshlang‘ich omillari individlar va ijtimoiy guruhlar, ikkinchilari – siyosiy tashkilotlar, eng yuqori darajadagi sub’ektlari – siyosiy elitalar, etakchilardir. Hokimiyat sub’ekti obyekt bilan o‘zaro munosabatlarda birinchi darajali rol o‘ynaydi.

Obyekt – hokimiyatning ikkinchi muhim elementidir. U hokimiyat sub’ekti qarorlarining bevosita bajaruvchisidir. Obyekt ham xuddi sub’ekt singari hokimiyatning ajralmas tarkibiy kismidir. Bu elementsiz hokimiyatni tasavvur etib bo‘lmaydi. Hokimiyatning obyektini quyidagilar tashkil etadi: individ, ijtimoiy guruh, sinf, jamiyat. Hokimiyat obyektining sifati, faolligi jamiyatning siyosiy madaniyati bilan belgilanadi.

Resurslar – hokimiyatning asosini tashkil etadi. Resurslar kishilarni rag‘batlantirish, jazolash yoki ishontirishda qo‘llanilishi mumkin. Hokimiyat resurslari xilma-xil. Ilmiy adabiyotlarda bir necha turlarga bo‘linadi: utilitar, majburlovchi,

me'yoriy va boshqalar.

Utilitar resurslar – bu kishilarning kundalik ehtiyojlari va talablarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan moddiy va boshqa ijtimoiy vositalardir. Bu vositalardan kishilarni rag'batlantirish uchun ham, jazolash uchun xam foydalaniladi.

Majburlovchi resurslar – bu ma'muriy jazolash bilan bog'liq bo'lgan vositalardir. Undan utilitar resurslar ish bermay qolsa, foydalaniladi. Bunga iqtisodiy sanksiyalardan hayiqmaydiganlarga sud orqali ta'sir qilishni ko'rsatish mumkin.

Me'yoriy resurslarga – insonning ichki dunyosi, qadriyatlar va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi vositalar kiradi.

Hokimiyatning resurslarini inson va jamiyat faoliyatining muhim sohalari: siyosiy-huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-axborot, kuch ishlatuvchi sohalarga binoan turkumlashtirish ham keng tarqalgan.

Siyosiy-huquqiy resurslar – bu ijtimoiy tartibni, xavfsizlikni, barqarorlikni, fuqarolar tinchligini, jamiyatning yaxlitligi va butunligini ta'minlovchi vositalardir. Bu vositalarga dasturiy hujjatlar, Konstitutsiya, qonunlar va ularni ishlab chiqish, qabul qilish hamda amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan masalalar kiradi.

Iqtisodiy resurslar–bunga ijtimoiy va xususiy ishlab chiqarish hamda iste'mol qilish uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklar, pullar, texnika, unumdon erlar, erosti qazilma boyliklari va hokazolar kiradi.

Sotsial resurslar – sotsial stratifikatsiyadagi ijtimoiy maqom yoki rang, o'rinning amalga oshirilishi yoki pasayish qobiliyatidir.

Madaniy-axborot resurslari-bilim, axborot hamda ularni olish va tarqatish vositalari: fan va ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va boshqalardir.

Kuch ishlatuvchi resurslar-bu qurol-yarog‘, jismoniy majburlovchi muassasalar va buning uchun maxsus tayyorlangan kishilardir. Ular o'zagini armiya, militsiya, xavfsizlik xizmati tashkil etadi.

Demografik resurslar-hokimiyatning maxsus resurslaridir. Bu boshqa resurslarni ishlab chiqaruvchi universal, ko'p funksiyali resursdir. Inson-moddiy boyliklarning yaratuvchisi, askar va partiya a'zosi, bilim va axborotning egasi, tarqatuvchisidir.

Demak, siyosiy hokimiyat jamiyat hayotidagi murakkab xodisalardan biri. Uni

amalga oshirish mexanizmlari, faoliyat ko'rsatish darajasi nihoyatda rang-barang bo'lishi bilan birga, unda hokimiyatning boshqa turlari ham o'z ifodasini topadi, ularning har biri o'zining aniq maqsad va vazifalariga ega.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi sharoitida hokimiyatni tashkil etish taqsimlash tamoyilliga asoslangan. Hokimiyatlar taqsimlanish tamoyili deganda nimani tushunish kerak?

Hokimiyatlar taqsimlanishi tamoyili-davlat boshqaruvini demokratik asosda tashkil etishning asosiy tamoyili bo'lib, kishilarning erkin ravnaq topishi va qonun ustuvorligini ta'minlashning nihoyatda muhim shartidir.

Hokimiyatlarning taqsimlanishi demokratik huquqiy davlatga xos xususiyat hisoblanadi. Boshqacha aytganda, hokimiyatlarni taqsimlash huquqiy davlatni barpo etish, qonun ustuvorligi va hukmronligini amalga oshirish vositasidir. Mazkur tamoyilning qo'llanishi hokimiyatni suiste'mol qilishiga jiddiy to'siq qo'yadi, fuqaroni mansabdar shaxslarning g'ayriqonuniyhatti-harakatlaridan, tazyiqidan hamda o'zboshimchaliklaridan himoya qiladi, davlat idoralari faoliyatining samarali bo'lishi uchun shart-sharoit yaratadi.

Konstitutsiyada belgilab qo'yilganidek, O'zbekistonda qonunchilik O'zbekiston Respublikasining Oliy majlisi, joylarda esa hokimiyat organlari, xalq deputatlari viloyat, shahar va tuman kengashlari tomonidan amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda ijro hokimiyati Prezident va Vazirlar Mahkamasi tomonidan, joylarda esa tuman, shahar, viloyat hokimlari tomonidan amalga oshiriladi. Konstitutsianing XXII bobida sud hokimiyati tuzilishi bayon etilgan, xususan, 106-moddada «O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi»¹ degan ma'yor belgilab qo'yilgan.

Hokimiyatni bo'linishi tamoyili ham, qonunlarning ustunligi tamoyili ham huquqiy demokratik davlatning eng muhim shartlaridan biri bo'lgan shaxs manfaatlarining hamma narsadan ustunligini ta'minlashga qaratilgan.

Ko'pgina turli soha maktablari bu qarashni ko'rileyotgandek qabul qilinsa, global

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2018, XXII боб.

shaharlar va tarmoq aloqasi farqlanuvchi sifatida ko‘riladi, chunki bu shuni olg‘a suradiki, Taylorning empirik “jahon shahar tarmog‘i aloqasi Wallersteinning jahon tizimlari analizidan keladi” nazariyasiga qaramasdan globallashuvning asosiy kuchi shaharlar bo‘ladi. Taylor va uning izlanuvchilari asosan kapitalizm geografik jihatdan global rivojlangan servis iqtisod tashkiloti orqali strukturalangan yo‘lni bilishda muvofiq analitik shkala sifatida shaharlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Eng muhim narsa shuki, analiz qanday qilib rivojlangan ishlab chiqaruvchi xizmatlar tarmog‘ining ishlayotgan amaliyotlari ishlashini ko‘rsatuvchi Sassenning “global shahar” konsepsiyasida quriladi. Sassenning fikriga ko‘ra, biz globallashuv bilan bog‘laydigan metropolitan, milliy va global darajalarda iqtisodiy jarayonlarning koinotga doir tarqalish bo‘lgan ular trendlar top darajali boshqaruv va boshqaruv operatsiyalari hududiy markazlashuvining yangi shakllari uchun talabga hissa qo‘shadi Taylorning analitik uslubi haqida qiziqish nuqtasi bu yerda shuki, tarmog‘ paradigmasi oqimlar bo‘shlig‘ining yangi tarmoq paradigmasi bilan hududlar va milliy davlatlarning eski paradigmalarini o‘rnini egallovchi yangi linzalari orqali jahon rivojlanishini kuzatishimizga imkon beradi (Castells. 19%). Bu qarashga ko‘ra, (global) shaharlar faqatgina tarmoq ichidagi birlashgan joylar emas, balki ular turli holatga doir shkalalarda iqtisodiy jarayonning to‘ldiruvchi markazlashuvi va markazlashuvdan qochishining global jarayonining bir qismidir. Bu konsepsiya asosiy joylar bo‘lgan global shaharlar ostida globallashuvning aloqador jarayonini tushunishimizga yordam beradi.

Taylor taklif qilganidek (2000), kapitalizmni anglash uchun Braudel nazariyasi (1995)ga qaytish lozim. Braudel nazariyasi biz kapitalizm va sohalarda ularning ta’sirlarida mavjud g‘oyalarni nazarda tutuvchi ikkala nazariy aloqalarning murosaga kelishishiga imkon beradi. Braudelning qarasharida, kapitalizm bundan buyon bozor ishlamaydigan iqtisod zonasidir (iqtisodning tor qatlami). Arrigi (1994 8-b) buni quyidagicha talqin qilgan:

Iqtisodning yuqori qatlami “katta daromadlar” bor yerda joylashgan. Bu yerda daromadlar kattaligiga faqat kapitalistlar biznesning eng daromadli sektorlarini monopollashtirgani sabab bo‘lgani yo‘q; kapitalistlar qatlami o‘z sarmoyalarini kam

natija beruvchi biznesga kiritishi borgan sari kamaytirayotgani ahamiyatliroq. Bunday vaziyatda transmilliy xususiy munosabatlar axborot olish va moliyaviy aylanmalarni boshqarishda bozorlardan ko‘ra ko‘proq ahamiyatga ega¹

XXI asr boshida xalqaro munosabatlar tizimi yoki G‘arb adabiyotlarida ishlatilganidek, *xalqaro tizim* (International System) yangi sifat bosqichiga o‘tmoqda. Xalqaro tizim “sovuq urush” davrida yoki 1945-1990 yillar davomida kechgan Yalta-Potsdam tizimi davrida kasodga uchradi. Yalta-Potsdam tizimining o‘rniga yangi xalqaro munosabatlar tizimini yangilash va modernizatsiya qilish davri boshlandi. 1980-1990 yillar davomida butun jahon tarixida ahamiyatga ega bo‘lgan hodisalar ro‘y berdi va, oqibatda, Sharq va G‘arb o‘rtasida ziddiyat kelib chiqdi. Natijada, SSSR quladi va Yevroosiyo materigida yangi mustaqil davlatlar paydo bo‘ldi. Bir necha yil ichida xalqaro tizimda rol o‘ynovchi siyosiy aktyorlar va ularning modeli keskin o‘zgarishlarga uchradi. Oqibatda, dunyo tartiblikka nisbatan tartibsizlikka, uni strategik yo‘naltirishdan ko‘ra konfliktga yuz tutdi.

Milliy davlatlar hamon bosh siyosiy omil sifatida maydonga chiqmoqda, hatto davlatlararo, mintaqaviy, mintaqalararo va global tashkilotlar o‘rtasidagi aloqalarda ham bu hol ko‘zga yaqqol tashlanmoqda. Muayyan davlatlar o‘z milliy manfaatlarining hamon gegemon bo‘lishini istaydi. Ayni paytda, global muammolarni hal qilish imkoniyatlari kamayib bormoqda. Yevropa va Osiyodagi “real sotsializm” nazariyasi va amaliyotining inqirozga yuz tutishi davlatchilikda manmanlik g‘oyasining qalqib chiqishiga sharoit yaratdi. Milliy g‘oya va milliy qurilish tushunchalari o‘nlab yillar davomida totalitarizm sharoitida yashab kelganlarning yangi zamonga moslashishi uchun asos bo‘lmoqda. Bunda milliylik konstruktiv rol o‘ynamoqda.

Xalqaro tashkilotlar sonining ko‘payib borayotganligi masalan, hukumatlararo va nohukumat tashkilotlarining shakllanayotganligi xalqaro tizimni boshqarishda o‘ziga xos shakllarni yuzaga keltira boshladи.

Xalqaro tizimda globallashuv jarayoni bilan bir qatorda nomarkazlashish, mintaqalashish va ko‘p qutblilik yuzaga keldi. Yaponiya, Germaniya, Xitoy va

¹ Petty Pain and Gilles Van Hamme. Changing urban and regional relations in a globalizing world. –Edvard Elgar. 2014. – P. 12.

Braziliyada ko‘p qutblilik shakllana boshladi. Mintaqaviy tashkilotlar (YeI, NAFTA, Islom konferensiysi tashkiloti, ASEAN va boshqalar) xalqaro munosabatlarda muhim rol o‘ynay boshladi. Rivojlanayotgan davlatlar soni 77 tadan 120 taga o‘sdi. Ular orasida OPEKga kiruvchi yirik neft qazib oluvchi davlatlar bor.

Kuch-qudratning mumtoz belgilari (hudud hajmi va aholi soni, davlatning geosiyosiy holati, qurolli kuchlari soni va boshqalar) va davlatning hududiy mustaqilligi ko‘p hollarda o‘z ahamiyatini yo‘qotdi. G‘arbdagi siyosiy qarashlar ilmfanga “ta’sir ko‘rsatuvchi kuchlar” va “zaif kuchlar” atamalarini kiritdi.

“Ta’sir ko‘rsatuvchi kuch” deganda har tomonlama ta’sir ko‘rsatish holati, “zaif kuch” deganda esa, o‘z manfaatini himoya qila olmaslik holati tushuniladi. Bugungi kunda davlatning ilmiy-texnik, sanoat va moliyaviy-iqtisodiy, ijtimoiy imkoniyatlarini hamda uning milliy xavfsizligini ta’minlash doirasidagi kuch-qudratining ko‘rsatkichlari jadal o‘zgarib bormoqda.

Jahon tizimi ayni vaqtda tarixiy davr va ijtimoiy makon singari uzoqni ko‘zlovchi fundamental tushunchalarga duch kelmoqda. Hozirgi dunyo “o‘tish davri”da bir tomonidan, nomarkazlashish va mintaqaviy davlatlararo nizolarni hal etish, ikkinchi tomonidan — davlatlararo harbiy mustahkamlanish jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Ayniqsa, NATO rolining yana oshishi ko‘p hollarda xalqaro tizimda muayyan ikkilanishlarni keltirib chiqara boshladi. Shunday qilib, hozirgi xalqaro tizim o‘ziga xos o‘tish davrini boshidan kechirmoqda.

Qudratli davlatlar siyosati

Qudratli davlatlarning eng umumiylar xarakteristikasi – bu yalpi ichki mahsulot (YaIM), aholi, hudud va qurolli kuchlarning hajmidan iborat. XX asrning 80-yillarda turli etnik, diniy nizolarda qurolli to‘qnashuvlar kelib chiqishi moliyaviy-iqtisodiy va savdo-iqtisodiy muammolarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Shu sababli, bugungi kunda terrorizm, diniy ekstremizm, ommaviy qurol tarqatish avj oldi va yadro quroliga ega bo‘lish harakati qayta avj ola boshlandi. Hudud muammosi ham yuzaga qalqib chiqqa boshladi. Chunki keng hudud davlatning harbiy xavfsizligini ta’minlaydi, qishloq xo‘jaligi rivojiga imkoniyat yaratadi, davlat transport haridoriga yangi qulayliklar tug‘diradi, atrof-muhitni himoya qilish imkoniyatlari paydo bo‘ladi va h.k.

Dunyoda strategik noaniqlikning paydo bo‘lishi davlatlararo tenglik tamoyilining buzilishiga olib kelmoqda. Chunki an’anaviy markazlashgan kuchlar dunyoda o‘z ta’sirini saqlab qolishga o’rinmoqda.

Integratsiyalashuv jarayoni bo‘yicha nazariyalar ham aniq ta’riflarni bermayapti. Chunki ushbu asosiy masala kun tartibida turibdi: mintaqaviy integratsiyalashuv global erkin savdoning shakllanishiga olib keladimi? Jahon iqtisodiyotining globallashuvi mintaqlashuv va globallashuvga teng imkoniyat yaratib beradi.

Dunyo miqqosidagi daromadlar tufayli jahon miqqosida nizolar kelib chiqa boshladi. Keyingi 16 yil ichida kambag‘al mamlakatlarning 100 tasida aholi jon boshiga taqsimlanadigan daromad keskin pasayib, 60 mamlakatda esa — talab darajasidan ham tushib ketdi. “Mulkni adolatli taqsimlash” muammosi jahon iqtisodiyotining globallashuvida muhim masala hisoblanadi. Afsuski, bunday muammolar oz emas.

Globallashuv tendensiyasining o‘sib borishi sharoitida *mustaqil tenglik tamoyili* yangi ma’no kasb etib, dolzarb bo‘lib bormoqda. Tengsizlik hamon mavjud ekan, unga yuridik baho berilishi kerak. Bu nafaqat muayyan milliy iqtisodning kuchli davlatlar qarshisidagi zaifligi bilan, balki ularning ilmiy-texnologik, harbiy-siyosiy, ijtimoiymadaniy, tabiiy-iqlimiylar va turli taraqqiyot yo‘nalishlari bo‘yicha ham imkoniyatlari cheklanganligi bilan ham izohlanadi. Bunday sharoitda davlatlarning teng huquqligini ta’minlash uchun xalqaro huquq rolini va davlatlarning faolligini oshirish lozim bo‘ladi¹.

Mustaqil tenglik tamoyili xalqaro huquqning xalqaro munosabatlarni tartibga solishida asos bo‘lib xizmat qilishi uchun kerak. Mustaqillik tengsizliksiz bo‘lmaydi va, aksincha. Tengsizlik davlatning xalqaro munosabatlariga putur yetkazadi va unga ishonch yo‘qoladi. Oxir-oqibatda u gegemonizmga va muayyan davlatning xalqaro munosabatlarda liderlik qilishiga olib keladi. Bu nomaqbul yo‘ldir.

Tengsizlik ko‘pgina davlatlarning taraqqiyotini bo‘g‘ib qo‘yadi. Aslida, bir davlatning mustaqilligi boshqa davlatning mustaqilligini cheklash hisobiga bo‘ladi. Shu sababli, BMTning Xalqaro sudi “Mustaqillik va tenglik xalqaro huquq bilan

¹ Гладкий Ю.Н, Чистобаев А.И. Регионоведение. – М.:Гайдарики, 2013. – С.54.

tartibga solinuvchi barcha ishlardagi erkinlikni bildiradi”, - deb ta’rif berdi.

“Kuch ishlatmaslik yoki kuch ishlatish tahdidi” tamoyili XX asrda paydo bo‘ldi. Bugun bu tushuncha yangi ma’no kasb etmoqda, chunki xavfsizlikka tahdid va xavf-xatarlarning xarakteri o‘zgardi. Darhaqiqat, xalqaro huquqda kuch ishlatmaslik va kuch ishlatish bilan tahdid solmaslik qoidalari BMT Nizomining 45 va 51-moddalarida o‘z aksini topgan. 42-moddaga ko‘ra, BMT Xavfsizlik kengashi (XK) xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun havo, dengiz yoki quruqlik kuchlarini ishlatish vakolatiga ega. Bunday qaror doimiy besh a’zo yakdillik bilan ovoz bergenida qabo’l qilinadi. Shuningdek, 51-moddaga binoan, davlatlar individual va kollektiv mudofaalanish uchun qurolli hujum bo‘lganda kuch ishlatadi (ya’ni, bir davlat ikkinchisiga hujum qilganida). Shu ma’noda o‘zini mudofaa qilish keng ma’noda talqin qilinmasligi lozim. Bu qurolli hujumdan foydalanib darhol zarba berishni bildirmaydi. Shuningdek, 51-moddaga ko‘ra, davlatlardan o‘zini mudofaa qilish zarurati tug‘ilganida BMT Xavfsizlik kengashini ogohlantirish va XKning vakolatlariga daxl qilmaslik talab qilinadi.

BMTning kuch ishlatishi ham muayyan tartibga ega. Kuch ishlatish dunyo xavfsizligiga jiddiy xavf-xatar bo‘lsagina amalga oshiriladi. Bu harakat XKning qat’iy nazoratida bo‘ladi. Kuch ishlatish va kuch ishlatish tahdidining uzviy qismi urushni taqiqlash targ‘iboti hisoblanadi.

O‘zbekiston bu borada xalqaro huquq me’yorlariga asosan xatti-harakat olib borish pozitsiyasida turibdi. Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasi 2000 yil 15 dekabr kuni “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qildi. Unda qonuniylikni, shaxsning huquqlari, erkinligi va manfaatlarini himoya qilish belgilab qo‘yilgan.

Albatta, terrorchilarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash (yopiq shaklda bo‘lsa ham) maxsus xizmat, jamoatchilik va tashkilotlar tomonidan kuch ishlatishni taqozo etadi. Bugungi terrorchilik xatti-harakatlari qo‘sishlar hujumini, harbiy tajovuzni va ommaviy qirg‘inni eslatadi. Shu sababli, bunday holatga qonuniy baho berish lozim. O‘zbekiston Respublikasi “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuning 2-moddasiga ko‘ra, terrorizm “kuch ishlatish, tahdid solish va turli salbiy ta’sir ko‘rsatish

bilan shaxs hayoti, sog‘ligiga xavf solish va davlat va jamiyatning manfaatlariga tahdid solish”dir. U siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarda amalga oshiriladi. Shu sababli, bunday sharoitda davlatning kuch ishlatishdan tiyilishi mushkul¹.

Milliy manfaatlarni globallashtirish - globallashuvning ilk va asosiy kamchiligi hisoblanadi. Chunki bu xatti-harakat siyosiy gegemonlikka yo‘l ochishi mumkin.

Kuchlarni muvozanatga keltirish zarurki, u muayyan tajribalardan kelib chiqishi kerak. Shu ma’noda, xalqaro munosabatlar tizimi davlatlar tashqi siyosatining eng samarali shakl va usullariga asoslanadi. Bunda kuchlar muvozanati milliy, mintaqaviy va global xavfsizlik uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kuchlar muvozanatini saqlash xalqaro munosabatlarning rivojiga ijobiy turtki beradi va xavfsizlikni ta’minlashda assosiy shart-sharoit hisoblanadi Kuch hajmlari, iqtisodiy imkoniyatlar, harbiy salohiyat kabilar muntazam o‘zgarib, yangilanib boradi. Fizik qonuniyatlarga ko‘ra, esqilik o‘rnini yangilik egallab boradi. Shu ma’noda, kuchlar muvozanati dinamik rivojlanib borish xususiyatiga ega bo‘ladi. Shu sababli, xalqaro munosabatlarda har qanday kuch muvozanati o‘zgaruvchan bo‘ladi. Bunda izchillikka erishish uchun hamisha milliy manfaatlarni ustuvor deb bilish lozim. Bu jarayonda umumiyligi siyosiy qadriyatlarni mintaqaviy va global darajada oqilona boshqarish zarur. Demak, kuchlar muvozanatini saqlashda mintaqaviy yondashuvni ishlab chiqish samarali usul hisoblanadi, va shu asnoda, global kuchlarning tahididli aralashuv kuchi zaiflashtiriladi.

Xalqaro munosabatlar haqida to‘liq tasavvur hosil qilish uchun bu masalaga falsafiy, ijtimoiy, psixologik, tarixiy, siyosiy jihatlardan tahliliy yondashish lozim bo‘ladi. Bu hol tadqiqotchilarining siyosiy jarayonlarga, voqelik va hodisalarga mustaqil, tajribaviy yondashishini taqozo qiladi. Shu sababli, xalqaro munosabatlarning dolzarb muammolarini tahlil qilishda xalqaro siyosat nazariyasi qoidalariga va taraqqiyotning hozirgi bosqichida O‘zbekiston Respublikasi uchun ahamiyatli bo‘lgan munosabatlarga urg‘u beriladi.

Xalqaro munosabatlarning asosiy tamoyillari quyidagilardir:

- Kuch ishlatmaslik va kuch bilan qo‘rqtmaslik;

¹ Международные нормативные документы//Международное право. 2002. №1. С.68.

- Chegaralar daxlsizligi;
- Davlatlarning hududiy yaxlitligini hurmat qilish;
- Mojarolarni tinch yo‘l bilan bartaraf etish;
- Davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- Insonning asosiy huquq va erkinliklarini hurmat qilish;
- Teng huquqlilik va xalqlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqini hurmat qilish;
- Xalqaro huquq me’yorlariga qat’iy rioya qilish;
- O‘zaro foydali hamkorlik;
- Jahon hamjamiyatini qurolsizlantirish.¹

Hozirgi zamon xalqaro munosabatlarining asosiy vazifalaridan biri davlatlar o‘rtasida bo‘layotgan nizolarni hal etish yo‘llarini izlash bo‘lib qolmoqda, chunki bu hol milliy manfaatlarning to‘qnashuvi asosida yuzaga keladi.

Xalqaro huquq va diplomatiya asosida noharbiy tamoyillar turishi kerak. Nizolarni harbiy vositalar bilan hal etish subyektiv va obyektiv omillarni keltirib chiqaradi. Chunki harbiy vositalardan foydalanish dunyoda ijtimoiy va siyosiy, iqtisodiy va madaniy nizolarni kuchaytiradi hamda voqealarning o‘zgacha tus olishiga sabab bo‘ladi. Bunday vaziyat muammoni hal etishni yanada chigallashtiradi. Muammolarni tinch yo‘l bilan hal qilishning yagona yo‘li xalqaro huquq tamoyillari va me’yorlariga asosan munosabatlar olib borishdadir. Bu borada muammolarni hal etish, qarorlar qabul qilish va davlatlararo munosabatlarda muhim strategiyaga ega bo‘lish lozim.

Zamonaviy xalqaro munosabatlar kesishayotgan va mos kelmayotgan tashqi siyosiy va iqtisodiy manfaatlar, mafkuralarni ifoda etayotgan xalqaro munosabatlar subyektlarining raqobatli kurash maydonini namoyon qilmoqda. Ushbu kurash iqtisodiyotning, siyosiy munosabatlarning, axborot makonining hamda ijtimoiy va madaniy aloqalarning globallashuvi sharoitida ro‘y bermoqda.

Ko‘rinib turibdiki, *bir qutbli dunyo* qurish rejasini amalga oshirish tahdidi - istiqbol emas, balki yuzaga kelayotgan haqiqatdir. AQSh bugungi kunda xalqaro

¹ Комаров М.П. Инфраструктура регионов мира. – СПб .: Михайлова В.А., 2000. – С.32.

hamjamiyatning fikriga e'tibor qilmasdan, o'z milliy manfaatlariga foydali bo'lgan tashqi siyosiy faoliyatni olib bormoqda.

Biroq bir qutbli dunyo tartiboti bilan birga *ko'p qutbli dunyo tartiboti* nazariyasi ham rivojlanib bormoqda. Istiqbolda ko'p qutblilikning kengayishiga o'z hissalarini qo'shishi mumkin bo'lgan Rossiya, Xitoy, Hindiston, Braziliya kabi tez rivojlanib borayotgan davlatlarni e'tiborga olmaslik mumkin emas. AQShning bir qutbli dunyo barpo etish rejasini amalga oshirishdagi faolligi shunday ko'p qutblilik tizimi tashkil qilinishiga hamda bu holat, o'z navbatida, mintaqalararo integratsiyaga va dunyo tartibotining bipolyar tizimi shakllanishiga yo'l ochishi mumkin. Ma'lum bir sharoitlarda ushbu tendensiya BMTning mintaqalararo tuzilma sifatida transformatsiyalashuviga, yoki BMT bazasida AQShning roli asosiy bo'limgan yangi universal tashkilotning tuzilishiga olib kelishi mumkin.

Seminar savollari:

1. Jahon siyosatida «hokimiyat» tushunchasini izohlang.
2. Hokimiyat uchun kurashning qanday shakllari mavjud?
3. Hokimiyat uchun kurashning qanday maqsadlari mavjud?
4. Hokimiyat uchun kurashning qanday uslublar bor?

Mustaqil ishlari topshiriqlari:

1. Millat va davlat qudrati tushunchalarini izohlang.
2. Qudratli davlatlar siyosati jahon siyosatidagi roli qanday?
3. Jahon siyosatida hokimiyat uchun kurashning tarixiy shakllanishini gaprib bering.

MA’RUZA № 7. XALQARO MUNOSABATLARNI TAHLIL QILISHDA SIYOSIY BASHORATNING ROLI

Reja:

1. Siyosiy “oldindan ko‘rish” yoki “bashorat” masalasi va uning tadqiq etishning ayrim usullari
2. Siyosiy bashorat qilish (prognozlash) obyekti
3. Siyosiy bashorat qilish tamoyillari va usullari
4. Siyosiy prognozlash bosqichlari

O‘quv mashg‘ulotning maqsadi: Zamonaviy dunyoda integratsion jarayonlarning kechishi va jahon siyosatiga ta’siri xususida ma’lumot berib o’tishdan iborat.

Tayanch so‘z va iboralar:

- | | |
|--------------|---------------------------|
| • Mintaqa | • Mintaqaviy tashkilotlar |
| • Nizo | • Hududiy nizolar |
| • ittifoqlar | • Urush |

Siyosiy “oldindan ko‘rish” yoki “bashorat” masalasi va uning tadqiq etishning ayrim usullari

Inson o‘ziga xos mavjudot bo‘lib, hayoti davomida orzu-umidlar bilan yashaydi, turli rejalar tuzadi, kelajagini oldindan bilishga intiladi. Shuning uchun har bir insonning kelajakni oldindan bilishga intilib yashashi uning butun ongli hayoti jarayonida muhim o‘rin egallaydi.

Oldindan bilishga intilish inson uchun azaliy ehtiyoj bo‘lib, uning manbalari sifatida mehnat faoliyati, diniy e’tiqod, turmush tarzi, urf-odatlar va burchni ado etish kabi talab-ehtiyojlar majmui amal qiladi.

Nima uchun kelajakni oldindan bilish zarur? Chunki, hayotning mantiqiy xulosasi insonni vogelikka moslashgan holda yashashga undaydi. Inson uchun bunday moslashuvchanlikni ko‘pchilik holatda kelajak haqidagi bilim va axborotlar – oldindan ko‘rish (bashorat) belgilaydi. Ertangi kun haqida to‘la axborotga ega bo‘lgan shaxs bugungi kunda ham o‘z faoliyatini yaxshiroq tashkil eta olishi mumkin.

Hozirgi zamon kishisining, u qaysi kasb egasi bo‘lishidan qat’i nazar, boshqa

jonzotlardan eng katta farqi uning boshqalardan o‘zib keta olishi, kelajakni oldindan ko‘ra olish va ayta olish qobiliyatidir. Mavjud shart-sharoitlarda axborotlar harakat omili bo‘lib, kelajakdagi ko‘lami, ayrim kishilarning favqulodda qobiliyati yoki ilmfanga asoslangan harakati har qanday sohada muvaffaqiyatga erishishi uchun bosh omil bo‘lib xizmat qiladi. Siyosat bilan shug‘ullanuvchi shaxs uchun “hokimiyat” tushunchasi va undan foydalanish, belgilovchi ko‘rsatkich omili hisoblanadi.

Bashorat qilish qo‘llanilayotgan sohalar orasida siyosatni alohida ko‘rsatish mumkin. Uning o‘ziga xos tomoni, u ijtimoiy hayotning iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy sohalariga kirib boradi, millionlab kishilarning manfaatiga ta’sir qiladi, jamiyatning kelajagi, xalq hayotining rivojlanishi va gullab-yashnashi va unga bog‘liq jarayonlarni oldindan bilishda muhim rol’ o‘ynaydi.

Bashorat qilish siyosatga yo‘naltirilgan bir tomonlama tadqiqot emas, albatta. Siyosat, xususan, siyosiy ijod yangi kelajakni tug‘diradi, ijtimoiy hayotning barcha yo‘nalishlariga dastur bera oladi. Ma'lumki, xalqaro voqealarning asosiy zanjiri, tarixdagi tektonik o‘zgarishlarning bosh mexanizmi hokimiyat vositasida amal qiladi. Bunday holatda bashoratchilikning vazifasi - zarur siyosiy qarorlar qabul qilish yo‘li bilan mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarning butun spektrini tahlil etib, maqbul bo‘lmaganlarini rad qilishdan iboratdir.

Bunday tadqiqotning vazifasi siyosatda oldindan ko‘rish (bashorat)ning obyektiv imkoniyatlarini, ushbu voqealar asoslanganligini ko‘rsatish va uni amalga oshirish texnologiyasini aniqlashdan iborat. Uni bajarishdagi qiyinchiliklar, ya’ni kelajakni loyihalash mumkinligining o‘zi muammoli ekanligi, unda ma'lum bir qonuniyatni aniqlash qiyinligi, ko‘proq sub'ektiv sohada inson aqlini qo‘llash zarurligi kabi ma'lumotlar bilan qorishib ketgan. Yana bir masala shundan iboratki, ushbu mavzuni fundamental o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari, oldindan ko‘rish bilan bog‘liq masalalarni yoritgan ilmiy adabiyotlar ham nihoyatda kamligidir.

Oldindan ko‘rish asoslari ma'lum vaqt va ma'lum ma'noda o‘tmish, hozirgi kun va kelajak haqida emas, balki faqat o‘tmish va kelajak haqida aytilishi mumkin, chunki ularning ikkinchisi uzluksiz ravishda shartli ajratilgan oqim - vaqt orqali birinchisiga "o‘tishi", ya’ni hozirgi kunga o‘tishi o‘rganiladi.

Fan u yoki bu darajada o‘tmish (tarixiy fanlar, jumladan, fizika, ximiya, biologiya va boshqa fanlar tarixi ham) yoki kelajak bilan shug‘ullanadi, ular ma'lum darajada ma'lum vaqtdan so‘ng o‘tmish bo‘lishi uchun) hozirgi kunga "kirib keladi" (tabiiy, falsafa, iqtisodiy, siyosiy fanlar shug‘ullanayotgan), shuningdek tor ma'noda "hozirgi kun" doirasidan chiqib turadi.

Hozirgi zamon kishisining, u qaysi kasb egasi bo‘lishidan qat'i nazar, boshqa jonzotlardan eng katta farqi uning boshqalardan o‘zib keta olishi, kelajakni oldindan ko‘ra olish va ayta olish qobiliyatidir. Mavjud shart-sharoitlarda axborotlar harakat omili bo‘lib, kelajakdagi ko‘lami, ayrim kishilarning favqulodda qobiliyati yoki ilm-fanga asoslangan harakati har qanday sohada muvaffaqiyatga erishishi uchun bosh omil bo‘lib xizmat qiladi. Siyosat bilan shug‘ullanuvchi shaxs uchun "hokimiyat" tushunchasi va undan foydalanish, belgilovchi ko‘rsatkich omili hisoblanadi.

Bashorat qilish qo‘llanilayotgan sohalar orasida siyosatni alohida ko‘rsatish mumkin. Uning o‘ziga xos tomoni, u ijtimoiy hayotning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalariga kirib boradi, millionlab kishilarning manfaatiga ta'sir qiladi, jamiyatning kelajagi, xalq hayotining rivojlanishi va gullab- yashnashi va unga bog‘liq jarayonlarni oldindan bilishda muhim rol' o‘ynaydi.

Bashorat qilish siyosatga yo‘naltirilgan bir tomonlama tadqiqot emas, albatta. Siyosat, xususan, siyosiy ijod yangi kelajakni tug‘diradi, ijtimoiy hayotning barcha yo‘nalishlariga dastur bera oladi. Ma'lumki, xalqaro voqealarning asosiy zanjiri, tarixdagi tektonik o‘zgarishlarning bosh mexanizmi hokimiyat vositasida amal qiladi. Bunday holatda bashoratchilikning vazifasi - zarur siyosiy qarorlar qabul qilish yo‘li bilan mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarning butun spektrini tahlil etib, maqbul bo‘limganlarini rad qilishdan iboratdir.

Bunday tadqiqotning vazifasi siyosatda oldindan ko‘rish (bashorat)ning obyektiv imkoniyatlarini, ushbu voqealar asoslanganligini ko‘rsatish va uni amalga oshirish texnologiyasini aniqlashdan iborat. Uni bajarishdagi qiyinchiliklar, ya'ni kelajakni loyihalash mumkinligining o‘zi muammoli ekanligi, unda ma'lum bir qonuniyatni aniqlash qiyinligi, ko‘proq sub'ektiv sohada inson aqlini qo‘llash zarurligi kabi ma'lumotlar bilan qorishib ketgan. Yana bir masala shundan iboratki, ushbu

mavzuni fundamental o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari, oldindan ko‘rish bilan bog‘liq masalalarni yoritgan ilmiy adabiyotlar ham nihoyatda kamligidir.

Oldindan ko‘rish asoslari ma'lum vaqt va ma'lum ma'noda o‘tmish, hozirgi kun va kelajak haqida emas, balki faqat o‘tmish va kelajak haqida aytilishi mumkin, chunki ularning ikkinchisi uzlusiz ravishda shartli ajratilgan oqim - vaqt orqali birinchisiga "o‘tishi", ya'ni hozirgi kunga o‘tishi o‘rganiladi.

Fan u yoki bu darajada o‘tmish (tarixiy fanlar, jumladan, fizika, ximiya, biologiya va boshqa fanlar tarixi ham) yoki kelajak bilan shug‘ullanadi, ular ma'lum darajada ma'lum vaqtidan so‘ng o‘tmish bo‘lishi uchun) hozirgi kunga "kirib keladi" (tabiiy, falsafa, iqtisodiy, siyosiy fanlar shug‘ullanayotgan), shuningdek tor ma'noda "hozirgi kun" doirasidan chiqib turadi.

Ijtimoiy sohani o‘rganishda "oldindan ko‘rish" va "bashorat qilish" tushunchasi, bir tomonidan, "oldindan ko‘rish" va "boshqarish", boshqa tomonidan esa o‘zaro munosabatlarning metodologik muammolari yechimini topish ma'nosini anglatadi.

Oldindan ko‘rish va boshqaruv o‘rtasida turli darajadagi intensivlik nomutanosib aloqada bo‘ladi: amaldagi yaqin yoki nolga teng (nazariy jihatdan hech qachon nolli ahamiyatga ega bo‘lmagan) holatdan favqulodda intensiv bo‘lgan, oldindan aytishni "o‘ziga singdirib yuborish"ni keltirib chiqaruvchi sifatida prognozning o‘zini amalga oshirish yoki aksincha o‘zini vayron qilish kabi natijani berishi mumkin.

Ijtimoiy sohani o‘rganishda "oldindan ko‘rish" va "bashorat qilish" tushunchasi, bir tomonidan, "oldindan ko‘rish" va "boshqarish", boshqa tomonidan esa o‘zaro munosabatlarning metodologik muammolari yechimini topish ma'nosini anglatadi.

Oldindan ko‘rish va boshqaruv o‘rtasida turli darajadagi intensivlik nomutanosib aloqada bo‘ladi: amaldagi yaqin yoki nolga teng (nazariy jihatdan hech qachon nolli ahamiyatga ega bo‘lmagan) holatdan favqulodda intensiv bo‘lgan, oldindan aytishni "o‘ziga singdirib yuborish"ni keltirib chiqaruvchi sifatida prognozning o‘zini amalga oshirish yoki aksincha o‘zini vayron qilish kabi natijani berishi mumkin.

Oldindan ko‘rish (bashorat) asosi kuzatish hisoblanadi. Aniqrog‘i, kuzatishning o‘zi emas, kuzatilayotgan obyektning ahvoli, holatining ko‘rsatkichi ahamiyatga ega (siyosatshunoslikda qo‘llanganda saylovlar paytida nomzod reytingi ko‘rsatkichlari).

Ularning ma'lum vaqtdagi holati va ahamiyatini ko'rish uchun mavjud holatning o'zgarish jarayonining jadvalli asosini olish mumkin. Olimlarning bunday matematik hisoblari tez-tez sodir bo'luvchi tahliliy jadvallar tuzishga olib keladi.

Ushbu, ya'ni kelajakni aniqlash usulining mohiyati quyidagilardan iborat: demografiya, marketing va siyosatshunoslikda ko'proq iqtisodiy ko'rsatkichlar, statistik ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish jarayonida ko'pincha savol paydo bo'ladi: "kuzatilayotgan natijalar ma'lum doirada sodir bo'layotgan ba'zi bir qonuniyatlar asosida kelajakni loyihalash imkonini beradi".

Kelajakni loyihalash va aniqlashning ushbu usulini aniq fanlarda qo'llash qulay, siyosatda iqtisodga nisbatan siyosiy faoliyat asosining qat'iy emasligi va siyosiy jarayonning sub'ektiv kuchiga ko'ra barqaror emasligi uchun uning samaradorligi nisbatan kamroq bo'ladi. Kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan voqealarni oldindan bilishda tez-tez takrorlanish tahlili, ko'p yoki kichik, ya'ni matematik va statistik ishlash mumkin bo'lgan mavjud holatlarni aniqlash imkonini bor. Shunday yo'l bilan qilingan hisoblar haqiqatga nisbatan yaqinroq bo'ladi. Shu bilan barcha ilmiy bashorat usullariga xarakterli bo'lgan xulosani chiqarish mumkin. Tahlil qilish lozim bo'lgan voqealar ko'لامи qanchalik kichik bo'lsa, uni bashorat qilish (oldindan aytish) shunchalik aniqroq bo'ladi.

Siyosiy bashorat siyosiy fanlardagi ko'plab tushuncha va vogeliklar bilan o'zaro bog'liqdir. U siyosiy sub'ekt amalga oshirayotgan siyosiy faoliyatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Siyosiy bashoratning mazmuni obyektning kelajakdagi holati, amalga oshishining muqobil yo'llari va muddati haqidagi ilmiy asoslangan mulohazadir. Oldindan ko'rishni ishlab chiqish, tayyorlash jarayoni bashorat (oldindan aytib berish) deb ataladi. Oldindan aytib berish (bashorat qilish) - ma'lum, aniq jarayonlar, holatlar, voqealarni va ularning ba'zilarini o'tmish yoki hozirgi kunda ma'lum ma'lumotlar asosidagi alohida ilmiy tadqiqot bo'lib, u orqali bashorat qilinayotgan obyektda bo'lishi mumkin bo'lgan holat haqida tushuncha yoki turli ma'lumot mavjud bo'ladi.

O'tmish, hozirgi kun va kelajak o'zaro aloqalarini kuzatish imkonini beruvchi asosiy qonunlardan biri sababiyat qonuni hisoblanadi, u esa vaqt va fazoda sabab hamda oqibat bog'liqligini kuzatish imkonini berishdir. Sabab ostida vogelik

tushuniladi, u esa oqibatni keltirib chiqaradi. Sababi ma'lum bo'lgandan so'ng, oqibatini oldindan bilish mumkin. Agar u noxush bo'lsa, uni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan sabablarga chek qo'yish mumkin.

Oldindan ko'rish (yoki bashorat) o'zida bir necha funksiyalarni mujassamlashtiradi va qator vazifalarni bajaradi. Farblik olimlar fikricha, bashorat o'zida:

birinchidan, siyosiy sub'ekt uchun qanday aniq siyosiy maqsadlarni qo'yish va amalga oshirish mumkinligi haqidagi axborotlarni berishi;

ikkinchidan, taraqqiyotning hozirgi bosqichida qo'yilgan maqsadlarning qay biri jamiyat manfaatlariga nisbatan ko'proq mos kelishini aniqlashga yordamlashishi;

uchinchidan, prognozlar muqobil siyosiy maqsadlar bo'lgan hollarda ularning qaysi biri jamiyat manfaatlariga ko'proq mos kelishi bo'yicha to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun asos berishi;

to'rtinchidan, prognozlar mavjud va hozirgi kundagi vazifalar bilan, yaqin va uzoqdagi maqsadlar o'rtasidagi, minimum va maksimum talablar o'rtasidagi, maqsad va vositalar o'rtasidagi maqbul munosabatlar majmuini topishga yordam berishi;

beshinchidan, bashoratlar bugun qabul qilinayotgan qarorlarning qanday natijalarga olib kelishi mumkinligini ochib berish vazifasi turadi.

"Siyosiy bashorat" amaliy siyosatning bir qismidir. Ko'plab bashoratlar qilinadi, mutaxassislar fikricha ularning oqimida o'ralashib qolmaslik uchun bashoratlarni turlarga ajratish talab etiladi. Ular maqsadi, vazifasi, obyekti, xarakteri, ogohlantirish davri va boshqalariga qarab, turli mezonlar asosida qurilishi mumkin.

Siyosiy prognozlarning asosiy to'rt amaliy vazifalariga qarab, turini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Izlanuvchan bashoratlar – ular aynan amaliy maqsadlar uchun tuziladi. BMT davriy chop etadigan Rekonstruksiya va rivojlanish xalqaro bankining ishlab chiqadigan ba'zi bashoratlari misol bo'ladi.

2. Tahliliy bashoratlar – ijtimoiy-siyosiy bashoratlarning ilmiy zaxirasini ishlab chiqish va takomillashtirish uchun tuziladi. Bunday prognozlarga Dj. Forestorming

ishlari ("Olamshumul dinamika" kitobi) aloqadordir.

3. Umumiylar - me'yoriy bashoratlar – ma'lum kelajakni aks ettirishning istalgan yoki turli muqobilari bilan taqqoslaganda nisbatan ustunroq bo'lgan vazifani hal etadi.

4. Oghlanlantiruvchi prognozlar, bunday prognozlar mualliflari kelajakning noxush manzarasi bilan, uning oldini olish maqsadida jamoatchilik fikrini taxlikaga solish uchun intiladi.

Prognozning rejalashtirilishiga qarab, bugungi kun uchun, qisqa muddatli, o'rtacha muddatli, uzoq muddatli va juda uzoq muddatli prognozlarga bo'linadi.

Prognozlar muammoli-maqsadli me'yorlari bo'yicha izlanuvchan va normaga muvofiq ikki turga bo'linadi.

"Izlanuvchan bashorat – siyosiy boshqaruv vositasi qarorlari bilan istiqboldagi muammolarni aniqlash va tuzatishdan iboratdir". Bunday prognoz jamiyatda mavjud ijtimoiy-siyosiy tendensiyalar saqlab qolingga nimalar kechishi mumkinligiga javob beradi.

Normativ prognoz – istalayotgan maqsadlarga qanday erishiladi, degan savolga javob beradi.

Bunday turlarga bo'linish aytilayotgan prognozlar oqimida o'ralashib qolmaslik imkonini beradi. Ammo, siyosiy bashorat qilishning yana bitta qirrasi mavjuddir. Bashorat qilishning obyekti siyosat (ichki va tashqi), predmeti voqealar, ko'rinishlar, jarayonlarning mumkin bo'lgan holatlarini bilish hisoblanadi. Shuning uchun ularni ichki siyosiy va tashqi siyosiy prognozlar (bashorat)ga ajratish maqsadga muvofiqdir.

Ichki siyosiy bashorat qilishga ichki siyosatning barcha mazmuni kiradi. Siyosiy taraqqiyotning murakkab xarakteri, bir tomonidan, siyosiy jarayonlarni boshqarishning eng maqbul manfaatlari uchun kelajakdagi siyosiy muammolar va ularni hal etish yo'llarini, boshqa tomonidan, xush va noxush siyosiy voqealarni oldindan bilish dolzarbligini ta'minlaydi. Uning ikki jihat: birinchisi, aniq siyosiy voqealarni prognoz qilish darajasi bilan, ikkinchisi, jamiyatdagi siyosiy institutlar faoliyati va unda kechayotgan siyosiy jarayonlarni prognoz (bashorat) qilishni qamrab oladi.

Tashqi siyosiy prognoz qilish yoki oldindan aytib berish - xalqaro aloqalar va tashqi siyosat sohasidagi bashoratlardir.

Umuman, prognoz (bashorat) qilishning ikki jihat: mumkin va maqbul bo‘lgan kelajagi, ahvoli, qarorlar bayon etishni oldindan aytishni anglatuvchi va ushbu muammolarni aynan hal etishni oldindan aytish tushuniladi. Shunga ko‘ra, prognoz (bashorat) qilish muammolarining ikki tomoni: nazariy-bilish va boshqaruvni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Siyosiy bashorat qilish (prognozlash) obyekti

Siyosiy prognoz obyektini aniqlashga va uning murakkabligi bilan paydo bo‘ladigan holatiga alohida e’tibor qaratish lozim, "Prognoz obyektini, uning amal qilishi va rivojlanishi, prognoz qilinayotgan tizim va jarayonga muayyan darajada ta’sir etuvchi umumiy ko‘rinishdagi holatlarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash, prognozlarni tayyorlashning asosiy va birinchi darajadagi shartidir. Shunday qilib, siyosiy prognoz obyektlari: siyosiy sistemaning rivojlanishi (tuzilishi va boshqalar); siyosiy boshqaruv funksiyalarining rivojlanishi, ixtisoslashuvi va kengayishi; shaxsning siyosiy va huquqiy maqomi (mas’uliyat, intizom va boshqalar); siyosiy partiyalar va tashkilotlar faoliyatining shakl va usullari; davlatning rivojlanishi, uning shakl va vazifalari o‘zgarishi; jamiyatning sinfiy tarkibi, sinfiy va siyosiy ongingin o‘zgarishi; siyosiy demokratiyaning rivojlanish yo‘llari va shakllari; ijtimoiy fikrning amal qilish rivojlanishidir. Prognoz qilish obyektlarini aniqlashda ba’zi bir quyidagi qiyinchiliklar tug‘iladi:

1. Obyektni belgilashda tasodifiy taassurot shakllanadi, chunki obyektlarni hisoblash hamda boshqaruvni bosqichma-bosqich bo‘ysunuvchanligini aniqlash mantiqi va tamoyillarini aniq ko‘rish qiyin, belgilangan obyektning hajmi va mazmuni qisman bir-biriga o‘tib ketishi, tayyorlanayotgan sxemani kengaytirish yoki qisqartirish imkonini beradi, xolos.

2. Obyekt siyosatning tarkibi sifatida chiqadi, ya’ni, uning elementlarini sanab o‘tadi, lekin siyosatning strukturasini tarzida emas, balki elementlarining o‘zaro xarakteri, mohiyatini ochib berishida kuzatiladi.

3. Jiddiy ilmiy siyosiy oldindan ko‘rishning bosh obyekti bo‘lib, siyosatning tarkibi va tizimini tashkil etuvchi yadrovi, ya’ni uning ko‘p qirrali tomonlari, uning sodir bo‘lish jihatini belgilovchi bo‘lib chiqishi kerak.

Siyosiy bashorat qilish tamoyillari va usullari

Shunday qilib, siyosatda prognoz qilish ilmiy tadqiqotning murakkab tizimini aks ettiradi, uning xulosalari biridan ikkinchisiga asta-sekin o‘tadi. Ushbu murakkab tizimning muvaffaqiyatli amal qilishi uchun ayrim tamoyillar va belgilangan usullardan foydalanish zarurdir.

1. Muqobillik tamoyili voqealar rivojlanishining bir necha aniq yo‘nalishlari bilan bog‘liqdir. Lekin, muqobillikni prognoz qilishning ehtimollilik xarakteri bilan aralashtirib yubormaslik lozim. Ehtimollik o‘zida prognozni tasdiqlash, qonunlarni boshlang‘ich va yakuniy qoidalarini aniq bilishga asoslangan chegaralarini ifoda etadi. Muqobillik, o‘z navbatida, siyosiy voqealar rivojining turli variantlarining tubdan amal qilishi va bajarilishi imkoniyatlarini bildiradi. Muqobillik tamoyili amaliy bajarilishining asosiy vazifasi, ya’ni rivojlanishning amalga oshirish mumkin bo‘lgan variantini mavjud va ko‘zda tutilgan sharoitlarda bajarish imkoni bo‘lmagan variantlardan ajratish imkonini beradi. Shu bilan birga, voqealar rivojining muqobilligi o‘zida qator muammolarni, ya’ni ularni prognozlashtirish jarayonida hisobga olishni taqozo etadi. Unda amalga oshirish darajasi imkoni bo‘yicha variantlarni chegaralash va bosqichma-bosqich bajarish imkonini beradi. Ushbu tamoyilni hisobga olish voqealar haqiqiy rivoji, prognozlar aniqligini oshiradi hamda voqealarga ta’sir etuvchi omillari hisobiga tanlash imkonini beradi.

2. Prognozlashtirishning tizimliligi tamoyili. Siyosat prognozlashtirishning yagona obyekti sifatida ko‘rib chiqiladi, o‘z vaqtida prognozlar mustaqil bir necha yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi - bu siyosiy hayotni (har bir yo‘nalishi bo‘yicha) siyosiy kelishilgan va qarama-qarshi bo‘lmagan prognozlar ishlab chiqish imkonini beradi.

3. Prognozlashtirishning uzluksizligi tamoyili. Tahlil obyekti dinamik harakatchandir, shuning uchun prognoz amalga oshirilayotgan obyektning vazifasiga yangi axborotlarning to‘planishiga qarab, prognozlarga uzluksiz ravishda tuzatishlar kiritib turish kiradi.

4. Verifikasiya tamoyili - ishlab chiqilgan prognoz to‘g‘riligini aniqlash.

Bashorat qilish tamoyillari ilmiy prognostik tadqiqotlarning aniq usullari orqali

amalga oshiriladi. Ilmiy asoslangan prognoz, umuman prognostika tadqiqotlari asosida qanday usul yoki usullar tizimi yotganligiga qarab qabul qilinadi. Unda nafaqat tadqiqot natijalari, balki unga olib boradigan yo‘l ham haqiqiy bo‘lishi shart.

1. Jamoaviy ekspert baholash usuli - ichki va tashqi siyosat yoki uning ayrim sohalarini ba’zi mutaxassislar tomonidan taraqqiyotning istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlashga imkon beradigan siyosiy munosabatlar rivojlanishini belgilashda ekspertlar fikrlari hamohangligi ishlataladi.

2. Jamoaviy g‘oyalarni tanqid qilish orqali unga qarshi g‘oyani shakllantirishdir. Muammoli vaziyatlarda "aqliy hujum" orqali mutaxassislarni ijodiy potensialini faollashtirish, g‘oyalarning yuzaga kelishi va keyinchalik buzilishi, bu g‘oyalarni tanqid qilish orqali unga qarshi g‘oyani shakllantirishdir.

3. "Del’fi" usuli. Bu uch xususiyati bilan xarakterli bo‘lib, ular ekspertlarning guruhiy o‘zaro hamkorligi usulidan farq qiladi, ekspertlarning mavhumliligi hamda birinchi o‘tkazilgan so‘rovlар bergan guruhiy javoblar natijalaridan foydalanish bilan farq qiladi.

4. Rejalar tartibini tuzish usuli. Tartib (ssenariy) rejasi - katta sistema (xalqaro munosabatlar, ijtimoiy munosabatlar va boshqalar) muqobil rivojlanish maqsadlarini aniqlash uchun voqealarning mantiqiy ketma-ketligini ta'minlash usulidir.

Yozilgan tartib harakatlarining ketma-ketligi quyidagicha bo‘lishi mumkin: vaqt oralig‘ini hisoblash - voqealarni aniq ifoda etish - voqealar mazmunini tushuntirish - eskalasiya (o‘sish) shkalasidagi miqdoriy bahodir. Unda jadvallar tuzish samarali bo‘lib, absissa o‘qi bo‘yicha vaqt oralig‘ining ordinata o‘qi bo‘yicha oldindan ishlab chiqilgan va miqdoriy baholangan voqealar kategoriyasining o‘sishidir.

5. Ekstropolyasiya (kuzatish) usuli. Prognozlashtirishda qo‘pol xatolardan qochish uchun olingan xulosalarni uning boshqa qismiga tatbiq etishda ehtimollik nazariyasi xulosalarini qo‘llagan holda matematik statistika hisob qombinasiyalarini o‘zida aks ettiruvchi murakkab kuzatish usuli qo‘llaniladi.

6. Modellashtirish - tadqiqot usulida obyektning o‘zi emas, balki modeli tadqiq etiladi. Lekin, modelning obyektga to‘liq mos kelish imkoniyati yo‘qligi tufayli, oldindan ko‘rish (bashorat) yuqori aniqlik va haqiqiylikka da’vo qila olmaydi.

Siyosiy prognozlash bosqichlari

Siyosiy jarayonlar, voqealarni bashorat qilishning u yoki bu usulini tanlash, prognozlarni maqsadli guruhlashtirish, uni ishlab chiqish, belgilangan muddat va vaqt bilan bog‘liqligidan kelib chiqadi.

Siyosiy prognozni ishlab chiqishning eng muhim operatsiyalarini umumiyligi mantiqiy ketma-ketligi quyidagi asosiy bosqichlarga olib keladi:

Birinchi bosqich - prognozning oldingi yo‘nalishi (orientasiya). Unda prognoz uchun vazifalar aniqlanadi, prognozning xarakteri (xususiyati), ko‘lami, maqsad va vazifalari, ishchi taxminlari asoslanadi, prognozlashtirishni tashkil etish jarayoni va usullari aniqlanadi.

Prognozni ishlab chiqishning **ikkinchi bosqichi** - tizimli taxlil usuli bilan prognozlashtirishda obyektning dastlabki holati modeli yaratiladi. Modelni aniqlash uchun aholi va ekspertlar orasida so‘rov o‘tkazish mumkin.

Prognozni ishlab chiqishning **uchinchi bosqichi** - yuqorida ta’kidlangan usullar orqali prognoz holati bo‘yicha ma’lumotlar yig‘ishdir. Prognoz asosi - siyosiy bashorat vazifalarini hal etish uchun zarur bo‘lgan obyektga nisbatan bashorat shart-sharoitlarining tashqi majmuasidir. Masalan, iqtisodiy rivojlanish prognozni kelajakda hisobga olishning zaruriy shart-sharoiti sifatida e’tiborda tutadi. Busiz siyosiy prognozning aniqligiga ishonish qiyindir.

To‘rtinchi bosqich - ko‘rsatkichlarning dinamik qatorlarini qurish - ekstropolyasiya usuli bilan kelajak prognozi modellari o‘zagining asoslarini hamda ushbu materiallarni bashorat modelining oldingi tartibi sifatida umumlashtirish mumkin. Dinamik qator - o‘tmishni hisobga olgan holda prognozlashtirishning o‘zgaruvchan obyektdagi miqdoriy tavsifini bildiradi, ya’ni prognozdagi voqealar oldini olish davri davomidagi o‘zgaruvchanligida qo‘llaniladi.

Beshinchi bosqich - izlanayotgan tahliliy holat va umumiyligi ko‘rinishiga oid ko‘rsatkichlarning minimal, maksimal va nisbatan ehtimollilik ahamiyatini aniqlashtirish bilan dastlabki turkumini yaratish.

Oltinchi bosqich - prognozlashtirilayotgan obyektning normativ tahlil usuli bilan absolyut (prognoz holatini cheklanmaganligi doirasida) va nisbiy (ushbu doira

bog‘langanligi) ahamiyatini aniqlashtirilgan eng maqbul variantini oldindan belgilangan me'yorlar bilan hamohang bo‘lgan normalar, ideallar, maqsadlarning taxminiy umumiy modelini yaratishdir. Bunda maqsad va normalar aniq bo‘lishi kerak.

Yettinchi bosqich - prognozning ishonchliligi va to‘g‘rililigin hamda asoslanganligini baholash - ya’ni ekspertlarning so‘rov usullari bilan taxminiy modellarni aniqlashdir. Prognozning ishonchliligin tekshirish usuli bilan uning ilmiy asoslanganligi, mantiqiy to‘g‘rililigi, tajribaviy tekshiruv va intuitiv (ichki his bilan sezish) aniqligi deb, hisoblash mumkin.

Sakkizinchi bosqich - boshqaruv sohasidagi qarorlar uchun izlanuvchan va normativ modellarni taqqoslash orqali ishlab chiqiladi. Ichki va tashqi siyosat sohasidagi o‘zgarishlarda, siyosiy qarorlar qabul qilishda prognoz usuli maksimal ravishda hisobga olinishi kerak. Bu siyosatshunos-prognozchilarga katta mas’uliyat yuklaydi.

To‘qqizinchi bosqich - tayyorlangan prognoz va tavsiyalarni qismlarga ajratib tahlil (ekspertiza) etish, muhokama natijalarini hisobga olgan holda uni qayta ishslash va buyurtmachiga berish.

O‘ninchchi bosqich - prognozdan oldingi yo‘nalishni, ishlab chiqilgan prognoz materiallarini qayta solishtirish asosida prognoz holatini yangi ma'lumotlar va yangi sikllarini (prognozlashtirish uzlusiz bo‘lishi lozim bo‘lib, mo‘ljallashtirish, rejelashtirish, umuman boshqaruv, uning samaradorligini yuksaltirishga xizmat qilishi kerak) tayyorlashni taqozo etadi.

Prognozni ishlab chiqish usullarining o‘ziga xosligi prognozlar imkoniyatlarini vaqt ko‘lamida ham (bir necha yil) va tadqiqot obyekti ko‘lamida ham (har qanday holat ham bir xil darajada prognoz baholash imkonini bermaydi) jiddiy chegaralashga majbur qiladi.

Xulosa qilib aytganda, prognozlashtirish usullari va ularning mantiqiy ketma-ketligidan foydalanish tajribalari siyosat bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar, rahbarlar va ilmiy hodimlarga hozirgi kunda siyosat (ichki va tashqi) sohasida rejalar ishlab chiqish va uni amalga oshirish jarayonida mavjud holat va voqealarning rivoji, obyektiv va sub'ektiv omillarni hisobga olgan holda hayotga tatbiq etish imkonini

beradi. Bugungi kunda dunyoda ushbu yo‘nalishda turli tadqiqot va izlanishlar o‘tkazilmoqda.

Insoniyatni yaqin kelajakda nimalar, qanday voqelar kutmoqda, degan savolga javob berish, bo‘lajak voqealarning taxminiy holatlarini aks ettirish, yer kurrasida bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlarning rivojlanishi to‘g‘risida sifat va miqdor jihatdan o‘ziga xos turli nazariy yo‘nalishlar, prognozlar berilmoqda.

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida globallashuv jarayonlari tobora chuqurlashib borayotgan bir davrda insoniyatni tashvishga solayotgan iqtisodiy taraqqiyot istiqboli, boylik va qashshoqlik, ekologiya, urush va qarama-qarshiliklar, terrorizm, korrupsiya, narkomaniya, alkogolizm, axloqiy buzuqlik kabi muammolar va uning oldini olish, kelajakni tasavvur qilish turli doiralari, ya’ni davlat rahbarlari, siyosiy yetakchilar, olimlar, turli soha mutaxassislari, bashoratchi-futurologlar, astrolog va hayotga jiddiy nazar bilan qarovchi har bir shaxsni tashvishga solayotgan masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Insoniyat oldida turgan ushbu o‘ta dolzarb muammolar dunyoning barcha mamlakatlari kabi O‘zbekistonda ham siyosiy jarayonlarni prognoz qilish masalalari davlatning ichki va tashqi siyosat faoliyatining barcha yo‘nalishlarida o‘z aksini topmoqda. Chunki, O‘zbekiston mustaqillikka erishgan mamlakatlar kabi o‘z taraqqiyot yo‘lini izladi, yangi jamiyat barpo etishda o‘ziga xos va mos yo‘lini ishlab chiqdi. O‘zbekiston turli yo‘nalishda o‘z taraqqiyotini ta‘minlagan davlatlarning to‘plagan tajribalarini ijodiy rivojlantirdi, o‘ziga maqbul yo‘ldan bordi. o‘zbekiston taraqqiyotining o‘ziga xos modeli - mamlakatimiz sharoitidan kelib chiqib, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma’naviy-ma'rifiy jarayonlarning izchillik bilan olib borilishiga asoslangan taraqqiyot yo‘lidir.

Seminar savollari:

1. Sabab qonuni mohiyatini tushuntirib bering.
2. Oldindan ko‘rish (bashorat, prognoz)ning qanday funksiyalari mavjud?
3. Siyosiy prognozlash amaliy vazifalariga qarab qanday turlarga bo‘linadi?
4. Siyosiy bashorat qilishda muqobillik tamoyili mohiyati nimalardan iborat?
5. Siyosiy bashorat qilishning asosiy bosqichlarini ketma-ketlikda aytib bering.

Mustaqil ishlar topshriqlari:

1. Yangi axborot asrida siyosiy bashorat: istiqbollar va muammolar mavzusida slayd tayyorlang.
2. Oldindan ko'rish (bashorat, prognoz)ning siyosiy fanlardagi o'rni va uning boshqa aniq va tabiiy fanlar bilan aloqadorligi haqida talabalar bilan bahs o'tkazng va o'z mulohazalaringizni bildiring.
3. Siyosiy bashorat tamoyillari va bosqichlariga amalqilgan holda shartli bir davlatning keying dekadalarda ro'y beradigan o'zgarishlarini qisqacha prognoz qiling.

Ma’ruza № 8. MARKAZIY OSIYODAGI MINTAQAVIY MUAMMOLAR

TAHLILI

Reja:

1. Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikka to’sqinlik qiluvchi omillar
2. Markaziy Osiyoda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga oid nazariy qarashlar.
3. Mintaqaviy muammolar va ularning yechimiga oid yondashuvlar tahlili

O‘quv mashg‘ulotning maqsadi: Markaziy Osiyodagi mintaqaviy muammolarni tahlil qilishdan iborat.

Tayanch so‘z va iboralar:

- | | |
|----------------------|----------------------------|
| • Geosiyosiy maqom | • Bufer zona |
| • G‘oyaviy bo‘shliq | • Geosiyosat |
| • Integratsiya | • Institutsional yondashuv |
| • Kuchlar muvozanati | • Tahliliy markazlar |

Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikka to’sqinlik qiluvchi omillar

Ziddiyatlar barcha jamiyat hayotining barcha sohalarida bo‘lgani kabi xalqaro siyosiy munosabatlarning ham harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Buning ma’nosи shundaki, xalqaro diplomatik munosabatlarda bu munosabatlarning rivojlanishiga to’sqinlik qiluvchi muammolar paydo bo‘lib turadi. Bunday muammolar davlatlar tomonidan yoki boshqa siyosiy subyektlar tomonidan hamma vaqt ham to‘g‘ri va haqqoniy ravishda anglab olinmaydi. Ba’zi hollarda siyosatning ayrim subyektlari xalqaro siyosiy munosabatlarda ro‘y beradigan muammolarni o‘z manfaati yo‘lida hal etishga harakat qiladi. Natijada xalqaro siyosiy munosabatlarda u yoki bu muammoni hal qilishda yoki bu sohadagi ziddiyatni hal etishda o‘zaro manfaatlar o‘rtasida qarama-qarshilik kelib chiqadi. Bunday sharoitda ziddiyatlar xalqaro diplomatik munosabatlarning rivojlanishiga emas, balki uning sekinlashishsiga, undagi turli xildagi ixtiloflarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikka to’sqinlik qiluvchi quyidagi omillar mavjud:

Birinchi omil. Sobiq Ittifoq tomonidan shakllantiriligan tartibotning asoratlari. Aynan

ana shu asoratlar haligacha davlatlar iqtisodiyoti rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda Masalan, davlatlarning eksport salohiyatida xom ashyo yoki yarim tayyor mahsulotlarning ulushi yuqori;

Ikkinchidan, Mintaqada milliy davlatchilikni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari hamkorlik jarayonlarining sekinlashishiga sabab bo'ldi;

Uchinchi omil. Axborot xuruji ham hamkorlikka salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omildir;

To'rtinchi omil. Davlatlarning iqtisodiy darajalari va tashqi siyosat yo'naliшlarining turli tumanligi hamkorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. 2014-yil yakunlariga ko'ra yillik YIM jihatidan dunyo reytingida Qozog'iston 42, Ozbekiston 66, Turkmaniston 85, Tojikiston 136, Qirg'iziston esa 139-o'rinni egallaydi¹.

Beshinchi omil. Mintaqada hamkorlikni rivojlantirish dasturi, strategiyasining yo'qligi ham hamkorlik jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida ilgari suriladi².

Chegara muammosi ham mintaqada diplomatik munosabtlar rivojlanishi uchun to'sqinlik qiluvchi omil hisoblanadi. Bu muammo o'tgan asrning 20-yillarda o'tkazilgan chegaralash mahsulidir. Bu muammoning yechimi mintaqada demarkatsiya va delimitatsiya ishlarining yakunlanishi bilan bog'liq. Prezidentimiz mintaqamiz keljagi yo'lida asosiy vazifalar haiqda to'xtalib: "To'rtinchidan, bu davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonini tezda uzil kesil yakuniga yetkazishdir" degan fikrlarni ilgari surdi³

Xalqaro diplomatik munosabatlarda kelib chiqadigan ziddiyatlar harakatidan turlicha maqsadlarda foydalanish bu munosabatlarda ayrim tanglik holatlarining kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Masalan, agar biron-bir davlat yoki biron-bir siyosiy tashkilot ikkinchi tomonning manfaatlariga zid harakat qilsa, bunday sharoitda ular o'rtasida kelib chiqadigan har qanday ixtilof ular o'rtasidagi ziddiyatga aylanadi va uning yanda keskinlashishi xalqaro siyosiy munosabatlarda namoyon bo'ladi. Tomonlar o'rtasidagi ziddiyatlarning o'z vaqtida hal qilinmasligi xalqaro siyosiy munosabatlarning rivojiga

¹ GDP of world. <http://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP>.

² О.О.Сирожов Марказий Осиёдаги ҳамкорлик жараёнларида Ўзбекистон манфаатлари., 23.00.02 – сиёсий институтлар, жараёнлар ва технологиялар йўналишида ҳимоя қилинган Сиёсий фанлар доктори (ВКс) диссертацияси автореферати. – Т., 2018. – Б.15.

³ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёвнинг Самарканд шаҳрида ўтказилган "Марказий Осиё: ягона тарих ва умумий келажақ, баркарор ривожланиш ва тараккиёт йўлидаги ҳамкорлик" мавзуусидаги халқaro конференцияда сўзлаган нутқи. //http://www.prezident.uz/uz/list/view/1227

salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi davrda xalqaro diplomatik munosabatlarda mavjud bo'lgan ziddiyatlar quyidagilardan iborat:

- Xalqaro diplomatik munosabatlarda mavjud bo'lgan muammolar bilan ularni hal qilish o'rtaisdagi ziddiyatlar;
- Har bir mamlakatning milliy manfaatlari bilan ularning baynalmilal manfaatlari o'rtaisdagi manfaatlar o'rtaisdagi ziddiyatlar
- Xalqaro diplomatik munosabatlarda ishtirok etuvchi subyektlarning manfaatlari o'rtaisdagi ziddiyatlar;
- Xalqaro diplomatik munosabatlarni tartibga solish bilan uning imkoniyatlari o'rtaisdagi ziddiyatlar.

Bu ziddiyatlarning har biri obyektiv mohiyat kasb etadi va xalqaro siyosiy munosabatlар rivojlanishining ehtiyojlardan kelib chiqadi. Ularning har biri turli xil ko'rinishlarda namoyon bo'lib xalqaro siyosiy munosabatlarning rivojlanishida har bir yangi bosqichida o'ziga xos ma'no va mazmunga ega bo'ladi. Masalan, xalqaro siyosiy munosabatlarni u yoki bu muammosiz tasavvur qilish mumkin emas. Bir muammoning hal etilishi boshqa muammoning hal etilishini bildirmaydi. Muammolar juda ko'p bo'lganligi va ular yangidan paydo bo'lib turishi ha xalqaro siyosiy munosabatlarda hech qanday siyosiy muammo bo'lmasligi mumkin emasligini bildiradi. Shunga ko'ra, yangidan paydo bo'ladigan har qanday muammo uni o'z vaqtida hal qilib borishni taqozo etadi.

Xalqaro diplomatik munosabatlarda ishtirok qiluvchi turli subyektlarning manfaatlaridagi o'ziga xoslik ularning manfaatlarida ziddiyatlar bo'lib turishini taqozo etadi. Ularning manfaatlarini bir xildagi manfaatlar shakliga keltirib bo'lmanis singari, bu manfaatlardan kelib chiqadigan muammolarni ham aynan bir xildagi muammolar deb bo'lmaydi. Binobarin manfaatlardagi har xillilik va ularda ifodalangan vazifalar xalqaro siyosiy munosabatlarda ifodalangan ziddiyatlar shaklida namoyon bo'ladi.

Xalqaro diplomatik munosabatlardan kelib chiqadigan har qanday ziddiyatni hal qilish alohida e'tiborni talab qiladi. Ularning hammasini bir xildagi usullar yoki vositalar yordamida hal qilish mumkin emas. Shuningdek, bunday ziddiyatlarni hal qilsih uchun xalqaro diplomatik munosabatlarda ishtirok etuvchi barcha subyektlarning kuch g'ayratini

birlashtirish ham talab qilinadi. Holbuki bunday subyektlarning har biri bunday ziddiyatlarni o‘z manfaatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda hal etishda ishtirok etadi. Biroq shunday ziddiyatlar bo‘ladiki, ularda ifodalangan muammolarning ayrimlarini halq ilsihda subyektlarning faoliyatini, ayniqsa davlatlar, xalqaro tashkilotlar hamkorligini tashkil etishtalab qilinadi. Bunday hamkorlik, xususan, xavfsizlik sohasida kelib chiqadigan muammolarnihal etishda, mintaqaviy mojarolarni bartaraf etish uchun kurashda nihoyatda zarurdir¹.

Mintaqaviy hamkorlikda mintaqaviy diplomatiyaning shakllanishida quyidagi muammolarni sanab o‘tish mumkin:

Markaziy Osiyoning haqiqiy muammosi Afg‘onistondan emas, balki ichki muammolaridir. Mintaqada davlatlaridan birida hukumat tuzumiga putur yetguday bo‘lsa, mahalliy norozilar yoki terroristlar uchun imkoniyat bo‘ladi².

Integratsiya munosabatlar tuzilmasida davlatlar bloklari va guruhlari tuzuvchi turli birlashmalar (tashkilotlar) va alohida suveren davlatlar sifatida chiquvchi roldagi xalqaro munosabatlar subyektlari ishtirokida mavjud bo‘ladi³.

Professor Zayniddin Kurmanovning fikricha, tashqi siyosatda xilma-xillikning yetishmasligi asosan, Markaziy Osiyo davlatlarining o‘zaro munosabatlarida, integratsiyaning boshlanishiga to‘siq bo‘lib turibdi.

Hozirgi paytda globalizatsiya sharoitida turli mintaqalar umumiylar bozor, mintaqaviy valyuta, xalqaro savdoda faol ishtirok etayotgan va yagona iqtisodiy makon shakllantirayotgan bir paytda “mintaqaviylashuv”ning faol jarayoni kuzatilmoqda. Markaziy Osiyo bu borada juda orqada qolib bormoqda, hattoki integratsion birlashish darajasida ham emas, faqat uni yaratish bosqichida. Agar mintaqada iqtisodiy o‘zaro aloqa kuchayganida, BMT ma’lumotlariga ko‘ra, davlatlarimizda YIM hajmi o‘sishi 5%dan kam bo‘lmagan bo‘lar edi.

Markaziy Osiyoda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga oid nazariy qarashlar

¹ И.Рамазонов, Э.Мўминов. Политология/ дарслерик. Т.:“Адолат” 1995. – С. 251.

² Реальные проблемы Центральной Азии исходят не из Афганистана, они внутренние, - американские эксперты/ <https://ca-news.org/news:1383421>., 17.05.2017

³ Баров Сергей Андреевич. Политические проблемы интеграции в Центральной Азии. : диссертация ... кандидата политических наук : 23.00.04 / Баров Сергей Андреевич; [Место защиты: ГОУВПО "Российский университет дружбы народов"].- Москва, 2013.- С. 150.

Markaziy Osiyoda mintaqaviy diplomatiya shakllanishidagi muammolar turli sohalarni qamrab oladi. Xususan siyosiy, iqtisodiy, chegara yoki suv va tabiiy resurslar masalarini sanab o‘tish mumkin. Ekspertlarning fikriga ko‘ra mintaqada hamkorlikning mavjud emasligining o‘zi bir muammodir. Qozog‘istonlik ekspert Usmon Dosov hamkorlikning yetishmasligini barcha mintaqaga davlatlarining qandaydir mustahkam pozitsiyalari mavjud holatdan ko‘ra o‘z manfaatlariga tez va oson erishish uchun har bir Markaziy Osiyo davlatlari alohida kelishuvga egaligi va bu tashqi aktorlarning sezilarli ta’siri hamda davlatlararo raqobatning saqlanib kelayotganligida ko‘radi.

O‘zbekistonlik ekspert Farhod Tolipov uchta asosiy muammoni sanab o‘tadi:

1. Mintaqaning “geosiyosiy og‘irligi”;
2. Mintaqaviy o‘zaro aloqalarning nozik jihatlari, xususan integratsiya masalasiga oid yechimlar;
3. Institutsional va g‘oyaviy bo‘shliq muammoasi.

Birinchi muammo Markaziy Osiyo evolyutsiyasida geosiyosiy faktorlarning uzlucksiz ishtirokini anglatadi. Ikkinci muammo xalqlarning va fuqarolik jamiyatining mintaqaviy masalardan uzoqligi. Uchinchi muammo esa mintaqani, shuningdek, g‘oyaviy ustqurmani shakllantiruvchi mas’ul institutlarning sustligi yoki umuman mavjud emasligini bildiradi.

Tojikistonlik ekspert Qosimsho Iskandarov ta’kidlashicha mintaqada milliy mustaqillik, milliy-tarixiy o‘ziga xoslikni tasdiqlash jarayoni hali tugallanmagan. 1924-yil va keyingi yillardagi milliy-hududiy bo‘linish natijasida kelib chiqqan muammolarni chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Bunaqa sharoitda mintaqaga davlatlarida doim tor doiradagi va juda yaqin hamkorlik yoki mintaqaviy tuzilmalarning tuzilishi ularning milliy mustaqilligi va o‘ziga xosligini cheklab qo‘yadi degan xavfsirash mavjud bo‘ladi.

O‘zbekistonlik Rafael Sattarov Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning o‘sishi va mustaqil integratsiya yo‘lidagi beshta muammoni sanab o‘tadi:

1. Mintaqaga muammolarini mustaqil hal qilishga tayyor emaslik (mintaqadan tashqari kuchlar ta’sirisiz) va pragmatizmning yetishmasligi;
2. Tarixga turlicha qarash, ko‘proq tarixiy ajdodlarning miflashtirilishi;
3. Ko‘plab loyihalarni amalga oshirishni hal qilinmagan muammolarga bog‘lash, ya’ni hal qilinmagan muammo boshqasining yechim topishiga halaqit beradi;

4. Markaziy Osiyo davlatlarining urug‘, aymoqlar, sulolalar bo‘yicha bo‘linganligi;
5. Inson kapitalining chiqib ketishi.

Muayyan muammolar qatorida Qirg‘izistonlik muallif Aita Sultanaliyeva boshqa ekspertlar qatori bojxona to‘sqliari mavjudligi, birinchi navbatda qishloq xo‘jaligi munosabatlari eksporti munosabtlarida, ilmiy tadqiqot aloqalari uzilishining keskinlashuvi fan va ta’lim sohasida ma’lumot almashish sifati va tezlik kamayishining davom etishi muammolarini aytib o‘tgan. Tojikistonlik Raxmatshoev chegara-hudud muammolari Tojikiston va Qirg‘iziston, Tojikiston va O‘zbekiston hamda Tojikiston va Xitoy, shuningdek Xitoy va boshqa Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi keskin muammoligicha qolayotganligini ta’kidlaydi. Bundan tashqari albatta mintaqaning barcha davlatlariga tegishli bo‘lgan suv-energetika muammolari ham mavjud¹.

Jumladan mintaqada diplomatik munosabatlar shakllanishiga to‘sinqilik qilayotgan muammolar qatoriga mintaqadagi soha vakillari xavfsizlik nuqtai nazaridan qarab quyidagilarni ham kiritadilar:

Rustam Burnashev(O‘zbekiston) – Xavfsizlik sohasida Markaziy Osiyo davlatlari taraqqiyoti yo‘lidagi assosiy qiyinchiliklar ularning tuzilmaviy o‘ziga xosliklari bilan bog‘liq: ularning hammasi kuchsiz davlatlar, ba’zi darajalarda hattoki zamonaviylashmagan davlatlar sifatida baholanishi mumkin. Kuchsiz davlatlarning assosiy o‘ziga xosligi hokimiyat maydoni yaxlitligining mavjud emasligi, uning parchalanishi. Kuchsiz davlatlarda hokimiyat tuzilishi “markaz-periferiya” sxemasi bo‘yicha tuzilmaydi, balki ko‘plab raqobatdosh markazlarni taqazo etadi. Ko‘plab hokimiyat markazlaridan biri sifatida namoyon bo‘layotgan har bir ijtimoiy guruhlar (etnik, diniy, ta’sir o‘tkazuvchi guruhlar) boshqa guruhlar tomonidan xavfsizliklariga tahdid va unga muvofiq tarzda javob harakatini yuzaga keltiruvchi o‘z xavfsizliklarini oshirish masalasiga e’tibor beradilar va shuni amalga oshirishga harakat qiladilar. Boshqacha aytganda bir ijtimoiy va hokim guruhning xavfsizlikni oshirishi butun bir yaxlitlikda xavfsiz kechmaydi. Shu bilan birgalikdan Burnashev boshqa bir muammoli vaziyatni ko‘rsatadi – bu ortiqcha sekyuritizatsiya, misol uchun xalqaro fondlar, ba’zi diniy guruhlar va siyosiy

¹ Владимир Параманов , Центральная Азия: пять государств или один регион?/ Как могут будут взаимодействовать страны Центральной Азии в скором будущем? Экспертные оценки.07.01.2019, - <http://caa-network.org/archives/14944>.

oppozitsiyalarning faoliyati bilan bog‘liq masalalar. Qolaversa ekspert liberal-demokratik yo‘nalishda revolyutsion transformatsiyaning zarurligi, shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlarining taraqqiyotning modernistik variantiga qaytishi kerakligini ta’kidlaydi.

Pavel Dyatlenko (Qirg‘iziston) – Markaziy Osiyoning eng asosiy muammosi 1991-yildan keyin yuz bergenlar yangi o‘rta asrlardagi iqtisodiy-siyosiy tizim va jamiyat taraqqiyotiga olib bordi. Mintaqaning muayyan davalaltlaridagi chuqur arxaizatsiya va degradatsiya albatta farq qiladi. Barcha Markaziy Osiyo davlatlaridagi zamonaviy industrial va postindustrial jamiyat faqat yirik shaharlarda, ularning atrofida esa yirik sanoatlashgan obyektlar mavjud. U birorta Markaziy Osiyo davlatida ustunlik qilmaydi. Bularning hammasi mustaqil modernizatsiyaning imkonsiz ekanligini anglatadi. Mintaqadagi iqtisodiy sohada esa respubliklarimizni jahon iqtisodiyotiga va rivojlangan davlatlarga tranzit-xomashyo manbasiga aylantirgan periferal kapitalizm o‘rnatalgan edi. Dyatlenko ta’kidlaydiki, yagona makonda birlashish umumiyligi modernizatsiya, kelgusi hamkorlikdagi taraqqiyot global makonda muvaffaqiyatli harakatlanish uchun turli resurslarni birlashtirishga yo‘l beradi.

Boshqa tomondan Nadejda Xan (Qirg‘iziston) Markaziy Osiyo davlatlari SSSR tarkibida paytidagi o‘tmishni eslagan holda ergashish va o‘zi tashabbus ko‘rsatmagan holatda tashqi tashabbuslar asosida birlashishga odatlanib qolishgan. Kuchsiz fuqarolik jamiyati va tashabbusning yo‘qligi xalqda davlat hukumatiga ishonch yo‘qligi va yuqori darajadagi korrupsiya natijasidir.

Professor Shuhrat Yovqochev geosiyosiy qarama-qarshilikni Markaziy Osiyoning birlashishiga to‘sinqinlik qiluvchi omil sifatida ko‘rsatadi. Markaziy Osiyodagi yirik derjavalarning geosiyosiy qarama-qarshilgi bilan bog‘liq bu muammolarning yechimi mintaqada ko‘p yillardan beri davlat ishlari bilan mashg‘ul siyosatchilar hisobiga hal qilish mumkin. Bir tomondan bu kelishilgan siyosat, boshqa tomondan esa muvozanatlashgan siyosat. Bu siyosat bitta derjava foydasiga manfaatlar va kuchlar balansini buza oladigan keskin, o‘ylanmagan siyosatni istesno qilishi kerak.

Ammo shuni ham ta’kidlash joizki, yuqorida sanab o‘tilgan sohalardagi mavjud muammolarni uzoqni ko‘zlangan, puxta ishlab chiqilgan diplomatik strategiya asosida yo‘lga qo‘yilgan hamkorlik orqali hal qilish mumkin.

Markaziy Osiyo, Turkiya, Hindiston, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya va Isroilga ta'sir o'tkazish uchun kurashda asosiy davlatlar – Eron, Pokiston va Afg'oniston ishtirok etdi. Bu yangi kutilmagan va ba'zan qarama-qarshi manfaatlarni yaratadi va butun mintaqaning rivojlanishidagi barqarorlikka ta'sir ko'rsatadi. Ayni paytda Markaziy Osiyo uzoq muddatli sarmoyaviy hudud sifatida ko'plab mamlakatlar va butun mintaqalarning rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, integratsiyalashuvning takroriy urinislari muvaffaqiyatsizlikka uchradi, chunki Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida institutsional va huquqiy baza zaif va ziddiyatli, aniq maqsadlar va ilmiy jihatdan mustahkam strategiya ishlab chiqilmagan. Bir qator hollarda MDH mamlakatlari harakatlarining dushmanligi va nomuvofiqligi oshdi. Barcha Hamdo'stlikka integratsiyani amalga oshirishga qaratilgan barcha urinislari natijalar bermadi.

Markaziy Osiyoda chuqur ziddiyatlar mintaqaning geosiyosiy xususiyatlari bilan bog'liq. Shunday qilib, boy tabiiy resurslar yopiq transport maydonida jahon bozorlariga kirish imkoniyati cheklangan va nisbatan kam rivojlangan kommunikatsiya tarmog'i, xususan tashqi (ko'pgina muqobil neft va gaz quvurlari faqat loyiha bosqichida mavjud) bo'lган. Bunga Rossiyaga iqtisodiy va transport aloqasi qo'shilishi kerak; davlatlar orasidagi chegara sun'iyligi; rus tilidagi aholi migratsiyasi natijasida sezilarli darajada inson resurslari va kadrlar kamomadining ortishi; tog'li hududlarda ulkan suv resurslari va boshqa hududlarda suv tanqisligining keskin qisqarishi; Farg'ona vodiysida aholi sonining ko'payishi va yashash joylarining etishmasligi katta cho'l sahro hududlarining mavjudligida.

Mintaqaviy muammolar va ularning yechimiga oid yondashuvlar tahlili

O'zbekistonning yangi tashqi siyosiy yondashuvlari hozirgi vaqtida mintaqaviy hamkorlikka ehtiyoj sezmoqda va Markaziy Osiyoda yanada optimistik muhit yaratilgan. Ko'p jihatdan O'zbekiston Prezidentining sa'y-harakatlari tufayli Shavkat Mirziyoev barcha beshta davlatning o'zaro munosabatlarida muhim natijalarga erishdi. 2017-yildan boshlab Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlar normallashtirildi. So'nggi paytgacha bir-biridan juda uzoq bo'lган davlatlar yaqinlashuv va kelishuvlarga borishga intilmoqda.

Suv resurslari Markaziy Osiyodagi muhim strategik va o'zaro bog'liqlik omilidir.

Ular Sirdaryo va Amudaryo daryolarining yagona daryo havzalari, yagona gaz quvurlari, Gazli-Buxoro-Toshkent-Shimkent-Olmaota gaz quvurlarining umumiy yo‘nalishi bilan bog‘liq. Mintaqadagi mamlakatlarda gaz, neft, ko‘mir va uran zaxiralari keng tasdiqlangan. Qayta tiklanadigan energiya manbalari mavjud. Markaziy Osiyo barcha mamlakatlarining barqaror iqtisodiy rivojlanishi uchun etarli bo‘lgan energiya resurslari va elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun sanoat bazasi yaratildi.

Xalqaro munosabatlarning yuqori darajadagi dinamikasi nafaqat mamlakat darajasida, balki mintaqaviy darajada ham Markaziy Osiyodagi kuchli transport infratuzilmasini yaratish strategik masala. O‘zbekiston-Turkmaniston-Eron-Ummon va O‘zbekiston-Qirg‘iziston-Xitoy yo‘nalishi bo‘yicha transport infratuzilmasini ilg‘or rivojlantirish asosida Markaziy Osiyo tranzit logistika salohiyatidan foydalanishni kengaytirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Endi muvaffaqiyatli bunday Kaspiy dengizida Turkmaniston portlari orqali O‘zbekiston chiqishi, Qozog‘iston bilan savdo aylanmasining 37% ortib, O‘zbekiston-Qozog‘iston davlat chegarasi orqali yo‘l punktlari ochilishida «Oqoltin» va «Malik», qo‘suni mamlakatlar tumanlar o‘rtasida ishbilarmon doiralari yaratish kabi masalalarni hal qilish Markaziy Osiyo, shuningdek, chegara demarkatsiyasi va delimitatsiya to‘g‘risidagi bitimlarga bog‘liq. Turkmaniston Amudaryo bo‘ylab yangi temir yo‘l va yo‘l ko‘priklar Turkmenabat-Forobiy ochildi. Bu transport va tranzit yo‘nalishi O‘zbekiston-Turkmaniston-Eron-Ummon muhim bo‘limi hisoblanadi.

«O‘zbekiston-Qirg‘iziston-Xitoy» temir yo‘li qurilishi boshlanishi haqida dastlabki kelishuvga erishildi. Ushbu koridorda uchuvchi miting o‘tkazildi. Tojikiston bilan havo qatnovi yangilandi. Mintaqaning tranzit-logistika salohiyatidan yanada samarali foydalanish, transport infratuzilmasini rivojlantirish, xalqaro kapital bozoridan mablag‘ to‘plash, Yaqin Sharq va jahon bozorlariga yangi chiqishlarni ta’minlaydigan umumiy TRASEKA transport tizimini yaratish zarur.

Hozirgi kunga qadar muhokama qilingan integratsiya muammolari faqat texnik va iqtisodiy xarakterga ega ko‘rinadi. Ammo mintaqaviy muammolarning hech biri butun Markaziy Osiyo ishtirokisiz, agar siyosiy va iqtisodiy tabiatning eng muhim vazifasi hal qilinmasa va uchinchi muammo – mintaqadagi barcha davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlanish modellarini uyg‘unlashtirish zaruriyati mavjud bo‘lmasa, hal qilinishi mumkin emas. Endi hamkorlikning yangi tamoyillari ishlab chiqilganda, rivojlanish modellarini birlashtirish, ularni joylashtirish kerak. Butun mintaqqa uchun milliy ustuvorliklar va umumiy vazifalar o‘rtasida muvozanatni topish kerak. Adolatli iqtisodiyotni yaratish zarur. Agar mintaqaviy rivojlanishning tegishli strategiyasi ishlab chiqilsa, integratsiyadagi muvaffaqiyat ta’minlanadi. Bu haqiqatda Rossiya Markaziy Osiyoda va bir-birini to‘ldirishga asoslangan hamkorlikni yanada samarali yo‘lga qo‘yishi mumkin edi.

BMT ekspertlarining hisob-kitoblariga ko‘ra, Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorligi hududiy resurs salohiyatidan samarali foydalanishni va ularning barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun mintaqaviy yalpi ichki mahsulotni 10 yilda kamida ikki marta oshirish imkonini beradi.

2019-yil 17-21-aprel kunlari Olmaotada o‘tkazilgan “Markaziy Osiyo davlatlari muammolarini hamkorlikda tadqiq qilish” nomi ostidagi mintaqaviy uchrashuv ishtirokchilari mintaqani tadqiq etish chet davlatlar ekspertlari ishtirokida amalga oshirib kelingan, ammo endi Markaziy Osiyo davlatlarining ilmiy vakillari mustaqil tadqiqot olib borishlari kerakligini ta’kidladilar. Qozog‘iston Respublikasi Fan va ta’lim vazirligining Fan qo‘mitasi Sharqshunoslik intituti hodimi Erkin Baydarovning fikricha Markaziy Osiyo davlatlarini tadqiq qilish boshlang‘ich holatda. Xalqaro fondlar yordamida turli davlatlardan bo‘lgan olimlarni birlashtiruvchi va vositalarni ishga soluvchi alohida tadqiqot mavjud. Alohida konferensiyalar o‘tkazishadi Bugungi kunda Markaziy Osiyoning umumiy tadqiqotlari juda oz. Davlatlar go‘yoki kim madaniyatliroq, qadimiyroqligi borasida raqobatlashadilar. Aynan shu yo‘nalishdagi akademik institutlar ishlari juda muhim. Uning aytishicha BMTning fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti (YUNESKO) mintaqqa olimlarini taklif qilgan holda Markaziy Osiyosning tarixini yozishni moliyalashtirgan. Natijada Fransiyada olti jild ingliz tilida chop etilgan. Bu shuni anglatadiki o‘rganilayotgan mintaqqa xorijiy tashkilotlarni qiziqtirmoqda, ammo mehnatning natijasi mintaqqa davlatlarining o‘zida keng ommaga yetib bormagan. Uning hisoblashicha faqatgina xorijiy grantlardan umid qilib o‘tirmsandan, olimlar bilan mustaqil tarzda hamkorlikdagi ishni yo‘lga qo‘yish kerak. Iqtisodiy taraqqiyot markazi (O‘zbekiston) direktori Yuliy Yusupov umumiy iqtisodiy masalalarni yechish chuqr

dolzarblik kasb etadi. Uning fikricha yagona iqtisodiy makonda ishlashga halaqit beruvchi katta ko‘lamdagi to‘siqlar tufayli davlatlar juda katta yo‘qatishni boshdan o‘tkazmoqdalar.

Tahlilchilar va ekspertlar tashqi aktorlar oldida umumiylar manfaatlar himoyasi yo‘lida birlashishlari kerak. Misol uchun rubl pasayishini davlatlar turli talqin qiladilar. Bunda yagona taktikani ishlab chiqish mantiqlidir. Muallif fikricha internetda dialog maydonini yaratish va ma’lumot lamashish kerak. Tadqiqotchilar moliyalashtirishni izlashda zo‘r berishlari, hamkorlikda talabnomalar bilan chiqishlarikerak, donorlar esa davlatlararo tadqiqotlarga ustunlik bera olgan bo‘lar edilar¹.

Nemis tadqiqotchisi M.Kayzer eslatadiki, mintaqa qadimdan turli xil o‘ziga xosliklarga ega bo‘lgan guruhlar mavjud bo‘lgan. Markaziy Osiyo mintaqasida millatlararo aloqalarning (masalan, ular o‘zbeklar va turklar o‘rtasida qayta tiklangan) shakllanishi va mustahkamlanishi hamda diniy aloqalar mavjud. Etnik (turk-markaziy osiyoliklar) va zamonaviy axborot vositalarining uyg‘unlashib ketishi M.Kayzer fikricha yagona dunyoni vujudga keltiradi. Turk-musulmonlarning qo‘shilib ketishi postsoviet maydonida milliy davlatchilik shakllantirishda raqobatlashadi. Oxirgi yillardagi globalizatsiya to‘g‘risidagi muhokamalar shuni ko‘rsatadiku faqatgina milliy davlatlar chegarasidagina fikrlab bo‘lmaydi: “ijtimoiy hayot va faoliyatning yangi kontekstlari ochilmoqda, yangi ijtimoiy milliy davlatlarning chegaralrini kesib o‘tuvchi yangi ijtimoiy makon rivojlanmoqda”².

Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik shakllanishida suv muammosining ahamiyati

Suv shubhasiz eng qadrli asosiy vositalardan biri. Shu bois suv resurslarini taqsimoti mintaqa davlatlari mustaqillikka erishgandan buyon hamkorlik kun tartibida ustuvor o‘rin egallab keladi. 1992-yil boshlaridayoq mintaqa davlatlari masalaning mohiyatini anglagan holda suv resurslasrini boshqarish bo‘yicha kelishuvni imzoladilar. Ammo bu kelishuvning hamda birma bir keyingi ikki tomonlama kelishuvlarning ham zaiflashuviga olib kelgan

¹ Эксперты Центральной Азии: надо проводить совместные исследования., 20.04.2019/ <https://cabar.asia/ru/eksperty-tsentralnoj-azii-nado-provodit-sovmestnye-issledovaniya/>

² Kaiser M. Forms of transsoiation as counter-processes to nation building in Central Asia// Central Asian survey. - Oxford, 2003. - Vol.22, N 2/3. - P. 328.

bir qancha mojarolar mavjud edi. Bu mojarolar davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni ham murakkablashtirdi. Natijada suv resurslarini boshqarish muammolaridan kelib chiqqan tahdid sabab mintaqaviy xavfsizlik masalasi ham mintaqaviy siyosatda ham akademik va siyosiy muhokamalarda asosiy o‘rinni egalladi. Ko‘plab mualliflar suv resurslari taqchillgi, aholi ko‘payishi va suvga bo‘lgan talabning oshishi mintaqadagi mojarolar sababiga aylanishidan xavotirda¹.

1980-yilga qadar mintaqqa asosiy paxta ishlab chiqaruvchiga aylandi. Yanada ko‘proq yerlar ochildi, irrigatsiya uchun suvga talab keskin oshdi. Agar shudgor qilingan yer uchun suvga talab $64,7 \text{ km}^3$ darajasida bo‘lgan bo‘lsa bu ko‘rsatkich 1980-yilgacha $120,1 \text{ km}^3$ ni tashkil qilib ikki baravar oshdi. Suvning Orolga quyilish darajasi bir xil davr mobaynida 1960-yilda $43,3 \text{ km}^3$ dan 1970-yilda $16,7 \text{ km}^3$ ga sezilarli darajada kamaydi va 1980-yillarda butkul to‘xtadi. Dengiz 1980-yillar oxiriga qadar ikki qismga bo‘lindi: Kichikroq qismi shimolda va kattaroq qismi janubi-g‘arbda. Dengizning qisqarishi bilan hududlarda salomatlik uchun sharoitning yomonlashishiga sabab bo‘lgan yer tuzlanishidan kelib chiqqan bir qancha muammlarni keltirib chiqardi, bu esa o‘lim ko‘rsatkichining xususan bolalar o‘limining oshishiga olib keldi. Orol dwengizi qishloq xo‘jaligining keskin rivojlanishining yagona oqibati emas edi. To‘g‘onlarning qurilishi butun bir qishloqlarni aholisi bilan ko‘chirishni taqazo etdi.

Birlashgan suv menejmentiining yaxlit bir tizimi Sovet Ittifoqi davrida rivojlandi. Shu maqsadda 1950-1970-yillarda katta suv omborlari qurildi: Sirdaryoda Qayroqqum va Chordara, Surxondaryoda Janubiy Surxon, shuningdek Chu va Talos daryolaridagi suv omborlari. Qolaversa, Vaxsh daryosida Nurek va Baipasa va Chirchiqda Chorvoq qurildi.

Markaziy Osiyo davlatlari 1991-yilda mustaqillikka erishgach ular o‘rtasida tuzilgan birinchi shartnomalardan biri 1992-yil 18-fevralda Omaotadagi “Suv resurslari menejmentiga qo‘shilish” masalasiga oid kelishuv edi. Bu mintaqqa davlatlarining suv resurslari menejmenti masalasiga ahamiyat berishida masalaning muhimligi o‘z aksini topadi. Bu shuningdek mintaqada suv menejmenti borasida Sovet tajribasi barcha mintaqqa

¹ Karaev Z. Managing the water resources in central asia: is cooperation possible? Central European University / Budapest Paper prepared for the workshop “Resources, Governance and Civil War” European Consortium for Political Research Joint Sessions of Workshops University of Uppsala ., 14 -18 April 2004.

davlatlarini qoniqtirmaganligida namoyon bo‘ladi.

Qirg‘iziston va Tojikiston dengizga chiqish imkoniyati yo‘q davlatlar bo‘lib, hududlarining 75-90% tog‘lardan tashkil topgan. Ushbu davlatlarning tog‘laridagi ikki yirik daryo esa Markaziy Osiyodagi asosiy suv manbaasi hisoblanadi. Boshqa tabiiy resurslarning yetishmasligi rasmiy Dushanbe va rasmiy Bishkekni yagona boylik-suvdan unumli foydalanish, ya`ni elektr energiyasi olish uchun qudratli elektr stansiyalarini qurishga undamoqda. Dushanbe Amudaryoga quyiluvchi Vaxsh daryosida 335 metrli to‘g‘on qurishni ko‘zlayapti. Ushbu to‘g‘on qurilishi yakunlangandan so‘ng u dunyodagi eng baland to‘g‘onga aylanadi. Ayni vaqtida Qirg‘iziston ham Rossiyaning homiyligi ostida Sirdaryoga borib quyiluvchi Norin daryosida 275 metrli to‘g‘on qurmoqda.

Ikki davlat ham o‘z hududlarida elektr stansiyalarini bunyod etishni va buning ortidan hech qanday g‘avg‘o chiqmasligini istashadi. Biroq mintaqaning asosiy suv manbaasi bo‘lgan ikki daryo suvlari to‘g‘onlar bitgandan so‘ng O‘zbekiston va Qozog‘istongacha yetib borishi savol ostida qolar ekan, qurilishni yakunlash oson bo‘lmasligi o‘z-o‘zidan oydinlashadi. O‘zbek va qozoq prezidentlarini suv daryoning yuqori oqimidagi to‘g‘onlar ortida qolib ketib, quyi oqimdagagi dalalargacha yetib kelmaslik ehtimoli qattiq tashvishga solmoqda. Ular o‘z xavotirlarini bir necha yillardan beri bildirib kelishadi. Rasmiy tashrif bilan Qozog‘iston poytaxti Astanada bo‘lgan birinchi o‘zbek prezidenti: “Davlatlarning nomlarini ochiq aytmayman, lekin qurayotgan to‘g‘onlar mintaqada faqatgina ziddiyatlar emas, hattoki, urush kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin,” deya ogohlantirgan edi.

Albatta, Birinchi Prezidentning tashvishlari tushunarli edi. Dunyoda paxta yetishtirish bo‘yicha 6-o‘rinda bo‘lgan O‘zbekistonning paxta dalalari uchun suv hayot-mamot masalasi hisoblanadi. Qirg‘iziston va Tojikiston o‘z rejalarini bilan mintaqaning boshqa davlatlarida suv uchun xavotirlar uyg‘otar ekan, o‘zbek prezidentining ikki qashshoq qo‘shnisiga nisbatan bunday gaplarni ochiq aytishga majbur bo‘lganligi tabiiy xoldir. Ushbu ziddiyatga yanada jiddiy tus bergen narsa bu Rossiya Prezidenti Vladimir Putinning Qirg‘izistonga tashrifi bo‘ldi. Davlat rahbarlari Qambar Ota GES (quvvati 1,500 MW) va Verkin-Norin kaskadini qurish hamda undan foydalanish to‘g‘risidagi qator bitimlarni imzoladilar. Agar bu qurilishlar yakunlansa quyi davlatlarga boradigan suv miqdori keskin kamayadi. Natijada uzoq vaqtadan beri o‘zbek gaziga qaram bo‘lib kelayotgan Bishkek gaz

narxlari bo'yicha muzokalarda bosim o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, Qirg'iziston chegara bilan bog'liq muammolarda ham shunday imkoniyat egasiga aylanadi.

Orol dengizi mintaqasida ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga qaratilgan dastur va loyihalarni amalga oshirish borasidagi jahon hamjamiatning sa'y-harakatlarini safarbar qilish hamda xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirishni takomillashtirish va ekologik falokatning ta'sirini kamaytirish maqsadida 2014-yilning 28-29-oktabr kunlari Urganch shahrida "Orol dengizi mintaqasidagi ekologik ofat oqibatlarini yumshatish bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish" mavzusida xalqaro konferensiya, 2015-yil 24-martda Toshkentda Jamg'armaning mintaqavaiy organlari ishtirokida "Orol dengizi mintaqasida ekologik falokatlarni kamaytirish" mavzusida "davra suhbat", shuningdek, 2015-yilning 12-17-aprel kunlari Koreya Respublikasining Degu va Gyongbuk shaharlarida o'tkazilgan 7-Butunjahon SUV forumi doirasida Orol dengizi muammolariga bag'ishlangan maxsus sessiya bo'lib o'tdi.

Mazkur jiddiy chaqiriqlarni inobatga olmaslik O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston davlatlarining millionlab aholisini rivojlanishi va umuman olganda hayot kechirishini havf ostida qoldiradi.

Markaziy Osiyoda SUV-energetika muammolari, jumladan transchegaraviy daryolar oqimida yangi gidrotexnik inshootlarning bunyod etilishi SUV resurslarini oqilona va adolatli taqsimlanishini ta'minlovchi, mintaqaning barcha davlatlarining manfaatlarini inobatga oluvchi umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalariga muvofiq ko'rib chiqilishi kerak.

Jahon ommaviy axborot vositalari xabar berganidek, 2016-yil 5-avgust kuni Braziliya atrof muhitini muhofaza qilish bo'yicha agentligi Amazonka irmog'i - Tapajos daryosida ulkan San-Luis-du-Tapajos to'g'onini qurish uchun ilgari berilgan litsenziyani bekor qildi.

Bu qaror mahalliy aholi hamda barqaror va xavf-xatarsiz rivojlanish uchun jonbozlik ko'rsatadigan odamlarning g'alabasi bo'ldi. Negaki, so'nggi bir necha oy davomida butun dunyodan qariyb bir yarim million odam Amazonka havzasida atrof muhiti himoya qilinishini yoqlagani holda yuqorida nomi tilga olingan to'g'on qurilishiga qarshilik bildirib, loyihaga jalb etilgan kompaniyalardan mazkur ekologik va ijtimoiy xavfli ishda

qatnashishdan voz kechishni talab qildi.

Jumladan, Oksford universitetining A.Ansar, B.Flaybyerg, A.Badziyer va D.Lann singari olimlari fikr bildirishlaricha, yirik to‘g‘onlar qurilishi jiddiy ekologik va ijtimoiy ta’sirga ega bo‘lib, “atrof muhiti uchun falokat”ga aylangani holda kelgusi o‘n yilliklar davomida ularning salbiy ekologik oqibatlarini yumshatish o‘nlab milliardlik dollar hajmidagi xarajatlarni talab qiladi.

Yirik gidroinshootlar qurilishining aholiga ta’siri masalalari bo‘yicha amerikalik yetakchi mutaxassis Tayer Skudderning hisoblashicha, katta to‘g‘onlar nafaqat ularga sarflangan mablag‘larga arzimaydi, balki hozirgi paytda barpo etilayotgan bunday inshootlarning ko‘pchiligi bartaraf etib bo‘lmaydigan ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy halokatlarga ham olib keladi.

Yana shu dalil ham mavjudki, dunyodagi eng baland to‘g‘onni Markaziy Osiyodagi 9 va undan ziyod balli vayron qiladigan zilzilaning doimiy xavfi saqlanib turgan seysmik va murakkab tektonik darz ketgan joylarda qurish mo‘ljallangan. Bundan tashqari, Rog‘un to‘g‘oni qurilishi joyining ostki qismida juda katta miqdordagi tuz qatlami yotadi, u esa sizib o‘tadigan suv ta’sirida bora-bora erishi muqarrardir. Bu omillarning barchasi to‘g‘onning yemirilishi ehtimolini oshiradi, u esa ulkan to‘lqinning paydo bo‘lishiga olib keladi va o‘z yo‘lida uchragan gidrotexnika inshootini to‘la vayron qiladi. Bu transchegaraviy daryolari quyi oqimidagi yuzlab aholi yashash joylarining to‘la yoki qisman suv ostida qolishiga, yuz minglab odamlarning halok bo‘lishiga va boshqa son-sanoqsiz fojeali oqibatlarga olib keladi.

Dunyoning ko‘pchilik davlatlari tomonidan tan olingan xalqaro huquq me’yorlariga muvofiq, transchegara ta’siriga ega bo‘lgan gidroinshootlarni barpo etishda mamlakatlar xolis xalqaro mustaqil ekspertizani o‘tkazishlari, boshqalarga zarar yetkazmasliklari va bunday loyihalarni barcha manfaatdor mamlakatlar bilan kelishishlari lozim. Bu me’yorlar BMTning 1997-yildagi “Transchegaraviy nuqtai nazardan atrof muhitiga ta’sirni baholash to‘g‘risida”, 1992-yildagi “Transchegaraviy ochiq suv oqimlari va xalqaro ko‘llarni muhofaza qilish hamda foydalanish bo‘yicha” hamda 1997-yildagi “Xalqaro ochiq suv oqimlaridan kemalar qatnamaydigan turda foydalanish huquqi to‘g‘risida”gi Konvensiyalarida nazarda tutilgan.

Toshkentda 2017-yil noyabr oyida Davlatlararo suv xo‘jaligini muvofiqlashtirish komissiyasi tashkil etilganining 25 yilligi munosabati bilan “Markaziy Osiyo davlatlarining suv bo‘yicha hamkorligiga 25 yil: erishilgan tajriba, istiqboldagi vazifalar” mavzuida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo‘lib o‘tdi.

Unda Markaziy Osiyo davlatlari suv xo‘jaligi tashkilotlari, Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi, Sharqiy Yevropa, Kavkaz va Markaziy Osiyo suv xo‘jaligi tashkilotlari tarmog‘i, Xalqaro havzaviy tashkilotlar tarmog‘i, Xalqaro suv resurslari assotsiatsiyasi, Irrigatsiya va drenaj bo‘yicha xalqaro komissiya, Xalqaro suv resurslarini boshqarish instituti, BMT Taraqqiyot dasturi, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyatni kabi qator xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari vakillari, 200 dan ortiq xorijiy va mahalliy ekspertlar, taniqli olimlar, mutaxassislar ishtirok etdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashda mintaqadagi umumiy suv zaxiralaridan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega ekanini alohida ta’kidladi.

Yurtimizda jami ishlataladigan suv miqdorining 90 foizi qishloq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi. Shu bois suv resurslaridan samarali foydalanish, ekin maydonlarida tejamkor sug‘orish texnologiyalarini joriy etish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Buning natijasida mamlakatimizda yillik foydalanilayotgan suv miqdori o‘tgan asrning 80-yillaridagi 64 milliard metr kubdan hozirgi kunga kelib o‘rtacha 51 milliard metr kubgacha kamaytirildi.

Orolbo‘yi mintaqasida ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, aholining yashash sharoitlari yaxshilanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-yanvardagi “2017-2021-yillarda Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish Davlat dasturi to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq mintaqqa aholisining turmush sharoitlari va sifatini yaxshilashga yo‘naltirilgan 2017-2021-yillarda Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish Davlat dasturi tasdiqlandi.

Ma’lumki, bir paytlar Orol dengizi kattaligi jihatidan dunyoda to‘rtinchi o‘rinda turar edi. Bugun esa uning hajmi qariyb 13 barobarga, maydoni 4,2 barobardan ziyodroqqa qisqardi. Suv sathi esa 29 metrga pasayib, qirg‘oqlari yuzlab kilometrga chekindi va

hozirda ikkita kichik ko‘ldan iborat bo‘lib qoldi. Endilikda dengiz qirg‘oqdan tobora chekinib, ekologik vaziyat yanada keskinlashmoqda. Bu erdan ko‘tarilayotgan bo‘ronlar oqimi yuzlab kilometrlarga million-million tonna qum va tuzni o‘zi bilan olib ketib, atrof-muhitga jiddiy zarar etkazmoqda.

Shuningdek, Tojikiston hukumatining Vaxsh daryosini baland to‘g‘on bilan to‘sib, Rog‘un GESi loyihasini amalga oshirishni boshlagani, Qirg‘izistonning Norin daryosi o‘zaniga Qambar ota GESini qurishni amalga oshirayotgani qo‘shni davlatlar, jumladan, O‘zbekiston xalqi va jahon jamoatchilagini xavotirga solayotir. Qolaversa, «Tojikiston alyuminiy kompaniyasi» davlat unitar korxonasi (sobiq Tojikiston alyuminiy zavodi) tomonidan atmosferaga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar, ayniqsa, ftorli vodorod Surxondaryo viloyatining qariyb 570 ming aholi yashaydigan Sariosiyo, Uzun, Denov va Oltinsoy tumanlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishda davom etmoqda¹.

2016 yil 29 oktyabrdagi Tojikiston prezidenti ishtirokida GESning to‘g‘oni qurilishi boshlangan. O‘sha kuni Rahmon buldozer ruliga o‘tirib, Vaxsh daryosi o‘zanini to‘sish bo‘yicha ishlarga start bergandi. Rog‘unda umumiyligi hisobda loyihamiyyat quvvati 600 megavattlik 6ta gidroagretat o‘rnataladi, stansiyaning jami quvvati 3600 MVtni tashkil qiladi. Bu esa uni Markaziy Osiyodagi eng yirik GESga aylantiradi. Loyihaga ko‘ra, GES to‘g‘onining balandligi 335 metrni tashkil qiladi. E’tiborlisi, loyiha yakuniga yetkazilgach, ushbu to‘g‘on o‘z turidagi dunyodagi eng balandi bo‘ladi.

Markaziy Osiyo gidrosiyosati

Sovet davlatining parchalanishi bilan besh respublika chegaralararo suv menejmentining markazida hamkorlik tashkil qilishga kelishdilar. Ular suv taqsimotiga yordam berish uchun davlatlararo suv muvoqlashuvi komissiyasini va 1997-yilda Orol dengizi muammolariga qaratilgan Orol dengizi ko‘rfazi uchun davlatlararo kengashi hamda Orol dengizini qutqarish fondini tashkil qildilar.

Kutilgan natijalarga qarama qarshi o‘laroq tashkilotlar suv taqsimoti munozarali bo‘lib chiqqach mintaqada hamkorlikni mustahkamlashda muvafaqiyatsizlikka uchradi. Natijada suv oqimini nazorat qiluvchi ko‘plab ikki tomonlama va ko‘p tomonlama

¹ https://kopilkaukov.ru/ekologiya/prochee/nauchnaia_stat_ia_na_tiemu_ekologicheskie_problemy_cheloviechiest

kelishuvlar tuzilgan bo‘lishi kerak edi. Ammo bu davlatlar o‘rtasidagi xilma xillikni bartaraf qilishga yordam bermadi. Tushunmovchiliklar haliyam mavjud.

Shunday qilib, mintaqada suv resurslarini taqsimlash bo‘yicha kelishuv va institularning muvafaqiyatsizlikka uchrashini izohlashning beshta omilini ko‘rsatish mumkin:

Mintaqaviy institutlarning vakolatlari cheklanganligi

Mintaqaviy institutlar avtonomiyasining erkinligi chegaralab qo‘yilganligi

Suv menejmentida institutsional quvvatning sustligi

Suv menejmenti uchuntalabga javob bermaydigan moliylashtirish

Kelishuvlar yetarli darajada joriy qilinmasligi

Suv bahs-munozaralarning asosi bo‘lib turgan ayni vaqtda buyuk mintaqaviy hamkorik manbai bo‘lib ham xizmat qilishi mumkin.

Xalqaro tashkilotlar baraqror va ishonchli hamkorlikka yordam berishi, shu zaylda foydalanishi raqobati va tortishuvlarning oldini olish xizmatini yaxshilashi mumkin¹.

1991-yildan buyon mustaqil davlatlar sifatida rivojlanayotgan 5 ta sobiq ittifoqdosh respublika - Qozog‘iston, Qирг‘изистон, Тоҷикистон, Туркманистон ва О‘zbekistonni birlashtiradi. Sanab o‘tilgan davlatlar iqtisodiy-geografik o‘rnining umumiy jihat shundan iboratki, birortasida ham dunyo okeaniga bevosita chiqish imkoniyati yo‘q, ya’ni beshtasining barchasi ichki kontinental mamlakatlar hisoblanadi. Jumladan, Qozog‘iston Respublikasi dunyodagi jami 44 ta bunday geografik joylashuvga ega davlatlardan maydoni bo‘yicha eng yirigi hisoblanadi. Subregionning o‘rta qismida joylashgan O‘zbekiston Respublikasi geografik o‘rnining o‘ziga xosligi esa, nafaqat o‘zi, balki biror bir qo‘shni mamlakati ham dengizga tutash emaslidir. Bunday geografik xususiyat jahon mamlakatlari ichida, respublikamizdan tashqari, faqatgina G‘arbiy Yevropadagi "mitti" davlatlaridan biri - Lixtenshteyn knyazligiga xos, hududi kattaroq davlatlardan esa hech qaysi birida geografik joylashuvining bunday jihat mavjud emas.

Qozog‘iston bilan Turkmaniston Respublikalari Kaspiy dengiziga tutash bo‘lib, bu holat ikkala davlatning iqtisodiy-geografik o‘rni, transport-geografik imkoniyatlari va

¹ International partnership for better water cooperation and management in Central Asia; Water in Central Asia /brochure/ www.hidropolitikakademii.org, www.biosaline.org

tabiiy-resurs salohiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan farqli o'laroq, transport-geografik sharoiti ancha murakkab bo'lgan Tyanshan va Pomir baland tog'lari hududida joylashgan Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalarining iqtisodiy-geografik o'rni, subregiondagi boshqa davlatlarning joylashuviga nisbatan birmuncha noqulay hisoblanadi.

Markaziy Osiyoning geosiyosiy o'rni o'ziga xos bo'lib, Yevrosiyodagi asosiy geosiyosiy kuch markazlari Xitoy, Rossiya, Eronga tutashligi va ushbu bevosita qo'shnilaridan tashqari, AQSH, Yevropa lttifoqi, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Hindiston, Pokiston kabi geosiyosiy "o'yinchi"larning tashqi manfaatlari kesishgan hududda joylashganligi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, harbiy mojarolar tugamayotgan Afg'oniston bilan chegaradoshligi hamda boshqa real va ehtimoliy harbiy-siyosiy ziddiyat zonalariga yaqin joylashganligi, Markaziy Osiyo geosiyosiy o'rnining salbiy tomonlarini belgilaydi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining umumiyligi maydoni 4 mln km.kv ga. jami aholisi esa 2017-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 70.5 mln kishiga teng. Subregion davlatlari hududi kattaligi va aholisi soni jihatidan bir-biridan ancha farq qiladi. Markaziy Osiyo davlatlarining hududiy va demografik salohiyati orasidagi tafovutlariga tabiiy sharoit va resurslarining xususiyatlari katta ta'sir ko'rsatadi. Markaziy Osiyo davlatlari Yevrosoyo va Hind-Avstraliya litosfera plitalarining chegarasi bo'ylab o'tgan Alp-Himolay burmali mintaqaga yaqin joyiashgan. Shu bois mintaqaning janubi-sharqiy va markaziy qismlari seysmik jihatdan xavfli hisoblanadi. Kuchli zilzilalar sodir bo'lishi, ayniqsa, Tojikiston va Qirg'iziston hududlari uchun xos holat. Mintaqaning g'arbiy va shimoliy qismlari asosan platformali tektonik tuzilishiga ega. Yer yuzasi tuzilishiga ko'ra subregion janubi-sharqida joylashgan Tojikiston va Qirg'iziston Respublikalari tog'li, Qozog'iston, O'zbekiston va Turkmaniston esa asosan tekislik keng tarqalgan mamlakatlar hisoblanadi. Lekin, bu uchta davlat hududida ham baland tog' tizmalari bo'lib, maydonlarining 10-20 foizini egallaydi.

Markaziy Osiyo davlatlari iqlimining umumiyligi xususiyatlari mo'tadil va subtropik iqlim jihatlarining turkumlanishi keskin kontinentalligi va qurg'oqchilligida o'z ifodasini topadi. Shu tufayli Markaziy Osiyo davlatlari hududi asosan cho'l, chalacho'l va dasht tabiat zonalaridan iborat.

Markaziy Osiyo sharoitida qishloq xo'jaligi rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan omil suv resurslari subregion hududi bo'yicha juda notekis taqsimlangan.

Subregiondagi barcha yirik daryolar Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Ili, Irtish va boshqalar transchegaraviy (ikki va undan ortiq davlat hududidan oqadigan) bo‘lib, Tyanshan, Jung‘oriya Olotovi hamda Pomir tog‘laridan, ya’ni Tojikiston, Qиргизистон va Xitoy hududidan boshlanadi. Shuning uchun Tojikiston bilan Qиргизистон suv va gidroenergetika resurslariga boy. Qozog‘iston, O‘zbekiston va ayniqsa Turkmanistonning ko‘p hududlari esa ularga taqchildir.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining aholisi suv va yer resurslari omillari (gidrogralik tarmoqlar va relyefga bog‘liq holda notekis joylashib, asosan, sug‘orma dehqonchilik yaxshi rivojlangan daryo vodiy va deltalari, tog‘ oralig‘idagi boltiqlarda mujassamlangan. Bunday yerlar eng ko‘p O‘zbekiston hududida bo‘lganligi bois respublikamiz aholi soni jihatidan subregionda yetakchi o‘rin egallaydi. Aholi zichligi ko‘rsatkichlari bo‘yicha Markaziy Osipyoda 2017-yil yanvar oyi holatiga ko‘ra O‘zbekiston (71,5 kishi km/kv) va Tojikiston (61,3 kishi/km) yetakchi, Qozog‘iston (6,6 kishi/km) esa eng oxirgi o‘rinda turadi. Jahan mamlakatlari orasida ham Qozog‘iston aholisi eng siyrak joylashgan davlatlar sirasiga kiradi (o‘rtacha aholi zichligi bo‘yicha dunyoda 184-o‘rin).

Markaziy Osiyo davlatlarining demografik vaziyatiga tug‘ilish va aholi tabiiy o‘sishining ancha yuqori ko‘rsatkichlari xos. Aytilgan ko‘rsatkichlar Tojikiston va Qиргизистонда subregion bo‘yicha eng baland. Qozog‘iston va Turkmanistonda eng past, O‘zbekistonda esa o‘rtacha darajada. Shuningdek, beshta respublikada ham migratsiyaning salbiy saldosи kuzatilmоqda. Urbanizatsiya darajasi Qozog‘iston da 53%, O‘zbekistonda 51%, Turkmanistonda 50%, Qиргизистонда 36%, Tojikistonda esa 26% ga teng. Ko‘rinib turibdiki, eng yuqori va eng past ko‘rsatkichlari orasidagi tafovut 2 martaga teng. Markaziy Osipyoda 2 ta "millioner" shahar mavjud: Toshkent (2,4 mln kishi) va Olmaota (1,7 mln kishi). Ostana, Bishkek, Dushanbe, Ashxobod, Chimkent, Namangan, Samarqand esa eng yirik (aholi soni 500 ming kishidan ortiq bo‘lgan) shaharlar qatoriga kiradi.

2014-yil 18-19 aprel kunlari BMTTD, uning milliy hamkorlari hamda Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari delegatsiyalari “Markaziy Osipyoda suv resurslarini majmuaviy ravishda boshqarish” mavzusidagi seminarda qatnashdi. Mazkur seminar Toshkentdagи “Shodlik Palas” mehmonxonasida bo‘lib o‘tdi. Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi tomonidan tashkil etilgan ushbu seminar Markaziy Osiyo mintaqasining

barcha davlatlari vakillari yig‘ilib tanqis bo‘lib borayotgan suv resurslarini birlashtirishga birgalikda, butun mintaqaga miqyosida boshqarish lozimligi to‘grisida fikr-mulohaza qilish imkonini berdi.

BMTning O‘zbekistondagi Doimiy vakili Stefan Prisner o‘zining kirish so‘zida suv resurslarini majmuaviy ravishda boshqarish tizimini butun mintaqaga miqyosida amalga tadbiq etish zarurligini ta’kidlab o‘tdi. Ushbu masalalar bilan hozirda BMTning muassasalaridan biri bo‘lmish Markaziy Osiyoda preventiv diplomatiya bo‘yicha BMT markazi bevosita shug‘ullanib kelmoqda. Suv resurslarini boshqarish sohasida mintaqaviy hamkorlik o‘rnatish lozim, negaki bunday hamkorlik mintaqaning barqaror ravishda rivojlanishi uchun eng ustuvor ahamiyatga ega deb alohida ta’kidladi janob Prisner.

Shuningdek, janob Prisner O‘zbekiston va boshqa mamlakatlarda hozirda demografik va iqlimiyligi o‘zgarishlar yuzaga kelayotganligi tufayli suv resurslari yanada ko‘proq xarajat qilinmoqda deb ta’kidladi. O‘zbekistonda suv resurslarini samarali va odilona boshqarish maqsadida Suv resurslarini majmuaviy ravishda boshqarish tizimi, ya’ni suv, yer resurslari hamda ular bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa tabiiy resurslarni muvoffiqlashtirgan holda rivojlantirish va boshqarish tizimi tadbiq etilib kelmoqda.

Mazkur tizimga oid amaliyotlardan biri BMTTD yordamida ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasining ilk Suv kodeksi bo‘ldi. Ushbu kodeksda an’anaviy suv ta’minalash komponentiga asoslangan tizimdan ehtiyoj va talab komponentiga asoslangan tizimga o‘tish ko‘zda tutilgan bo‘lib, bunda eng ustuvor maqsad suv resurslarini tejash va saqlab qolishdan iborat. Kodeks barcha vazirlilik va idoralar tomonidan ma’qullanib, hozirda Vazirlar Mahkamasida ko‘rib chiqilyapti.

Qo‘shma tadbirning ikkinchi kunida mintaqaning barcha davlatlari vakillari ishtirokida Davlatlararo muvoffiqlashtiruvchi suv xo‘jaligi komissiyasining yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Jumladan, 2018-yil noyabr oyida Qirg‘izistonning Bishkek shahrida Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologiya markazi (MOMEM) hamda YuSAID hamkorligida «Suv. Ta’lim. Hamkorlik» mavzusida xalqaro forum o‘z ishini boshladi. Bir qator xalqaro tashkilotlar mutasaddilarini, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Tojikiston va Afg‘onistondan mutaxassislar, tegishli idora va tashkilotlar vakillari — jami 150 dan

ortiq ishtirokchi qatnashayotgan ushbu anjumanda suv resurslaridan foydalanish bo‘yicha hamkorlik masalalari atroflicha muhokama etilmoqda.

Har bir davrning o‘z muammolari bo‘lishi tabiiy. Uni hamkorlik va hamjihatlikda hal etish, oqilona va odilona yechim topish jahonshumul mohiyatga ega. Bugungi kunda suv resurslari, ularni barqaror boshqarish hamda ulardan samarali foydalanishga erishish - suv, oziq-ovqat, energetik va ekologik xavfsizlikning hal qiluvchi omillaridan biri sifatida mintaqaning barqaror taraqqiyotida markaziy o‘rinlardan birini egallaydi.

Suv resurslari bilan bog‘liq muammolarning aksariyat qismi transchegaraviy xarakterga ega ekanligini e’tiborga olsak, Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi hamkorlik nafakat mintaqaning barqaror taraqqiyoti balki mintaqadagi har bir mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish strategiyasi va dasturlarini samarali amalga oshirishga sezilarli darajada ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xuddi shu ijtimoiy-iqtisodiy, transchegaraviy ehtiyojni nazarda tutgan holda, joriy yilning 20-22-noyabr kunlari Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida YUNESKO bilan birgalikda “Markaziy Osiyoda suv sohasida hamkorlik” mavzusida yuqori darajadagi mintaqaviy seminar-trening o‘tkazilayotgani beziz emas.

O‘zbekistonda iqtisodiy taraqqiyotning barcha yo‘nalishlarida bo‘lgani kabi suv xo‘jaligi boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha ham keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bugun mamlakatda suv resurslarini boshqarish masalalarida davlatlararo va milliy darajalarda katta ijobjiy natijalarga erishildi. Shu bilan birga, ayniqsa mintaqaning o‘ziga xos tabiiy xo‘jalik va yangi realliklari sharoitida umumiy va cheklangan suv resurslarini barqaror boshqarish va ulardan samarali foydalanish masalalarida o‘zaro hamkorlik imkoniyatlaridan to‘la foydalanishga erishish doimiy e’tiborni va takomillashtirishni zaruriyatini taqozo etadi.

Ushbu masalada nafaqat bugun mavjud bo‘lgan, balki kelgusida paydo bo‘lishi ehtimoli bo‘lgan suv bilan bog‘liq bahs-munozarali masalalarni birgalikda hal etish bo‘yicha mintaqadagi mavjud saloxiyatni doimiy oshirib borish dolzarb masaladir. Aynan shu jihatdan, tashkil etilgan mintaqaviy seminar-trening muhim e’tiborga molik.

Mazkur tadbirning ahamiyati va uning dasturiga kiritilgan masalalarining muhimligi, seminar-treningning ochilish umummajlisida qatnashib, uning ishiga muvaffaqiyat tilagan institut rektori professor O'ktam Umurzoqov, YUNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Mariya del Pilar Alvares Laso xonim, Shveysariyaning O'zbekiston Respublikasidagi elchisi janob Olive Shavelar, O'zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi raisining o'rinnbosari Aslon Mavlonov va boshqalar tomonidan alohida e'tirof etildi. Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq muammolar to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, mintaqaning umumiyligini suv zaxiralaridan oqilona foydalanish kabi muhim masalani chetlab o'tolmaymiz.

BMT Bosh kotibining "suv, tinchlik va xavfsizlik muammolari o'zaro chambarchas bog'liq", degan pozitsiyasini to'la qo'llab-quvvatlaymiz.

Ishonchim komil, suv muammochni hal qilishning mintaqaga mamlakatlari va xalqlari manfaatlarini teng hisobga olishdan boshqa oqilona yo'li yo'q.

O'zbekiston BMTning preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi tomonidan ishlab chiqilgan Amudaryo va Sirdaryo havzalari suv resurslaridan foydalanish to'g'risidagi konvensiyalar loyihamini qo'llab-quvvatlaydi.

Oliy darajadagi uchrashuvlarning muntazamlik kasb etgani davlatlararo munosabatlardan yuksak darajada ekanidan dalolatdir. Jumladan, Turkmaniston rahbarining joriy yil aprel oyida O'zbekistonga davlat tashrifi mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlikka yangi sur'at bag'ishladi.

O'zbekiston va Turkmaniston rahbarlarining bu galgi uchrashuvi o'zaro manfaatli, samarali va faol muloqotlarning mantiqiy davomi bo'ldi.

Shavkat Mirziyoyev Turkmanistonning Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasiga raisligi davridagi tashabbuslarini yuqori baholab, mamlakatlarimizning bu boradagi loyiha va sa'y-harakatlari bir-birini to'ldirishini qayd etdi.

Gurbanguli Berdimuhamedov davlatimiz rahbarini Turkmanistonga tashrifi bilan qutlab, Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasining ta'sischi mamlakatlari rahbarlari sammiti ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama hamkorlikni muhokama qilish uchun qulay imkoniyat ekanini ta'kidladi.

Uchrashuvda mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlikning bugungi holati va

istiqbollari muhokama qilindi. Avval erishilgan kelishuvlar ijrosiga e'tibor qaratildi. Tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashining majlisi Prezidentlarning tor doiradagi uchrashuvi bilan boshlandi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev, Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Sooronbay Jeenbekov va Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon ishtirok etdi.

Majlisda jamg'arma faoliyatini takomillashtirish, mintaqadagi ekologik vaziyatni yaxshilash, suv resurslarini muvofiqlashtirgan holda boshqarish, bu borada Markaziy Osiyo mamlakatlarining hamkorligini mustahkamlash masalalari muhokama etildi.

Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi 1993-yili O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston rahbarlari tashabbusi bilan Orol dengizi havzasida ekologik inqiroz oqibatlariga barham berish va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yaxshilash maqsadida tuzilgan. Ta'sischi davlatlar unga uch yil muddatga raislik qiladi. Raislik qiluvchi mamlakat rahbari Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi Prezidenti etib saylanadi. 2017-yildan jamg'armaga Turkmaniston raislik qilmoqda.

Ta'kidlash joizki, mazkur sammit jamg'armaning 2009-yilgi majlisidan so'ng qariyb o'n yildan keyin o'tkazilayotgani bilan ahamiyatlidir.

Orol inqirozi zamonamizning eng yirik ekologik halokatidir. Dengiz tubidan ko'tarilayotgan chang yiliga 80 million tonnaga yaqin tuz va zararli kimyoviy moddalarni Sharqiy Yevropadan Himolay tog'larigacha bo'lган ulkan hududga yoyayotgani muammoning global tus olganidan dalolat beradi.

Shu nuqtai nazardan ushbu sammit yetakchi moliya muassasalari, xalqaro tashkilotlar, chet el donorlik kompaniyalari, shuningdek, biznes hamjamiyati e'tiborini Orolbo'yidagi ekologik vaziyatga jalb etishda muhim ahamiyatga ega.

O'tgan davrda jamg'arma doirasida mintaqadagi murakkab suv-energetika masalalarini hal etish, suv resurslarini birgalikda boshqarish, foydalanish va muhofaza qilishda hamkorlik bo'yicha qator hujjatlar imzolandi.

Xususan, O'zbekiston Orolbo'yini mintaqasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish,

aholining turmush darajasini yaxshilash bo'yicha keng miqyosli loyihalarni amalga oshirdi. 350 ming hektar maydonga saksovul va sho'rga chidamli o'simliklar ekilib, butazorlar barpo etildi.

Orol dengizi inqirozi oqibatlarini yumshatish va Orolbo'yi hududini rivojlantirish bo'yicha 2013-2017-yillarga mo'ljallangan kompleks chora-tadbirlar dasturi doirasida 500 dan ortiq loyiha amalga oshirildi. Ularning yarmidan ko'pi milliy loyihalardir.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbus bilan qabul qilingan 2018-2021-yillarda Orolbo'yi hududini rivojlantirish bo'yicha Davlat dasturi bu yerda ijtimoiy-iqtisodiy holatni yaxshilash, ekologik falokat oqibatlarini yumshatish bo'yicha investitsiya loyihalarni o'z vaqtida va samarali amalga oshirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Orol halokatiga xalqaro hamjamiyat e'tiborini ham qaratib kelmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida dunyo hamjamiyatini ushbu ekologik inqiroz oqibatlarini bartaraf etish va undan jabr chekayotgan aholiga amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha xalqaro miqyosdagi sa'y-harakatlarni birlashtirishga chaqirdi.

O'zbekiston BMTning Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi tomonidan ishlab chiqilgan Amudaryo va Sirdaryo suv resurslaridan foydalanish to'g'risidagi konvensiyani qo'llab-quvvatladi. Fojianing butun sayyoraga daxldorligi inobatga olinib, O'zbekiston tashabbusi bilan BMT shafeligidagi Orol dengizi va Orolbo'yi hududi bo'yicha maxsus Trast jamg'armasi tuzildi.

Seminar savollari:

1. Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikka to'sqinlik qiluvchi omillarni sanab bering.
2. Markaziy Osiyoda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga oid nazariy qarashlar haqida ma'lumot bering.
3. Mintaqaviy muammolar va ularning yechimiga oid yondashuvlar tahlilini o'tkazing.

Mustaqil ishlar topshiriqlari:

1. Markaziy Osiyodagi mintaqaviy hamkorlikning hozirgi holati bo‘yicha infografika tayyorlang.
2. Ekspertlar xulosalari asosida tahliliy material tayyorlang.
3. Mintaqaviy muammolarni hal qilishga doir takliflar ishlab chiqing.

Ma’ruza № 9. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQARO

MUNOSABATLAR TIZIMIDA

Reja:

1. Mustaqilligimizning dastlabki yillarida va undan keying davrda terrorizm huruji va unga qarshi kurash
2. Terrorizmga qarshi kurash sohasida xalqaro konvensiyalar
3. Markaziy Osiyoda terrorizmga qarshi kurash

O‘quv mashg‘ulotning maqsadi: Xalqaro terrorizmga qarshi kurash borasidagi yondashuvlar va ularning jahon siyosatiga ta’siri haqida ma’lumot berishdan iborat.

Tayanch so‘z va iboralar:

- | | |
|--------------|----------------------------------|
| • Xavfsizlik | • rezolyutsiya |
| • terrorizm | • manfaat |
| • terrorizm | • Mintaqaviy aksilterror tuzilma |

Mustaqilligimizning dastlabki yillarida va undan keying davrda terrorizm huruji va unga qarshi kurash

O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki davridanoq, mamlakatda diniy bag‘rikenglik va vijdon erkinligiga keng yo‘l ochildi. Diniy bag‘rikenglik (tolerantlik) xilma-xil diniy e’tiqodda bo‘lgan kishilarning olajanob g‘oya va niyatlar yo‘lida hamkor va hamjihat bo‘lib yashashi, kishilik jamiyati ravnaqi yo‘lida xizmat qilishini anglatadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida vijdon erkinligi kafolatlangan bo‘lib, unda shunday deyiladi: “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi ”.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov o‘zining “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida mamlakatda islom fundamentalizmi – aqidaparastlik tahdidi jamiyat hayotida qay holatda namoyon bo‘layotganligini qo‘yidagilar asosida

ta'kidlab o'tgan:

Birinchidan, aqidaparastlikni yoyish orqali dindor musulmonlarning islohotchi davlatga ishonchini yo'qqa chiqarishda ko'rinoqda;

Ikkinchidan, fundamentalistlarningadolat haqidagi olomonbop, jozibador, ammo baqiroq va asossiz da'vatlariga ko'r-ko'rona ergashuvchilar o'zgalar irodasining quli bo'lib qolishini anglashimiz lozim.

Uchinchidan, mamlakat mintaqalari aholisi va ijtimoiy qatlamlar o'rtasida "haqiqiy" va soxta dindorlik belgilari bo'yicha qarama-qarshilik keltirib chiqarishda ko'rinoqda.

To'rtinchidan, O'zbekistonning janubiy chegaralaridagi qo'shni mamlakatlarda fuqarolar urushi to'xtamay, davom etib kelayotganligida namoyon bo'lmoqda.

Beshinchidan, musulmon va nomusulmon mamlakatlar, ularning jamoatchiligi orasida ham O'zbekiston haqida ko'ngilnisovutadigan fikr tug'dirishga urinishlarda namoyon bo'lmoqda.

Oltinchidan, islam sivilizatsiyasi bilan islomiy bo'limgan sivilizatsiya o'rtasida yalpi qarama-qarshilikni shakllantirishda namoyon bo'lmoqda.

Yettinchidan, ommaning ongida din barcha iqtisodiy, siyosiy va xalqaro muammolar hamda ziddiyatlarni hal qilishning universal vositasi degan fikrni qaror toptirishda ko'rinoqda .

Shu bois, O'zbekistonda ham 1990 yillar boshlaridan diniy ekstremistik, terrorichilik ruhidagi guruqlar faollasha boshladi. 1989-1992 yillarda Namangan viloyatida diniy-terroristik harakatlar sodir etgan "Adolat", "Islam lashkarları", "Tavba" kabi vahhobiylilik guruqlari fosh etildi va ularni konstitutsion tuzumga qarshi faoliyatiga chek qo'yildi. Shundan so'ng, O'zbekistonda jinoyatning bu turi keskin pasaygan bo'lsada, endilikda o'zlarini "Turkiston islam harakati" deb nomlagan jinoiy guruh o'z jinoiy maqsadlarini o'ta maxfiylashtirilgan tarzda amalga oshirishga kirishdi. Diniy-ekstremistik va terroristik guruqlar tomonidan 1999 yil 16 fevral kuni Toshkentda, 1999-2000 yillarda Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Uzun tumanlarida, 2004 yilning 29-30 martida Buxoro viloyatining Romiton tumani va Toshkent shahrida, 2005 yilning 13 mayida Andijon shahrida amalga oshirilgan

qo'poruvchilik harakatlari mamlakatimiz uchun jiddiy havf-xatarga aylandi.

Terrorizmga qarshi kurash sohasida xalqaro konvensiyalar

Ta'kidlash joizki, mustaqil davlatimiz qonunchiligidagi terrorizmga qarshi kurashning asosiy prinsiplari bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topgan bo'lib, bu hujjatlarning asosiylari quyidagilardir:

1. O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksi;
2. O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonuni (2000 yil 15 dekabr);
3. O'zbekiston Respublikasining "Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi;
4. O'zbekiston Respublikasining "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risida"gi qonuni.

O'zbekiston hozirda terrorizmga qarshi-kurashda ikki va ko'p tomonlama hamkorlikni amalga oshirib, bir qator halqaro shartnomalarga qo'shilgan va imzolagan.

Ko'p tomonlama darajada. O'zbekiston terrorizmning barcha ko'rinishlari va uning manbalariga qarshi kurashishga oid BMTning barcha xujjatlarini, jumladan, 11 ta konvensiya hamda ikkita protokolini imzoladi .

Ikki tomonlama darajada. O'zbekiston bir qator davlatlar bilan mazkur tahdidiga qarshi shartnomalar imzoladi. Xususan, ulardan dastlabkilari - Turkiya bilan (1993 yil 5 aprel), Rossiya Federatsiyasi bilan (1995 yil 27 aprel), Germaniya Federativ Respublikasi bilan (1995 yil 16 noyabr) jinoyatchilikka terrorizmga va narkotik moddalarni noqonuniy aylanishiga qarshi kurash bo'yicha hamkorlik shartnomasi imzolandi. Keyinchalik esa, shunga o'xshash shartnoma Pokiston Islom Respublikasi bilan (1996 yil 19 oktyabr), Turkmaniston bilan (1996 yil), Chexiya Respublikasi bilan (1998 yil 17 iyun), Iron Islam Respublikasi bilan (2000 yil 11 iyun), Italiya Respublikasi bilan (2000 yil 21 noyabr), Moldova Respublikasi bilan (2000 yil 19 dekabr) imzolandi.

Endilikda O'zbekiston Respublikasining terrorizmga qarshi kurash borasidagi xalqaro tashabbuslarini tahlil etganda, 1999 yil 18-19 noyabrida bo'lib o'tgan YeXHTning Istanbul sammitida O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov so'zga chiqib,

xalqaro terrorizm va mintaqaviy mojarolar xususida shunday fikr bildirdi: “Bugungi kunda xalqaro maydonda “Sovuq urush” ko‘rinishlari o‘rnini bir-biri bilan birlashib, tobora keng ko‘lamli va hujumkor mohiyat kasb etayotgan ashaddiy milliy davlatchilik va separatizm, diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm kabi illatlar egallayotganini isbotlab o‘tirishning hojati yo‘q”. Mazkur sammitda Prezidentimiz BMT tashkiloti qoshida Terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha xalqaro markaz tashkil etish taklifini ilgari surdi va asosiy vazifasi quyidagilardan iborat bo‘lishligi maqsadga muvofiq deb hisoblandi:

- xalqaro terrorizm va uning ko‘rinishlariga qarshi kurash;
- xalqaro terrorizmnnig moliyaviy ta'minotiga bartaraf etish;
- qurol-yarog‘ bilan ta'minlab, kerakli joylarga etkazib berayotgan manbalarga qarshi kurash;
- ushbu yo‘nalishlarda qabul qilingan qarorlarning so‘zsiz bajarilishi bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtirish .

Terrorizmga qarshi kurash borasida xalqaro markazni tashkil etish tashabbussi 2000 yil 7-8 senyabrda BMTning New-Yorkdagi ming yillik rivojlanish masalalariga bag‘ishlangan sammitda ham yana bir bor ilgari surildi. 2001 yil 11 sentyabr fojeasidan BMT 1373 sonli rezolyutsiyasi asosida 2001 yil 28 sentyabrda Xavfsizlik Kengashi qoshida Terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha xalqaro qo‘mita tashkil etildi. Ushbu holatni bevosita O‘zbekiston tashabbusining hayotga joriy etilishi deya bahonlash mumkin.

O‘sha paytda O‘zbekiston Prezidenti global hodisa sifatida terrorizmga qarshi kurashda, uning ildizlarini va moliyaviy negizini yo‘q qilishga yordam beruvchi, jahon hamjamiyatining harakatlarini aktivlashtiruvchi terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha BMT qoshida xalqaro markazni tashkil etish taklifini ilgari surdi. Bunda so‘z, nafaqat terrorizmning paydo bo‘lishiga qarshi kurash, balki uning koordinatsiyalarining va moliyaviy manbalarining barcha kanallarini to‘xtatish haqida ham ketmoqda .

Markaziy Osiyoda terrorizmga qarshi kurash

2001 yil dekabr va 2002 yil avgustda O‘zbekiston BMT Xavfsizlik Kengashi qoshidagi Terrorizmga qarshi kurash qo‘mitasiga yuqorida keltirilgan rezolyusiya

ijrosini amalga oshirish maqsadida hisobotlar topshirdi. 2000 yil oktyabrdan BMT, EXHT va O‘zbekiston tomonidan Toshkentda “Markaziy Osiyoda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash: noqonuniy narkotik aylanmasi, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashga nisbatan kompleks yondashuv” mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. Unda 70 ortiq davlat va 40 ortiq tashkilotlardan ekspertlar taklif etildi.

Xalqaro terrorizmga qarshi kurashdagi O‘zbekiston faoliyatining muhim jihatni bevosita terrorchilar ildiz otgan va uning moliyaviy asosi hisoblangan narkotik moddalar ishlab chiqariladigan Afg‘onistonda barqarorlikni ta‘minlash hisoblanadi. Umuman olganda, Afg‘on mojarosi tufayli yuzaga kelgan va Markaziy Osiyo mamlakatlariga raxna solayotgan xavflarning barchasini quyidagilarga bog‘lash mumkin:

Birinchi – urush yillarida Afg‘onistonda yuzaga kelgan va o‘z siyosiy maqsadlariga erishishning asosiy yo‘li terrorizm bo‘lgan katta miqdordagi buzg‘unchi kuchlarning yuzaga kelishi. Afg‘onistonning 90-yillar o‘rtalariga kelib turli xildagi xalqaro terrorichi tashkilotlar uchun sinov maydoni va bazasiga aylanib qolishi vaziyatni yanada og‘irlashtiradi.

Ikkinchi – Afg‘on mojarosi, radikal shakllarni olgan, islom dinini siyosiylashtirish jarayonining buzg‘unchisiga aylanib qolgandi. Markaziy Osiyo hududida faoliyat yurgizgan yuqorida aytib o‘tilgan terrorchi tashkilotlarning mafkurasi diniy (islomiy) ekstremizm bo‘lib qoldi. U o‘z ichiga ochiqdan-ochiq hokimiyatga intilish va unga erishish yo‘lida islomni noto‘g‘ri talqin qilgan holda, bir din vakillari yordamida qurolli kuch ishlatischda namoyon bo‘lar edi.

Uchinchi – Afg‘oniston hududi eng katta narkobiznes va narkotik moddalar ishlab chiqarish markazlaridan biriga aylandi.

To‘rtinchi – noqonuniy qurol-aslaha savdosi. Urush yillarida Afg‘oniston mintaqadagi asosiy qurol-aslaha arsenaliga aylanib qolgan.

1993 yil 28 sentyabr kuni O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48-yig‘ilishida ilk bor afg‘on muammosi va unga xalqaro hamjamiyat e’tiborini qaratish to‘g‘risida nutq so‘zлади va navbatdagи

BMT Bosh Assambleyasi va boshqa xalqaro, mintaqaviy tashkilotlar doirasida so‘zlagan nutqlarida dolzab muammo sifatida o‘z aksini topdi.

BMT Bosh Assambleyasining 1995 yil 24 oktyabr kungi 50-yig‘ilishida O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov Afg‘oniston mojarosini hal etish bo‘yicha bir qator tashabbuslarni ilgari surdi, asosiy jihatni sifatida Afg‘onistonga qurol yetkazib berishga embargo kiritish to‘g‘risidagi taklifni kiritish mumkin.

Keyingi yillarda Afg‘oniston muammosini hal etish bo‘yicha O‘zbekiston tomonidan bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Markaziy Osiyo mamlakatlari bo‘ylab qilgan rasmiy tashrifi chog‘ida Laxdar Braximi 1997 yilning 16-17 avgust kunlari O‘zbekistonga keldi va davlat rahbari bilan suhbatda bo‘ldi. Suhbat chog‘ida, O‘zbekiston rahbari Afg‘onistondagi mojarolarni hal etish va bu hududda tinchlikni qaror toptirish yo‘lidagi butun harakatlarni birlashtirish maqsadida keyinchalik “6+2” nomi bilan tanilgan aloqa guruhini tashqil etish tashabbusi bilan chiqdi. Bu guruhga Afg‘onistonning 6 ta qo‘schnisi: Eron, Xitoy, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston, shu bilan birga Rossiya va AQSh kirdi.

Hamkorlik natijasida “6+2” guruhi a’zolari BMT bilan birgalikda Afg‘oniston bo‘yicha 1999 yil 19-20 iyul kunlari tashqi ishlar vazirlari o‘rinbosarlari o‘rtasida Toshkent uchrashuvini o‘tkazishga kelishib olindi. Afg‘onistondagi ikki asosiy qarama-qarshi kuchlar bo‘lgan “Tolibon” harakati va Birlashgan front yetakchilariga rasmiy, xalqaro hamjamiyat vakillari ishtirokida Toshkent uchrashuvida tashkil etildi va Toshkent Deklaratsiyasi qabul qilindi.

2001 yil 11 sentyabrdan so‘ng vaziyat o‘zgardi va 7 oktyabrdan Afg‘onistonda xalqaro aksilterror koalitsiyasi o‘z faoliyatini boshladi. Biroq, bugungi kunga qadar mazkur tashkilot afg‘on zaminida barqarorlikni to‘liq ta’minlashga erisha olmadi. Natijada, Afg‘oniston tomonidan Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekistonga nisbatan tahdidlar ko‘لامи saqlanib qolmoqda. O‘zbekiston rahbariyati mazkur sharoit talabidan kelib chiqqan holda, 2008 yil NATOning Buxarest sammitida Afg‘onistdon muammosini hal etish bo‘yicha “6+2” muloqot guruhini NATO hisobiga kengaytirgan holda “6+3” muloqot guruhiga aylantirishni taklif qildi. Ushbu tashabbus

Prezidentimiz tomonidan 2010 yil 20 sentyabrda BMT sammiti mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag‘ishlangan yalpi majlisidagi nutqida ham ilgari surilgan va Afg‘oniston borasida quyidagi fkirlar bildirilgan:

Birinchidan, Afg‘onistonda faqat harbiy yo‘llar bilan tinchlikni ta‘minlab bo‘lmasligi, muttasil davom etayotgan urush xalqning ahvolini tobora og‘irlashishiga va muammo yechimining murakkablashuviga olib kelmoqda;

Ikkinchidan, Afg‘onistonda barqarorlikning sharti sifatida BMT shafe'ligida 6+3 muloqot guruhini tashqil qilish dolzarb ahamiyat kasb etishi mumkin.

Bundan tashqari, 2010 yil 6 iyunda O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ShHT Davlat rahbarlari kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisida so‘zlagan nutqi Markaziy Osiyoda barqarorlikni ta‘minlash sharti sifatida afg‘on muammosiga to‘xtalib o‘tdi. O‘zbekistonning Afg‘oniston muammosini hal qilish bo‘yicha – “6+3” tinchlikparvar guruhini shakllantirish tashabbusi deb nom olgan – takliflarining mohiyati mamlakatimiz Prezidenti quyidagicha izohlaydi:

Birinchidan, Afg‘oniston muammosini harbiy yo‘l bilan hal etib bo‘lmaydi.

Ikkinchidan, Afg‘oniston muammolarini hal etishda va u yerda barqarorlikni ta‘minlashda birinchi navbatda jafokash afg‘on xalqiga maqsadli iqtisodiy yordam ko‘rsatishga, mamlakatning transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmasini barpo etish va shakllantirishga, aholi bandligini ta‘minlashga, qashshoqlikka qarshi kurashish bilan bog‘liq o‘tkir muammolarni echishga ustuvor ahamiyat berilishi kerak.

Uchinchidan, Afg‘onistonning tarixiy, etnik va demografik xususiyatlarini, ushbu mamlakatning ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali xalqi amal qiladigan qadimiy urf-odatlarni, islom dinining an'anaviy qadriyatlarini inobatga olish va hurmat qilish zarur.

To‘rtinchidan, murosa jarayoniga Afg‘oniston aholisi va istisnosiz barcha qarama-qarshi kuchlar, etnik va diniy guruhlar jalb qilinmasa, ular o‘rtasida konsensusga erishilmasa, Afg‘onistonda urush hali uzoq davom etishi mumkin.

Beshinchidan, bu jarayonda uch yetakchi sub’ekt – AQSh, Rossiya va NATOning faol ishtirok etishi muhim ahamiyatga ega. Qo‘shni mamlakatlarga Afg‘onistonga bevosita chegaradosh bo‘lgan mamlakatlarga tayanish bu borada hal qiluvchi ahamiyat

kasb etadi. Afg'onistondagi etnik guruhlarga ta'sir ko'rsata oladigan ana shu mamlakatlarni jalb etish bilangina ijobiy natijaga umid qilish mumkin.

Eng muhimi, bu vazifalarning barchasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining yetakchiligi va shafe'ligida amalga oshirilishi zarurligi mazkur nutqda alohida ta'kidlab o'tilgan .

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonning Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlik ta'minlashga qaratilgan, xalqaro terrorizmga qarshi kurash siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri – terrorizmning moliyaviy manbasi hisoblangan narkotik moddalar savdosiga qarshi kurashdir. BMT sobiq Bosh Kotibi K. Annanning 2002 yil oktyabrida O'zbekistonga qilgan rasmiy tashrifi chog'ida davlat rahbarimiz Toshkent shahrida giyohvand moddalarning noqonuniy savdosiga qarshi kurash bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy axborot va muvofiqlashtirish markazini (SARIKS) tashqil etish g'oyasini ilgari surdi.

Mazkur markaz faoliyati giyohvand moddalarning noqonuniy savdosi va boshqa jinoyatlar bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratish va to'ldirib borishga qaratilgan. Ushbu baza maxsus elektron kanallar orqali giyohvand moddalarni nazorat qilish milliy agentliklari, shuningdek, huquq tartibot, chegara hamda bojxona idoralari tomonidan markazga taqdim etiladigan operativ ma'lumotlar asosida shakllanib borishi kerak. SARIKSda ishtirok etadigan har bir davlat istagan paytda mintaqa va xalqaro miqyosda qidiruv tadbirlarini amalga oshirishda tahliliy materiallar va axborotni so'rab olish mumkin. 2006 yil bahor va yoz oylarida o'tkazilgan yig'ilishlarida a'zo davlatlar tomonidan SARIKSning ta'sis hujjatlari loyihalari muhokama etildi. Mazkur markazning Olmaota shahrida o'z faoliyatini boshlagani mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashda O'zbekistonning qo'shgan amaliy xissasi ifodasidir .

Xulosa sifatida aytish mumkinki, xalqaro terrorizmga qarshi kurashish, mazkur tahdid ildiz otgan Afg'onistonda barqarorlikni ta'minlash O'zbekiston tashqi siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston xalqaro terrorizmga qarshi kurashni samarali faoliyat yuritayotganini quyidagi jihatlarda kuzatish mumkin:

Birinchidan, O'zbekiston xalqaro terrorizm, diniy ekstremizmga qarshi kurashda mintaqa va jahondagi bir qator davlatlar bilan ikki tomonlama hamkorlik aloqalarini

o‘rnatdi;

Ikkinchidan, mamlakatda ushbu xatarga qarshi kurashning mustahkam huquqiy bazasi yaratildi;

Uchinchidan, xalqaro tashkilotlar doirasida terrorizmga kurashga oid universal va mintaqaviy darajadagi turli me'riy-huquqiy hujjatlar: BMT, ShHT, MDH konvensiya va protokollari, turli bitimlar shular jumlasidandir

To‘rtinchidan, xalqaro terrorizm o‘rnashgan va moliyaviy manbasi hisoblangan narkotik moddalar yetishtirishga ixtisoslashib qolgan Afg‘onistonda barqarorlikni ta'minlash, bu borada turli tashabbuslarni xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida muvafaqqiyatlari olg‘a surmoqda. Mazkur omillar shuni isbotlaydiki, O‘zbekistonning xalqaro terrorizmga qarshi kurashdagi faoliyati kelgusida Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanish va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Seminar savollari:

1. Terrorizm va terrorchi faoliyat tushunchalarini izohlang.
2. Qanday yirik terrorchi tashkilotlarni bilasiz?
3. Terrorizmga qarshi kurash sohasida qanay xalqaro konvensiyalar bor?
4. Xalqaro terrorizmning geosiyosiy o'lchamini izohlang.

Mustaqil ishlar topshiriqlari:

1. Terrorizmga qarshi kurash sohasida xalqaro tashkilotlarning roli
2. Terrorizm va diniy eksterimzning o‘xshas va farqlari jihatlari
3. Markaziy Osiyoda terrorizmga qarshi kurash masalalari

XULOSA

Qo'llanmadan o'rin egallagan masalalar ko'lamidan ko'rinish turibdiki, siyosiy tahlil o'zining predmet sohasi va boshqa xususiyatlari bilan alohida maxsus tadbiqiy soha hisoblanadi. Shuning bilan birga barcha tadbiqiy sohalarning yagona tadqiqot asosi sifatida ham namoyon bo'ladi. Shunday qilib, agarda keng ma'noda olib qaraydigan bo'lsak ushbu so'z birikmasi siyosatning barcha ilmiy tadqiqotlari ma'nolari uchun qo'llanilishi mumkin bo'lsa, tor ma'noda siyosiy tahlil aniq muammolarni o'rganishda subyektivlik va erkinlikka asosiy to'siq bo'luvchi talablarni aniqlash, to'g'ri yechimlarni izlash va texnologiya vosita va usullarni topish bilan shug'ulanadigan maxsus tadbiqiy soha sifatida ko'rib chiqiladi.

Siyosiy tahlilning siyosiy voqealiklarni tadqiq etishning maxsus bosqichi sifatidagi xususiyatlari bir qator sabab va vaziyatlar yordamida aniqlanadi. Amaliy bilimlarning bir ko'rinishi sifatida, u avvalambor subyekt oldida turgan muayyan muammoni ta'riflash va o'rganishga yo'naltirilgan.

Shunday qilib, nazariy siyosatshunoslik predmet belgisiga asosan, biror bir siyosiy makon sohasi va bir turdag'i xodisalarning mantiqiy farazini ifodalab shakllanadi. Oldinda turgan vazifalarni bajarishda u muayyan hodisalarning xususiyat va belgilari, ularning qurilayotgan obyektlarni o'ziga xos maxsus chegara, tarqalish masstablari va boshqa ideal tuzilgan soha belgilari mayjud qandaydir ijtimoiy birdamlikka birlashtirish imkoniyatini beradigan o'zaro aloqalarini mantiqiy aniqlash yo'li bilan o'zining bilimlar binosini tiklaydi. Bunga qarama-qarshi sifatida, siyosiy tahlil aniq muayyan muammoni, ya'ni siyosiy maydonidagi turli sohalarga tegishli bo'lgan va aniq, belgilanmagan manbaa, ilova va shunga o'xshash belgilarga ega voqelikning elementlarini tadqiq etishga qaratilgan.

Tadbiqiy bilimlarda qo'llaniladigan siyosiy hodisalarni tadqiq etishning usul va metodlari real siyosiy jarayonlarni, turli subyektlarning harakatini va ularning o'zaro munosabatlarini o'rganishga qaratilgan siyosiy fanning maxsus tarmog'ini shakllantiradi. Shunga ko'ra butun tadbiqiy siyosatshunoslik sohasi, jamoatchilik fikri ni qozonishga intiladigan, texnik ta'minot, turli bilim ko'nikma va ma'lumotlarga ega bo'lgan shaxslar siyosiy faoliyatining turli hislatlari va chegaralarini ta'riflaydi. Bu

soha xalqning siyosiy xohish-irodasini (lider va partiyalarning reytinglari shaklidagi), ularning inqiroz yoki boshqa hollardagi hukumatning xatti-harakatiga munosabatlarini va boshqa holatlarni aniqlashda muhim vosita hisoblanadi.

Shu boisdan, fanga oid nazariy va amaliy bilimlar oqilona siyosat yuritish, haqqoniy siyosiy qaror qabul qilish va mavjud muammolarga to‘g‘ri yechim topish, davlat idoralari bilan fuqarolar muloqotini tashkil etish, ijtimoiy-siyosiy islohotlar sifatini oshirish, siyosiy kuchlarning salohiyatini ro‘yobga chiqarish va shu orqali jamiyat taraqqiyotiga erishishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarnish uyg‘un kechishini ta’minlash, siyosat subyektlari faoliyatining mahsuldorligini oshirish hokimiyat vakillari bilan fuqarolarning muloqotini samarali tashkil etish uchun ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatish va ularni samarali boshqarishni o‘rganish talab etiladi. Shunga ko‘ra, jahon siyosati yo’nalishida tahsil olayotgan kadrlarning kelgusidagi amaliy faoliyati davomida siyosiy bilimlarni qo‘llay bilishi O‘zbekistonda jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiyalash va isloh qilishning asosiy shartlaridan biriga aylanmog‘i lozim.

GLOSSARIY

“Siyosiy tahlil” fani bo‘yicha atamalar lug‘ati (glossariy)

AGREGATSIYA – siyosiy tizim funksiyasi bo‘lib, u xilma-xil talablar va manfaatlarni umumlashtirish, umumiylablarni ishlab chiqish va ularning dolzarbliji, muhimligi nuqtai nazaridan pog‘onalashtirish bilan bog‘liq.

AKTOR – siyosiy hayotda to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bevosita ishtirok etuvchi siyosiy subyekt.

ARTIKULYATSIYA – (lot. bo‘g‘in-bo‘g‘in, tushunarli so‘zlash) siyosiy tizim funksiyasi bo‘lib, u qaror qabul qiluvchi tashkilotlarga talablarni bayon etish vazifasini bajaradi. Demokratik siyosiy tizimlarda bu vazifani manfaat guruhlari, siyosiy partiyalar, parlament, avtoritar siyosiy tizimlarda esa korporativ institutlar bajaradi.

ASSIMILYATSIYA - (lot. o‘xshab ketmoq) singib ketish, qo‘shilib ketish.

ANALOGIYA – (gr. o‘xhash, monand) umuman, turli-tuman predmet va hodisalarning muayyan ma’noda o‘xhashligi, bir-biriga monandligi.

ANTINOMIYA – (fr. qonunga qarshi) bir xil darajadagi to‘g‘ri deb e’tirof etilgan, lekin bir-biriga qarama-qarshi hukmlar to‘qnashuvi.

BIXEVIORIZM – insonning xulq-atvor motivlarini, javob reaksiyalarini o‘rganish zarurligi, shu tariqa ijtimoiy fanlar o‘zlarining “gumanitar cheklanganligini” yengib o‘tishi, hamda isbotlanganligi va aniqlik darajasiga ko‘ra tabiiy fanlarga yaqinlashuvini asoslaydigan hozirgi zamon ijtimoiy fani yo‘nalishi.

BREYNSTOUMING – biror muammoni yechishda ekspertlar guruhining aqliy hujumini tashkil etish.

VERBAL – lot. og‘zaki, so‘zda ifodalangan.

VERIFIKATSIYA – respondent xabar beradigan ma’lumotlarning aniqligini o‘lchash uchun zarur dalillarni to‘plash jarayoni

GETEROGEN – xilma-xil, sifat jihatidan turli negizlardan iborat

GOMOGEN – asos e’tibori, kelib chiqishi hamda mohiyati jihatidan bir xil, bir turdagisi, yagona.

DIVERSIFIKATSIYA – (lot. teng qilmoq) yalpi ko‘p tarmoqli rivojlanishga

qaratilgan davlat siyosati.

DISPERSIYA – (lot. tarqalgan, yoyilgan) siyosatda hokimiyatning bir markazda to‘planmay, butun jamiyatga yoyilishi ko‘plab o‘zaro bog‘liq, uyg‘un, hokimiyat markazlarining mavjudligi.

DISPUT – (lot. fikrlash, tahlil qilish, bahslashish) og‘zaki ilmiy bahs, ommaviy ma’ruzadan so‘ng avvaldan belgilangan opponentlar ishtirokidagi munozara.

IDENTIFIKASIYA – u yoki bu siyosiy guruhga o‘zini-o‘zi boshqarishdan ajratish imkonini beruvchi barqaror belgilar, xususiyatlар birligi.

IDEOGRAFIK FANLAR – hodisalarni, bo‘lib o‘tgan voqealarni, ya’ni xususiy holatlarni har tomonlama o‘rganadigan fanlar.

INSTITUSIONALLASHUV – rasmiylashgan, barcha e’tirof etgan qoidalar, qonunlar, an’ana va marosimlarga asoslangan ijtimoiy munosabatlar barqaror namunalarining shakllanishi.

INTERPRETATSIYA – talqin qilish, sharhlash. Biror voqeа yoki hodisani muayyan nuqtai nazardan talqin qilish, tushuntirish, qarab chiqish.

IMMANENT – biror voqeа, hodisa yoki jarayonga xos xususiyat.

KAUZALLIK – sabab bilan belgilanganlik, sabab va faoliyatning qonuniy aloqasi. Tamoyil (yoki qonun) sifatida kauzallik quyidagilarni anglatadi: har bir voqeа yoki hodisa biror sababga ega (biror sabab bilan sodir bo‘lgan) va ayni vaqtda u yana boshqa bir voqeа yoki hodisaning ham sababchisidir; sababsiz hech narsa paydo bo‘lmaydi.

KVALIFIKATSION KO‘PCHILIK – eng muhim masalalar bo‘yicha qaror qabul qilish uchun belgilanuvchi, ishtirokchilarining 2/3 yoki 3/4 qismining bergan ovozlari.

KLASSIFIKATSIYA – predmet, hodisa va tushunchalarni sinflar, bo‘limlar, darajalar bo‘yicha, ularning umumiy belgilari, xususiyatlari, yagona asosiga ko‘ra taqsimlash (tur, bo‘limlarga kiritmoq). Klassifikatsiya bir xillik va o‘xshashlikka quriladi.

KONSEPTUALLASHTIRISH – ma’lumotlarni, har bir alohida holat, g‘oya, voqeа va hodisaning uning orqasida turgan narsani, mazmunini nomlash.

KORPORATIVLIK – jamiyatni tashkil etishning o‘ziga xos modeli bo‘lib, uning birlamchi elementlari sifatida individlar emas, iqtisodiy va funksional guruhlar turadi.

Markaziy hokimiyat korporatsiyalarga birlashgan ana shu guruhlar vakillaridan tuziladi.

KORRELYATSIYA – faqat bir-biri bilan o‘zaro taqqoslaganda biror mazmunga ega bo‘lgan narsa va tushunchalar.

KUMULYATIV VOTUM – ko‘p mandatli saylov okruglarida ovoz berish tartibi: unda saylovchi o‘zida mavjud bo‘lgan ovozning bir qismini yoki barchasini birlashtirib, uni nomzodlardan biriga berish huquqiga ega bo‘ladi.

LEGITIMLIK – muayyan davlat hokimiyatining qonuniyligi a) fuqarolar tomonidan; b) xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilishini anglatuvchi qadriyativ tushuncha. U tarixan an’anaviy, xarizmatik, oqilona-qonuniy shakllarda namoyon bo‘ladi.

LOKALLASHTIRISH – biror voqeа, hodisa va harakatlarni ma’lum joy bilan cheklash, uning muayyan hududdan, chetga chiqishiga yo‘l qo‘ymaslik.

LONGITYUD TADQIQOT – bir xil shaxslar, guruh yoki obyektlarni uzoq vaqt kuzatish va ma’lum bir vaqt o‘tgach ular orasidagi o‘tkazilgan so‘rovni qayta tashkil etish, natijalarni avalgilari bilan qiyoslashga asoslangan tadqiqot usuli.

LIBERTARIZM – davlatning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga aralashmasligi. Bu bozor munosabatlari sohasi ekanligi to‘g‘risidagi g‘oyani targ‘ib qiluvchi konsepsiya (“Chikago maktabi” - O.Fridman, G.Bekker, A.Laffer).

MIQDOR USULLARI – siyosiy obyektlar xususiyatlari va belgilarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bevosita o‘lchashga, matematik formallashtirish va kvalifikatsiyaga asoslanuvchi usullar.

MOBILLIK – stratifikatsiya nazariyasida shaxs va guruhlar maqomining o‘zgarishi bilan bog‘liq ko‘chishlar.

MANFAAT GURUHLARI – fuqarolarning davlat bilan munosabatlarida o‘zgarishning hokimiyatga doir manfaatlarini bayon etish yoki himoya qilishlari uchun ixtiyoriy tarzda birlashgan maxsus yoki moslashtirilgan tashkilotlar. Ular o‘z oldilarga qo‘ygan maqsadlari, faoliyat usullari, hokimiyatga ta’sir resurslari va boshqa belgilariga ko‘ra siyosiy partiyalardan siyosiy partiyalardan farq qiladi.

MATEMATIK MODELLASHTIRISH – ijtimoiy borliq xususiyatlarini matematik tilda bayon etish imkonini beruvchi empirik tadqiqot usullaridan biri. Borliqning

tadqiqoti uchun ahamiyatli tomonlarini lo‘nda va abstrakt shaklda aks ettiradi, tadqiq qilinayotgan masalaning asosiy muammolarini aniq tassavur etish; sifatiy usullar yordamida olib bo‘lmaydigan xulosalarga kelish imkonini beradi; tahlil uchun kompyuter texnologiyalaridan faol foydalanishga asoslanadi.

NORMATIV BASHORAT - cheklangan resurslar aniqlanganligi asosida kutilgan natijalarga erishish uslublari haqidagi prognoz

PAUPERIZM - ommaviy qashshoqlanish, aholining kambag‘allashuvi; yashash uchun zaruriy vositalardan mahrumlik

PERMANENT – doimiy, uzluksiz davom etadigan.

PILOTAJ USLUBI – muayyan metodikalarning (anketalar, rejalar, intervyyu va h.k.) yaroqlilagini aniqlash, tadqiqot tadbirlarini tekshirib olish maqsadida o‘tkaziladigan sinov tadqiqoti.

PRAKSEOLOGIYA – sotsiologik tadqiqotlar yo‘nalishi. U faoliyat yoki faoliyatlar birligini ularning samaradorligi nuqtai nazaridan o‘rganadi.

RELYATIV – muayyan munosabatlardagina ahamiyatga ega, shu munosabatlar bilan belgilanuvchi, nisbiy.

REPREZENTATIVLIK – tadqiq qilinayotgan birlikning xususiyatlarini aks ettiruvchi tanlov belgisi. (Reprezentasiya-fr. vakillik).

RUHIY PARADIGMA – siyosatni tushuntirishdagi tabiiy paradigmalarning bir turi. U siyosat tabiatini ruhiy omillar orqali tushuntiradi, ya’ni inson ruhiyati motivlar, dunyoni qabul qilish usuli va h.k. orqali.

SIYOSIY ADAPTASIYA – (lot. moslashish) siyosiy tizim, siyosiy tuzilmalarning atrof-muhit talablariga moslashish jarayoni. U siyosiy tizim oldida turgan vazifalarning o‘zgarishi, yangi maqsadlar aniqlanishi, muammolarni hal qilish uchun yangicha yondashuvlarning ishlab chiqilishida namoyon bo‘ladi.

SIYOSIY BASHORAT – 1) siyosiy jarayon kelajagi va oqibatlari to‘g‘risidagi siyosiy fikrlarning ishlab chiqilishi; 2) siyosiy hayot, uning jarayonlari, hodisalari rivojlanishining istiqbollari to‘g‘risidagi maxsus tadqiqot.

SIYOSIY JARAYON - jamiyat siyosiy tizimining shakllanishi, o‘zgarishi va faoliyat ko‘rsatishiga bevosita ta’sir etuvchi ijtimoiy subyektlar faoliyatining

uyg‘unligi

SIYOSIY VAZIYAT – siyosiy tizimning ma’lum bir davrdagi holati.

SIYOSIY VAZIYAT TAHLILI – jamiyat siyosiy tizimini tashkil qiluvchi barcha siyosiy aktorlarning hozirgi vaqtdagi o‘zaro harakatini aniqlash va o‘rganish.

SIYOSIY VAZIYATNING VERTIKAL TAHLILI – siyosiy tizim ayrim institutlarining holati va o‘zaro harakatini o‘rganish.

SIYOSIY VAZIYATNING GORIZONTAL TAHLILI – siyosiy jarayonlarda yaxlit aktor sifatida harakatlanuvchi noinstitusional jamoalar va guruhlarning hozirgi holatini aniqlash va o‘rganish.

SIYOSIY VAZIYATNING DIAGNOSTIK TAHLILI – har xil muammoli vaziyatlar chiqish ehtimollarini o‘rganish maqsadida siyosiy tizimning yoki uning ayrim tarkibiy qismlarining hozirgi holatini aniqlash va o‘rganish.

SIFAT USULLARI – tadqiqotda individual tajriba, kuzatish, intuitsiya, tushunchalarining an’anaviy falsafiy va mantiqiy tahliliy usullari, tarixiy qiyoslash, shaxsiy va rasmiy hujjatlardan foydalanish, qaydlar, xulosa va tavsiyalarni publisistik asoslash usullaridan foydalanishga e’tibor qaratadi. Sifat usullari siyosiy hodisalar va jarayonlar, tizimlarning sifat jihatlarini tahlil qiladi. Shuningdek, sifat usullari miqdor usullari bilan birgalikda qo‘llanishi ham mumkin.

STATISTIK USULLAR - tadbiqiy matematik statistikaga oid modellar va usullar birligi. Shartli ravishda ular ikkiga bo‘linadi 1-guruhgaga, terma (tanlash) usuli, tavsiflovchi (ta’riflovchi) statistika, bog‘liqlik va aloqalar tahlili, statistik xulosalar, baholar va mezonlar nazariyasi, tajribali rejallashtirish usullari kiradi. 2-guruhgaga darajalash, taksonomik tadbirlar, korrelyatsion, faktorli, sababiy tahlil va bir guruh statistik modellar kabi ko‘p o‘zgaruvchi usullar kiradi.

SIYOSIY MARKETING - siyosatni siyosatchi va xalq, nomzod va saylovchi o‘rtasidagi ratsional munosabatlar tarzida tushunishdan kelib chiqib, yetakchilikka da’vogar shaxsning sifatlari va fazilatlarini saylovchilarga (fuqarolarga) ma’qul tarzda ko‘rsatish.

SIYOSIY MODEL – siyosiy tizim yoki uning tarkibiy qismining ma’lum shakldagi

originaldan farq etadigan siyosiy tasviri.

SIYOSIY MENEJMENT - davlat siyosatini samarali tashkil etish va samarali boshqaruvga oid fan.

SIYOSIY ME'YOR – siyosat subyekti e'tirof etgan va amalda rioya qiluvchi namuna, qoida, faoliyat tamoyili. Ular: rasmiy-norasmiy, og'zaki-yozma, oshkora-yashirin; universal-xususiy bo'lishi mumkin. Belgilangan tartibda qabul qilingan, qog'ozda qayd etilgan va siyosiy subyektlar uchun majburiy bo'lgan siyosiy me'yorlar ayni vaqtda huquqiy me'yorlar hamdir.

TRANSFORMATSIYA – siyosiy tizimlarning o'zgarish jarayoni

FUTUROLOGIYA – (lot. keljak to'g'risidagi ta'limot) ijtimoiy jarayonlar, insoniyat tahlil qiluvchi ilmiy nazariyalar.

EKSPERT BAHOLASHNING BILVOSITA USLUBLARI – bilvosita, noverbal o'zaro harakat asosida tashkil etilgan ekspert guruhlarining tahliliy faoliyati.

EKSPERT BAHOLASHNING BEVOSITA USLUBLARI – shaxsiy muloqot asosida tashkil etilgan ekspert guruhlarining tahliliy faoliyati

QIDIRUV PROGNOZI – hozirgi vaqtda mavjud tendensiyalarning kelajakda ham davom ettirilishi haqidagi bashorat.

TRANSFORMATSIYA – siyosiy tizimlarning o'zgarish jarayoni

FUTUROLOGIYA – (lot. keljak to'g'risidagi ta'limot) ijtimoiy jarayonlar, insoniyat tahlil qiluvchi ilmiy nazariyalar.

EKSPERT BAHOLASHNING BILVOSITA USLUBLARI – bilvosita, noverbal o'zaro harakat asosida tashkil etilgan ekspert guruhlarining tahliliy faoliyati.

EKSPERT BAHOLASHNING BEVOSITA USLUBLARI – shaxsiy muloqot asosida tashkil etilgan ekspert guruhlarining tahliliy faoliyati

QIDIRUV PROGNOZI – hozirgi vaqtda mavjud tendensiyalarning kelajakda ham davom ettirilishi haqidagi bashorat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag’ishlangan majlisidagi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. – T.: O’zbekiston, 2017.- 104 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O’zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. – T.: O’zbekiston, 2016. – 56 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O’zbekiston”, 2017. – 48 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: O’zbekiston, 2017. – 488 b.
5. Алимов Р. Центральная Азия: общность интересов. – Ташкент: Шарқ, 2005.
6. Ахременко А. С. Политический анализ и прогнозирование. – М.: Гардарики, 2006.
7. Жумаев Р.З. Стратегик таҳлил асослари. –Т. Академия. 2007.
8. Каримова В.А., Зайнутдинова М.Б., Назирова Э.Ш., Садыкова Ш.Ш. Тизимли таҳлил асослари. –Т.: Шарқ, 2014.
9. Туронок С.Г. Политический анализ и прогнозирование. – М.: Юрайт, 2016
- 10.Хрусталев М. А. Методология прикладного политического анализа: Учеб. пособие. – М.: МГИМО, 2010.

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar

1. Almond G., Powell B. Comparative Politics Today. – N.Y., 1996.
2. Dahl R. Modern Political Analysis. 6th ed. – London : Pearson, 2002.
3. Dunn W. N. Public Policy Analysis: An Introduction. 5th ed. – Boston, MA : Pearson, 2012.
4. Gupta D. Analyzing Public Policy . Concepts, Tools, and Techniques. – Washington, D.C. : CQ Press, 2001.

5. Manheim J., Rich R. Empirical Political Analysis: Research Methods in Political in Political Science. – N.Y., 1991.
6. Pal L. Public Policy Analisys: An Introduction. Scarborough, 1992.
7. Patton C. V., Sawicki D. S., Clark J. J. Basic methods of policy analysis and planning. – N.J. ; Upper Saddle River : Pearson, 2013.
8. Weimer D. L., Vining A. R. Policy analysis: Concepts and Practice / 5th ed. – Boston, MA : Longman, 2011.
9. Ахременко А. Политический анализ и прогнозирование. – М.: Гардарики, 2006.
10. Боришполец К. Методы политических исследований. – М.: Аспект Пресс, 2005.
11. Валянский С.И., Калюжный Д.В., Недосекина И.С. Введение в хронотронику. Путь к оптимальному развитию. – М., 2009.
12. Дегтярев А. А. Прикладной политический анализ. – М. : МГИМО (У) МИД РФ, 2010.
13. Зудин А. Основы политического анализа. – М.: ГУ ВШЭ, 2011.
14. Клементевич Т. Процесс принятия политических решений // Элементы теории политики. – Р., 1991.
15. Куприн В.С.Математические методы и модели в социологии. – М.: Наука, 2009.
16. Ларичев О. И. Теория и методы принятия решений, а также Хроника событий в Волшебных странах. – М., 2000.
17. Павловский Ю.Н. Имитационные системы и модели. – М., 1990.
18. Пугачев В. П., Соловьев А. И. Введение в политологию : учебное пособие для студентов вузов / 4-е изд., перераб. и доп. – М. : Аспект Пресс, 2004.
19. Сидельников, Ю. В. Теория и организация экспертного прогнозирования. – М., 1990.
20. Силов В. Б. Принятие стратегических решений в нечеткой обстановке в макроэкономике, политике, социологии, менеджменте, экологии, медицине. –М., 1995.

21. Симонов К.В. Политический анализ. – М.: Логос, 2010.
22. Ядов, В. А., Семенова В.В. Стратегия социологического исследования: Описание, объяснение, понимание социальной реальности. – М.: Добросвет, 2000. – 596 с.

Mundarija

KIRISH.....	4
Ma’ruza № 1. “SIYOSIY T AHLIL” FANINING MAZMUNI, PREDMETI VA METODI	6
Ma’ruza № 2. “SIYOSIY T AHLIL” ILMIY FAN SIFATIDA	34
Ma’ruza №3. T AHLIL: MOHIYATI VA TAVSIFI. ASOSIY TUSHUNCHALAR NI ANIQLASH.....	45
Ma’ruza № 4. XALQARO MUNOSABATLARNING TADQIQOT USLUBLARI	57
Ma’ruza № 5. XALQARO MUNOSABATLAR ISHTIROKCHILARI FAOLIYATINING T AHLILI	70
Ma’ruza № 6. XALQARO TARTIBOTNING T AHLILI	83
Ma’ruza № 7. XALQARO MUNOSABATLARNI T AHLIL QILISHDA SIYOSIY BASHORATNING ROLI	105
Ma’ruza № 8 MARKAZIY OSIYODAGI MINTAQAVIY MUAMMOLAR T AHLILI	115
Ma’ruza № 9. O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA.....	141
XULOSA	150
GLOSSARIY.....	152
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	158

Djumayev Rustam Ziyatovich
Madaminova Durdona Iskandarovna
Mustapova Hilola Islamovna
Suyunova Barno Safarali qizi

SIYOSIY TAHLIL

Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma

Muharrir
Sahifalovchi
Musahhih

Litsenziya raqami